

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



**Norqulov Suxrob Dusmurovich  
Atamuratova Feruza Sadullayevna  
Umarova Farida Saidikramovna**

**IBN SINO TIB QONUNLARI**

**60911100 – Xalq tabobati  
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Toshkent – 2022**

**Tuzuvchilar:**

- S.D.Norqulov – Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori
- F.S.Atamuratova – Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası dosenti, falsafa fanlari nomzodi
- F.S.Umarova – Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar:**

- O‘.M.Abilov – TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, falsafa fanlari doktori
- X.S.Jumanazarov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60911100 – Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Toshkent tibbiyot akademiyasining 2021 yil 6 sentyabrdagi 380-sonli buyrug‘i 1-ilovasi bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tayyorlangan. O‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, talaba-yoshlari, barcha shu sohaga qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

*Mazkur o‘quv qo‘llanma Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy Kengashining 2022 yil 29 iyundagi 11-sonli qaroriga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.*

## ANNOTASIYA

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar, Uchinchi Rennensans uchun poydevor yaratish borasidagi qilinayotgan ishlar jamiyatimizni chinakamiga yangilanishiga, modernizasiyalashishiga olib kelmoqda. Ushbu o‘zgarishlar jaryonida sog‘liqni saqlash tizimiga, sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarga ham alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy ta’lim sohasida, xususan, tibbiy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yangi tashkil etilgan Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi talabalarini “Ibn Sino tib qonunlari” fani bo‘yicha o‘qitish uchun mo‘ljallangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 31 avgust 2021 yil tasdiqlangan o‘quv reja hamda Toshkent tibbiyot akademiyasining 2021 yil 6 sentyabrdagi 380-sonli buyrug‘i 1-ilovasi bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida, shuningdek, o‘rta asr buyuk Sharq allomasi Abu Ali Ibn Sinoning hayoti, ilm-fanga qo‘shgan ulkan hissasi, “Tib qonunlari” asarining mazmun-mohiyati kabi masalalar e’tiborga olingan holda tayyorlangan.

## АННОТАЦИЯ

Проводимые сегодня в Новом Узбекистане широкомасштабные реформы, работа по закладке фундамента Третьего Возрождения ведут к реальному обновлению и модернизации нашего общества. В процессе этих изменений мы видим, что особое внимание уделяется системе здравоохранения и людям, работающим в этой сфере.

Данное учебное пособие создано в результате проводимых реформ в области медицинского образования. Оно предназначено для изучения «Народной медицины Ибн Сины» в обучении студентов ново созданного направления народной медицины.

Учебное пособие составлено на основе учебного плана, утвержденного Министерством здравоохранения Республики Узбекистан от 31 августа 2021 года, и учебного плана, утвержденного Приложением №1 по приказу Ташкентской медицинской академии № 380 от 6 сентября 2021 года. В ней освещена жизнь великого средневекового ученого Востока Абу Али ибн Сины, его неоценимый вклад в медицину.

## ANNOTATION

The large-scale reforms being carried out today in New Uzbekistan, the work on forming the foundation of the Third Renaissance are leading to a real renewal and modernization of our society. In the process of these changes, we see that special attention is paid to the healthcare system and the people working in this area.

This textbook was created as a result of current reforms in the field of medical education. It is intended to study the "Folk Medicine of Ibn Sina" in teaching students of the newly created direction of traditional medicine.

The training manual was compiled on the basis of the curriculum approved by the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan on August 31, 2021, and the curriculum approved by Appendix No. 1 by order of the Tashkent Medical Academy No. 380 of September 6, 2021. It highlights the life of the great medieval scientist of the East Abu Ali ibn Sina, his invaluable contribution to medicine.

## KIRISH

So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida davlat siyosati darajasida islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xalqimiz sog‘lig‘ini mustahkamlashni eng ustuvor vazifa deb qaralib, xorijiy yutuqlarni o‘rganib milliy tibbiyotga joriy etilayotgani, shifoxonalarni, tibbiy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilanayotgani, zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta‘minlanayotgani, shifokorlarni xorijdagi nufuzli klinika, universitetlarda malakasini oshirayotgani shular jumlasidandir.

Shu bilan birga yurtimizning boy tarixini o‘rganish, buyuk allomalar madaniy merosini qayta tiklash hamda chuqur o‘rganish, xalqimizga, dunyoga yetkaza borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hych qayerda yo‘q”<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosni asrash, unga tayanish va shu asosda milliy taraqqiyotga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mustaqillikning ilk kunlaridayoq xalqimiz, millatimiz tarixiga taalluqli barcha merosni obyektiv tiklashga kirishildi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, an-Nasafiy, az-Zamaxshariy, Imom Buxoriy, at-Termiziyning asarlari chop etildi, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Yusuf Hamadoniy, Najmiddin Kubro, Mahdumi A‘zam Kosoniy, Xoja Ahror Valiy, Jaloliddin Rumi, Faruiddin Attor, Nizomulmulk, as-Samarqandiy, Mirzo Ulug‘bek, Kamoliddin Behzod, Ogahiy va ma‘rifatparvar jadidchi bobolarimizning ma‘naviy merosi tadqiq qilindi. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi va boshqa ilmiy markazlar tashkil etildi. Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlaridagi tarixiy - me‘moriy obidalar zamonaviy, innovasion texnologiyalar asosida ta‘mirlandi. Prezidentimiz

---

<sup>1</sup> <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>

Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlanishimiz lozim.”<sup>2</sup>

Mazkur o‘quv qo‘llanma buyuk alloma bobomiz Abu Ali Ibn Sino hayoti va ijodi, ilm-fanga qo‘shgan ulkan hissasi, bunut dunyo tabobati rivojiga katta xissa qo‘shgan “Tib qonunlari” asari, shuningdek, Ibn Sino yashab, ijod qilgan davr allomalari, ustoz va shogirlari faoliyatiga tegishli ma’lumotlarni talabayoshlarimizga yetkazish maqsadida tayyorlangan.

---

<sup>2</sup> Qarang: “Xalq so‘zi”, 2017 yil 26 dekabr.

# 1-MAVZU: SOMONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-MADANIY MUHITI

## **Reja:**

1. Davlatchilikning IX – XII asrlardagi taraqqiyoti, mahalliy sulolalarining hokimiyat tepasiga kelishi.
2. Xalifalikdagi ma'naviy hayot.
3. Somoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi, dargoh va devon boshqaruv tizimi.
4. Ismoil Somoniy va uning markazlashgan davlati.
5. Somoniylar sivilizatsiyasi vujudga kelishidagi muhim omillar.

IX-XI asr boshlaridan Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat aholisining madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi.

Ma'lumki, Movarounnahr istilo etilib, xalifalikka qo'shib olingach, zabt etilgan o'zga mamlakatlar qatorida, bu o'lkada ham faqat islomgana emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat hamda mafkurasi bo'lgan islom dini tili edi. Shuningdek, hududlari kengayib jahondagi eng yirik davlatga aylangan Arab xalifaligida davlat tili fan tili ham edi. Shu boisdan kadimiy madaniy an'analarga boy Ajam va Movarounnahrda qo'p jihatdan arab tilining mohiyati oshib, uni o'zlashgirishta bo'lgan intilish kuchli bo'ldi. Islomni qabul qilgan aholining qo'pchilikka yod arab tili bilan muloqoti, garchi faqat ibodat vaqtlarida Kur'oni Karimning qisqa suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lsa-da, ammo mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy faoliyatini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar, uni o'zlashtirishga astoydil kirishadilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda ham hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. O'z navbatida,



chegaralari borgan sari kengayib ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ham ilm va ilm ahli suv va havodek zarur edi. Davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ayniqsa ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, bori ham zaif edi<sup>3</sup>.

Shu boisdan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonda mahalliy tillarda yozilgan asarlar yo'q etilib, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olib turilgan bir paytda bu mamlakatning ko'pgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari — Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Bu davrda ayniqsa Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda Sharqning o'ziga xos Fanlar Akademiyasi «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») tashkil etilgan edi. «Bayt ul-hikma» da katta kutubxona hamda Bag'dodda va Damashqsa astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadhonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bi-lan bir qatorida qadimgi yunon, fors va hind olimlarining ulkan merosini to'plash, asrash va ularni arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanadilar. Qariyb ikki asr mobaynida faoliyat ko'rsatgan jahonga mashhur bu ilmiy dargohning ko'p sonli olimu fuzalolari orasida Masarjavayh, Muhammad Fazoriy, Fazl Navbaxt, Yoqub Kindiy va ko'pgina boshqalar kabi bir nechta chet tillarni mukammal biladigan yetuk tarjimonlar faoliyat ko'rsatganlar.

Bu davrda «Bayt ul-hikma»da Muso Xorazmiy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid Marvarudiy, Ahmad Farg'oniy, Abdulloh at-Turk, Abu Xolid Sog'uniy, Qaffol Shoshiy kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asrlar ilmu fani, xususan, matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, kimyo va huquqshunoslik fanlarining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadilar<sup>4</sup>.

Muhammad Ibn Muso Xorazmiy (783—850) qadimgi Xorazm diyorida tug'ilib voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarni u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u

---

<sup>3</sup> Ma'naviyat yulduzlari. -T.: 2001, -28b.

<sup>4</sup> Negmatov N. Gosudarstvo Samanidov, Dushanbe.: Donish, 1997, -167b.

xalifa Xorun ar-Rashidning Xuroson va Movarounnahrda noibi, keyinchalik Xalif Abdulloh ibn Xorun ar-Rashid Ma'mun zamonida (813—833) «Bayt ul-hikma» nomi bilan shuhrat topgan Ma'mun Akademiyasida mudir sifatida fao-liyat ko'rsatadi. Bag'dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va movarounnahrlik olimlar bilan ijod qiladi. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Yahyo ibn Mansur Marvaziy, Ahmad Farg'oniy, Xabash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Abul Abbas al-Javhariy va boshqalarbor edi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birgalikda yer aylanasini, uzunligi va radiusini aniqlash hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'ladi.

Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shadi. Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozadi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitoblar «Aljabr va al-muqobala» hisobi haqida qisqacha kitob, «Hind hisobi haqida» yoki «Ko'shish va ayirish haqida kitob», ya'ni arifmetik asar; «Kitob surat ul-arz» — «er surati» haqida geografiyaga oid kitob; «Zij», «Usturlob bilan ishlash haqida kitob», «Usturlob yasash haqida kitob», «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida» kabi astronomiyaga oid asarlar; shuningdek, «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-tarix», «Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola» nomlari bilan atalgan.

Xorazmiy merosidan, ayniqsa, «Aljabr va al-muqobala» kitobi-ning ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. U bu kitobi bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos sodsi. Hatto «al-gebra» atamasi ushbu kitobning qisqacha «al-jabr» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika faniga «algaritm» atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning «Aljabr» asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi<sup>5</sup>.

Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Keyinchalik esa asrlar davomida yevropa olimlari Xorazmiy asarini qayta-qayta ishlab, uning asosida darsliklar yozadilar.

---

<sup>5</sup> Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2000, -101b.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining yevropada, qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etadi. Shunday kilib, buyuk vatandoshimiz Xorazmiy matematika faniga asos sol-di, tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

IX asr boshlarida «Bayt ul-hikma» da ijod qilgan olimlardan yana biri marvlik Yahyo ibn Abu Mansur edi. U 828 yilda xalifa Ma'mun farmoni bilan Bag'dodning Ash-sha-mosiya mahallasida rasadxona qurilishida boshchilik kiladi. Rasadxona ishlari va unda olib borilayotgan quzatishlar na-tijalari haqida «Bayt ul-hikma» ning mudiri Xorazmiygahisobot berib turadi. Yahyo ibn Abu Mansur «Az-Zij al-Ma'muni al-mumtaxan» («Sinalgan zich») nomli astronomik asar yozib qodsirgan. U 831 yilda Bag'dodda vafot etgan.

«Bayt ul-hikma» ning olimlaridan Xolid ibn Abdumalik al-Marvaziy esa 831 yilda Damashq yaqinidagi Ki-siyon tog'ida barpo etilgan rasadxonani boshqargan. U ham o'z «Zij» ini tuzadi. yer meridianining uzunligini o'lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Bag'dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan matematik Ahmad ibn Adbulloh al-Marvaziy zamondosh olimlar o'rtasida Habash al-Hosib («Hisobchi habash») laqabi bilan mashhur edi. U ikkita «Zij» tuzadi. Uning zijlaridan o'rta asr astronomlari keng foydalanganlar. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Habash al-Marvaziy handasa fani (geometriya)ga tangens, kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini keltirgan<sup>6</sup>.

«Bayt ul-hikma»da faoliyat ko'rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad Farg'oniy (taxminan 797—8-b5)dir. Uning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir. U Farg'o-nada tavallud topgani uchun Sharqsa al-Farg'oniy, yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. Ahmad Farg'oniy xalifa Ma'mun (813—833), Mu'tasim (833—842) va Mutavakkil (846-861) hukmronlik qilgan davrda yashadi. U avval Marvda, so'ngra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug'ullandi va qator ilmiy va amaliy

---

<sup>6</sup> Axmedov B. Tarixdan saboklar. T.: O'kituvchi 1994.-46b.

asarlar yozib qoldirdi. U asosan Damashqsaga rasadxonada osmon jismlari harakatini va oʻrnini aniqlashning yangicha «Zij»ini yaratish ishlariga rahbarlik qiladi. 832—833 yillarda Suriyaning shimolidagi Sanjar dashtida va Ar-Raqqa oraligʻida yer meridianining bir darajasining uzunligini oʻlchashda qatnashadi. 861 yilda uning rahbarligida Fustat (Qohira) shahri yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi Nilometr — daryo oqimi sathini oʻlchagich inshooti Miqyos an-Nil va uning darajoti tiklanadi. Ahmad Fargʻoniy tarixda birinchilardan boʻlib yerning yumaloqligini isbotlab bergan olimdir.

Bizning davrimizgacha Ahmad Fargʻoniyning 8 ta asari saqlanib, ularning birortasi ham hozirgi zamon tillarigatarjima qilinmagan edi. Ahmad Fargʻoniy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan uning ayrim risolalari oʻzbek va rus tillarida nashr ztildi. Ularning orasida uning «Kitob ul-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum — astronomiya asoslari kitobi») ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Ispaniya orqali yevropa mamlakatlaridagi astrono-miya ilmining rivojini boshlab berdi. Shundan soʻng Ahmad Fargʻoniy nomi lotinlashtirilib, «Alfraganus» shaklida Gʻarbda shuhrat topdi. Uning «Astronomiya asoslari» nomli kitobi bir necha asrlar davomida yevropa universitetlarida astronomiya fani boʻyicha asosiy darslik sifatida foydalanibkelindi<sup>7</sup>.

Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda Islom ta'limoti va mafkurasining takomili yoʻlida movarounnahrlilik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta boʻldi. Bu borada ayniqsa Ismoil al-Buxoriy va uning zamondoshi va shogirdi Iso at-Termiziylarning hissasi nihoyatda buyuqdir. Ismoil al-Buxoriyning toʻliq ismi Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. U 810 yilda Buxoroda tugʻilgan, kuchli qobiliyat va xotiraga ega boʻlgan. Yoshligidanoq hadislarni oʻrganishga kirishib, butun umrini hadis ilmiga bagʻishlagan. U hadis va tafsir olimi, tarixchi boʻlib yetishgan. Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa oʻlkalarda yashab 600 mingdan ortiq hadis toʻplagan. Ulardan eng ishonchlilarini

---

<sup>7</sup> Ma'naviyat yulduzlari. T.: 2001.-46b.

saralab, 4 jildli «Al-jome as-sahih» («Sahihi Buxoriy») to‘plamini tuzgan. Bu asar islom dunyosida Kur'ondan keyin ikkinchi manba sanaladi va islom dorilfununlarida asosiy darslik sifatida o‘rganiladi.

Bu bebaho asarga kiritilgan 7275 hadis va ularga berilgan ko‘pdan-ko‘p sharhlarda faqat shariat ahkomlariga oid qoidalargina ifodalanmaydi, balki inson ma'naviy kamolotining ramzi hisoblangan mehr-muhabbat, hurmatu izzat, muruvvatu himmat, halolligu mehnatsevarlik, saxiyligu ochiqko‘ngillik hamda o‘zaro tinch-totuvlik kabi insoniy fazilatlar haqida bayon etilgan<sup>8</sup>.

Imom al-Buxoriy «Al-adab ul-mufrad» («Adab durdo-nalari»), «Tarix al-Buxoro» («Buxoro tarixi»), «Al Jo-mi' al-sag‘ir» («Muxtasar to‘plam») nomli asarlar yozgan. Uatrofiga ko‘plab shogird va izdoshlarini to‘plagan. Uning eng mashhur shogirdlaridan biri Imom at-Termiziy edi.

Imom at-Termiziy 824 yilda Termiz shahridan 6 farsax (36 km) shimolda joylashgan Bug‘ qishlog‘ida dunyoga kelgan. Islom olamida mashhur bu muhaddis olimning to‘liq ismi Abu Iso Muhammad bin Iso bin Savra bin Muso bin az-Zahhok az-Zarir at-Termiziy al-Bug‘iydir. Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa shaharlarda mashhur muhaddislar asarlarini o‘rganib, islom dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qilib, Xuroson, Iroq, Hijozning mashhur muhaddis ulamolari bilan muloqotda bo‘lgan.

Imom at-Termiziy hadislar to‘plab, bir qancha asarlar yozgan, «Jome as-Sahih» yoki «Sunani Termiziy», «Kitob Ilal», «Kitob at-Tarix», «Kitob at-Shamoil an-Naboviya», «Kitob az-Zuhd» va boshqalar shular jumlasidandir.

Bu davrda islomning nazariy asoslari mustahkamlandi. Bu borada ham Movarounnahr olimlari ulkan hissa qo‘shdilar. Bu davrning islom nazariyachilaridan biri Hakim Ter-miziy edi. Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Husayn ibn Bashir al-Hakim at-Termiziydir. U 820 yidda Termiz shahrida dunyoga keladi. Umr bo‘yi ilm bilan shug‘ullanib, tasavvufni targ‘ib qiladi. 80 dan ortiq muhim asarlar yozadi: «Kitob an-nahi» («Yo‘riqnoma

---

<sup>8</sup> Muhammadjonov A.R. Muhammadjonov A.R. O‘zbekiston tarixi. -T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2004, -138b.

kitobi)), «Kitob al-Furuh» («Olohdan qo'rquvchilar haqida kitob») shular jumlasidandir. Ayniqsa uning «Ilal ash-Shariat va hatm ul-avliyotun» nomli kitobi islom nazariyachi-lari tomonidan eng ko'p qayd etiladigan asardir. Asarlari va ularda berilgan teran fikr-mulohazalar, g'oyalar bilan at-Termiziy o'z zamonining ma'naviy hayotiga katta hissa qo'shadi. Shu boisdan zamondoshlari uni «Al-hakim» degan nom bilan ulug'lashgan<sup>9</sup>.

Bu davrda kalom ilmiga asos solib, islom ta'limoti va mafkurasi takomiliga katta hissa qushgan. buyuk allomalardan yana biri Abu Mansur al-Moturidiydir. Uning to'liq ismi Abu Mansur ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. U taxminan 870 yilda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida dunyoga keladi. Uning hayoti haqida ma'lumotlar juda oz. U 944 yilda Samarqand shahrida vafot etgan va Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Yoshligida otasidan turli ilmlardan saboq olgan. So'ngra Samarqanddagi Raboti G'oziyon masjidi qoshidaga madrasada tahsil ko'rib, ustozlari Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy va Abu Nasr Ahmad al-Ibodiylardan faqih va kalom ilmlaridan dars olgan.

O'rta asrlarning mashhur ilohiyotshunos olimi bo'lib yetishgan Abu Mansur al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, shariat qonunlari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan talim berishga mo'ljallangan qator asarlar yozgan. Ammo uning ko'pgina kitoblari bizning zamonimizgacha saqlanib qolmagan. Uning bizgacha yetib kelgan muhim asarlarvdan biri «Kitob at-Tavhid» («Olohning yakka-yagonaligi haqidagi kitob»), ikkinchisi «Ta'viylot al Kur'on» («Qur'oni Karimning sharhlari») nomi bilan ataladi. Bu kitoblar ilohiyat ta'limotiga bag'ishlangan eng qadimiy asarlardan bo'lib, islomshunoslikda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega muhim manbalardan birvidir. Ularda diniy ta'limot va islomiy urf-odatlar insonning ruhiy kamoloti, uning dunyoqarashining shakllanishvdagi mohiyati talqin etiladi. Abu Mansur al-Moturvdiy asos solgan ta'limot kishilarni yaxshilikka, rostgo'ylikka, sabru-qanoatga, sharm-hayoga, oliyhimmatlikka, Vatanni sevmqlikka chorlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ma'naviyat yulduzlari. -T.: 2001.

---

<sup>9</sup> Uvatov U. Donolardan saboqlar. -T.: A.Qodiriy, 1994, -21b.

2. Negmatov N. Gosudarstvo Samanidov, Dushanbe.: Donish, 1997.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2000.
4. Axmedov B. Tarixdan saboklar. T.: O‘kituvchi 1994.
5. Ma’naviyat yulduzlari. T.: 2001.
6. Muhammadjonov A.R. Muhammadjonov A.R. O‘zbekiston tarixi. -T.: G’afur G’ulom nashriyoti, 2004.
7. Uvatov U. Donolardan saboqlar. -T.: A.Qodiriy, 1994.

## **2-MAVZU: ABU ALI IBN SINONING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI**

### **Reja:**

1. Ibn Sino hayoti va ijodi.
2. Ibn Sinoning ilk asarlari.
3. «Tib qonunlari»ning dastlabki qismlarining yaratilishi.

Ibn Sinoning to‘la ismi Abu Ali al-Xusayn ibn Abdullox ibn al-Xasan ibn Ali ibn Sinodir. Abu Ali uning kunyasidir, oti Xusayn, otasining oti Abdulloh edi. Odatda arablarda o‘z nomini o‘g‘li ismi bilan atash rasm bo‘lgan, buni ular kunya deb atashgan. Kishi ismini o‘g‘li nomi bilan ataganda, go‘yo uning xurmati bajo kelgandek bo‘lgan. Ular odatda o‘zlarini katta o‘g‘il nomi bilan ataganlar. O‘g‘il ko‘rmaganlar esa oldindan, kelajakda tug‘iladitan o‘g‘ilga ism ham qo‘yib olishgan va o‘zlarini o‘shanga nisbat berganlar. Shuning uchun Ibn Sino ham o‘g‘il ko‘rgan-ko‘rmaganligidan qat’i nazar, o‘ziga Abu Ali — Alining otasi deb kunya qo‘yib olgan va bu nom unga ism darajasiga o‘tib qolgan. Ali esa otasining buvasining nomi.

Manbalarda Ibn Sinoni ba'zan Shayx deb atashadi. Olimning bu unvoni ilm va falsafa bilan shug'ullanganini ko'rsatadi<sup>10</sup>. «Shayx» — aslida qariya, oqsoqol ma'nosida bo'lsa ham bu yerda dopishmand, alloma ma'nosiga to'g'ri keladi. Sharq yodgorliklarida ko'pincha uni «Shayx ar-Rais» deb atashadi. Bu esa donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i ma'nosini bildiradi. Ko'p kitoblarda Ibn Sino (Sino o'g'li) deb yozishadi, shundan g'arb tillarida u haqida yozilganda keyinchalik uning asarlari g'arb tillariga tarjima qilinganida Ibn Sino ismi talaffuzi o'zgarib Abensena, keyinchalik Avisenna shaklini olgan va bu ism G'arb olamida keng tarqalib ketgan.

Ibn Sinoni Sharq mualliflari haqiqatgo'y, rostgo'y, hatto uning o'zi haqiqatga hujjat, rostlikka dalil ma'nosida «hujjat ul-xaqq», u yashagan mamlakat, o'lkaning u tufayli obro'si oshganligi uchun «sharaf ul-mulk», donishmand, tadbirkor, vazir bo'lgani uchun «Hakim ul-vazir», «ad-Dasur» deb ham atab kelganlar. Ammo O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida uni «Abu Ali Sino» deb atash odat bo'lgan. Hatto ustoz Ayniy bu borada bir risola yozib, bu odatga muhr bosganday, uni «Shayx-ur-raais Abu Ali Sino»<sup>11</sup> deb atagan.

Abu Ali ibn Sino otasi Abdulloh balxlik bo'lib, somoniylardan bo'lmish Nuh ibn Mansur Somoniy (976 — 997) davrida Buxoroga kelib qolgan. U «Hurmiton qishlog'ida amir ma'muriyatini boshqarib kelgan. Bu qishloqning hozirgi nomi Romiton bo'lib, Buxoro viloyatining Peshku rayoniga kiradi. A. Yu. Yakubovskiyning yozishicha, Abu Alining otasi Hurmitonda aholidan soliq yig'uvchilarning boshlig'i, moliya amaldori bo'lgan. Uning amali yirik bo'lmasada, lekin o'ziga to'q kishilardan bo'lgan<sup>12</sup>.

Ibn Sinoning onasi haqida uning nomidan bo'lak hyech narsa ma'lum emas. Ibn Sino tarjimai holini yozgan eng eski manbalardan bo'lgan Bayhaqiyning yozishiga ko'ra, Abdulloh o'sha Romitonga yaqin bo'lgan Afshana qishloqda

---

<sup>10</sup> Taysir Shayx al-Ard, Ibn Sino, Dor ash-Shark al-jadid, Bayro't, 1962, 5-bet; Axmad Fuod al-Axvoni, Ibn Sino, Dor al-maorif, Koxira, 1958, 19-bet (Bundan keyin al-Ahvoni, deb olinadi).

<sup>11</sup> Sadriddin Ayniy, Shayxo'rrais Abu Ali Sino, Stalinobod, 1939.

<sup>12</sup> Якубовский А. Ю., Ибн Сина, Сб. «Ибн Сина», «Материалы научной сессии АН УзССР, посвященной 1000-летию юбилею Ибн Сины», Ташкент, 1953, с. 6.



Sitorabonu degan qizga o'ylanadi. Amir zamonida bu qishloq Romiton tumaniga qaragan. Hozir Afshana degan nom xalq o'rtasida Isfane shaklida saqlanib qolgan.

Abu Ali hijriy hisobi bilan 370 yili safar oyida, milodiy 980 yili avgust oyida dunyoga kelgan<sup>13</sup>.

Afshana qishlog'i ham Ibn Sino tutilgan qishloq sifatida tanildi. Shu tufayli bu qishloq nomi tarixiy manbalarda ko'pincha Ibn Sino nomi bilan bog'lanib keladigan bo'ldi. Abu Ali besh yoshga to'lganida, ukasi Maxmud tug'iladi<sup>14</sup>. Otasi o'g'illariga chuqurroq ta'lim berishni o'ylaydi. Lekin qishloqda ko'p narsadan xabardor muallim topish va topilganda ham ular ta'limi bilan kifoyalanish Abdullohni qoniqtirmas edi. Shuniig uchun Abdulloh o'z oilasi bilan Afshana qishlog'idan Buxoroga ko'chib keladi. Abdulloh o'g'liga ta'lim berishga kirishadi.

Odatda Sharqda savod o'qitishda, dastlab, arab alifbesi o'rgatilgan. Keyin esa ma'nosini tushunib yetish-yetmasligidan qat'i nazar, Qur'on o'qitilib yodlatilgan. Chunki yodlash orqali arab tili iboralari, uning so'zlari esda saqlanib qolgan.

Abdulloh o'g'liga savod o'rgatishni o'zi olib borgan bo'lishi ehtimoldan holi emas, chunki uning o'zi ham anchagina mulla odam bo'lgan, Abu Ali bo'lsa o'tkir zehni va xotirasi tufayli o'qigan narsasini tez o'zlashtirgan. Keyin Abu Ali Qur'on yodlashga o'tgan. Odatda qiroat bilan Qur'on o'qishga ko'p yillar sarf bo'lgan. «Ibn Sino bo'lsa-chi, Qur'onni qiroat bilan yodlab o'zlashtirishga bir yil sarf qilgan. Bu esa undagi hali quloq eshitmagan ajoyib qobiliyatidan darak berar edi»<sup>15</sup>. Ibn Sino tarjimai holida bu haqida: «Meni Qur'on va adab ilmini o'qitadigan muallimlarga topshirdilar»<sup>16</sup>, degan satrlar bor. Satrlardagi «Qur'on ilmini o'qitadigan» deganda uning tafsiri — sharhi, ma'nosi u haqida yetib kelgan

---

<sup>13</sup> Safar oyi 16 avgustdan boshlanib 14 sentyabrgacha davom etadi. Ibi Sino mana shu oy ichida dunyoga kelgan. Hozircha uning tug'ilgan kuni aniqlanmagan. Safar oyining birinchi kuni 16 avgust kuniga to'ri kelgani uchun ba'zan uni 16 avgustda tug'ilgan deb ham yozishadi

<sup>14</sup> Al-Bayhaqi, o'sha asar. 52-bet

<sup>15</sup> Болдиров А. Н, Очерки из жизни гератского общества, «Труды отдела историн культуры и искусства Востока», 4, Л. 1947, с. 398.

<sup>16</sup> Ibn Abi Usaybia, Usha asar, 2-bet.

xabarlar, ularga zarur izohlar kiradi. Adab ilmiga esa u mahallarda arab tili sarfu nahvi — grammatikasi, arab adabiyoti, ritorika va she'r san'tini o'rganish kirgan<sup>17</sup>.

Zehni o'tkir Abu Ali o'qiganlarining hammasini yengilgina bilib olar, darslarni o'qigan sari undagi zakovot namoyon bo'lar va ustozlari ham bolaning qobiliyatiga tahsinlar o'qirdilar.

Shu tariqa Abu Aliga ma'rifat dargohi keng ochiladi. Abdulloh o'g'lidagi ilmga bo'lgan ishtiyoqni ko'rib, uni yana ham chuqurroq bilimdon qilishga, ilmlardan yana ham kengroq, hali bilib ulgurmagan fan sohalaridan xabardor filishga, buning uchun esa yangi-yangi bilimdon ustozlar qidirib topishga harakat qilardi.

Shu bilan birga, Ibn Sino mutolaasi zo'r, o'ta mehnatsevar edi. Ibn Sinoda tug'ma qobiliyat bilan mehnatsevarlik ikkalasi tutashib ketgan edi. Shuning uchun ham u o'zi mustaqil o'qigan kitoblar mazmuniga tez kirib borar va bilishga kirishgan sohalarini osonlikcha egallab olar edi. U o'zining bunday qobiliyati bilan hammani xayratda qoldirardi. Keyin u arab tili, adabiyotini o'rganadi. U arab tilini shu darajada yaxshi egallaydiki, hatto bu tilda kelajakda ilmiy asarlar, she'rlar yozadi.

Abu Ali hisobni ham yaxshi bilgan. U Buxoro shahrida bakkollik qiladigan Maxmud massoh<sup>18</sup> huzuriga qatnaydi va u olimdan hind hisobi va geometriya fanini o'rganadi. O'sha davrda musulmon qonunshunosligi — fikh ilmi mashhur edi. Abu Ali bu sohani yaxshi bilgan kishi — Ismoil Zoxid huzuriga qatnab, undan fikhning turli-tuman shoxobchalarini o'rganadi. Shu bilan birga, yosh Ibn Sino o'sha davrda ma'rifatli odamlar bilishi kerak bo'lgan hadis va tafsirni o'rganadi. U bu sohada ham Ismoil Zoxiddan dars olgan bo'lishi kerak, chunki bu kishi bu ilmdan ham xabardor bo'lgan. Said Nafisiy bu kishi haqida yozib, uning to'la nomi Abu Muhammad Ismoil ibi Xusayn ibn Ali ibn Xorun bo'lib, 402/1002 yilda vafot etgan<sup>19</sup>, deb ko'rsatadi. Bu orada Buxoro shahriga Abu Abdulloh Notiliy keladi.

---

<sup>17</sup> Zavadovskiy Yu. N., Dissertatsiya, 112-bet.

<sup>18</sup> Massox — yer o'lchovi.

<sup>19</sup> Nafisiy S., o'sha asar, 140-bet

Ibn Sino va Notiliy. Abu Abdullox Notiliy<sup>20</sup> hakim va faylasuf bo'lib, el orasida mashhur bo'lgan. Shoyad o'g'lim undan ilm-hikmatni o'rgansa, degan umidda Abdulloh bu olimni uz uyiga joylashtiradi. Shu bilan Abu Abdullox Notiliy hamda Abu Ali ibn Sino o'rtasida ustod-shogirdlik davri boshlanadi. Abu Ali undan u bilgan fanlarni o'rgana boshlaydi. Olim o'z tarjimai holida shunday hikoya kiladi: «Keyin Buxoroga Abu Abdullox Notiliy kelib qoldi, u kishining faylasuflik da'vosi bor edi. Menga ta'lim beradi degan umidda otam uni uyimizga ko'chirib keldi. Uning kelishidan oldin ham fikh bilan shug'ullanib, bu

xususda Ismoil Zohid degan kishining huzuriga qatnab yurar edim. Keyin Notiliydan «Isoguji» kitobini o'rgana boshladim»<sup>21</sup>.

Parfiriyning «Mantiq muqaddimasi» — «Isoguji» asari qadimgi dunyo va o'rta asr fani ufqida juda yuksak maqomga erishgan asar sanalar edi. Bu asar muallifiniig o'zi ham anchagina tabarruk zot sanalib, asli Tir shahri — Finikiyadan bo'lgani uchun uni Farfiriyy Finikiy deb ham yuritishadi. Yunon falsafasida u yangi afltunchilik oqimining yirik vakili va Plotinning shogirdi sifatida mashhur bo'lgan<sup>22</sup>. Hatto u «Plotin hayoti» degan asar ham yozgan<sup>23</sup>. Parfiriyy asosan Plotin va Aristotel asarlariga sharh yozish bilan shug'ullangan.

U ko'proq Aristotelning mantiqqa oid asarlarini sharhlagan. Arab ilmiy adabiyotida bu kishi «Mantiqqa muqaddima» asari bilan mashhur. Bu kitob ko'pincha «Isoguji» («Isagogi») nomi bilan ma'lum<sup>24</sup>. Kitob aslida Aristotel mantig'ining kategoriya qismiga yozilgan sharhdan iborat bo'lib, u «Aristotel kategoriyalariga kirish» deb ham yuritilgan. Parfiriyning bu «Muqaddima»si mantiq o'rganuvchilar uchun o'rta asrda asosiy qo'llanma bo'lgan edi, shu jihatdan

---

<sup>20</sup> S. Ayniy kitobida bu ism negadir Boxiliy deb kelgan (o'sha asar, 4-bet). Bu kishining nomi kitoblarda ba'zan Abu Abdullox ibn Notiliy, ba'zan esa Abu Abdullox Notiliy deb keladi. Abu `Abdullox Notiliy to'g'risidir. Notil — Tabariston territoriyasidagi joy nomi, bu kishi o'sha yerdan bo'lgani uchun unga an-Notiliy deb nisbat berib, shunday atalgan (A l-Bayhaqiy, Tarix xukamo al-islom, Damashq, 1946, 37 sah).

<sup>21</sup> Ibn Abi Usaybina, Uyun al-anbo fi tabakot al-atibbo, Ibn Sino kismi, Misr, 1882, 2 jild, 3-bet.

<sup>22</sup> Большая Советская Энциклопедия, второе издание, т. 34, с. 993.

<sup>23</sup> Farfiriyy, Isoguji, Abu Usmon ad-Damashkiy tarjimasn, noshir Axmad Fuod al-Axvoniyy, Kohira, 1952, 9 sah. (Bundan keyin «Isoguji» deb olinadi). Arab alifbosida «i» harfi bulmagani uchun uni «f» bilan yozdilar

<sup>24</sup> Ibn an-Nadim, Fexrist, Kohira, 1929, 368—69-betlar

Ibn Sinoga o'xshagan mantiqqa va falsafa o'rganuvchilar mutolaani dastlab Parfiriyning shu «Isoguji» («Mantiqqa muqaddima») asaridan boshlaganlar.

Ibn Sinoning ilm o'rganish borasidagi aql-idroki, zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi. Chindan ham Ibn Sino ilmga juda ham kirishgan, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay mutolaaga shug'ib ketgan edi. Ibn Sinoning sermutolaaligiga ustozlari ajablanar va unga ixlos bilan qarar edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ibn Sino o'z tarjimai holida shunday yozadi: «Notiliy qaysi masalalarni mendan so'ramasin, men u masalani undan ko'ra durustroq tasavvur qilardim. Nihoyat, undan mantiqning yuzaki masalalarini o'qidim, lekin uning nozik tomonlari unga noma'lum edi».

Ibn Sino o'z tarjimai holida aytishicha, mantiqqa oid kitoblarni u o'z holicha mutolaa qilishga, keyin matematika va geometriyaga oid kitoblarni o'qishga kirishadi. Yevklid (eramizgacha 355-315) geometriyasini o'zlashtiradi.

Shu bilan birga, Ibn Sino astronomiya, muzika, optika kabi sohalarni o'rgana boshlaydi. Undan keyin qadimgi yunon olimi Ptolemeyning «al-Majistiy» («Almagest») asarini o'qishga to'shadi.

Bu to'g'rida Ibn Sinoning o'zi shularni yozadi: «...al-Majistiy» muqaddimasini o'qib bo'lib, handasa shakllariga yetishganimdan so'ng, Notiliy menga shunday dedi: «Endi uni sen o'zing o'qib, o'zingcha yechishga harakat qila ber, keyin menga aytib berasan, men senga to'g'ri yo noto'g'riligini ko'rsataman. U kishi bu kitobdan durustroq xabardor emas ekan. Men bu kitobii o'zimcha o'zlashtirishga kirishdim. U kishiga qanchadan-qancha shakllarni tushuntirib berardim, shunga qadar u bularni bilmas ekan. Keyin Notiliy meni qoldirib, Gurganch tomonga jo'nab ketdi».

Abu Abdullox Notiliy tarjiman holi O'rta asr olimlari haqida ma'lumot beruvchi ba'zi bir bibliografik kitoblarda uchrab turadi. Chunonchi, Zaxiruddin al-Bayxakiyning «Tarix xukamo al-islom»<sup>25</sup> kitobida u haqda kiska ma'lumot keltirilgan. Bu kishi manbalarda Ibn Sinoning ustozlari sifatidagina mashhur, xolos.

---

<sup>25</sup> Zaxiruddin al-Bayhaqiy «Tarix hukamo al-islom»; noshir Muhammad Kurd Ali, Damashq, 1946, 37—38-betlar (Bundan keyin; Zaxiruddin al-Bayhaqiy deb olinadi).

Ammo u kishi ancha ilmi bo'lgan, Bagdodda o'qigan, hatto u Dioskorid (Ibn Sino «Qonun»ida Diskuridus) asarini arab tiliga tarjima qilgan<sup>26</sup>, degan gap ham bor.

Tabobatni o'rganish va gumanitar fanlar. Abu Ali ibn Sinoni tabobatga qiziqib qolishiga dastlab nima sabab bo'lgan — buni aniq aytish qiyin. Lekin tarjimai holida aytilishicha, qo'liga tushgan barcha tibbiy kitoblarni mutolaa qila boshlagan. Buni olimning o'zi shunday hikoya kiladi: «Keyin tib ilmi bilan shug'ullanishga mayl etdim va unga bag'ishlangan kitoblarni o'qishga tushdim. Tib aslida qiyin ilmlardan emas, shu sababdan men qiska muddat ichida bu sohada shunday yutuqqa erisha oldimki, hatto fozil tabiblar ham menga kelib, tib ilmidan dars oladigan bo'ldilar. Bemorlarni ham kurib turar edim va shu yo'sinda orttirgan tajribalarim natijasida davolash eshiklari menga shunday keng ochildiki, uni ta'riflab bulmaydi».<sup>27</sup>

Chindan ham Abu Ali bu soxada katta yutuqqa erishgan edi. U o'z tarjimai holida tabobatga oid qaysi asarlarni mutolaa qilganini yozmaydi, lekin tibbiyotdan so'ng fikh musulmon qonunshunosligini o'rganganini yozib, «Bu vaqtda men o'n olti yoshda edim»,<sup>28</sup> deydi.

Shu tarika Ibi Sino qarshisida ilm eshiklari ochilib, barcha mushkul masalalar ayon bo'ladigan bo'ldi. Ibn Sino kechalari uyiga qaytganda, oldiga chiroq qo'yib o'qish va yozish bilan band bo'lar, bordi-yu charchoqlik ta'sir qilib toliqib qolsa 6 uyqu kelib o'zini zaifroq sezsa, qkuvvat va madad olish umidida bir kadah ichimlik ichib olar va yana mutolaa qilishga to'shardi. «Uyquga ketgan vaqtimda ham, — deydi Abu Ali o'ngimdagi masalalarni ko'rardim. Shu tariqa ko'p masalalar menga tushumda ayon bo'lardi. Nihoyat, hamma ilmlarni egallab oldim, insonning imkoniyat darajasi egallaydigan darajada ulardan xabardor bo'ldim».<sup>29</sup>

Keyinchalik Buxoro va Xorazmda siyosiy ahvol o'zgarib, o'ziga doimiy kunim joy topolmay, Ulkama-ulka kezib yurganlarida yurtida mutolaa qilib

---

<sup>26</sup> Zavadovskiy Yu. N., Dissertatsiya, 127-bet

<sup>27</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 3-bet

<sup>28</sup> Ibn Sino, Tarjimai hol, «Guliston», № 6, 1979, 8-bet: (Bundan. keyin bu nashrni Ibn Sino, tarjimai hol, deb olinadi).

<sup>29</sup> Ibn Abi Usaybia, Ibn Sino o'zi yozgan tarjimai holi, 3-bet.

yurgan davrini eslab, Ibn Sino yozadi: «O‘sha vaqtlarda nimalarni bilgan bo‘lsam, hozir ham o‘shandayman. Bugungi kungacha bilimimni o‘shandan oshirolganim yo‘k. Nihoyat mantiq, tabbiyot va riyoziy ilmlarni puxta o‘rganib oldim»<sup>30</sup>.

«Metafizika» mutolaasi. Ibn Sino yoshlik davridan boshlab yunon faylasufi Aristotel merosi bilan kizika boshlaydi. Undan mantiq qismlarini mutolaa kiladi, Ibn Sino qo‘liga Aristotelning «Metafizika» asari tushib qoladi. Lekin uni tushunish Abu Alidek odamga ham kiyin tuyuladi. Ibn Sinoning uzi shunday yozadi: «Keyin iloxiyotga utib «Mo-ba‘da at-tabia»<sup>31</sup> («Metafizika») kitobini ukidim. Bu kitobni yozgan kishining maksadi menga bekik edi. Hatto uni qirq bor kayta Ukidim, menga u hatto yod bo‘lib ham koldi. Lekii shunday bo‘lishiga karamay, men uni va uning maksadlarini tushuna olmasdim. Undan umidimni uzib, bu tushupib bulmaydigan kitob ekan, degai xulosaga kelgan edim».<sup>32</sup>

Chindan ham Aristotelning bu kitobi ancha murakkab, uni sharhlarsiz tushunish Abu Aliga ancha qiyin bo‘lgan. Tasodiflardan biri uni bu ahvoldan qutqaradi. Abu Alining kitobsevarligi, kitobdonligi kitobfurushtarga ko‘pdan ma‘lum bo‘lgan va undagi zakovatni payqagan edilar. Abu Ali qachon kitob do‘koni yonidan o‘tsa, uning sohibi o‘zida paydo bo‘lgan yangi asarlardan uni ogoh qilib turar, boshqa o‘lkalardan keltirilgan kitoblarni unga ko‘rsatar edi. Bu safar ham shunday bo‘ladi. Kitob do‘konlari oldidan o‘tib borayotganda dukondor Abu Alini ko‘rib, uni huzuriga chakiradi, keyin u qo‘liga bir kitobni olib, uni maqtab ketadi. Abu Ali kitob mavzuini ko‘radi-yu, o‘sha o‘zi ilgarilari ko‘p bor o‘qigan, lekin tushuna olmagan narsasi haqida yozilganligin fahmlaydi. Ibn Sino shunday yozadi: «Bu ilmni bilishning foydasi yuk ekan, degan hayolda uning

---

<sup>30</sup> Ibi Sino, Yukorndagi manba, 8-bet.

<sup>31</sup> Metafizika — Aristotel asari nomi. Bu nom «fizikadan keyin kelganlar» degan ma'noni anglatadi. Bunday nomning kelib chiqishiga shu narsa sabab bo‘ltan: miloddan avvalgi birinchi asrda yashagan yunon olimi Andronik Aristotel asarlarini tartibga tushirmokchi bo‘lgan. Avval u Aristotelnnt fizikaga oid asarlarini to‘plagan, keynn esa mavjudot va bilish masalalariga oid bo‘lgan asarlarini olgan. Shunda u fizikadan keyinda kelgan barcha asarlarni «metafizika» (fizikadan keyin kelgan asarlar) degan nom bilan birlashtirgan. Keyinchalik bu termin falsafiy ma'no kasb etib falsafiy tadqiqotlar tushuniladigan bo‘ldi. (Asmus V. Metafizika Aristotelya, Aristotel, Soch., t. 1, 1976, s. 550). Aristotelning bu asari arabiynavis adabiyotla «Mo ba'da at-tabia» («Fizika — tabiatdan keyin kelganlar», ya'ni tabiat fanidan keyin kelgan fanlar) deb yuritilgan. Ibn Sino bu mavzudagi fikrlarini o‘zining «al-Ilohiyot» asarida bayon etgan.

<sup>32</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, 3-bet.

koʻrsatishi ham menga malol kelib, kitobni olishni rad qildim. Shunda dalol menga «bu kitobni mendan olgin, buning narxi arzon - uch dirhamga sotaman: egasi buning puliga muhtoj», dedi. Men uni sotib oldim. Qarasam, bu Abu Nasr Forobiyning «Metafizika» kitobi maqsadlari haqida yozgan asari ekan. Uyimga qaytdim-u, darrov uni oʻqishga tushdim. «Metafizika» dilimda yod boʻlib qolgani sababli oʻsha paytdayoq bu kitobni maqsadlari menga ochildi. Bundan juda xursand boʻlib ketdim, oʻsha kunning ertasiga kambagʻallarga ancha narsa sadaqa qildim»<sup>33</sup>.

Shu tariqa Ibn Sino Aristotel gʻoyalari va falsafiy asarlari ruhiga kirishgan edi. Uning bu sohani egallashiga buyuk faylasuf Forobiy asarlari «koʻprik» xizmatini oʻtadi.

Maʼlumki, Forobiy Oʻrta asrda yetishgan yirik faylasuf, xakim edi. U oʻsha davrda mashhur boʻlgan barcha xakimlar asarlarini mutolaa qilgan, ayniqsa, Aristotel kitoblarining bilagʻoni edi. Shuning uchun ham uni «Ikkinchi muallim»— «Muallim as-Soniy» deb atashgan. «Birinchi muallim» Aristotel edi. Demak, Aristotel gʻoya va fikrlarini eng yaxshi tushunganlardan biri Forobiy edi. Bu yerda Ibn Sino tarjimai holi, bir tomondan, Forobiydek oʻz salafi asaridan bahramand boʻlganini va uning falsafiy mushohadalaridan taʼsirlanganini, dunyokarashi shakllanganini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, u oʻsha davrda Oʻrta Osiyoda madaniy hayot qanday darajada ekani haqida ham maʼlum tasavvur beradi. Bu davrda Oʻrta Osiyo, xususan, Xorazm, Samarqand, Buxoroda savdo-sotiq, fan va madaniyat ancha rivojlangan, bu yerlarda tayyorlanadigan mahsulotlar chet mamlakatlarga, hatto arab oʻlkalariga ham chiqarilar edi.<sup>34</sup> Xorazm, Samarkand, Buxoro, Fargʻona oʻlkalarida fan va madaniyatni, yuqori pogʻonaga koʻtargan yirik olimlar yetishib chiqqan edilar. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Axmad al-Fargʻoniy, Abu Nasr Forobiylar bu yerda fanni yuqori bosqichga

---

<sup>33</sup> Ibn Abi Usaybna, Oʻsha asar, 3-4-betlar

<sup>34</sup> Bartold V. V., Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya, Soch., t. M, 1963, s. 238-385; Yakubovskiy A. Yu. Ibi Sina, «Materialy nauchnoy sessii AN UzSSR, Tashkent, 1953, s. 5-29, Bundan keyin Yakubovskiy A. Yu. deb olinadi); Istoriya Uzbekskoy SSR, t. 1, Kniga pervaya, Tashkent, 1955, s. 223—237.

koʻtargan edilar. Mana shu rivojlangan fan va madaniyat zaminida Ibn Sino ham yetishib chiqdi.

Ilk shuhrat. Ibn Sino tabobat bilan shugʻullanib, dastlab mahalla kuylarga taniladi, keyin-keyin tabib haqidagi dovrुक elaro tarqala boshlaydi. Nihoyat, katta tabiblar ham Abu Ali qoʻllagan tibbiy muolajalarni koʻzdan kechiradilar, uning tutgan yulidan, davosidan biror nojuyalik topmaydilar; bular hammasi, albatta, yosh Abu Alining dovrugʻiga sabab boʻldi. Shuning uchun ham uning oʻzi qisqa muddat ichida bu sohada katta yutuqqa erishganini, hatto dongʻi ketgan tabiblar ham uning oldiga kelib, undan maslahat olganini yozadi. Ana shu sababdan boʻlsa kerak, hali oʻn olti yoshga yetmagan yigit ovozi amir saroyigacha tarqaladi.

Buxoro amirining kasal boʻlib qolish hodisasi, shu munosabat bilan Ibn Sinoning amir saroyiga chaqirilishi va uning amir muolajasiga ishtirok etishi bu olim haqidagi dastlabki dovrugʻga sabab boʻladi. Bu voqeya tarixiy kitoblarga kirib, yosh olimning nomi bu voqeya bilan birga zikr qilinadigan boʻlib qoladi. Uning oʻzi amir Nux ibn Mansurni davolashda ishtirok qilganini va bu sohada yutuqqa erishib obroʻsi oshib ketganini qayd qiladi. Lekin bundan amirni uning yakka oʻzi davoladi, degan xulosa chiqmasligi kerak.

Ibn Sino haqida asar yozgan koʻp mualliflar, bu borada fikr yuritganida, amir Nuh ibn Mansurni Ibn Sino davoladi, degan fikrni bildiradilar. Xuddi shunday fikrni Sand Nafisiy ham qaytaradi.<sup>35</sup>

U kishining yozishicha, tabiblar amirni davolashdan ojiz boʻladilar, amirni Ibn Sino davoladi, deydi. Ibn Sinoning oʻz soʻzi bilan yozilgan tarjimai holida Shayxning oʻzi «amir bir fikrga kelib boʻlmaydigan kasallikka duchor boʻlib qoldi... Men kelib davolovchi tabiblar bilan birga ishlab, bu ishda unga xizmat qilganim tufayli obruyim ortib ketdi»<sup>36</sup>, deydi.

---

<sup>35</sup> Said Nafisiy, Puri Sino, Texron, 1954, 73-bet.

<sup>36</sup> Ibn Abi Usaybia. Oʻsha asar, 2-bet; Ibn Sino Uzi yozgan tarjimai xolining uzbekchasi mana shu tuplamda ham bosilgan: «Uzbekistonda progressiv ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga doir materiallar», Toshkent, 1959, 97—102-betlar



Nux ibn Mansur (976 — 997) va Ibn Sinoning ilk asari. Manbalarning koʻrsatishicha, Nuh ibn Mansur otasi Mansur ibn Nuh 976 yili vafot etgan<sup>37</sup>, uning oʻrniga taxtga oʻtirgan. Nuh ibn Mansur 387 hijriy yili 13 shaʼbon kuni (milodiy 997) vafot etgan.<sup>38</sup> Bu davrda Buxoroda ancha osoyishtalik hukm surgan edi.

Ibn Sino hayotining xuddi shu davrida uning asar taʼlif qilish ishlari bilan band boʻlganini koʻramiz. Bunga allomaning davrimizgacha saqlanib qolgan «Xadiyat ar-raisa» asarini koʻrsatish mumkin. Bu asar amir Nuh ibn Mansurga atab yozilib, unga taqdim qilingan boʻlishi kerak. Shuning uchun ham 1325/1907 yili Kohirada bosilgan nusxada kitob nomi oʻrniga dastlab katta harflar bilan «Hadiyat ar-raisa», undan soʻng «Abu Ali Xusayn ibn Abdulloh ibn Sinoning Amir Nuh ibn Mansur Somoniyga sovgʻa qilgan kitobi»<sup>39</sup>, deb yozilgan. Kitob nafsoniy quvvatlar haqida bahs etadi, uning mavzui shundan iborat.

Bu kitob debochasida Ibn Sino amirga nafs haqida qisqacha bir kitob yozib berishni lozim topdim<sup>40</sup>, deydi. Muqaddima soʻnggida Ibn Sino tomonidan amir haqida duo va tilaklar bitilgan.

Bundan koʻrinishicha, Ibn Sino Somoniylar saroyida tabiblik qilish bilan birga, hurmatli kishi ham boʻlib qolgan, u amirga maxsus asar bagʻishlagan. Bu yerda, shunisi diqqatga sazovorki, Abu Ali ibn Sino Somoniylar amiriga bagʻishlab yozgan asarini amir hayot chogʻida yozgan. Bunga oʻsha armugʻon qilib yozilgan kitob muqaddimasidagi Ibn Sinoning soʻzlari dalil boʻlishi mumkin<sup>41</sup>, bu yerdagi satrlar kitob armugʻon etilgan kishining hayotligidan darak beradi. Bu holat esa Ibn Sinoning asar taʼlif qilish faoliyatini, uning vaqtini belgilashga yordam beradi.

Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur 997 yili vafot etgan bulsa, demak, Ibn Sino bu vaqtda 17 yashar yigit boʻladi. Lekin Ibn Sino «Xadiyat»ni amir vafot etmasidan kamida bir-ikki yil oldin yozgan boʻlishi kerak.

---

<sup>37</sup> Xijriyda 365 yilu 11 shavvol.

<sup>38</sup> Said Nafisiy, Puri Sino, Texron, 1954, 71-bet.

<sup>39</sup> Xadiyat ar-raisa Abu Ali al-Xusayn ibn Abdullox li-l-amir Nux ibi Mansur as-Somoniyy va xiya mabxas an-al-kuvo nafsoniya av kitob fi an-nafs alo sunnati itxisor, noshir Edvard Karneliyus Venedik, Misr, 1395/1907.

<sup>40</sup> «Xadiyat ar-raisa», 17-bet.

<sup>41</sup> Ibn Sino, Xadiyat ar-raisa, 17-bet.

«Hadiyat»ning nafs quvvatlariga bagʻishlanganiga koʻra, uning nafs borasida yozilgan baʼzi kichik risolalari, ehtimol, shu paytlarda yozilgan boʻlishi mumkin. OʻzSSR FA fondida bu asarning «al-Mabohis an-nafsoniya» deb nomlangan bir fulyozmasi bor (inv. № 2385LU), lekin bunda muallif nomi yozilmagan, bu asar qulyozmasi 7 varaq.

Bu yoshda tabobatda maʼlum darajaga erishgan Ibn Sino medisina sohasidagi oʻzining ilk taʼliflarini boshlagan boʻlishi ham mumkin. Menimcha, Ibn Sinoning tabobat va mantiq toʻgʻrisidagi qator sheʼriy asarlari xuddi mana shu oʻsmirlik yillariga toʻgʻri keladi. Bunga uning «Tibbiy doston» («Urjuza») tuzilishi misol boʻlishi mumkin. Chunki Ibn Sino dastlab medisinani Ali ibn Abbas al-Majusiyning «Komil as-sinoat at-tibbiya» asaridan oʻrgangan, negaki «Tibbiy doston tuzilishi al-Majusiyning yuqoridagi asari tuzilishiga toʻgʻri keladi».<sup>42</sup>

Bu davrda sheʼriyatdan yaxshi xabardor boʻlgan Ibn Sino oʻrganganlarini sheʼrga solishga, Gippokrat, Tayozuq vasiyatlarini, turli-tuman tibbiy nasihatlar, yil fasllari, sogʻliqni saqlash, anatomiya, mantiq kabi mavzularda sheʼr va dostonlar yozib, shu yoʻl bilan elaro bilim tarqatishga chogʻlanganligini koʻramiz.

Koʻp xonalik kutubxona. Ibn Sino oʻziga oʻxshagan tabiblar bilan oʻbirgalikda ishlab, amir dardini tuzatish borasida kursattan xizmatlari tufayli uning kutubxonasiga kirishga ijozat olganligi maʼlum. Bu esa oʻsha davrda Oʻrta Osiyo, shu jumladan, Buxorodagi eng katta kutubxona edi. Ibn Sino yozadi: «Bir kuni shoxdan kutubxonasiga kirishga va u yerda tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga va oʻqishga ruxsat soʻradim. Shox menga ruxsat berdi. Men koʻp xonalardan iborat kutubxonaga kirdim. Har bir xonada kitob sandiqlari, bir-birining ustiga qoʻyilgan kitoblar bor edi. Xonalarning birida arab kitoblari, sheʼrlari, boshqasida fikhga oid kitoblar turardi. Shu tartibda har bir xonada fanning maʼlum bir sohasiga oid kitoblar turar edi.

Keyin oldin oʻtgan olimlar kitoblari roʻyxatini oʻqib chiqdim va undan kerak boʻlganini axtardim. Men bu yerda shunday kitoblarni koʻrdimki, hatto ularning

---

<sup>42</sup> Islomov Sh, Ibn Sinoning tib haqidagi sheʼriy asari, Toshkent, «Fan», 1977, 206—230-betlardagi jadvalga karang.

nomlarini ham ko'pchilik xalq eshitmagan edi. O'zim ham bundan oldinlari ko'rmagan edim, bundan keyin ham ko'rmadim. O'sha kitoblarni o'qib, ulardan bahramand bo'ldim, shu bilan har bir muallifning ilmdagi darajasini bilib oldim»<sup>43</sup>.

Buxoro o'sha davrda madaniy va iqtisodiy tomondan anchagina rivojlangan o'lka bo'lgan. Buxoroda bunchalik serkitob kutubxona, ularning fanlarga bo'lingan, batartib bo'lishi ham buning dalilidir. Ibn Sino keyingi davrda bir o'lkadan ikkinchisiga ko'chib yurishga majbur bo'lgan paytlarida ham Buxoroda ko'rgan kitoblarni boshqa yerlarda ko'rmaganini eslaydi.

Buxoro Ibn Sino yashagan davrda chindan ham yuksak madaniyatga ega edi. Tarixchi A. Yu. Yakubovskiyning yozishicha, Somoniylar kutubxonasi uninchi asrda tanilgan eng yaxshi kutubxonalardan biri edi. O'sha davrda bunga raqobat qiladigan yirik kutubxonalardan biri Sherozda bor edi<sup>44</sup>. Tarixchilarimizning ta'kidlashlaricha, Ibn Sino Somoniylarning bu kutubxonasida bir necha yil bo'lgan va unda o'ziga kerakli fanga oid kitoblarni mutolaa qilgan. «Har holda, — deydi A. Yu. Yakubovskiy, —Ibn Sino bu kutubxonaga deyarli to Buxoroni tark qilgunigacha qatnagan»<sup>45</sup>.

A. Baxouddinov Abu Ali bu kutubxonaga kirishga 997 yili ijozat oladi,<sup>46</sup> deb ko'rsatadi. Bu fikr to'g'ri bo'lmasa kerak, chunki Abu Ali kutubxonaga kirishga amir vafot etgan yili ruxsat olgan bo'lib chiqadi.

Ibn Sino o'z tarjimai holida o'n sakkiz yoshida o'sha davrda o'qib-o'rganishi mumkin bo'lgan barcha bilimlarni bilib ulgurganini yozadi. Bundan keyingi davrda uning mustaqil asar yozish davri boshlanadi.

«al-Majmuz» va boshqa ta'liflar. Abu Ali ibn Sino tarjimai holida o'z asarlarni haqida ham ma'lumot berib ketadi. Abu Ali o'z tarjimai holida shularni yozadi: «Abu-l-Xasan al-Arudiy degan bir qushnimiz bor edi. U mendan bu ilmlarning<sup>47</sup> hammasini o'z ichiga oladigan bir kitob yozib berishimni suragan edi. Men unga «al-Majmu'» (To'plam)ni yozib berdim. Kitob otini ham shunday deb

---

<sup>43</sup> Ibn Abi Usa ybia, O'sha asar, 4-bet; Ibn Sino, Tarjimai hol, 9-bet.

<sup>44</sup> Yakubovskiy A. Yu. O'sha asar, 18-bet

<sup>45</sup> O'sha asar.

<sup>46</sup> Baxouddinov A., O'sha asar, 11-bet

<sup>47</sup> Bu yerda Ibi Sino uzi ukigan soxa — mantik fanini nazarda tutayotgan bo'lsa kerak

qo‘ya qoldim. Unga rioziyotdan boshqa barcha ilmlarni kiritdim. Yoshim bu mahalda yigirma birda edi»<sup>48</sup>. Ibn Sino bu asarini Buxoroda yozgani aniq. Demak, Ibn Sino bu asarini 1001 yillarda, hali Buxoroda bo‘lganida yozadi. Shu asaridan bir qismi bizgacha yetib kelgan.<sup>49</sup> Shu asarning oxirida zikr qilinishicha, bu kishining to‘la ismi Shayx Abu-l-Xasan ibn Abdullox al-Arudiyydir.<sup>50</sup> Chindan ham bu asar iltimos bilan yozilganligi haqida Ibn Sinoning o‘zi ta’kidlab o‘tgan. Qo‘limizda mavjud bo‘lgan bu asardan saqlanib qolgan parchalardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, bu asarning bir qismi Aristotelning «Poetika» asariga yozilgan sharhdir, buning nomi «Kitob al-majmu’ av al-hikmat al-arudiya fi maoni kitob ash-she’r» («To‘plam kitobi yo «She’r kitobi»<sup>51</sup> ma’nosi haqida Arudiy hikmati»). Darhaqiqat, Ibn Sino bu asari boshida «Maoniy kitob fuitika va xuva Kitob butika fi-sh-she’riyot» (Poetika kitobi ma’nolari va u she’riyat haqida: yozilgan «Noetika» kitobidir), deb yozib qo‘ygan. Bu yerda yunoncha «poetika» so‘zi ikki xilda yozilgan: ham fuitika va ham butika.<sup>52</sup> Adabiyotda esa goh poetika shaklida yozilsa, ba’zida butika shaklida yozilgan.

Bular hammasi Aristotel asarlariga yozilgan sharhlardir.

Poetikaga sharh tariqasida al-Arudiyyga yozib berilgan. bu asar tuzilishi Ibn Siniig keyinchalik yozgan «Fann ash-she’r», («She’r san’ati») asariga o‘xshab ketadi. Ma’lumki, Ibn Sino: «She’r san’ati» asarini «ash-Shifo» kitobi mantiq qismining tuqqizinchi fani sifatida keltirgan edi.<sup>53</sup> Demak, Ibn Sino yigirma bir yoshida «al-Majmu’» asarini yozgan kezarida u Aristotelniig «Poetika» asariga sharh ham borlagan, hatto kelajakda «She’r san’ati» nomini olgan asarining «xomakisi»ni bitib qo‘ygan ko‘rinadn. Keyinchalik bu asar «ash-Shifo»ga bir qism bo‘lib kirgan, chunki «al-Majmu’e»ga kirgan «She’r ma’nolari» degan qismining tuzilishi «ash-Nifo»ga kirgan «She’r san’ati» asarining tuzilishiga monand;

---

<sup>48</sup> Ibi Abi Usaybia, O‘sha asar, 4-bet. Yana shu kitobning 1957 yili Bayrut nashri, 3 juz, birinchi kism, 6-bet

<sup>49</sup> «Kitob al-majmu' av al-xikmat al-arudiya fi kitob maoni ash-she'r» taxkik va shorix Muhammad Salim Solim, Koxira, 1969.

<sup>50</sup> Yukoridagi asar, 33-bet.

<sup>51</sup> Bu yerda Aristotelning «Poetika» asari nazarda tutilyapti

<sup>52</sup> Bu suz «buitika» yo «buetika» ham Uukilishi mumkin

<sup>53</sup> Ibn Sinoning bu asari Aristotelning «Fann ash-she'r» (Koxira, 1953 yil asari Abduraxmon Badaviy nashri kitobida 161—198-betlar orasida keltirilgan).

boshqacha qilib aytganda, Ibn Sino bu yerda Aristotel asariga sharh emas, balki o'z sariga sharh yozganday ko'rinadi. Bunday holni uning keyinroq yozilgan «Xayy ibn Yakzon» asarida ham ko'rishimiz mumkin. Chunki Shayx bu asarini yozib bo'lgach, odamlar iltimosiga ko'ra uning qiyin joylariga o'zi sharh bitgan<sup>54</sup>. «al-Majmu'» («To'plam») asarining ikkinchi qismi ritorika haqida yozilgan bo'lib, yuqorida zikr etganimizdek, bu ham bizgacha yetib kelgan.

Ibn Sinoning al-Arudiya bag'ishlab yozgan ritorika haqidagi asari 1950 yil Kohirada Muhammad Salim Solim tomonidan nashr etilgan. Bu kitob nomi «Kitob al-majmu' av al-xikmat al-arudiya fi maoni kitob ritorika» («To'plam kitobi yo ritorika kitobi mazmuni haqida al-Arudiya hikmati») deb ataladi. Lekin buni ko'rishga muyassar bo'lolmadik.

Bundan shu fikrga kelish mumkinki, «al-Majmu'» Ibn Sinoning dastlab bitgan asari bulmay, balki Ibn Sino bu paytgacha boshqa asarlar ham yozgan bo'lishi kerak.

Ibn Sino bunday asarlarini ilm qadriga yetadigan kishilar iltimosiga ko'ra yozib bergan. Bu borada Ibn Sino o'z tarjimai holida yozadi: «Abu Bakr al-Barkiy<sup>55</sup> degan Xorazmda tug'ilgan bir qo'shnim bor edi, o'z tabiati bilan u kishi fikh, tafsir va porso — zuhdlikda yagona edi. Bu ilmlarga o'zi ham moyil edi. Shu kishi mendan kitoblarga sharh yozib berishimni so'radi. Men unga yigirma jildcha keladigan «Hosil va mahsul» degan kitob yozib berdim. Undan tashqari, unga axloqqa tegishli yana bir kitob yozib berdim. Kitob nomini «Kitob al-birr va-l-ism» («Sahovat va jinoyat kitobi») deb qo'ydim. Bu ikki kitob undan boshqada yuk. U kishi ikkovidan nusxa olish uchun hych kimga berib turmagan ham»<sup>56</sup>.

Bu satrlar Abu Ali ibn Sinoning yigitlik chog'laridayoq ta'rif qilish ishiga bel bog'laganini ko'rsatadi. Kitoblarga sharh yozish ishlarini boshlab yuborgan chog'ida, qo'qqisdan otasi vafot etadi. Bu hol yosh olim uchun og'ir judolik edi. Endi u oilaga boshchilik qilishi va tirikchilik vositalarini ham o'ylashi kerak edi.

---

<sup>54</sup> Muhammad Sarir Xasan al-Ma'sumiy, Risolat Xayy ibn Yakzon maa sharxixo li Ibn Sino (Ibn Sinoning «Xayy ibn Yakzon» kissasiga muallif yozgan sharxn), Majallat al-majma' al-ilmiy al-arabiy, jild 29, № 3-4, Damashk, 1954; jild 30, № 1, 29, 3, 1955.

<sup>55</sup> Zavadovskiy Yu. N. uni Barakiy deb keltiradi, O'sha asar, 11-bet.

<sup>56</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 4-bet.

Abu Alining o‘zi yozadi: «Keyin otam o‘lib qoldi, hol-ahvolim ham o‘zgarib ketdi. Sultonning amallaridan birortasini olishga majbur bo‘ldim»<sup>57</sup>.

Otasining vafoti (1002). Ibn Sino otasining o‘limi vaqtini taxminan 999 yilga yo‘yadilar<sup>58</sup>, boshqa birlari 1002 yilda yuz bergan deydilar<sup>59</sup>. Bu bilan balki Somoniylar xonadoni poytaxti bo‘lmish Buxoroga qoraxoniylarning hujumi va Somoniylar davlatining qulashi bilan bog‘liq deb shtunday xulosaga kelingan bo‘lishi mumkin. Chunki, deydi A. Yu. Yakubovskiy, Abu Ali Somoniylar davlati qulagach, Buxoroda yarim yildan ortiq vaqt yashay olmaydi. Mamlakatda siyosiy ahvol o‘zgargach, bu yerda u kelajakda tinch hayot kechirishga ko‘zi yetmaydi. Qoraxoniylarning tutgan siyosati, Somoniylar lashkarboshilari (Abu Ali Simjuriy, Ayach, Bektuzun va Foik)ning sotqinliklarini ko‘rgan Ibn Sino o‘z kelajagi uchun xavfsiraydi. Shuning uchun ham u o‘z tarjimai holida «keyin zarurat menga Buxoroni tark qilishga, Gurganch tomonga ko‘chishga majbur qildi»<sup>60</sup>, deb yozadi.

Ammo Ibn Sino otasining vafotini A. Yu. Yakubovskiy aytgayotdek, 999 yil bilan belgilash Ibn Sino tilidan yozilgan tarjimai holga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki uning Uzi yukorida keltirganimizdek, 1001 yilda xali Buxoroda bo‘lgan, unda xali otasi ham tirik bo‘lgan,

Said Nafisiy ham bu to‘g‘rida muloxaza bildirib, 999 yili Ilikxon Buxoroni olgandan keyin Ibn Sino yurtida yana ikki yil qoladi<sup>61</sup>, deb kursatishi ham xuddi Ibn Sinoning uz tilidan yozilgan tarjimai holidan chikib yozilgan satrlar edi. Ibn Sinoning uz tarjimai holida kursatilishicha, u ligirma bir yoshi: Buxoroda kushnisi iltimosi bilan «al-Majmu’»<sup>62</sup> asarini yozgan. Bundan chikdi, Ibn Sino 1001 yili xali Buxoroda bo‘lganini kursatadi. Undan keyingi davrda Ibn Sino xali Buxoroda turgan naytida yana ikki asar yozgan, uning biri «Hosil va mahsul» deb atalgan (20 jild) va ikkinchisi «Kitob al-birr va-l- ism» 2 jild bo‘lgan. Ibn Sino tilidan yozilgan tarjimai holida mana shu ikki kitob yozilgandan keyingina otasi vafot etganini

---

<sup>57</sup> Ibn Sino, Tarjimai hol -bet, y „Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, 4-bet.

<sup>58</sup> Yakubovskiy A. Yu., O‘sha asar, 19-bet.

<sup>59</sup> Zavadovskiy Yu. N. O‘sha asar, 11-bet.

<sup>60</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar. 4-bet.

<sup>61</sup> Said Nafisny, O‘sha asar. 74-bet.

<sup>62</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, 5-bet; Ibn Sino, Tarjimai xop, bet.

etadi, shunga qaraganda, bu orada ham vaqt o'tgan. Shuning uchun ba'zan Ibn Sino otasi 1002 yilda vafot etgan degan fikr asosli ko'rinadi<sup>63</sup>. Lekin shunisi ham borki, bu haqda Ibn Sinoda ham va al-Juzjoniya ham biror ma'lumot yo'k. Bunga faqat Zaxiruddin al-Bayxakiy aniqlik kiritadi. U yozadi: «Abu Ali yigirma ikki yoshga kirganida otasi vafot etadi»<sup>64</sup>. Ammo Ibn Sino 1002 Yildan keyin ham bir qancha vaqt Buxoroda bo'lgan. Lekin u yerda qaysi Nilgacha bo'lgan, qaysi yili Xorazmga jo'nagan — bu haqda na Ibn Sino, na al-Juzjoniya biror narsa yozmaydi.

Ammo Ibn Sino xali Buxoroda ekanligida yigirma ikki jildlik ikki asar ta'lif qilinishi ham anchagina vaqt talab qiladi, al-Juzjoniya yozishicha, agar «Qonun» asari o'n to'rt jild bo'lsa, u holda yigirma ikki jildlik bu ikki kitob unga bir yarim baravardan ortiq bo'ladi. Agar «Qonun» hozirgi o'lchovda ikki 103 bosma listdan ortiq kelsa, u holda bu ikki kitob hajmi uch yuz bosma listdan ortiqdir. Buni ta'lif qilish uchun ham ancha vaqt talab qilishi shak-shubhasiz. Buning uchun Ibn Sino kamida ikki-uch yil vaqt sarf etishi ehtimoldan uzoq emas. Ana shu ta'kliflarni bajo keltirgandan keyin Ibn Sino o'z tarjimai holida otasi o'lgani, so'ngra ahvoli tang bo'lib, sulton amallaridan birini olishga majbur bo'lganini yozadi. Shunga qaraganda, Ibn Sino otasi vafotidan keyin ham bir qancha vaqt Buxoroda qolgan bo'lishi kerak. Chunki Somoniylar taxti merosxo'ri Muntasir boshchiligida qoraxoniylarga nisbatan ziddiyat va qarshi kuchlar chiqib, Ilikxon saltanatini tinchosuda qo'ygan emas hamda Somoniylar hukmronligining tiklanishiga xalq Ichida ishonch yo'qolgan ham emas edi. Lekin 1005 yilda Somoniylar vorisi Muntasir qatl etilib, xokimiyat butunlay qoraxoniylarga o'tadi. Shunda: Samoniylar taxti tiklanishiga umidi qolmagai Abu Ali ibn Sino-bunday sharoitda bu yerlarda tini hayot kechirishga ko'zi yetmay, tezroq bu o'lkadan bosh olib, uzoqroq va tinchroq joyga: ketishga chog'langan. Shunday qilib Ibn Sino Xorazmga yul oladi.

Bu 1005 yilda yuz bergan bo'lishi kerak. Bungacha Ibn Sino otasi vafot etgan, keyin rasmiy idoraga kirib bir oz bo'lsa-da, ishlagan. Albatta, ozgina vaqt ishlagan bo'lsa, buni u tarjimai holida zikr etib o'tirmas edi. Ammo u bu ishda

---

<sup>63</sup> Karimov U., Buyuk alloma, j-l «Shark yulduzi», № 1, 1979, 190-bet.

<sup>64</sup> Al-Bayxakiy, O'sha asar, 67-bet

ikki-uch yil ishlatan bo'lishi kerak. Uning Buxoroda yuqoridagi hajmi katta asarlar yozishi ham uning to yigirma besh yoshlarga borgunga qadar o'z yurtida qolganligiga dalolat qiladi.

Samoniylar qulashi va Ibn Sinoning Buxorodan ketishi (1005). Ibn Sino yashagan davr Somoniylar sulolasining gurkiragan davri tugab, so'na boshlagan paytlariga to'g'ri keladi. Bu paytlarda birmuncha rivojlangan va gullagan iqtisodiy, madaniy ahvol inqirozga yuz o'g'irgan siyosiy ahvolga qaram bo'lib qoladi. O'ninchi asr oxirlariga kelib Somoniylar davlati qulay boshlaydi; xalqdan yig'iladigan soliqlar borgan sari ko'paya boshlaydi, hatto dehqonlardan yiliga ikki bor hiroj olinadigan bo'ldi<sup>65</sup>. Bir tomondan, amir bilan yer egalari o'rtasida paydo bo'lgan nizolar dehqonlar ahvoriga ta'sir etmay qolmadi. Dushman lashkarlari tontab, oyoq osti qilgan dehqon yerlari hosilsiz maydonga aylangan edi. Bir mahallar gurkiragan va yirik davlatga birlashgan yerlarga ko'chmanchilar qayta-qayta hujum qildi. Bularning bir qismini qaytargan Somoniylarning ikkinchi qismini qaytarishga qurbi yetmaydi. Bu borada Yettisuv va Qoshgar atroflaridan ko'tarilgan qarluq, chigil va yagmo qabilalari Qoraxoniylar davlatiga birlashgan edi. Ilgari Somoniylar ustiga mayda-mayda yurish qilib yurgan qoraxoniylar Buvroxon boshchiligida asta-sekin Buxoroga yurish qiladi. Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976 - 997) davlatining madaniy va iqtisodiy ahvolini qancha mustahkamlamasin, lekin davlatni asrab qolishga uning qurbi yetmaydi. Lashkarboshilardan Abu Ali Simjuriy, Ayach, Foiqlar sotqinlik qiladi, xatto Simjuriy davlatni bo'lishi haqida Bugroxon bilan yashirin ravishda kelishuv olib boradi<sup>66</sup>. Bu sotqin lamkarboshilardan Ayach Buxoroga kirish uchun bo'lgan katta jang — Harjangda chekinadi, bu bilan u erishishi mumkin bo'lgan g'alabani boy beradi. Bu bilan u Buxoroga kirib kelgan Bugroxondan durustroq mansab olish umidida edi. Shu tariqa 992 yili Nuh ibn Mansur Buxoroni tark etishga majbur

---

<sup>65</sup> Yakubovskiy A, Yu., O'sha asar, 18-bet; Istoriya Uzbekskoy: SSR, tom 1, Tashkent, s. 243

<sup>66</sup> Бартольд В. В., 1, 320; Якубовский А. Ю., Юкоридаги асар, 19-бет; Булгаков П. Г. Жизнь и труды Беруни, Ташкент, 1972, с. 36-40; История Узбекской ССР, с. 244.



bo‘ladi, uni Bugroxon egallaydi?<sup>67</sup>. Lekin xonga Buxoro ob-havosi, mevalari yoqmaydi, ko‘p o‘tmay bavo sirga yo‘liqqan xon to‘rt oy turib, 17 avgustda shaharni tark qilishga majbur bo‘ladi’<sup>68</sup>. Bu orada Omulga borib askar to‘plab, qoraxoniylarga zarba berishga shaylanib yurgan Nuh ibn Mansur yana Buxoroga kelib, osongina poytaxtni egallaydi<sup>69</sup>. Bundan keyin Somoniylar bir necha yil davomida hokimiyatni o‘z qo‘llarida ushlab qolishga muvaffaq bo‘ldilar. Ammo ko‘p o‘tmay qoraxoniylardan bo‘lgan Ilikxon Naser 999 yili yana Buxoroga hujum qilib, Somoniylar davlatini qulatib, Movarounnahrda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga zamin hozirlaydi.<sup>70</sup>

Bu orada Buxoroda ichki ziddiyatlar kuchayib ketadi, 997 yilni amir Nuh ibn Mansur vafot etgach, uning o‘rniga o‘g‘li Abu-l-Xoriye Mansur ibn Nuh (tarixiy manbalarda Mansur 1)<sup>71</sup> taxtga o‘tiradi. Lekin bu amirzoda ham sulolani halokatdan qutqara olmaydi<sup>72</sup>. Natijada 999 yil 1 fevralida amir taxtdan ag‘darilib, ikki ko‘zi ko‘r qilinadi, o‘rniga birodari Abu-l-Favoris Abdulmalik ko‘tariladi<sup>73</sup>. Ammo Somoniylar bu bilan tashqi dushmanning yurtga kelishini yengillashtirdilar, xolos. Oradan ko‘p o‘tmay, 999 yil 23 oktyabrda Ilikxon Buxoroni egallab olib, sulola merosxo‘rlarini o‘z poytaxti O‘zgandga haydab ketadi. 999 yili Buxoroda Somoniylar davlatining qulashi haqida saqlanib qolgan ma’lumotlarga ko‘ra, qoraxoniylardan bo‘lmish Nasr Buxoroga kirib kelgach, Somoniylar davlatini himoya qilishga kuch to‘plash uchun xalq orasiga odamlar yuborganlar. Ular masjid mehroblaridan turib davlatni dushmandan himoya qilishga chafirganlar. Shunda xalq vakillari qonunshunos fakihlardan, nima qilamiz, deb so‘rashgan ekan, ular javob berib, agar dushman bilan din uchun ko‘rash olib borilsa, unga qarshi chiqish mumkin edi, lekin bular bu dunyodagi rohat-farog‘at uchun olib

---

<sup>67</sup> Bartold tarixiy manbalar asosida bu vokeani 992 yiln may oyida yuz berdi, deb kursatadi, Bartold V. V., 1, 320-bet.

<sup>68</sup> Бартольд В. В. 1, 32-бет; Булгаков П. Г., Жизнь и труды Беруни, Ташкент, 1972, с. 37.

<sup>69</sup> O‘sha asar.

<sup>70</sup> Бартольд В. В. История Бухары, Ташкент, 1976, с. 91.

<sup>71</sup> O‘sha asar, 42-bet.

<sup>72</sup> O‘sha asar, 325-bet.

<sup>73</sup> O‘sha asar, 327-bet.

borayotgan jang bo'lgani uchun musulmonlar o'zlarini halok qilib, o'limga chorlash ravo emas, deganlar va dushmanga qarshi chiqmaganlar<sup>74</sup>.

Ammo oradan ko'p o'tmay, xotin kishi kiyimini kiyib qochgan Nuh Ibn Mansurning uchinchi o'g'li Abu Ibroxim Ismoil Somoniylar saltanatini tiklashga ancha urinadi, ayrim yerlarda g'alaba qozonib «Muntasir» unvonini oladi. U o'ziga ilgari qarashli bo'lgan Xorazm va boshqa yerlardan kuch to'plab, Nihoyat, Samarkand va Buxoroni egallaydi<sup>75</sup>, oradagi ziddiyat tufayli Buxoroni tark etgan Muntasir to 1005 yilgacha Somoniylar bayrog'ini tiklashga urinib ko'radi<sup>76</sup>, lekin kuchayib kelayotgan qoraxoniylar va Razna atrofida Maxmud Raznaviyning Somoniylar mulkiga ko'z olaytirishlari, oradagi tarqoqliklar natijasida Muntasir harakati 1005 yil boshlarida Somoniylar bayrog'ini tiklash bilan emas, balki qulashi bilan tugaydi.

Bu paytda davlat markazi bo'lgan Buxoro bir necha bor qo'ldan-qo'lga o'tib turadi, shahar qaysi tomonga o'tmasin, u, albatta, zarbaga uchrar, jarohatlanar edi.

Abu Ali ibn Sino mamlakatda yuz bergan mana shunday siyosiy ahvol va o'zgarishlarni ko'rib, ilm bilan mashg'ul bo'lishga ko'zi yetmaydi va Buxorodan ketishga majbur bo'ladi.

Ibn Sino Xorazmda (1005). Xorazm bu vaqtda qoraxoniylar hujumidan birmuncha tinch edi. Bu yerda madaniy-ma'rifiy ishlar ancha yo'lga qo'yilgan edi. Hatto shox saroyida tevarak-atrofdan juda ko'p olim va fozil kishilar to'plangan edilar. Bu davrda Xorazmda olim va tabib Abu Saxl al-Masixiy, tarixchi Ibn Miskaveyx, buyuk mutafakkir Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr ibn Irok, Abu-l-Xayr Hammor kabi turli soha olimlari ilm-ma'rifat sohasida ish olib borardilar. Ana shu gurungga buyuk zakovot sohibi Abu Ali ibn Sino ham kelib qo'shiladi. Chindan ham Ma'mun davrida Xorazm ilm va fanning gullagan davriga aylangan edi<sup>77</sup>, Buxoroda Somoniylar hukmi qulagach, unga qaram bo'lgan va ilgari yarim mustaqil bo'lgan Xorazm butunlay mustaqil bo'lib oladi. Qoraxoniylar

---

<sup>74</sup> История Узбекской ССР, с. 246.

<sup>75</sup> Bartold V. V., O'sha asar, 330-331-betlar.

<sup>76</sup> Bartold V. V., O'sha asar, 332-bet.

<sup>77</sup> Tolstov S. P., Beruniy va uning zamoni. Qarang: «Beruniy - o'rta asrning buyuk olimi» (Makolalar tuplami), Toshkent, 1960, 14-bet

kuchayib kelayotgan Frazna hukmdori Maxmud Raznaviy bilan bellashib madori qurigan va Xorazmga qarashga majoli kelmas edi. Bu orada urush va xavflardan holi bo'lgan Xorazmda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va mamlakatda iqtisodiy ahvolni birmuncha yaxshilanishiga katta sharoit yaratildi. Shuning oqibatida bu yerda madaniy-ma'rifiy ahvol ancha yaxshi edi, natijada, ta'bir joiz bo'lsa, «Ma'mun akademiyasi» deb atalgan anjumanning paydo bo'lishi zaminida ana shu haqiqat yotar edi. Bu, albatta, o'sha davr olimlarini jamlagan ilmiy bir uyushma bo'lgan edi<sup>78</sup>. «Ma'mun akademiyasi» tasodifiy va o'tkinchi tashkilot emas edi<sup>79</sup>, uning yuzaga kelishi Xorazmda paydo bo'lgan ijtimoiy hayot, iqtisodiy, madaniy ko'tarilish siyosiy mavqeining qandayligini ifodalab berardi. Xorazmdagi bu ilmiy uyushma hozirgi tushunchadagi akademiya ma'nosiga to'la javob berolmasa ham, har qalay, o'sha davrdagi katta ilmiy anjuman sanalar edi. Ibn Sino panoh istab kelgan Xorazmda ahvol mana shunday edi. Ibn Sino ta'kidlashicha, bu yerda ilm-fanni sevuvchi Abu-l-Xusayn as-Saxliy vazir bo'lgan<sup>80</sup>. Ibn Sino 93 tarjimai holida Xorazmga borganida u yerning amiri Ali ibn Ma'mun (997 — 1009) edi<sup>81</sup>, deb ko'rsatadi. Bu amirning kunyasi Abu-l-Xasan Ali ibn Ma'mun bo'lib, u Abu-l-Abbos Ma'mun ibn Muhammadning o'g'li edi<sup>82</sup>. Abu Ali ibn Sino egniga fakih — qonunshunoslar kiyimini kiyib shaharga kirib boradi. Bundan ko'rinishicha, bu paytlarda bunday libos kiyganlar hurmat va ehtirom bilan qarilar, begonaligi unchalik sezilmas edi. Shu tarzda u Xorazm poytaxti Gurganch shahriga yetib keladi. Abu Ali to'g'ri kelib amir huzuriga kiradi. Uning o'z iborasi bilan aytganda, amir unga «uxshaganga kifoya qiladigan miqdorda oylik tayin qiladi»<sup>83</sup>. Shu tariqa Abu Ali Xorazm diyorida osoyishta umr kechira boshlaydi.

Abu Alining Xorazmga kelish yili haqida na o'z tarjiman holida, na al-Juzjoni yozganlarida aniq ma'lumot yo'q. Abu Ali besh yasharligida otasi

---

<sup>78</sup> Tolstov S. P., O'sha asar, 14-bet

<sup>79</sup> Tolstov S. P., O'sha asar, 16-bet

<sup>80</sup> Zaxiruddin al-Bayxa kiy, O'sha asar, 28-bet

<sup>81</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 4-bet

<sup>82</sup> Said Nafisiy, O'sha asar, 74-bet

<sup>83</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 4-bet: Ibn Sino, Tarjimai hol, 9-bet

Buxoroga ko‘chib kelganini nazarda tutib, O. N. Zavadovskiy u 985 — 1005 yillar orasida Buxoroda yashagan deb taxmin kiladi<sup>84</sup>. Bundan 1005 yilda u Xorazmga kelgan bo‘lib chiqadi.

Toshkentda, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kitob fondida 9042 inv. raqamli «Ajoyib at-tabaqot»<sup>85</sup> degan qo‘lyozma saqlanadi. Bu kitob muallifi Muhammad Toxir ibn Abu-l-qosim<sup>86</sup> bo‘lib, asar muqaddima va yetti tabaqa (bobdan) iborat. Shu kitobning to‘rtinchi tabaqasi so‘ngrog‘ida qizil siyoh bilan «Zikri Shayx Abu Ali Sino»<sup>87</sup> degan sarlavha bilan Ibi Sino haqida ma’lumot berib ketiladi. Bu qulyozmaga tavsif yozuvchilar so‘ziga qaraganda, u ilmiy adabiyotda kam ma’lum bo‘lgan jug‘rofiy asardir.<sup>88</sup> Kitob fors tilida yozilgan. Shu qo‘lyozmaning Ibn Sinoga bag‘ishlangan sahifalarining birida uning Buxoroda qancha yashab ketgani va Xorazmda qancha vaqt bo‘lgani haqida shu satrlar yozilgan:

ابو علی بن عبدالله بن سینا... در بیست و چهار ساله گی بر  
جمع علوم عقلی و نقلی و ریاضی واقف شده و در بخارا باعلما  
مناظره کرده ایشانرا ملزم ساخته و بخوارزم رفته مدت هفت سال  
انجا درس میفرموده و از انجا بخرجان رفت...

«Abu Ali ibn Abdullox ibn Sino yigirma to‘rt yoshida aqliy, naqliy va riyoziy [matematik] ilmlarning hammasidan xabardor bo‘lib, Buxoroda olimlar bilan tortishib, ularni mot qilgan. Keyin Xorazmga borib, yetti yil davomida u yerda dars o‘qitgan. Keyin esa u yerdan Jurjonga boradi»<sup>89</sup>.

Xuddi shunday fikrni Sharifjon Mahdum Sadri Ziyo ham o‘rtaga tashlagan. U kishining Sharqshunoslik instituti kitob fondida saqlanayotgan «Tazqirai shuroi mutaqaddimin va salotin» nomli asarida bu xususda shu satrlar yozilgan:

<sup>84</sup> Zavadovskiy Yu. N., O‘sha asar, 4-bet.

<sup>85</sup> SVR, UP. Toshkent, 1967, 72—73-betlar. tavsif № 5660.

<sup>86</sup> SVR, UP. Toshkent, 1967, 299—300- betlar; Tavsif № 686—689.

<sup>87</sup> UzSSR FA ShI fondi, inv. № 9042, 174 b-varak.

<sup>88</sup> SVR, T, Toshkent, 1952, 299-bet.

<sup>89</sup> Muhammad Toxir ibn Abu-l-Kosniy, Ajoyib at-tabakot, UzSSR `Fanlar akademiyasi, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharkshunoslik instituti kntob fondi, inv. № 9042, 175 a-varak. Bundan keyin Ibn Sinoning urjonda kasallarni davolagani haqida gap boradi

ابو علی سینا... در دوازده ساله گی باعلمارا مناظره کرد، بر  
همه غالب آمد، در خوارزم هفت سال بخدمت خوارزمشاه بود...

«Abu Ali Sino un ikki yoshligida olimlar bilan munozara qilib, barchasi ustidan g‘olib keldi, Xorazmda yetti yil davomida Xorazmshoh xizmatida bo‘ldi»<sup>90</sup>.

Bu satrlardan ma’lum bo‘lishicha, Ibn Sino yigirma to‘rt yoshigacha Buxoroda bo‘lgan, u yerda kamolotga erishgan va undan so‘nggina yurtini tark qilishga majbur bo‘lgan, shundan keyin yetti yil davomida Xorazmda yashagan, keyin Jurjonga borgan. Bu borada Ibn Sino tarjimai holida shu satrlar yozilgan: «Undan (ya’ni Gurganchdan) keyin zarurat Nisoga ko‘chishimga majbur qildi. So‘ng undan Abivardga, undan Tusga, undan Shikkonga, undan Samnikonga, undan Xuroson chegarasi — Jojurmga<sup>91</sup>, undan Jurjonga ko‘chib yurishga majbur bo‘ldim. Keyin amir Qobusning huzuriga kirishga jazm qildim. Shu paytda Qobusni tutib, qal’alaridan biriga qamab qo‘yishdi. U o‘sha yerda uldi. So‘ngra Dehistonga ketdim, u yerda qattiq kasal bo‘lib qoldim. Yana Jurjonga qaytib keldim»<sup>92</sup>.

Tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Jurjon amiri Qobus ibn Vushmagir (ba’zi manbalarla Vashmgir) 1012 yili o‘ldirilgan. Shunga qaraganda, Ibn Sino bu yili Jurjonda bo‘lganligi tarixiy voqyealarga to‘g‘ri keladi. Ibn Sinoning bu yili Jurjonda bo‘lgani haqida uning shogirdi al-Juzjoniy ham ba’zi ma’lumotlarni berib ketgan. U ustozining «ash-Shifo» kitobiga yozgan muqaddimasila shularni keltiradi:

«Mening hikmat [falsafa] ilmlariga bo‘lgan muhabbatim va ma’rifatga chinakam rag‘batim o‘z yurtim, mamlakatimni tashlab, xudo umrini uzun qilgur

<sup>90</sup> Sharifjon maxdum Sadri Ziyo, Tazkirai shuaron mutakaddimiyn va salotin, UzSSR FA ShI fondi, inv. №2193/X, 272 a-varak; Saxobiddin Siddikov, Ibni Sino ba’di 900 sol (Ibn Sino 900 yildan suyag), gaz. «Maorif va madaniyat», Dushanba, 1980 yil, 28 fevral

<sup>91</sup> Bu shaxarga borgan haqida Ibn Sino ma’danlar haqida yozgan asarida ham aytib utgan. Bu yerda olim toshga aylangan kulcha non haqida gapiradi. Karang: «Uzbekistonda progressiv njtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga doir materiallar» (Bundan keyin Materiallar. deb olinadi), Toshkent, 1959, 123- bet; Беленицкий А., Гсолого-минералогический трактат Ибн Сины, «Изв. Отд. общ. наук АН ТаджССР», вып. 1\, 1953, с. 48 (Bundan keyin А. Belenitskiy, deb olinali)

<sup>92</sup> Ibn Abi Usaybia, 4-bet; Ibn Sino, Tarjimai hol, 9-bet.

Shayx ar-ra'is Abu Alining yashagan shaharlariga ko'chib borishga majbur qildi. Nega desangiz, mening u kishi haqida eshitib yurgan gaplarimga ko'ra Abu Alqga nisbatan moyil bo'lgim kelardi. O'shanda eshitganlarimga faraganda, Abu Ali hali yosh va hatto yigit bo'lmasidan oldin, hatto yoshi, yigirmadan oshmagan chog'ida ham bu ilmlarda mahorat qozongan ekan. Eshitishimga qaraganda, u ko'p asarlar ta'lif qilgan ekan, shu bilan birga, u birovga ilm-ma'rifat berishdan erinmaydigan va o'z asarlaridan boshqalarning nusxa olishiga rag'bati zo'r odam ekan. Shuning uchun ham men u kishini qidirib topishni niyat qilib oldim; rostdan ham Abu Ali men o'ylaganday odam bo'lib chiqdi. Shu bilan birga, bu hol undan ajralmaydigan bo'lishimga, uning asarlar ta'lif qilishiga ahamiyat berishimga olib keldi, bordi-yu, asarlar ta'lif qilgan bo'lsa, ularni mahkam tutib turishini undan iltimos qilishim borasida qilgan jonbozliklarim to'g'ri bo'lib chiqdi. Shunday qilib, Abu Ali Jurjonda ekan vaqtda yoshi o'ttiz ikkiga yaqinlashtganida men uni shu yerda axtarib topdim. Bu paytda Abu Ali sultonning xizmatida bo'lib, uning ishlarini idora qilish bilan band edi»<sup>93</sup>.

Abu Ubayd al-Juzjoniyning bu so'zlariga qaraganda ham, Ibn Sino Jurjonga 1012 yili kelgan bo'lib chiqadi.

«Ajoyib at-tabaqot» asaridan yuqorida keltirilgan parchaga va Sharifjon Maxdum gapiga ko'ra, Ibn Sino yetti yil Xorazmda yashagan bo'lsa, Buxoroni u 1005 yillarda tark qilgan bo'lib chiqadi. Bu esa Somoniylarning so'nggi merosxo'ri Muntasirning o'limi yuz bergan yiliga to'g'ri keladi<sup>94</sup>.

Bu borada T.O. N. Zavadovskiyning Ibn Sino 1005 yilgacha Buxoroda yashagan degan fikri asosli bo'lib chiqadi.

Xorazmda Ibn Sino ko'p mu'tabar zotlarni, fozilu komil olimlarni ko'radi, bular bilan birga bo'lib, suhbat va munozaralardan bahramand bo'ladi, Abu Rayxon Beruniy bilan uchrashadi. Bu vaqtgacha, hali Buxoroda ekanligida dong chiqargan Abu Ali ibn Sino o'ziga Abu Rayxon diqqatini tortgan edi. Ilgarilari bu ikki olim o'rtasida fanning har xil sohalarida ilmiy yozishmalar ham bo'lib turgan.

---

<sup>93</sup> Yaxyo Maxdaviy, O'sha asar, 127-bet.

<sup>94</sup> Muntasirning o'limi haqida. Qarang: Bartold V. V., O'sha asar, 1-bet.

Yu. N. Zavadovskiy ikki olim o'rtasidagi bu yozishmalarni 998—999 yillar orasida bo'lgan, degan fikrni o'rtaga tashlagan edi.<sup>95</sup> Hatto ular o'rtasida bo'lgan yozishmalar tarixga ham kirib qolgan, bular qo'lyozma holida bizgacha yetib kelgan va bir qismining dastlab o'zbekcha tarjimasi bilan arabcha matni nashr etilgan edi.<sup>96</sup> Keyinchalik uning ruscha tarjimasi ham, ularga bag'ishlangan tahlillar ham e'lon qilindi.<sup>97</sup> Ibn Sino bilan Beruniy o'rtasidagi do'stlik ishlari asosida Xorazmda bo'lgan uchrashuv yana ham ajoyib tus oladi, ilgarilari yozishma orqali tanish bo'lganlar endi uchrashib turadilar. Gurganchda bo'ladigan ilmiy anjumanlar yana ham maroqli o'tadigan bo'ladi.

Abu Rayxon Beruniy minginchi yillarda yozib tugatgan va keng kitobxonlar ommasiga ma'lum bo'lgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Ibn Sino bilan bo'lgan yozishmalarini eslab o'tgan edi. Beruniy bunda dunyolarning ko'pligi, bo'sh liq masalasi, og'irlik va yengillik, jismlarning atomdan tashkil topganligi, ularning issiqlikdan kengayishi, nurning akslanishi va sinishi kabi mavzularni tilga oladi.<sup>98</sup> Ana shu masalalarga tuxtab Beruniy yozadi:

«Bu masalani shu kitobdan loyiqroq boshqa joyda, ayniqsa, men bilan fozil yigit Abu Ali Xusayn ibn Abdulloh ibn Sino orasida shu bob ustida bo'lgan muzokaralarda bayon etilgan»,<sup>99</sup> deb bu masalaga qiziqqanlarni o'sha yozishmalarni mutolaa qilishga havola qilib, yuqoridagi satrlarni yozgan edi. Bundan ko'rinishicha, Abu Rayxon Beruniy oldin ham Ibn Sino bilan tanish bo'lgan.

---

<sup>95</sup> Zavadovskiy Yu. N., o'sha asar, 11-bet Bulgakov P. G., o'sha asar, 62-bet

<sup>96</sup> Bu yozishma savol-javoblar UzSSR Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kitob fondida 2385 raqamli qo'lyozma jildida saqlanadi. Shu qo'lyozma nusxa asosida bu kitobning o'zbekcha tarjimasi 1950 yili UzSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti tomonidan «Beruniy bilan Ibn Sinoning savol-javoblari» (tarjimon M. Abduraxmonov va A. Rasulov, mas'ul muxarrir S. Mitallibov) nomi bilan nashr etildi. Bunda arabcha matn ham chop etilgan. 1973 yili bu tarjima Beruniyning tug'ilganiga ming yil to'lishi munosabati bilan ikkinchi bor ham o'zbek, ham rus tillarida aloxida-aloxida kitob shaklida nashr etildi. Bu savol-javob «O'zbekistonda progressiv ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga doir maternallar» kitobida ham qisman chop etilgan

<sup>97</sup> Bu savol-javoblarni Yu. N. Zavadovskiy bajargan ruscha tarjimasi «Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане» to'plamida nashr etilgan.

<sup>98</sup> Karimov U. I., Abu Rayxon Beruniy (hayoti va ijodi). Qarang: «Beruniy» (to'plam), 1973, 22-bet

<sup>99</sup> Abu Raxon Beruniy, Kadimgi xalqlardan kolgan yodgorliklar. Saylanma asarlar, tom, arabchadan A. Rasulov tarjimasi. Mas'ul muxarrir I. Abdullaev, 1968, 301-bet.

Ibn Sinoning Xorazm o'lkasida bo'lganligi haqida har xil munosabatlar bilan uning asarlarida ham ba'zi satrlar chertib ketilgan. Chunonchi, «ash-Shifo»ning «al-Hayvon» qismida 1006 yili Xorazmda ko'rgan bir fil haqida yozadi.<sup>100</sup>

Bu asarning boshqa o'rinlarida ham Ibn Sino hayvonot dunyosidan kirgan ba'zi bir qiziq hodisalarini yozadi.<sup>101</sup> Shu bilan birga, Ibn Sino Xorazmga tushgan meteoritni eritishga uringani haqida ham yozadi.<sup>102</sup> Shunga ko'ra ham Ibn Sinoning bu davrda ma'lum muddat Xorazmda yashaganligini ko'ramiz. Ammo u Xorazmda doimiy qo'nim topa olmaydi. Chunki bu orada kuchayib kelayotgan G'azna hukmdori Maxmud G'aznaviy bu o'lkaga ko'z olaytira boshlaydi. Dastlab Xorazm hukmdoriga singlisini uzatib,<sup>103</sup> uni o'ziga kuyov qilib olgan Maxmud Raznaviy bu o'lkaga nisbatan buzuq niyatda bo'ladi. Bu holatni o'z asarida bayon etgan Abu-l-Fazl Bayhaqiy «Mas'ud tarixi»da Beruniyning bizgacha yetib kelmagan tarixiy asaridan olingan parchalar orqali yozib qoldirgan. Bulardan ko'rinishicha, dastlab Maxmud Xorazmga har xil yo'l bilan ta'sir ko'rsatishga, uni o'ziga qaratishga uringan.<sup>104</sup> Hatto uni butunlay G'aznaga bo'ysundirgan<sup>105</sup> Abu Ali ibn Sino G'azna hukmdorining xatti-harakatlarini oldindan sezib, Xorazmda qolmaslikni, u yerdan bosh olib chiqib ketishni lozim topadi. U endi Maxmud G'aznaviy qo'li yetmagan joylarga ketishga o'tlanadi.<sup>106</sup>

Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'z asarida bu borada ajoyib hikoyalarni naql qilgan. Ularning birida, Maxmud Xorazmshohga bir xat yo'llab, u yerdagi to'plangan olimlarni G'aznaga yuborishni talab qiladi. Ba'zi olimlar boradi, Ibn Sino bilan Abu Sahl al-Masihiy G'aznaga borishni istamay, chiqib ketishadi.<sup>107</sup>

---

<sup>100</sup> Abu Ali ibn Sino, ash-Shifo, al-Hayvon, Texron, 1319/1901, 403 sah. «ash-Shifo» Texronda ikki bor 1305 va 1319 xijriy yillarida bosilgan.

<sup>101</sup> Abu Ali ibn Sino, O'sha asar, 408 sah.

<sup>102</sup> «Materiallar», 124-bet; Belenitskiy A., O'sha asar, s. 48. «Materiallar», 124-bet; Belenitskiy A., O'sha asar, s. 48.

<sup>103</sup> Bartold V. V., 1, O'sha asar, 337-bet.

<sup>104</sup> Абу-л- Фазл Байхаккий, История Масъула, перевод с персидского, введение, комментарий и приложения А. К. Арендса, М., 1969, с. 789—821 (Bundan keyin Bayxakiy, Mas'ud tarixi, deb kursatiladi); Bartold V. V., O'sha asar, 339-bet

<sup>105</sup> Bayxakiy, Mas'ud tarixi, 818-bet

<sup>106</sup> Yakubovskiy A. Yu. O'sha asar, 21-bet

<sup>107</sup> Yakubovskiy A. Yu. O'sha asar; Низами Арузи Самарканди, Собрание редкостей или четыре беседы, перевод с персидского С. И. Биевского и З. Н. Ворожейкиной, под редакцией А. Н. Болдырева, М., 1963, с. 112—117 (Bundan keyin Nizomiy Aruziy, deb olinadi).



Ibn Sinonipg Xorazmni tark qilish yilini xijriy 401 va milodiy 1011 Yail deb ko'rsatadilar.<sup>108</sup> Ibn Sino Xorazmni 'al-Masixiy bilan birga tark etadi. Ular Jurjon tomonga yo'l oladilar, chunki Abu Sahl asli Jurjonda tug'ilgan edi.<sup>109</sup> Shuning uchun u Abu Alini ham o'sha tomonlarga olib ketmoqchi bo'lar, yurtida tinch hayot kechirishga umidvor edi. Lekin orzusi ushalmay qoladi.

Yo'lda ancha qiyinchiliklar yuz beradi, yo'l boshlovchi adashib qoladi, shu tariqa yo'l azobi, suvsizlikka bardosh berolmay Abu Sahl al-Masihiy yo'lda vafot etadi. Manbalarning ko'rsatishiga qaraganda, al-Masihiy chindan ham 1011 yilda vafot etgan<sup>110</sup>. Natijada yo'l boshlovchi bilan Ibn Sino ko'p qiyinchiliklardan so'ng, hozirgi Ashxoboddan yigirma chaqirimcha nari bo'lgan Nisoga,<sup>111</sup> undan Abivardga yetib keladilar, so'ng yo'l boshlovchi orqasiga qaytib ketadi, Abu Ali o'sha yerda qoladi. Ibn Sino Xuroson shaharlarining bir nechtasida bo'ladi, lekin u bularning birortasida ham o'ziga doimiy qo'nim tonolmaydi. Unga bu yerlardagi ichki ziddiyatlar, g'alayonlar osoyishtalik bermaydi.

Ibn Sino o'zining keyinchalik yozgan yirik asari «ash-Shifo»ning «Kitob al-hayvon» qismida Dehistonni eslab yozadi:

«Menga Dehiston biyobonidan kelgan bir kishining holini hikoya qilishgan edi: «Agar biror ilon o'sha kishini chaqsa, ilonning o'zi o'lar ekan. Menga hikoya qilib berishlaricha, bir katta ilon uni chaqqach, o'zi o'lib qolibdi, ilon chaqqan odamning esa faqat isitmasi chiqib, bu hol bir kungina davom etibdi. Bu voqyeani eshitganimdan keyin Dehiston biyobonida bo'lganimda o'sha kishini surishtirsam, men borishimdan ilgariroq u vafot etgan ekan. U kishidan bir zurriyot qolgan ekan. Bu borada bolasining xususiyati otasinikidan ham zurroq ekan, u bolada men ajoyib narsalarni ko'rdimu, lekin ulardan ko'pini hozir unutanman. O'sha ko'rganim ajoyibotlardan biri shuki, katta zaharli ilonlar uni tishlashdan yuz o'girar ekan».<sup>112</sup>

---

<sup>108</sup> Zavadovskiy Yu. N., O'sha asar, 11-bet.

<sup>109</sup> Al-Bayxakiy, O'sha asar, 95-bet.

<sup>110</sup> Zavadovskiy Yu. N., O'sha asar, o'sha bet

<sup>111</sup> Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 21-bet

<sup>112</sup> Ibi Sino, al-Xayvon, 417-bet

Ibn Sino bu shaharlarda to osoyishtaligiga putur yetgunga qadar istiqomat qiladi. 1012—1014 yillar orasida u Jurjonda yashaydi. U Jurjonda kelajakda o'ziga shogird bo'lib tushgan Abu Ubayd al-Juzjoniyl bilan tanishadi. Bu paytda Ibn Sino 32 yoshda bo'ladi.<sup>113</sup>

Al-Juzjoniyl (vafoti 1047). Ibn Sinoning eng qobiliyatli va sadoqatli shogirdlaridan bo'lgan. «Tarix hukamo al-islom» kitobi muallifi Zaxiruddin al-Bayhaqiyning<sup>114</sup> ko'rsatishicha, fakih hakim Abu Ubayd Abdulvohid al-Juzjoniyl asli juzjonlik bo'lgan. Bu viloyat hozirgi Afg'onistonning shimolida, Amudaryo bilan Murg'ob o'rtasida joylashgan.<sup>115</sup> Abu Ubayd ilm-ma'rifat istab Kaspiyl bo'ylarida joylashgan Jurjon (hozirgi Gurgon) ga kelib, o'sha yerda Ibn Sino bilan tanishadi va unga shogird to'shadi. Bu voqeya 1012 yilda yuz beradi. Abu Ubayd Ibn Sino umrining so'nggi damigacha u bilan birga bo'ladi. Abu Ubaydning o'zi yozishicha, u Ibn Sino bilan yigirma besh yil davomida birga bo'lgan.<sup>116</sup> Ibn Sino tarjimai holining yozilib qolishi, ko'pi asarlari ta'lifi va tartibga tushishi shu kishi tufayli bo'lgan. Ibn Sino asarlarining davrimizgacha yetib ketshida al-Juzjoniyl katta xizmat ko'rsatadi. Ibn Sino fikh, andishasini, uning zakovat-qobiliyatini eng yaxshi tushungan kishi ham Abu Ubayd bo'lgan. O'zi ham yirik olim bo'lgan, asarlar ta'lif qilgan, lekin u Ibn Sino asarlarini avaylab saqlab, ularni ko'chirib yozish, nusxasini ko'paytirish, ularni kelajak avlodga yetkazishdek olijanob burchni to'la tushunib yetgan. Buyuk olim Ibn Sino asarlarining ko'pchiligi mana shu iqtidorli zot vositasi bilan saqlanib qolganligini nazarga olsak, tarix, ilm-ma'rifat oldida Abu Ubayd Abdulvohid al-Juzjoniylga qanchalar burchli ekanimizni his qilamiz. Zotan, Abu Ubayd Ibn Sinoning eng g'amxo'r odami sifatida asar yozishiga turtki berish, unga sharoit yaratishda katta rol o'ynagan. Ibn Sino haqida eng tuliql ma'lumot ham uning lutfi-tavajjuhi bilan bitilib qolgan. U

---

<sup>113</sup> Zavadovskiy Yu. N., O'sha asar, 12-bet

<sup>114</sup> Zaxiruddin al-Bayxakiyl, O'sha asar, 100-bet

<sup>115</sup> O'zbek Sovet Ensiklopediyasi, 4-t. Toshkent, 1973, 389-bet.

<sup>116</sup> Bu joy haqida qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Islom Ansiklopedisi, 3 jild (turk tilida), Istanbul, 1963, 229—280 sax.

Ibn Sino haqida xotiralarini yozib qoldirdi,<sup>117</sup> «ash-Shifo» kitobiga muqaddima yozdi.<sup>118</sup> Ibn Sino asarlarining nus'halanishi, tartibga tushishi ham al-Juzjoniylar nomi bilan borliq. Ibn Sino fikrlarini tushunib yetish ham ozmuncha ilm talab qilmasligini ko'z oldimizga keltirsak, Abu Ubayd al-Juzjoniylar iqtidori ko'rinadi. U sermutolaa olim bo'la turib, o'zi haqida hech qanday ma'lumot yozib qoldirmaydi. U Ibn Sino bilan Isfaxonga kirib borganida allomaning do'stlari hamda amir Alouddavla yuborgan amaldorlar ularni kutib oladi. Shunda ham al-Juzjoniylar «bizni» kutib oldi, deb yozmaydi. Balki bu kutib olishlarning hammasi Ibn Sinoga nisbatan bo'lgan hurmat ekanligini, boshqalar uchun emasligini bilib, Abu Alini kutib oldi<sup>119</sup> deb yozadi.

Zaxirudlin al-Bayxakiylar bu kishi haqida yozib, Ibn Sino ning «ash-Shifo» asari yozilishiga qayg'urgan, uni hozirgi davrdagi shakliga keltirgan, «an-Najot»ni tartibga solgan, riyoziy ilmiy aloqador bo'lgan «Aloiy risolasi» kabilar tugal bo'lib qolishiga shu al-Juzjoniylar sabab bo'lgan,<sup>120</sup> deydi. Undan tashqari, Abu Ubayd «Tib qonunlari» asarining qiyin joylarini tafsirlagan, «Xayy ibn Yakzon» qissasiga sharh yozgan.<sup>121</sup>

Abu Ubayd fors tilida «Kitob al-hayvon» degan asar yozgan, uning bir nusxasi Nishopur shahridagi Nizomiya qo'lyozmalar xazinasida mavjud. Ba'zi ustozlarimning aytishiga qaraganda, deydi al-Bayhaqiylar hakim Abu Ubayd Abu Ali bilan bo'lgan yillarda ustoziy oldida o'zini shogird sifatida emas, balki murid sifatida tutar ekan.<sup>122</sup> Abu Ubayd ustoziy haqida o'ziga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni berib ketadi-yu, lekin o'ziga kelganda xasislik qiladi, onda-sonda munosabat bilan aytilgan gaplardan bir fikrga kelinmasa, u o'zi ustida to'xtashni lozim ko'rmaydi. Hatto so'z yuritishni odobsizlik deb biladi.

---

<sup>117</sup> Ibn Abi Usaybiya. O'sha asar, 7-bet. Abu Ubayd al-Juzjoniylar haqida yozgan xotiralarini arabchadan o'zbekchaga qilgan tarjima «Guliston» (№ 6, 1979, 9—12-betlar)da bosilgan.

<sup>118</sup> Abu Ubaydning «ash-Shifo» kitobiga yozgan muqaddimasi haqida karang: Maxdaviylar, O'sha asar, 127-129-betlar.

<sup>119</sup> Ibn Abi Usaybiya, O'sha asar, 6-bet.

<sup>120</sup> Al-Bayxakiylar, O'sha asar. 100-bet; Maxdaviylar, O'sha asar, 129-bet.

<sup>121</sup> Al-Bayxakiylar, O'sha asar, 101-bet.

<sup>122</sup> Al-Bayxakiylar, O'sha asar, 101-bet.

Ibn Sino Jurjonda Abu Ubayd al-Juzjoniyl bilan topishib, butun umr do‘st bo‘lib qolishdi; Abu Alining qanday odamligini tushunib yetgan bu zot o‘zining anchagina yetuk olim bo‘lib yetishganiga qaramay, doimo ustoziga ko‘mak berib keldi, hatto dafnigacha birga bo‘ldi.

Ibn Sino Jurjonda (1012—1014). Abu Ali ibn Sino ziyoriyl hukmdoridan bo‘lmish Qobus ibn Vushmagir hukmronlik qilgan Jurjonda 1012—1014 yillar orasida hayot kechiradi.

Zivriylar asli daylamliklardir. Uninchi asrda xalifalikka qarashli hozirgi Eron yerlarida daylamliklar katta rol o‘ynagan. Daylam — tovlik o‘lka bo‘lib, iqtisodiy jihatdan kambag‘al bu diyoy uz aholisini boqishga ham qurbi yetmas edi. Shu jihatdan bu o‘lka aholisi, ayniqsa, yoshlar ish qidirib tarki vatan etishga majbur edilar. Yosh yigitlar to‘g‘ri kelgan hukmdorga askarlikka yollanib ishga kirar, shu tariqa kun ko‘rar edilar. Mana shunday daylamliklardan biri Mardovij ibn Ziyor dastlab somoniylar saroyida xizmat qila boshlaydi. U yollangan daylamliklar yo‘lboshchisi bo‘lib, o‘ziga qaram bo‘lgan askarlar yordamida 928 yili Gurgon va Tabaristonni bosib oladi, ziyoriylar sulolasini asosladi. Bu sulola 1042 yilgacha davom etdi. Keyin Mardovij ibn Ziyor Garbiy Eronga yurish qilib, 935 yilgacha - yetti yil davomida Ray, Kazvin, Hamadon, Isfaxop, Sheroz shaharlarini o‘ziga qaratdi.<sup>123</sup> Mardovijning bu harakatida daylamlik buvayxiylar xonadonidan bo‘lmish uch aka-uka — Ali, Xasan va Ahmadlar sadoqatli sarkarda sifatida unga xizmat ko‘rsatadilar, buning natijasida ularning har biri ma‘lum o‘lkada Mardovijning noibi bo‘lishga sazovor bo‘ladilar. Yollangan askarlar xizmatini ko‘rgan Mardovij o‘z ko‘shinilari daylamliklardan tashqari sotib olingan qullarni ham tutar edi. Mana shundaylardan tashkil topgan yana to‘rt ming otliq turk gvardiyasi ham bor edi.<sup>124</sup>

Lekin Mardovij ibn Ziyorning hukmronligi ko‘pga cho‘zilmaydi, 935 yili turk qullari unga suiqasd uyushtirib o‘ldiradilar. Fursatdan foydalangan buvayhiylar Marlovij ibn Ziyor ixtiyorida bo‘lgan G‘arbiy Eronni egallab oladilar.

---

<sup>123</sup> История Ирана, М., 1977, с. 136.

<sup>124</sup> O‘sha asar. 136-137-betlar.

Ularning kattasi — Ali Isfaxonni egallaydi, ko'p o'tmay, u Fors viloyatini ham o'ziga qaram qilib oladi. O'rtanchasi bo'lsa Jabalni, Axmad Xuzistonni egallaydi, keyin Kermanni qo'shib oladi. Shu tariqa G'arbiy Eronda xalifalik hukmronligi qulab, Buvayhiylar davlati (935—1055) vujudga keladi. Ziyoriyalar (928—1042) da Gurgon bilan Tabaristonning bir qismi qoldi, xolos.

945 yili buvayxiylarning kichigi Axmad Bag'dodga lashkar tortib borib, Iroqning arab qismini egallaydi, hatto xalifadan o'ziga amirlar amiri degan faxriy unvon ham oladi. Bunday faxriy unvon uning akalari — Ali bilan Xasanga ham beriladi. Amirlar amiri Ahmad xalifa Mustaqfiyni (440—945) yiqitib, uning ko'zini ko'r qiladi, o'rniga boshqa abbosiylardan bo'lgan Mug'i'shi (946—974) xalifalikka ko'taradi. Shu bilan abbosiylar ikki yuz yil davomida (945—1132) bu o'lkalar ustidan hukmronlikni butunlay yo'qotadilar, ular faqat rasman hukmron sanalar, xutba, pul zarb qilishda xalifa nomlari ishlatiladi, aslida esa buvayhiylar, somoniylar, ziyoriylar hukm toritar edi.

Bu orada Eron ikki davlatga ajralgan edi; g'arbda buvayhiylar, sharqda somoniylar hukmron edi. Buvayhiylar yagona markazlashgan davlati yo'q edi, ular uch aka-uka va uning merosxo'rlari o'rtasida, keyinchalik ularning bolalari o'rtasida bo'linar edi. O'rtancha buvayhiylardan bo'lgan Xasanning uvli Fanna Xisrov (949—983) ularning eng zo'r hukmdori sanalar edi, u Adud ad-Davla degan laqab ham olgan. Bu kishi butun G'arbiy Eron va arab Iroqini birlashtiradi, 973 yili Umanni o'ziga bo'ysundiradi. Lekin ko'p o'tmay, Adud ad-Davla o'lgach, buvayhiylar saltanati yana parchalanib ketadi.

Ibn Sino Jurjon (Gurgon)ga borganda ziyoriylardan bo'lmich Shams-ul-maoliy Qobus ibn Vushmagir (978—1012) hukmron edi. Bu mahalda ziyoriylarga Jabal, Qorun, Gurgon, Tabariston, Omul, Soriy, Astrobodga qarar edi. Qobus 978 yili o'z birodari o'rniga saltanatga o'tiradi. 981 yili buvayhiylarning hujumi tufayli o'z yurtidan qochadi va Maxmud G'aznaviy dargohida panohtopadi, keyin o'z

yurtiga qaytib, yana 15 yil hukm suradi.<sup>125</sup> Mana shu paytlarda Ibn Sino Jurjonga kelgan edi.

Ibn Sino amir Qobusning oldiga kirishga qasd qilgan kezlarida Qobusni tutib, qal'aga qamab qo'yishgan bo'ladi. U o'sha yerda o'ladi.<sup>126</sup>

Bu voqyea Jurjon bilan Astrobod o'rtasida Chanoshaq qal'asida yuz beradi. Qobus askarlari uni tutib, kiyim-kechaksiz qoldirishadi, qish boshlangan, sovuq tushganidan Qobus ayozda qolib o'ladi.<sup>127</sup>

Said Nafisiy Ibn Sinoni 404/1014 yili ham Jurjonda bo'lgan,<sup>128</sup> deydi. Abu Ubayd al-Juzjoniy «ash-Shifo»ga yozgan muqaddimasida eslashicha, u Ibn Sinoni o'ttiz ikkiga yaqinlashganida Jurjonda ko'rgan, shunda Abu Ali sultonning xizmatida bo'lgan<sup>129</sup>.

«Bunday ishlar, - deb yozadi al-Juzjoniy, — Abu Alining qo'l vaqtini olar edi. Men bo'lsam, ozgina bo'lsa ham qulay fursat topib, u kishining oldiga kirib, mantiq va tabiatdan oz-moz aytib tursalaru, men uni yozib olsam, degan talab quyardim».<sup>130</sup>

Mana shu satrlardan ma'lum bo'lishicha, Ibn Sino Qobus o'limidan keyin ham Jurjonda qolgan va uning o'g'li amir Falaq ul-maoniy Manuchehr (1012—1029) saroyida ishlagan, Nizomiy Aruziy «Chaxor makola»<sup>131</sup>sida keltirishicha, Ibn Sino amir Qobus bilan ko'rishgan, shunda amir kasal jiyanini davolashni undan suragan. Ibn Sino bolani ko'rib, uning oshiq ekanini aniqlagan. Bu bilan Ibn Sino Qobusdan ko'p ehtiromlar ko'rgan. Bu voqyea Ibn Sinoning zo'r tabib ekanligini, uning inson ruhiy holatining nozik tomonlarigacha tushunib yetganini ko'rsatadi.

Undan tashqari, «Chahor maqola» avtorini keltirishicha, Xorazmdan qochgan Ibi Sinoni qo'lga kiritmokchi bo'lgan Maxmud G'aznaviy uning rasmini chizdirib,

---

<sup>125</sup> Nafisiy S., O'sha asar, 75-bet.

<sup>126</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 4-bet.

<sup>127</sup> Nafisiy S., O'sha asar, 76-bet.

<sup>128</sup> Nafisiy S., O'sha asar, o'sha bet.

<sup>129</sup> Maxdaviy, O'sha asar, 127-bet.

<sup>130</sup> Maxdaviy, O'sha asar, o'sha bet.

<sup>131</sup> Nizomiy Aruziy Samarkandiy, 112—117-betlar.

ko'pi o'lkalarga, shular qatori Gurgonga ham axtarish uchun yuborgani va uni Qobus bilgani hikoya kilinadi.<sup>132</sup>

Lekin Nizomiy Aruziy Samarqandiyda keltirilgan hikoyalar tarixiy asar sifatida emas, balki badiiy asar sifatida qaralmog'i kerakki, unda Ibn Sinonan ulug' bir insonning yetuk alloma ekanligini ustalik bilan band etilsa-da, hikoya qilinayotgan voqyealar tarixiy nuqtai nazardan ba'zan bir-biriga zid, yillar to'g'ri kelmaydi. Masalan, Ibn Sino o'z tarjimai holidan Qobusni ko'rmaganman, deb tursa-da, boshqalar unga, yo'q, sen ko'rgansan, deb tursa, bu haqiqatga to'g'ri kelmas. Lekin badiiy adabiyotda bu bo'lishi mumkin hodisa. Nizomiy Aruziy yozganlariga shu nuqtai nazardan qaralsa, unga to'g'ri baho bergan bo'lamiz.

Chunki Qobus bilan Ibn Sino bir-birini ko'rmaganini uning o'zi ta'kidlaganidek, boshqalar ham qayd qilib o'tgan edi. Balki Ibn Sinoning oshiq yigitni davolashi Qobus davrida emas, balki uning vorisi Manuchehr davrida yuz bergan bo'lishi ham mumkin. Ibn Sino shu joyda o'ziga qo'nim topolmay yurtmavurt kezmanlarini ifodalab yozgan qasida-she'ridan bir bayti bizgacha yetib kelgan. Shu baytda u shunday yozadi:

*«Men ulug' bo'lganimda katta shaharlar ham tor bo'lib qoldi,  
Qimmatim oshganda haridorim ham topilmay qoldi».*

Bu baytdan Ibn Sinoning qanchalik qiynalganini, musofir yurtlarda uning ahvoli qanday kechganini bilish qiyin emas.

Ibn Sino bu orada Jurjondan Dehistonga boradi va yana Jurjonga qaytib keladi. Ko'p o'tmay kasalga chalinib qoladi.

Tarixchi Muhammad Toxir ibn Abulqosim asarida Ibn Sinoni Jurjonga borgani haqida shu satrlar yozilgan: «Abu Ali Sino Jurjonga borgan paytida Jurjon viloyatida bemorlar ko'payib ketgan edi. Kasallardan unga kim to'g'ri kelgan bo'lsa, davolagan edi, ular sihat topib ketaverishdi. Shu sababdan ham Abu Alining nomi Jurjonda tillarga tushib, xalq orasida keng tarqalib ketdi».<sup>133</sup>

---

<sup>132</sup> Nizomiy Aruziy, O'sha asar, 116-bet.

<sup>133</sup> Muhammad Toxir, O'sha asar, 175 a-varak.

Abu Alining bundan keyingi davr hayoti haqida biz al-Juzjoniyy yozganlaridan bilishimiz mumkin. Bu esa allomaning Abu Ubayd bilan Jurjonda tanishganidan boshlanadi. Abu Ubaydning yozishicha, Ibi Sino Jurjonda yashayotgan kezida u yer ahli orasida ko'p tanish orttiradi. Ular Ibn Sinoga zo'r hurmat bilan qaraydilar. Bu kishilar Ibi Sinodagi ilmiy qobiliyat, zakovatni ko'rib, uning qadrita yetgan, suhbatiga ishqivoz bo'lgan kishilar edi. Bu hakda ma'lumot qoldirgan Abu Ubayd al-Juzjoniyy shularni yozadi:

«Jurjonda Abu Muhammad ash-Sheroziy degan bir kishi bor edi. U kishi bu ilmlarni<sup>134</sup> yaxshi ko'rar edi. Shayxga deb o'z qo'shnisiniig uyini sotib oldi va Abu Alini o'sha yerga joylashtirib qo'ydi».<sup>135</sup> Mana shunday ezgu munosabatlar og'ushida Ibn Sino bir oz vaqt Jurjonda yashaydi. Ibn Sinoning ajoyib xislatlaridan biri shu bo'lganki, u o'z ilmiy ishlari, ta'liflari uchun hiech vaqt uta tinch-osuda sharoitni avvalo topolmagan, keyin unday ahvolni kutmagan ham. Ammo hiech qachon uning qo'li qalamdan bo'sh qolmagan. U dam olishni bilmas, o'ziga nisbatan ayovsiz edi. Sharoit qanday bo'lishidan qat'i nazar, darhol ta'lif qilishga, kiritardi. U o'zida bor bo'lgan fursatni qo'ldan boy bermaslikka harakat qilar edi.

Jurjonda Ibn Sino asarlar ta'lif qilish bilan birga tabib sifatida odamlarni davolaydi ham. Ibn Sino tabibliigi haqida o'rta asrlarda tug'ilgan har xil afsonalar ichida Jurjonga nisbat berilganlari ham bor. Davolash, bir tomondan, Ibn Sinoga daromad manbai bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu yerda ta'lif qila boshlagan «Tib qonunlari» asariga ma'lumot bo'lib, uning nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazuvchi bir «laboratoriya»<sup>136</sup> edi. Chunki Abu Ali doimo kasallarni ko'rar, ularning dardini aniqlar, kasallik sabablarini surishtirar, uning tuzalish jarayoni va bergan dori-darmonlarining ta'sirini kuzatar edi. Abu Ubayd o'z ustoziniig Jurjondagi hayoti haqida yozar ekan, u bu yerda birgina tabobat bilangina mashg'ul bo'lib qolmaganligi, shogirdlariga astronomiya va mantiq fanlaridan dars berganini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, har kuni u Ptolomeyning

---

<sup>134</sup> Matnda «Xazixi-l-ulum» yozilgan. Bu bilan muallif falsafiy ilmlarni nazarda tutmokchi bo'lsa kerak.

<sup>135</sup> Abu Ubayd al-Juzjoniyy, Ibn Sino haqida, 9-bet (Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 4-5-betlar).

<sup>136</sup> A.Yu. Yakubovskiy Ibn Sikoning tabobatdagi kuzatuvchnayk bu: pshiii laboratoriya deb atagan edi. Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 23-bet.



«al-Majistiy» («Almatesta») kitobini Ibn Sino qoshida o‘qir ekan. Bu kezlarning birida Abu Ubayd Uz ustoziga mantiq haqida bir kitob yozib berishini iltimos qilib qoladi. Chunki Ibn Sino mantiq ilmini juda chuqur va atroflicha bilar edi. Shunda u shogirdiga «al-Muxtasar al-avsat fi-l-mantiq» («Mantiqqa oid o‘rtacha qisqartma») kitobini yozib beradi. Shogirdining yozishicha, Abu Ali bu kitobini aytib turgan va u yozib olgan. O‘sha kezlarda Ibn Sino Abu Muhammad ash-Sheroziyga atab «Kitob al-mabda va al-maod» («Narsalarning boshlang‘ichi va asliga qaytishi haqida kitob») bilan «Kitob al-arsod al-kulliya» («Umumiy kuzatish kitobi») ni yozib beradi.

Abu Ubaydning yozishiga qaraganda, Ibn Sino Jurjonda tinch-osuda hayot kechirib, bemorlarni davolash hamda kitob ta’lif qilish bilan shukullanadi. Bu yerda u jaxonga mashhur bo‘lgan asari «Tib qonunlari»ning avvalgi qismlarini yozishga tushadi, keyin «al-Majistiyning qisqartmasi» va boshqa ko‘p risolalar yozadi. Abu Rayxon Beruniy so‘ziga qaraganda, Qobusning qizi Zarrii Gisu topshirig‘i bilan Abu Ali ibn Sino Jurjon uzunlamasini aniqlash bilan shug‘ullangan, bu borada u maxsus risola ham yozgan.<sup>137</sup> So‘ngra Abu Ali Eronning tarbidagi Jabal viloyatiga kelib ham ta’lif ishlari bilan mashtul bo‘lgan. Al- Juzjoniylar Uz xotiralarida Abu Alining Jabalga kelganini bayon etgach, uning qirq yetti kitobi ro‘yxatini keltiradi. Bu kitoblar orasida Ibn Sinoning hali Buxoroda yashagan kezlarda qilgan tafliflari, undan keyin yozgan asarlari nomlari ham bor. Albatta, bu asarlar ro‘yxati dastlab to‘la bo‘lib, Ibn Sinoning barcha asarlari kirgan bo‘lishi kerak. Keyinchalik bular bizga noma’lum har xil sabablarga ko‘ra qisqarib ketgan bo‘lishi kerak. Hozirgi kunda Toshkentda, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan «Rasoil hukamo» («Faylasuflar risolalari») to‘plami qo‘lyozmasi ichida saqlanayotgan «Fexrist qutub Shayx ar-Rais» («Shayx ar-Rais Abu Ali ibn Sino kitoblari ro‘yxati») nusxasini Sodiql Mirzayev o‘z asarida keltirib,<sup>138</sup> al-Juzjoniylar yozgan

---

<sup>137</sup> Abu Rayxon Beruni, t. Pe, Geodeziya, issledovanie, perevod i primechaniya N. G. Bulgakova, Tashkent, 1966, s. 202, 231.

<sup>138</sup> Mirzaev S., O‘sha asar, 33-44-betlar.

o'sha «Fexrist» mana shu bo'lishi kerak,<sup>139</sup> degan edi. Bu ro'yxatda Ibn Sinoning 148 asari nomi keltirilgan. Lekin bu ham tuliq emas ko'rinadi, unda bir qancha asarlar ko'rinmaydi. Ibn Sinoning «al-Ishorot» asariga sharh yozgan Nasiruddin al-Tusiy (1201—1274) aya-Jurjoniyning tuzgan ro'yxati qo'lga tushib qolib, unda allomaning «Salomon va Ibsol» qissasi borligini ko'rganini yozgan edi.<sup>140</sup> Lekin hozirgi mavjud ro'yhatlarning hych birida bu asar nomi eslanmaydi. Demak, al-Juzjoniyning tuzgan ro'yxat ko'p bor o'zgarish va qisqarishlarga duch kelgan.

Abu Ubayd al-Juzjoniyning ustozlari haqida o'z xotiralarini yozar ekan, Jurjon va Jabalda qancha vaqt bo'lgani haqida yozmaydi. Tarixchi A. Yu. Yakubovskiy Ibn Sinoning Jurjonda yozgan asarlariga qarab u bu yerda besh yildan kam vaqt bo'lmagan,<sup>141</sup> deb ko'rsatadi. Bunday holda Ibn Sino 1017 yillargacha Jurjonda bo'lgan bo'lib chiqadi. Said Nafisiy fikricha, Ibn Sino 1014-1019 yillar orasida Rayda bo'lgan.<sup>142</sup> Yuqorida keltirganimizdek, Ibn Sino 1012 yil boshlarida Jurjonga kelgan bo'lsa, uch yil davomida, to 1014 yil oxirlarigacha bu yerda yashagan.

Ibn Sino Rayda (1014). Abu Ubaydning yozishicha, «Shundan so'ng (ya'ni Jabaldan so'ng demoqchi — A. I.) Abu Ali ibn Sino, Rayga<sup>143</sup> ko'chadi. Rayda u Sayyida Xotun va uning o'g'li Majdud-1 davlatiga xizmatiga kiradi».<sup>144</sup>

Ray hozirgi Tehron chegaralaridagi rayon nomi. Bu qadimiy shahardan hozir xarobalargina qolgan, xolos. O'rta asrlarda bu shahar davlat markazi ham bo'lgan. Buvayhiylardan bo'lmish Faxruddavla (988—997) hukmronlik qilib, Rayni o'ziga poytaxt qilgan edi. Faxruddavla vafotidan keyin Ray markaz bo'lgan viloyatlar uning katta o'g'li Majduddavla Abu Tolib Rustam (hukmronlik yillari 997—1029) ga o'tadi.<sup>145</sup> Shahzoda yosh bo'lgani sababli<sup>146</sup> davlatni boshqarish

---

<sup>139</sup> Mirzaev S., O'sha asar, 33-44-betlar.

<sup>140</sup> Tusiy N., Sharx al-ishorot, Istanbul. 1873, 364-bet.

<sup>141</sup> Yakubovskiy A. Yu. O'sha asar, 923-bet.

<sup>142</sup> Said Nafisiy, O'sha asar, 78-bet.

<sup>143</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet; al-Juzjoniyning, O'sha asar, 9-bet, yana: Taysir Shayx al-Arld, O'sha asar, 16-bet.

<sup>144</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet; al-Juzjoniyning, O'sha asar, 9-bet.

<sup>145</sup> Majduddavla bu maxalda ba'zi manbalarda turt yashar, deb kursatiladi. Ibn al-Asir, al-Komil fi-t-torix, 9 juz', 49-bet, UzSSR FA ShI inv. № 6280. Bundan keyin Ibn al-Asir, deb olinadi.

<sup>146</sup> Said Nafisiyda u 11 yashar edi, deb kursatiladi, 76-bet.

tarixiy manba va adabiyotlarda Sayyida Xotun deb nom olgan uning dono onasi zimmasiga tushadi. Ammo uning ukasi Shamsuddavla (hukm yuritgan yillari 997—1002 orasi) esa Hamadon markaz qilingan o'lkalarga hukmronlik qiladi. Hamadon, Karmisin va to Iroq chegarasigacha bo'lgan yerlar unga kirar edi<sup>147</sup>.

Sayyida ancha tadbirkor, aqlli ayol ekanini Rayga ko'z olaytirgan Maxmud G'aznaviy bilan Sayyida haqida saqlanib kolgan bir hikoya ham ko'rsatadi.

Maxmud bu o'lkalarni egallash niyatida daYedata soladi, lekin Sayyida unga javoban jangga chaqirgan.

- Agar men undan yengilsam, - degan u. - Maxmud bir xotin ustidan g'alaba qilgan bo'ladi, bordi-yu men g'alaba qilsam, uning ustidan xotin g'alaba qilgan bo'ladi.<sup>148</sup>

Buni eshitgan Maxmud G'aznaviy bu ishdan qo'lini tortgan.<sup>149</sup> Ibn Sino Rayga kelgach, mana shu Sayyida va uning o'g'li Majduddavla xizmatiga kiradi.

Abu Ubayd yozishiga ko'ra, Ibn Sino Ray hukmroni Sayyida va uning o'g'li Majduddavla (997—1029) huzuriga kelgan. «Ular, - deydi al-Juzjoniyy -Shayxning kimligini o'zi bilan birga olib kelgan kitoblaridan bilishdi, negaki bu kitoblar Shayxning qadr-qimmatini ko'rsatib turar edi»<sup>150</sup>.

Rayda Ibn Sinoni yaxshi kutib oladilar. Abu Ubayd al-Juzjoniyyning yozishicha, «Bu paytlarda Majduddavla dardga chalinib, uni savdoyi kasali yengib qo'yan edi. Abu Ali uni davolash bilan mashg'ul bo'ldi».<sup>151</sup> Chunki Ibn Sino ruhiy kasalliklarni tuzatish yo'lini yaxshi bilganligi bu yerda juda qo'l keladi.

Sharqda tarqalgan hikoyatlardan birida aytilishicha, bir kishi (bu Majduddavla bo'lishi kerak) melanxoliya kasaliga chalinib qoladi. U odamlarga hadeb:

- Men ho'kizman, meni so'yinglar, - der ekan.

Kasalning qarindoshlari Abu Ali ibn Sinoga murojaat qilib, kasalni davolashni so'rabdi. Ibn Sino kasal oldiga qassob sifat bo'lib pichofni fayrab kelib:

---

<sup>147</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 49-bet.

<sup>148</sup> Said Nafisiy, O'sha asar, 76-bet

<sup>149</sup> Said Nafisiy, O'sha asar, 76-bet.

<sup>150</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet; al-Juzjoniyy, O'sha asar, 9-bet.

<sup>151</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, O'sha bet.

- «Qani, so‘yadigan ho‘kizinglarni ko‘rsatinglar», - debdi.

Bemor darhol qassob oldiga chopib kelib:

- So‘yiladigan ho‘kiz menman, - debdi.

Abu Ali ibn Sipo uning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, qo‘liga pichoqni olib qayrabdi-da, biqinidan ushlab ko‘ribdi:

- Ho‘kizimiz semiz demabmidilaring, bu juda oriq-ku, men bunday oriq ho‘kizni so‘ymayman, hych qancha go‘sht chiqmaydi, oldin bu sal semirsin, keyin suyaman, - debdi. Buni eshitgan bemor:

- Qani menga ovqat beringlar, men semiray, - deb ovkat talab qilaveribdi.

Abu Ali ibn Sino ovqat bilan bemorga dori-darmon yediribdi, oilasiga qanday tadbir qilish yo‘lini tayinlabdi. Natijada bemor tuzalib ketibdi.

Bir kuni Abu Ali qassob bo‘lib bemor uyiga boribdi:

- Semirgan ho‘kizinglar qani, suyib beray deb keldim, - debdi va bemorni ko‘rib:

- Iye, ancha semiribsanku, endi seni so‘ysa bo‘ladi, - degan ekan, u:

- Meni so‘yadiganning boshi o‘nta, - debdi do‘q qilib.

Tug‘ishgan qarindoshlarning hammasi avvalgi voqyeani eslab kulishibdi.<sup>152</sup>

Bu hikoyat zamirida shu shahzoda Majdudlavla yotgan bo‘lishi ehtimoldan nari emas, Shuning uchun ham u saltanat tepasida turgan Sayyidaning hurmat va ehtiromiga sazovor bo‘lgan. Chunki Abu Ali bu davolash ishida mahoratini namoyish qiladi, natijada ko‘pchilik nazdida katta obro‘ qozonadi.

Odatda amir va sultonlar o‘z diyoru saltanatida shunday buyuk kishilar yig‘ilsa, ular bilan misoli xazinasidagi davlatidek, uzugidagi qimmatbaho durru yoqutdek maqtanishgan. Rayda Ibn Sinodek buyuk tabibning bo‘lishi chindan ham bu o‘lka uchun katta sharaf edi. Ibn Sino bu yerda «Kitob al-maod» («Qaytyash haqida kitob») ni yozdi.

Bu orada Ray hokimi Majduddavla bilan Hamadon hokimi Pamsuddavla o‘rtasida kelishmovchilik paydo bo‘lgan edi. Chunki Majduddavla eng asosiy markaz sanalgan otasining o‘rni — Ray taxtiga o‘tirgan, ukasi Shamsuddavla esa

---

<sup>152</sup> Irisov A., Abu Ali ibn Sino, Toshkent, 1960, 62-63-betlar.

ikkinchi darajada boʻlgan Hamadon taxtiga mingan edi, bu esa Shamsuddavla ogʻir tuyulgan edi,

397/1006 yili Majduddavla balogʻat yoshiga yetib, davlatni oʻzi boshqarishga kirishadi. Shunda Majduddavla vaziri Abu-l-Abbos Axmad ibn Ibroxim Zabbiy degan kishi edi. Saroyda fitnachi igʻvogarlar dono vazir va amirning onasi Sayyida olib borayotgan siyosatdan norozi boʻlib, vazirga tuxmat uyushtiradi. Natijada Majduddavla vazirni chetlashtiradi. Shundan soʻng Majduddavla davlatni onasi ixtiyoridan oʻz qoʻliga olib, igʻvogarlar boshligʻi Abu Ali ibn Ali al-Qosim Xatirni vazir qilib tayinlaydi. Xatir ilgari vazirdan qutulgan, endi uz faoliyatig halqit berishi mumkin boʻlgan shaxs — tadbirkor Sayyidani payiga tushib, undan qutulishni amirga maslahat berib, uni bar taraf qilmokchi boʻladi. Sayyida Xotun oʻgʻli va vazirning yomon niyatlarini payqab qolib, Xuziston tomonga - erining amirlaridan boʻlgan Badr ibi Xasanvayh dargohiga ravona boʻladi. Sayyida Badrdan panoht istaydi, Badr ham uniyam hurmat-ehtiram bilan qabul qiladi.

Sayyida Xotun Badrdan Rayga oʻgʻli Majduddavla bilan vazir Xatirni nojuya hatti-harakatini bartaraf qilish uchun yordam istaydi. Voqyea Sayyida uylaganday boʻladi. Xuzistondan Badr va Hamadondan Shamsuddavla askar tortib kelib, vazir bilan Majduddavla asir oladilar. Sayyida shunda Ray oʻlkasini ham idora qilishini kichik oʻgʻli Shamsuddavla topshiradi, Badr oʻz joyiga qaytib keladi, Shamsuddavla boʻlsa onasi bilan Rayda qoladi. Bir yilgacha ahvol shunday davom etadi.<sup>153</sup>

Sayyida oʻgʻli Majduddavlani bir yil asirlikda saqlagach, uni qamoqdan qutqarib taxtga oʻtkazadi.<sup>154</sup> Manbalarning xabar berishicha, Majduddavla nisbatan qattiqqoʻl boʻlgan Shamsud davlat siyosatiga qarshi chiqqan askar boshliqlarn undan norozi boʻlib, zindonda yotgan Majduddavlani taxtga oʻtkazishga uringan, natijada Shamsuddavla Hamadonga — oʻz qarorgohiga

---

<sup>153</sup> Ibn al-Asir, Oʻsha asar, 76-bet.

<sup>154</sup> Nafisiy, Oʻsha asar, 77-bet.

ketishga majbur bo'lgan.<sup>155</sup> Shu bilan Shamsuddavla Hamadonga ketadi. Majduddavla bo'lsa 1008 yili ikkinchi bor taxtga minadi. Bu holdan Badr ranjiydi, chunki tartibga tushirilgan ishni o'zgartirib, xotin yana o'z bilganicha ish qilgani unga yokmaydi. Shu bilan bular orasi ham buziladi.<sup>156</sup>

Bu vaqtlarda Eron yerlari bir necha mayda davlatlarga bo'lingan bo'ladi. Shimolda zibriylardan Qobus, Ray va Jibalda buvayxiylardan Majduddavla, Hamadonda Shamsuddavla, Xuzistonda Badr ibn Xasanvayh, Isfaxonda Alouddavla Azduddin Abu Ja'far Muhammad ibn Dushmanziyor Kokuya hukmronlik qilardi. Alouddavlaning otasi amir Majduddavlagaga tog'a bo'ladi.<sup>157</sup> Tog'a so'zi daylamchada «kokuya» deyiladi. Shuning uchun bu amir taxallusi tarixiy asarlarda shu Alouddavla Kokuya nomi bilan mashhur bo'ldi.

Ibn Sino Eron yeriga kelganda mana shu hukmronlar bilan munosabatda bo'lgani, ular yerida ko'chib yurgani, biridan qochib ikkinchisiga borgani uchun bu yerda ular haqida qisqacha to'xtab o'tdik.

Ibn Sino Rayda ham ko'p qolganga o'xshamaydi, Abu Ubayd o'z xotiralarida Ibn Sino Rayda Shamsuddavlaning huzuriga boraman, deb niyat qilgungacha, Xilol ibn Badr o'ldirilib, Bag'dod askarlari chekingunga qadar qoldi,<sup>158</sup> deb yozadi.

Ibn al-Asirning yozishicha, Hilol 405 hijriy (zu-l-qa'da), 1015 milodiy (may) yili o'ldirilgan va Bag'dod askarlari ham shu yili chekingan.<sup>159</sup>

Demak, Ibn Sino Raydan Majduddavla va uning onasi Sayyida qoshidan ketishga majbur bo'lgan. Chunki G'azna hukmdori Maxmud G'aznaviy yuqorida zikr qilganimizdek, Rayni bosib olishni anchadan beri mo'ljallab yurgan edi. Bunda u qulay fursatni ko'zlab yurardi. Shu sababdan Ibn Sino Rayga nisbatan kuchliroq sanalgan Hamadonni o'ziga tinchroq deb o'yladi va o'sha tomonga

---

<sup>155</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, O'sha bet.

<sup>156</sup> Bosvort K. E., O'sha asar, 141-bet.

<sup>157</sup> S. Nafisiy yanglish ravishda Alouddavlaning Uzi amirning togasi deb kursatgan (77-bet).

<sup>158</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet

<sup>159</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 9, 92-betlar; Zavadovskiy Yu. N., O'sha asar, 12-bet.

ko'chishni mo'ljalladi. Chunki o'zaro harbiy to'qnashuvlar bo'lishi va Ray ham Mahmud changaliga tushishidan uning shu yo'i ma'qul tushdi.<sup>160</sup>

Ibn Sino Hamadonda (1016—1023). Nihoyat, Ibn Sino Rayni tark etishga majbur bo'ladi. Bu voqeyani Abu Ubayd shunday yozadi: «Keyin yuz bergan ba'zi bir sabablar Shayxni Kazvin tomonga chiqishga zarurat uyg'otdi va u yerdan esa Hamadon tomonga o'tkazdi.<sup>161</sup> Abu Ubayd al-Juzjoniyy bu «zarurat» nimadan iborat ekanligi haqida yozmaydi. Xullas, Ibn Sino Rayga 1014 yilda kelgan bo'lsa, 1015 yilning oxirlarida uni tark etadi va u yerda nari-beri ikki yil yashaydi.

Bu yerda al-Juzjoniyy Ibn Sinoni Kazbonuvayh (yo Kadbonuvayh) xizmatiga kirganini aytadi.<sup>162</sup> Bu ayol Hamadon amiri Shamsuddavlaning xotini bo'lib, dastlab Abu Ali uni dardi sababli ko'rgani boradi. Shunda ayol Ibn Sinoga mehribonchilik ko'rsatadi, uning zarur odamligini, doim kerak bo'lib turishini nazarda tutib, uning tirikchiligiga zarur bo'lgan sharoit yaratib beradi. Shunda uning bu yerdaligidan amir Shamsuddavla xabar topib qoladi. Chunki Hamadon amiri Shamsuddavla qattiq sanchiq dardiga chalingan bo'lib, o'ziga davo topa olmay garang edi. Ittifoqo, u Ibn Sinoning bu atrofda paydo bo'lib qolganini bilib, uni huzuriga chaqirtiradi. Ibn Sino uni davolaydi, bu xizmati evaziga amir ko'p mukofot va yaxshi sovg'a-salomlar hadya qiladi. Abu Ali qirq kecha-yu qirq kunduz amir huzurida bo'lib, uni davolagach, o'z uyiga qaytadi. Shu bilan Ibn Sino amirning yaqin kishilaridan bo'lib qoladi.<sup>163</sup>

Al-Juzjoniyy gapiga qaraganda, Ibn Sino Raydan chiqqach, yarim yil chamasi Kazvin va boshqa joyda yashagan ko'rinadi. Hatto u Hamadonga o'xshagan shaharga zaruratga ko'ra borib kelsa ham, ammo uning qarorgohi boshqa joy bo'lganga o'xshaydi. Shunga ko'ra, u amirni davolagach, ehtiromda bo'lib, so'ng uyiga qaytgani ta'kidlanadi. Nihoyat, Ibn Sino 1016 yil avvalida Hamadonga-Shamsuddavla dargohiga butunlay ko'chib keladi. A. Yu. Yakubovskiy, Ibn Sino

---

<sup>160</sup> Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 24-bet

<sup>161</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet; al-Juzjoniyy, O'sha asar

<sup>162</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet; al-Juzjoniyy, O'sha asar, 9-bet

<sup>163</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet; al-Juzjoniyy, O'sha asar, O'sha bet

Hamadonda olti yil davomida yashaydi,<sup>164</sup> deb ko'rsatadi. Ammo uning Hamadonda 1023 yilgacha yashaganini ko'ramiz.

Ibn Sino Hamadonda, bir tomondan, tabib sifatida mashhur shaxs bo'lgan va bu sohada asar yozish bilan mashg'ul bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, olim, faylasuf sifatida ham shuhrat topgan edi. U bu dargohda anchagina asarlar ta'lif qildi, ilgari boshlaganlarini tugatdi, ba'zilarini to'ldirdi, uning o'ziga xos bo'lak ishlash qobiliyati shu yerda birmuncha namoyon bo'ldi, u Jurjonda za boshlagan «Tib qonunlari»ning birinchi kitobini shu yerda tugatdi, «ash-Shifo»ni boshlab, uning ko'p qismini shu yerda yozib bitirdi.

Shamsuddavla Ibn Sinoning aql-zakovatini ma'qul ko'rib, undan mamlakatni idora qilishda foydalanmoqchi bo'ladi va vazirlik lavozimiga loyiq ko'radi. Abu Ubayd iborasi bilan aytsak, Amir «Ibn Sinodan vazirlikni qabul qilishni iltimos qildi, shu bilan u vazir bo'lib koldi».<sup>165</sup> Ibn Sino qattiqqo'l, har bir muomalada aql-idrok bilan ish qiladigan, o'z shaxsiy manfaatiga yon bosmaydigan odam edi. U odatdagi amaldorlar kabi mol-dunyoga ko'zi o'ynamas, pora olish, xazinaga xiyonat kilish kabi kayfiyatlardan holi edi. U qo'l ostidagilarga har kim o'z burchini halol, to'g'ri bajo keltirishini uqtirar edi. Bu bora-da harbiy kishilardan ham shularni talab qilar edi. Lekin Ibn Sinoning vazirlik lavozimidagi bu tartibi lashkarboshilarga yoqmasdi, ular o'zlari istagan shaxsning vazir bo'lishini, bu amalda aytgan narsalariga ko'nadigan odam turishini xohlar edilar. Ibn Sino ularga sherik bo'lishga, davlat moliga changal solishga rag'bat qilmas edi, yagona istagi tinchgina hayot kechirish, asarlar ta'lif qilish edi, xolos. Shunday tabiatli iisonga vazirlik lavozimi to'g'ri kelmasdi, lekin unga taklif qilingani uchun u burch tariqasida bu vazifani bajarardi. Ibn Sinoning ish yuritishi, albatta, askarboshilarga yoqmaydi. Al-Juzjoniyy yozadi: «Keyin bir voqyea yuz berib Shayxga qarshi askarlar isyon ko'tarishdi,<sup>166</sup> chunki ular o'z manfaatlarini o'ylab

---

<sup>164</sup> Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 24-bet.

<sup>165</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 5-bet; al-Juzjoniyy, O'sha asar, 9-bet

<sup>166</sup> A. Yu. Yakubovskiy yozishicha, bu g'alayonga balki maoshni o'z vaqtida to'lamaslik sabab bo'lgandir, chunki bundan sal oldin Shamsuddavla qilgan yurishidan yengilib qaytgan edi. Askar boshliqlari maoshning kechikaniga Ibn Sino aybdor deb o'ylab unga qarshi isyon ko'tarishgan. Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 24-bet



Shayxdan cho‘chir edilar. Ular Shayxning uyiga bostirib kiradilar va uni ushlab oladilar, mol-mulkini o‘g‘irlashib, uyida bor barcha narsalarini talon-toroj qiladilar».<sup>167</sup>

Askarboshilar amirdan Ibn Sinoni o‘ldirishni talab qiladilar. Lekin amir askarboshlaridan ancha cho‘chib qolgan bo‘lishiga qaramay, ig‘volarga uchmaydi. Oradagi g‘ala-g‘ovur bosilgunga qadar uni davlat ishlaridan chetlatib turadi, al-Juzjoniylar iborasi bilan aytsak, shu yul bilai amir «harbiylarning talabini qondirmoqchi bo‘ldi».<sup>168</sup>

Bu voqyeadan keyin Ibi Sino Abu Sa‘d ibn Daxduh degan kishining uyida qirq kun bekinib yotadi. «Bu orada, - deydi al-Juzjoniylar, - Shamsuddavlaning o‘sha eski kulanj kasali yana tutib koldi, u yana Shayx Abu Alini topib kelishni so‘radi. Shunda Abu Ali amir huzuriga keldi. Amir undan yuz bergan hodisa za voqyealarga har taraflama uzr bayon etdi. Shundan so‘ng Abu Ali amirni davolashga kirishdi. Bu bilan u Abu Alining o‘ziga bo‘lgan hurmat va ehtiromini yana qaytargan bo‘ldi. Shu tariqa ikkinchi marta vazirlik lavozimi Shayxga qaytib keldi».<sup>169</sup>

«Ibn Sinoning vazirlik ishi bilan mashg‘ul bo‘lishi, - deb yozadi al-Juzjoniylar «ash-Shifo»ga yozgan muqaddimasida,- bizga qayg‘u va xasrat keltirdi va uning vaqti bekorga sarf bo‘ldi».<sup>170</sup>

Ibn Sino o‘zini davlat ishlari bilan band bo‘lishi ilmiy asarlar ta’lif qilishiga ta’sir qilmasligini xohlardi. U orom olish o‘rniga doimo asar yozish ishlari bilan shug‘ullanar, hatto uyqu hisobiga o‘ziga nisbatan ayovsiz munosabatda bo‘lar, natijada inson aqli bovar qilmas darajada o‘zida ish qobiliyati paydo qilar edi. Ibn Sinoning bu davrdagi hayoti haqida Abu Ubayd yana shularni yozadi: «Har kuni kechasi uning uyida tolibi ilmlar yig‘ilar edilar. Men bo‘lsam «ash-Shifo»ni o‘qirdim Mendan boshqalar navbati bilan «al-Qonun»ni o‘qirdilar. Bulardan bo‘shaganimizdan keyin har xil ashulachi va sozandalar kelar, shu bilan o‘ltirish

---

<sup>167</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, 5-bet.

<sup>168</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, o‘sha bet.

<sup>169</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, o‘sha bet, Yakubovskiy A. Yu., O‘sha asar, 24-25-betlar

<sup>170</sup> Maxdaviy, O‘sha asar, 128-bet.

boshlanib, kosalarga sharob suzilar edi; biz shogirdlar bu kabi ishlarni bajarar edik. Shayx kunduzlari amir xizmati bilan band bo'lgani sababli, biz undan kechalari dars olardik. Shu tariqa bir qancha vaqt o'tdi».<sup>171</sup>

Allomaning «ash-Nifo»dek yigirma ikki jildlik asarini ta'lif qilish jarayonidan hayratda qolmay iloj yo'q. Ilmiy asarlar yozishning shunday tezlik bilan borishi, kechami-kunduzmi, safardami-qamoqdami, xullas, o'tirish imkoniyati bo'lgan joyda, fursatni qo'ldan bermay foydalangan, asar ta'lif qilish uchun hych vaqt qulay fursat kelishini kutmagan va uni topolmasligiga aqli yetgan Abu Ali har bir daqiqani bekor o'tib ketmasligi uchun harakat qilar edi. Asar ijod qilishda o'ziga bu xil shafqatsiz bo'lgan shaxslardan Abu Rayxon Beruniynigina misolga olish va Abu Alini shu kishiga o'xshatish mumkin. Bu kishi ham, o'z davri tarixchilarining bergan xabariga qaraganda, «hych mahal u kishining qo'llari qalamsiz, ko'zlari xatga qaramagan holda, boshi ta'lif ishlari bilan band bo'lmagan payti bo'lmagan ekan». Ibn Sino ham xuddi shunday bo'lgan.

41271021 yili odatiy yurishlarining birida amir Shamsuddavla qattiq og'rib vafot etadi<sup>172</sup>. Ibn Sino amirni qanday davolamasin, u bari bir uning aytganini bajara olmas, urush-yurishlardan bo'shamas edi. Abu Ubayd al-Juzjoniyy bu haqda yozadi: «Shamsuddavla Torim tomonga yurish boshlab, u yerning amiri bilan urushmoqchi bo'ldi. Lekin u bu yerga yaqin qolganda amirning sanchigi yana tutib qoldi, bu gal uning dardi juda og'irlashgan, kasaliga boshqa kasallar ham qo'shilgan edi. Chunki amir tartibsiz turmush kechirar, Shayxning rejalariga qaramas, maslahatlariga uncha quloq solmas edi. Shamsuddavlaning o'lib qolishidan xavfsiragan harbiylar Hamadonga qaytib keldilar - Amir Yo'lda, taxtiravonida vafot etdi. Ko'p o'tmay, uning valiaxdi Samduddavla otasi o'rniga taxtga o'ltirdi. Lekin bu amir dargohida ahvol ancha og'ir bo'lishini nazarda tutib Ibn Sino vazirlik darajasidan voz kechdi. Chunki Samouddavla hali yosh bo'lgani

---

<sup>171</sup> Ibya Abi Usaybia, O'sha asar, 6-bet; al-Juzjoniyy, O'sha asar, 10-bet.

<sup>172</sup> Yakubovskiy A, Yu., O'sha asar, 25-bet.

uchun davlatni idora qilish ishi bilan Hamadon qo‘shini sarkardasi<sup>173</sup> Tojilmulk Abu Nasr ibn Baxrom shug‘ullanardi». <sup>174</sup> Chunki u «amirning pinjiga kirib ishonchli vaziri darajasiga erishgan edi». <sup>175</sup>

Amir Shamsuddavla o‘lgach, Hamadonda ham ahvol yomon tomonga ko‘chishga, tinch hayot kechirib, ta’lif ishlari bilan band bo‘la olmasligiga Ibn Sinoning ko‘zi yetgan edi. Buniig ustiga, turk askarlari (tarixiy asarlarda «Turk gvardiyasi») amirga qarshi betinim isyon ko‘tarib turardi. <sup>176</sup> G‘arazguy Tojilmulk kabi amalparastlar Ibn Sino kabi donishmand olib borgan siyosatga halaqit berishga harakat kilar, amir nazdida hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan Ibn Sino obro‘sigaga putur yetkazishga urinar edi.

Shunday qilib, vazir darajasiga yetishib, bu lavozimga ko‘tarilib olgan Tojilmulk va uning atrofidagi shaxslar bilan tinch hayot kechirishiga ko‘zi yetmagan Ibn Sino bu diyordan bosh olib ketishga qaror qiladi. U endi Isfaxonga ketmokchi bo‘ladi. Bu yerda Alouddavla (1607—1041) saltanati mavjud edi.

Ibn Sino nazarida o‘z ilmiy faoliyatini Isfaxonda davom ettirishga imkoniyat va sharoit yaratiladiganday edi. Shuning uchun ham Abu Ali Isfaxon amiriga xat yozib, uning dargohidan panoh suraydi. Ibn Sino tevarak-atrofiga o‘z ayg‘oqchilarini qo‘ygan Tojilmulk allomaning bu xatini qo‘lga tushiradi, natijada oldindan unga qarshi niyatini amalga oshirmoqchi bo‘ladi.

Ibn Sino bu paytlarda vazirlik lavozimidan voz kechib amir va uning davrasidagilar ko‘ziga ham ko‘rinmaslikka harakat qilib , Abu G‘olib al-Attor degan o‘ziga yakin kishining uyiga yashirinadi. <sup>177</sup> Ibn Sino u yerda ta’lif ishlari bilan band bo‘ladi, «ash-Shifo» asarini nihoyasiga yetkazish uchun harakat qiladi. Abu Ubayd ma’lumotlariga qaraganda, uy egasi kog‘oz va siyoh tayyorlab berar, Ibn Sino bo‘lsa har kuni ellik varaqdan yozar ekan <sup>178</sup>, Ibn Sinoning Isfaxon amiri Alouddavlagaga yozgan xatini qo‘lga tushirgan Tojilmulk uni xiyonatda ayblaydi.

---

<sup>173</sup> Ibn al-Asir, O‘sha asar, 123-bet; Nafisiy S., O‘sha asar, 9-bet.

<sup>174</sup> Yaxubovskiy A, Yu., O‘sha asar, 26-bet

<sup>175</sup> Ibn al-Asir, O‘sha asar, 120-bet.

<sup>176</sup> Ibi alAsir, O‘sha asar, 119-120-betlar Nafisiy S. O‘sha asar, 79-bet.

<sup>177</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, 6-bet; Yakubovskiy A. Yu., O‘sha asar, 26-bet.

<sup>178</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, b-bet.

Bu haqda al- Juzjoniy o‘zining Ibn Sino haqidagi xotiralarila ham yozadi.<sup>179</sup> Undan tashqari, Abu Ubayd ustozini bilan bo‘lgan bunday og‘ir damlarni o‘zining «ash-Shifo»ga yozgan muqaddimasida ham eslab o‘tadi. «Keyin, - deydi al-Juzjoniy, - o‘sha mamlakat davlat arboblari<sup>180</sup> Abu Alining yashirinib yurishidan achchiqlanadi va bu yerdan qochib ketishi xavfi borligini payqab, uning bu niyatiga monelik qilmoqchi bo‘lishdi. Chunki ular Shayxning bu o‘lkadan boshqasiga o‘tib ketishini qandaydir bir hiyla yoki dushman tomonga moyillik paydo qilish deb qabul qilishdi».<sup>181</sup> Abu Ubayd ustozini asariga yozgan muqaddimasida bu haqda yana shu satrlarni yozadi: «Bu borada Ibn Sinoning xolis xizmatchilaridan biri qulay fursatni qo‘ldan bermay, uning dunyosidan foydalanib qolish niyatida Shayxni halokatga duchor qilmoqchi bo‘ldi-da, qidirib yurgan g‘animlarga uning berkinib yotgan yerini ko‘rsatib qo‘ydi. Bu odamlar Abu Alining yaxshiliklarini bilmadilar; agar Shayxning ularga qilgan yaxshiliklarini bilganlarida, ular bu noma’qul ishni qilmasliklari kerak edi. Ibn Sino o‘zining o‘sha berkinib yotgan yeridan ushlab olgan odamlardan uni Faradjon qal’asiga qamash va’dasini oldi».<sup>182</sup>

Bu satrlardan ko‘rinishicha, olimning raqiblari Tojulumulkning bu ishiga ko‘maklashganlar. Shu bilan Abu Ali Faradjon qal’asiga qamoqqa tushgan<sup>183</sup>, Mahbuslikda yotgan bo‘lishiga qaramay, olim asarlar ta’lif qilish bilan band bo‘lgan. U bu yerda ham bir necha asar ta’lif qilgan: «Kitob al-xidoya» («To‘g‘ri yo‘l-yo‘riq kitobi»), «Xayy ibn Yakzon» (Uyg‘oq o‘g‘li Tirik), «Kitob al-kulanj» kabilar Abu Alining o‘sha Faradjon qal’asida yozilgan asarlaridir. Undan tashqari, Abu Ubayd keltirishicha, bu qal’ada Ibi Sino bir haqida ham yozgan, undan saqlanib qolgan bir baytda shunday deyiladi:

Bu yerga kirmagim o‘zing ko‘rib turganingdek ma’lumu,

Lekin bu yerdan chiqib ketmog‘im shak-shubxa-yu, amri maholdir.

---

<sup>179</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, o‘sha bet; al-Juzjoniy, O‘sha asar, 10-bet.

<sup>180</sup> Bu bilan Hamadon davlat arboblari nazarda tutayapti. iz Maxdaviy, O‘sha asar, 128-bet.

<sup>181</sup> Maxdaviy, O‘sha asar, 128-bet.

<sup>182</sup> Maxdaviy, O‘sha asar, 128-bet.

<sup>183</sup> Yekut al-Hamaviy, Kitob mu’jam al-buldon, 6 jild, Misr, 1906, 356 sax. USSR FA IIII fondida inv. №8192

Faradjon qal'asi, Ibn al-Asirning keltirishicha, Hamadondan o'n besh farsax narida joylashgan.<sup>184</sup> U Hamadon bilan Isfaxon o'rtasidagi yo'l yoqasida. Ko'pincha amirlar shu orada jang qilishsa, bu qal'aga qo'nishar, orom olishar edi. Yoqut al-Hamaviy o'zining «Mu'jam al-buldon» asarida bu qal'a nomi yozilgan sahifalarda shularni yozadi: «Faradjon Hamadon viloyatining Jaro nohiyasidagi mashhur qal'a, uni Barohan ham deyishadi».<sup>185</sup>

Bu orada Samouddavla bilan Tojulmulk olib borayotgan siyosatdan norozi bo'lgan Alouddavla Hamadonga yurish qiladi va amir Samouddavla qastrini egallaydi. Yosh amir Samouddavla Alouddavla jiyani darajasida bo'lgani uchun unga tegmaydi, hatto uni o'z o'toviga olib keladi, unga ancha-muncha mol-dunyo hadya qiladi<sup>186</sup> va Tojulmulk payiga tushadi. Bu orada Tojulmulk ham Abu Ali ibn Sino yotgan qal'aga qochadi. Alouddavla qo'liga tushgan Tojulmulk amirdan omonlik tilaydi, amir uni o'ldirmay, uni olib Hamadonga keladi.<sup>187</sup>

Abu Ubayd al-Juzjoni yozishicha va unga suyangan tarixchi A.Yu. Yakubovskiy Ibn Sinoga bag'ishlangan maqolasida ko'rsatishicha, Alouddavlaning Hamadonga qilgan hujumida askarlari toru-mor etilgan Tojulmulk amir Samouddavla bilan birga Ibn Sino qamalib yotgan Faradjon qal'asiga kelib bekinishadi. Alouddavla ketgach, qamalib yotgan Ibn Sinoni ham qal'adan olib ketishadi<sup>188</sup>. Bu haqda al-Juzjoni «ash-Shifo» muqaddimasida shularni yozadi: «Keyin Abu Ali mahbuslikdan bo'shatildi, hatto vazirlikka qaytib kelish haqida ham unga taklif qilindi. Lekin Abu Ali bunga uzr bayon etdi va bu taklifni o'ylab ko'rishga muxlat so'ragan edi, uzri qabul bo'lib, mulohaza qilib ko'rishga muhlat berildi. Bu vaqtda Abu Ali mantiq bilan shug'ullanadi».<sup>189</sup> Oradan bir necha oy o'tgach, Ibn Sino Hamadonni tark qiladi.<sup>190</sup>

Ibn al-Asir negadir qal'a nomini keltirmaydi. Uning ko'rsatishicha, Alouddavla Hamadonni egallagach, Dinovarga yurish qiladi, uni egallaydi, keyin

---

<sup>184</sup> Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 26-bet.

<sup>185</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 151-bet (421 ynl vokealariga karang).

<sup>186</sup> Ibi al-Asir, O'sha asar, 123-bet.

<sup>187</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 123-bet (414 yil vokeasiga karang).

<sup>188</sup> Ibn Abi Usaybna, O'sha asar, 6-bet.

<sup>189</sup> Maxdaviy, O'sha asar, 129-bet

<sup>190</sup> Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 26-bet.

Soburxostga hujum qiladi va uni ham egallaydi. Bu yurishlar hammasi Ibn al-Asirda 414 yil voqyeasida kelgan.<sup>191</sup>

Ibn Sino Isfaxonda (1024—1037). Abu Ubaydning ko'rsatishicha, Ibn Sino shogirdi, ukasi Maxmud va ikki xizmatkori bilan birga sufiylar kiyimida yashirincha Isfaxon tomonga jo'naydilar. «Biz, - deydi Abu Ubayd - juda qiynalib Isfaxon darvozasi bo'lgan Tabaronga yetganimizda, Abu Alini bu shahardagi yor-do'stlari, amir Alouddavla yuborgan amaldor va yaqin kishilari kutib oldilar. Ular Abu Aliga kiyim-kechak va qimmatbaho sarpolar kiygizishdi, minishiga ot-ulov keltirishdi. Shu bilan Abu Alini Kuni Gunbaz<sup>192</sup> degan mahallada Abdulloh ibn Bobiy degan kishining bezatib qo'yilgan uyiga joylashtirishdi».<sup>193</sup>

Chindan ham Alouddavla Abu Aliga katta ehtirom ko'rsatadi, sharoit yaratib beradi. Amirning topshirig'i bilan Ibn Sino haftaning har juma kechki payt uning huzurida bir anjuman tashkil qilinardi. Anjumanda turli soha ilm ahllari yig'ilishib, har xil mavzularda munozaralar bo'lib turardi. Bu xil munozaralarda Abu Ubaydning yozishicha, hyech qaysi olim ilm-ma'rifatda Abu Alidan ustun kelolmas edi. O'rtaga tushgan masala qanday bo'lishidan qat'i nazar, bunda Abu Alining qo'li baland kelardi. Shu tariqa Ibn Sino qolgan o'n turt yillik umrini Isfaxonda o'tkazdi.<sup>194</sup>

Bu shaharda olim ta'lif ishlariga juda shung'ib ketadi. Bu haqda al-Juzjoniyy «ash-Shifo» muqaddimasida yana shularni yozadi: «Abu Ali bu vaqtda mantiq bilan shug'ullandi va bu borada kerak bo'ladigan kitoblarni qidirishga harakat qildi, ularni topib, bir-biriga qiyosladi. Bu ishda u mantiqshunos olimlar tutgan yo'ldai yurib, ular tartibi bilan ish olib bordi; ularning gapidan o'ziga ma'qul bo'lganlarini oldi, ma'qul tushmaganlaripini tanqid qildi, shuning uchun mantiq qismi mukammal, keng bo'ldi,<sup>195</sup> u Isfaxonda tugallandi».<sup>196</sup> Bu parchadan ko'rinishicha, Abu Ali mantiq sohasida o'ylab qo'ygan rejalarinn «at-Shifo»ga

---

<sup>191</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, o'sha bet.

<sup>192</sup> Yakubovskiy A. Yu., Negadir buni Kok Gunbad deb keltiradi. Ushu asar, (26-bet).

<sup>193</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 6-bet.

<sup>194</sup> Yakubovskiy A. Yu., O'sha asar, 27-bet.

<sup>195</sup> Bu yerda mantik kismi mukammal buldi, deyish bilan al- -Juzjoniyy «ash-Shifo»ning mantik kismini tukkiz kitobdan iboratligiki nazarda tutayotgan bo'lsa kerak.

<sup>196</sup> Maxdaviy, O'sha asar, 129-bet.

kiritib, uni ko'ngilidagiday qilib tugatdi. Keyin u «ash-Shifo»ning boshqa bitmagan qismlarini bitkazishta kirishdi. Chunki avval uning tabbiyot va ilohiyot qismini yozib tugatgan edi, lekin bundan uning «an-Nabot» (botanika), «al-Hayvon» (zoologiya) qismini tugatolmagan edi. Shu bilan birga, «ati-Shifo»ning riyoziy (matematika) qismlari qolgan edi. «Ammo, - deydi al-Juzjoni, - riyoziyot (matematikaga oid ba'zi takliflarini Abu Ali ilgariroq, qo'li tekkan vaqtda qiskaroq qilib ishlab qo'ygan edi, keyin ularni o'sha o'ylab yurgan «an-Shifo» kitobiga qo'shishni lozim ko'rdi».<sup>197</sup>

Abu Ali ilgari Yevklid geometriyasini qisqartirib «Usul ilm al-handasa» («Geometriya usullari») deb atagan. Keyin u «ash-Shifo»ning arifmetika, muzika qismini ham yozdi, keyin astronomiyaga oid bo'lgan «al-Majistiy»ni yozdi. Isfaxonda bu asarlarning har biriga yangi 606 — qo'shimchalar, chunonchi, Yevklid geometriyasiga yangi teoremlar qo'shdi. Shu bilan Abu Ali bularni o'zidan ilgari o'tgan olimlar bajo keltirmagan va ular hayoliga ham kelmagan qismlar bilan boyitdi. Abu Ali bu yozganlarining hammasini «ash-Shifo» kitobining matematika qismiga kiritdi. Natijada «ash-Shifo»niig riyoziyot qismi mukammal bo'ladi. Endi faqat «an-Shifo»ning hayvonot va nabotot - o'simliklar qismigina bitmay qolgan edi. Bu qismni ham Abu Ali Alouddavla Saburhostga yurish qilgan yili tugatadi<sup>198</sup>, Ibn Sino o'sha yili yo'lda «an-Najot» kitobini ham yozib tugatgand. Amir Alouddavla Ibn Sino bilan juda yaxshi munosabatda bo'ladi. Amir o'z safarlarida olimni birga olib yuradi.

Abu Ubaydning yozishicha, amir Ibn Sinoga yulduzlar ustida kuzatish ishlari olib borishni topshiradi, bu ishga kerakli miqdorda mablag' ajratadi va rasadxonada ishlati uchun odam topishni topshiradi. Ibn Sino bu yerda astronomiyaga oid asbob-uskuna tayyorlashga kirishadi. Bu ishda ham allomaning eng yaqin yordamchisi Abu Ubayd Abdulvohid al-Juzjoni edi. Ibn Sino shogirdiga bu ishdan xabari bor odamlarni qidirib topish lozimligini tayinlaydi.

---

<sup>197</sup> Maxdaviy, O'sha asar, 129-bet.

<sup>198</sup> Ibn al-Asirning keltirishicha, Alouddavla Hamadondan (1023) keyin Saburxostni egallagan (Ibn al-Asir, O'sha asar, 123-bet, 414 ynl vokeasi). Shuningdek, u yerda 417 yil vokeasida 'ham bunday yurish bor (131:6bet).

Abu Ubaydning yozishicha, bu kuzatuv ishlarida juda kun masalalar yechilishi koʻpdalang turgan boʻlsa-da, lekin unga Abu Ali kun vaqtini ajrata olmas, doimo amirning safarlari, yurishlarida unga hamroh boʻlar edi. Shuning uchun xam al-Juzjoniyy amirning kun yurishlari bu xil kuzatuv oshib borish ishiga xalaqit berardi,<sup>199</sup> deb yozadi.

Ibn Sino yulduzlar ustida olib borgan kuzatishlarida baʼzi astronomik asboblarni ham ixtiro qilgan, shu bilan birga, olim bu toʻgʻrida maxsus risola ham yozgan.<sup>200</sup>

Abu Ali ibn Sino asarlari roʻyxati ichida astronomik asboblarga aloqador boʻlgan bir asar ham bor. Olim mana shu yillar ichida oʻzining «al-Olot ar-rasadiya» («Kuzatish asboblari»)<sup>201</sup> asarini yaratgan boʻlishi kerak. Chunki Abu Ali va uning shogirdi bundan ilgari bu xil kuzatish ishlari olib borishmagan va bunday ishga olimning fursati ham boʻlmagan edi.

Abu Ubayd al-Juzjoniyy Ibn Sino rahbarligida sakkiz yil davomida astronomik kuzatishlar olib boradi, yulduzlar harakatini kuzatadi.

Abu Ali asarlari roʻyxatida «al-Xudud al-ajrom al-samoviya» («Osmon jismlari chegaralari») asarini uning astronomiyaga oid asarlari qatoriga kiritishi mumkin.

Sherozliklar savoliga javob. Ibn Sino Isfaxon shaharida oʻzining falsafaga oid boʻlgan «Kitob al-Aloiy»<sup>202</sup> degan asarini yozadi. U bir maxallar, hali Jurjondaligida yozgan «Mantiqda kichik muxtasar»<sup>203</sup> degan asarini «an-Najot» asarining bosh qismiga kiritadi. Bu asar bizgacha yetib kelgan.

Abu Ubayd al-Juzjoniyy keltirishicha, bu asarning bir nusxasi Sherozda paydo boʻladi. U asrdagi olimlar bu asarni oʻqib, unda koʻtarilgan masalalarni tushunib yetmaydilar. Shundan soʻng ular tushunolmagan masalalarni yozishadi va Sheroz qozisiga olib boradilar. Qozi Isfaxonda turadigan Abulqosim degan tanish

---

<sup>199</sup> Ibn Abi Usaybia, Oʻsha asar, 7-bet.

<sup>200</sup> Ibn Abi Usaybia, Oʻsha asar, 7-bet.

<sup>201</sup> Ibn Abi Usaybia, Oʻsha asar, 5-bet.

<sup>202</sup> Bu kitob falsafiy masalalarni kamrab olgan boʻlib, amir Alouddavla nomiga bagishlangani uchun shunday yuritiladi. Bu hozir bizga mashhur bulgan «Dovishnoma» asaridir. Chunki u «Donishnomai Alony» deb ham yuritilgan.

<sup>203</sup> Ibn Abi Usaybia, Oʻsha asar, 7-bet; al-Juzjoniyy, Oʻsha asar, 11-bet.



olinga xat yozib savollarga hozir o'sha shaharda istiqomat qilib turgan Shayx Abu Ali ibn Sinodan javob olib jo'natib yuborishini so'raydi. Nihoyat, ular xati Isafaxonga yetib kelgach Abulqosim Ibn Sino bilan uchrashadi. Bu voqyeani Abu Ubayd al-Juzjoniyy shunday hikoya qiladi: «Shunda Abulqosim nihoyat Shayx Abu Ali huzuriga kirdi. Bu kezda jazirama issiq bo'lsa-da, kunning tafti qaytgan vaqt edi. Abulqosim Shayxga o'sha xat va savollar yozilgan qog'ozlarni topshirdi. Shayx xatni qo'liga olib o'qidi-yu, Abulqosimga kaytarib berdi. Savollar yozilgan qog'ozlarini esa oldiga yoyib qo'ydi. U yerda hozir bo'lganlar o'zaro gaplashib o'tirishar, Shayx esa uyga borib qog'ozga qarab-qarab qo'yar edi. So'ngra Abulqosim chiqib ketdi. Shayx esa menga oq qog'oz keltirishni va uni qirqib, bir necha dasta qilib qo'yishni buyurdi. Men unga besh dasta qog'oz tayyorlab berdim, ularning har biri chorak fir'avniydan, o'n varaqdan iborat edi. Biz xufton namozini o'qidik. Sham keltirildi. Shayx sharob so'radi, meni va ukasini o'tkazib «buni ichinglar» deb buyurdi. O'zi bo'lsa xaligi savollarga javob yozishga kirishdi. U javob yozar, ora-chora sharob ichib qo'yar edi. Shu tariqa yarim kecha bo'ldi. Meni va ukasini uyqu elitib, mudroq bosdi. Shunda Shayx bizga, borib uxlab, dam olinglar, dedi. O'zi bo'lsa hamon yozar edi. Sahar payti kimdir kelib eshigimni taqillatib qoldi. Bu Shayxiing huzuridan kelgan odam ekan, u kishi meni chaqirtirib yuboribdi. Kirib kelsam, Shayx joynamozda cho'kka tushib o'tirgan ekan. Oldida javob yozilgan besh tup qog'oz turardi. Meni ko'rib, mana bularni olgin-da, Abulqosim al-Kirmoniyga jo'nat. Unga shuni aytib qo'y, chopar yo'lidan kechikmasin, deb savollariga shoshilibroq javob yozdim, dedi. Men javob yozilgan dasta-dasta qog'ozlarni Abulqosimga olib borganimda, buni ko'rib u dahshatga tushdi, javobni tutqazib choparni jo'natib yubordi. Bu voqyeani ularga yozib, javob qanday yozilganligini ma'lum qildi. Ana shu tariqa bu gaplar xalq o'rtasida tarqalib, tarixiy voqyea bo'lib qoldi».<sup>204</sup>

Tilishunos va «Arab tili» kitobi tazlifi. Abu Ubayd al-Juzjoniyy ustozu Abu Ali ibn Sino haqida uz xotiralarida allomaning zakovoti hamda uning ilmdagi qobiliyati, fazilatlari haqida ba'zi bir detallarni bayon etadi. «Yigirma besh yil

---

<sup>204</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 7-bet; al-Juzjoniyy, o'sha asar, 12-bet.

Shayx xizmati va suqbatida bo‘lib, deydi al-Juzjoniy, - men ko‘rgan ajoyib fazilatlardan biri shu ediki, u kishining qo‘liga birorta yangi kitob tushib qolguday bo‘lsa, uni, albatta, boshdan-oyoq sinchiklab mutolaa qilib o‘tirmas, kitobni ko‘rib chiqqach, kiyin joylarigagina, mushkul masalalarigagina sinchiklab qarar va o‘shanday joylariga e‘tibor berar edi. U kitob muallifi asosan nima demoqchi bo‘lganiga diqqat qilar edi. Natijada muallifning ilmiy darajasi va qo‘yilgan masalalarning nechorli tushungani unga ayon bo‘lar edi».<sup>205</sup>

Bir kuni Abu Ali amir dargohida o‘tirgan ekan. Bu o‘tirishda arab tili grammatikasi bilimdoni Abu Mansur al-Jabbon ham bor ekan. Shunda nima bo‘ladi-yu, arab tili grammatikasi haqida gap aylanib qoladi. Shu payt gapga ko‘ra, Abu Ali masalaga o‘z mulohazasini bildirib qoladi. Shunda Abu Mansur darhol unga o‘girilib:

- Siz faylasuf va hakim odamsiz, lekin lug‘at ilmini chuqur o‘qimagansiz, shuning uchun ham sizning gaplaringiz bizni qoniqtiro olmaydi, — deydi. Abu Ali bu gapdan ranjiydi. Shu voqyea sabab bo‘ladi-yu, u arab tili va uning grammatikasiga sho‘ng‘ib ketadi. U uch yil davomida lug‘atga oid kitoblarni mutolaa qiladi. Xuroson va boshqa shaharlardan tilshunoslikka oid bulgap turli kitoblarni surishtirib oldirtiradi. U yana tilga oid ancha-muncha kitoblarni topib mutolaa qiladi, ulardan bahramand bo‘ladi. Natijada Abu Ali til bilimida shunday darajaga erishadiki, bunday kamolatga kamdan-kam odam muyassar bo‘lardi. Shundan so‘ng Abu Ali uchta qasida — she‘r yozadi, bular - u adabiy tilda kam ishlatiladigan, nodir sanalgan so‘zlarni ishlatadi. Keyin Abu Ali uchta kitob yozadi; bu kitoblarni ham uslubi og‘ir bo‘lgan olimlar yozgan tarzda yozadi. U bu kitoblarni muqovalashni va jildiga eskilik tusi berilishini buyuradi. Keyin Abu Ali amirga iltimos qilib, bu jildlangan kitobni Abu Mansur al-Jabbonga ko‘rsatishii tayinlab shunday deydi:

- Biz bu kitobni ovga chiqqan paytimizda dalada topib olgan edik. Shuni ko‘rib ichida nima to‘g‘risida yozilganini aytib bersangiz?

Amir Shayx aytganicha ish tutadi.

---

<sup>205</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, 7-bet; al-Juzjoniy, o‘sha asar, 11-bet.

Abu Mansur kitobni qo‘liga oladi-yu, lekin u yerda yozilganlarning ko‘pini tushunish mushkul ko‘rinadi. Shunda hozir bo‘lgan Abu Ali unga qarab aytadi: - Bu kitobda sen tushunolmayotgan narsalarni falon va piston lug‘at kitoblarida aytib o‘tilgan, - u shunday dedi-yu, Abu Mansurga tilga oid bo‘lgan juda ko‘p mashhur kitoblarni eslatib qo‘ydi, chunki Abu Ali ibn Sino qiyin so‘z va jummalarni o‘sha kitoblardan eslab qolgan edi. Abu Mansur til borasida olimga nojuya gapirib qo‘yganiga noqulay holatga tushadi.

Shundan Abu Mansur o‘sha risolalarning hammasini Abu Alining o‘zi yozganligiga va u bularni o‘sha kungi haqoratga javoban yozganini tushunib yetdi. Abu Ali dastlab og‘irlik qilib, raqibini uzr surashga majbur qildi. Shundan so‘ng Abu Ali til bilimiga oid kitob yozdi, uni «Lison al-arab» («Arab tili») deb atadi». <sup>206</sup>

Abu Ubayd o‘z hikoyasini davom ettirib, bu kitob haqida shularni yozadi: Ibn Sino yozgan «bunday kitobni hozirgacha hyech kim yozmagan edi. Lekin kitob Shayx qanday yozgan bo‘lsa oqqa ko‘chirilmaganicha qolib ketdi. Shayx vafot etganidan keyin ham qo‘lezma ko‘chirilmagan, birorta odam himmat qilib uni tartibga ham keltirmagan edi». <sup>207</sup>

\*\*\*\*\*

Ibn Sino Isfaxonda yigirma jilddan iborat «Kitob al-ansof»ni («Insof-adolat kitobi») yozadi. Al-Juzjoni yozishicha, Mas‘ud G‘aznaviy Isfaxonga hujum qilgan kezlarda, askarlar olimning uyiga bostirib kirganlar, shu bilan u yerda bo‘lgan barcha buyumlarni talon-toroj qilganlar. Shuning natijasida o‘sha yerda bo‘lgan «Kitob al-ansof»dan nom-nishon ham qolmagan. <sup>208</sup>

Ibn al-Asirning aytishicha, «Mas‘ud askarlari Isfaxonga yaqinlashgach, Alouddavla shahardan chiqib ketadi, hatto u shoshilganidan qurol-yaroq, ulov va xazinalarini olib ketishga ham ulgurmagan edi, u Xuziston tomonga yuzlanib, Mas‘udga qarshi urushishga u yer amiridan yordam talab qilmoqchi bo‘lgan edi.

---

<sup>206</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, 7-bet; al-Juzjoni, O‘sha asar, 11-bet.

<sup>207</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, uma bet; al-Juzjoni O‘sha asar, O‘sha bet.

<sup>208</sup> Ibn Abi Usaybia, O‘sha asar, o‘sha bet.

Ammo bu vaqtda to'satdan Mas'udning otasi Yaminuddavla Maxmud ibn Sabuqtaginning vafot etgani xabari yetib kelib qolib, u G'aznaga qaytish harakatida shahardan chiqib ketadi, Alouddavla esa o'z yurtiga yana qaytib keladi». <sup>209</sup>

Chindan ham Maxmud G'aznaviy vafoti 1030 yili sodir bo'lgan edi. Demak, Maxmud amirlik davrida uning o'g'li Mas'ud amir sifatida emas, balki otasining lashkarboshisi tariqasida-o'lkani fath qilish uchun yurishlar qilib turgan. Shu maqsadda u qo'shin tortib Isfaxonga ham hujum qilgan.

Otasi o'rniga taxtga o'tirgan Mas'ud bu o'lkalarni batamom bosib olishii bir oz orqaga suradi. Nihoyat, 423/031-32 vili Ray, Hamadon, Jibol yerlariga hujum kilishni lashkarboshi Toshfarroshga topshirgan edi. <sup>210</sup>

424/1032-33 yil voqyeasida, Ibn al-Asirning keltirishiga qaraganda, Mas'ud Alouddavla buyruq yo'llab, har yili ma'lum miqdorda soliq to'lab turishini tayinlagan, o'z navbatida, Alouddavla ham uning istagan narsasini yuborib turgan. <sup>211</sup>

Undan tashqari, «Komil fi-t-tarix» asarida 425/1033 - 1034 yil voqyeasida zikr qilinishicha, Alouddavla bilan Mas'ud askarlari o'rtasida jang bo'lgan <sup>212</sup>. Bu haqda kitob muallifi shularni yozadi: «Shu yili Alouddavla ibn Kokuya va Farhod ibn Mardovij ikkalovi kengashdi, ular ikkalovi Mas'ud ibn Maxmud ibn Sabuqtagin askarlari bilan jang qilishga kelishib olishdi. G'azna askarlari Xurosondan Abu Sahl al-Hamduniy boshchiligida chiqishli, ikkala guruh o'rtasida qattiq ayovsiz jang bo'lib o'tdi. So'ngra Alouddavla chekinishga majbur bo'ldi. Farhod o'ldirildi. Alouddavla bo'lsa Isfaxon bilan Jurbozqon o'rtasidagi tog'lik joyga qochib jon saqladi. Mas'ud askarlari esa Karajga <sup>213</sup> tushib orom oldi. Shunda Abu Sahl Hamduniy Isfaxon amiri Alouddavla qoshiga odam yullab, unga itoat qilib mol-dunyo yuborsa, qolgan yurtlariga tegmaslikni va Mas'ud bilan ular

---

<sup>209</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 148-bet.

<sup>210</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 158-bet.

<sup>211</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 160-bet.

<sup>212</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 163-bet.

<sup>213</sup> Ibn Abi Usaybiada bu nom «Karaxx ya shaklida kelgan; al-J u zjonny, O'sha asar, 12-bet. Ibn al-Asirda Karaj {= }5 tarzida kelgan.

oʻrtasi yaxshi munosabatda boʻlib qolishi mukinligini aytadi. Ikkala tarafga elchilar borib kelishdi, lekin oralarida hech qanday kelishuv boʻlmadi, shu bilan Abu Sahl Isfaxonni egalladi, Alouddavla boʻlsa u yerdan qochib qoldi. Hatto uning iziga tushib qidirib qolmasin deb Izajga qochdi. Chunki bu joy Abu Qolijorning mulki edi.

Shu bilan Abu Sahl Hamduniy Isfaxonni bosib olgach, Alouddavla xazinalarini qoʻlga tushirib, undagi mol-dunyosini egallab oldi. Bu kezlarda Abu Ali ibn Sino ham Alouddavla xizmatida boʻlgan edi. Uning kitoblari ham Gʻaznaga keltirildi. Uning asarlarini kitob xazinasiga kuyib ketdi, shu bilan to Xusayn ibn Xusayn al-Ruriy askarlari kitoblarni yoqib yuborgunigacha Ibn Sino kitoblari oʻsha yerda — Gʻaznada qolgan edi».<sup>214</sup> Ibn al-Asir yana bu haqda maʼlumot berishda davom etib, u 427/1035-1036 yil voqyeasini ham eslab oʻtadi.<sup>215</sup> Bu yili ham Alouddavla bilan Masʼud askarlari oʻrtasida jang boʻlgan.

Ibn al-Asir kitobida Abu Ali ibn Sinoning esga olinishi va uning uyi tintilib, kitoblari Gʻaznaga olib ketilishi bilan al-Juzjoniylar bergan xabarlarini qiyoslasak, bular bir-biriga toʻgʻri keladi. Al-Juzjoniylar yozadi: «Shayx oʻz quvvati va mizojiga qattiq ishongan odam edi. Karaj darvozasi oldida Alouddavla bilan Toshfarrosh oʻrtasida urush boʻlgan yili yuz bergan voqyeada uni kulanj kasali tutgangacha ahvol shunday davom etdi<sup>216</sup>, oʻshanda Shayx tezroq tuzalishga qattiq kirishdi, chunki bunday kasal holda jangdan chekinish xavfli sanalar edi. Bu holdan qutulish qiyinligini tushungach, Shayx oʻzini tez fursatda tuzatmoqchi boʻlib kunda sakkiz martalab oʻziga-oʻzi xuqna (klizma) qildi. Shunda xuqna qilingan ichaklari tiralib qizarib, nihoyat yalliqlanib ham ketdi. Shayx shu kasallik holatida ham Alouddavla bilan birga safarda boʻlishga majbur boʻldi; ular Izaj tomonga yoʻl yurishga shoshildilar».<sup>217</sup>

Ibn al-Asirda keltirilgan Masʼud askarlari Karajga kelib tushishdi, degan jumla bilan al-Juzjoniylar keltirgan Karaj darvozasi oldida boʻlgan jang haqidagi

---

<sup>214</sup> Ibn al-Asir, Yukoridagi asar, 162-163-betlar.

<sup>215</sup> Ibn al-Asir, Oʻsha asar, 166-167-betlar.

<sup>216</sup> Ibn al-Asirda bu vokea 423/1031—1032 yil vokeasnda kelgan. Buki Toshfarrosh boshchiligida kelgan Xuroson askarlari deyilganidan bilish mumkin (Ibn al-Asir, Oʻsha asar, 159-bet).

<sup>217</sup> Ibn Abi Usaybia, Oʻsha asar, 8-bet; al-Juzjoniylar, Oʻsha asar, 12-bet.

ma'lumot bir-biriga to'g'ri keladi. Undan tashqari, Ibn al-Asirda eslatilgan Izaj haqidagi gap al-Juzjoniylar keltirgan «Alouddavla Izaj tomonga yo'l olishga shoshildilar», degan mazmunga xilof kelmaydi. Undan tashqari, Ibn al-Asirda Mas'ud askarlari Ibn Sino uyini talon qilib kitoblarini olib ketishi haqidagi xabar bilan al-Juzjoniylar zikr qilgan Mas'ud askarlarining qilguliklari va «al-Ansof» asari qo'lyozmalarining yo'k bo'lib ketishi voqeyasi bir-biriga to'g'ri keladi. Alouddavla Izajga chekinishida Shayxning dardi kuzib qolgan, u hamon o'zini tezroq tuzatish niyatida o'zini o'zi davolashga kirishgan. Natijada ichagida paydo bo'lgan yallig'lanish oqibatida sanchiq og'rig'i zo'rayib, battar bo'la boshlaydi. «Bir gal, - deydi al-Juzjoniylar, - xuqna qilinadigan narsa ichiga ikki donakdan qarafs urug'i aralashtirishni buyurdi. Bu bilan u sanchiq paytida paydo bo'ladigan qorin dam bo'lishini yo'q qilmoqchi bo'ldi. Uni davolayotgan tabiblardan biri xuqnaga ishlatiladigan aralashmaga karafs urug'ini besh dirham vazndagisini solib yuboribdi. Bu tabib davo asnosida ataylab shunday qildimi yo yanglishib qolib dorini ko'p solib yubordimi — buni men bilolmadim, chunki bu ish bajarilayotgan paytda men ustida bo'lmagan edim».<sup>218</sup>

Ibn Sino sog'lig'i tuzalish o'rniga borgan sari og'irlashaveradi. U tezroq fursatda tuzalish maqsadida boshqa dorilar qabul qiladi. Abu Ubaydning aytishicha, Ibn Sino kasal bo'lib yotgan kezlarda xizmatkorlaridan biri ichiladigan doriga ko'prok afyun qo'shib bergan, Abu Ali uni bilmay iste'mol qilib yuborgan. «Bu xiyonatning sababi shu ediki, - deydi al-Juzjoniylar— xizmatkorlaridan biri Shayxga tegishli anchagina mablag'ini o'g'irlagan edi. Abu Ali tuzalib ketguday bo'lsa u o'z qilmishi oqibatda yaxshilikcha tugamasligini payqab, uning o'limini kutgan edi».<sup>219</sup>

Abu Alining oxirgi yillari bemorlikda o'tganini ko'ramiz. Tabobat qonun qoidalarinn qanchalik yaxshi bilmasin, uning tinim bilmay, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, shart-sharoitga qaramay ta'lif bilan band bo'lishi, bemorlar dardini davolashi, shogirdlarga ta'lim berishi, albatta, o'z ishini qilgan,

---

<sup>218</sup> Ibn Abi Usaybna, O'sha asar, 9-bet; al-Juzjoniylar, o'sha asar, 12-bet.

<sup>219</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 9-bet; al-Juzjoniylar, o'sha asar, o'sha bet.

Abu Alini holdan toydirgan edi. U qanchalik tadbirkorlik bilan o'zini davolamasin, natija bermaydi. Bu haqda Abu Ubayd shularni yozadi: «Abu Alining dardi zo'rayib, ahvoli borgan sari og'irlasha boshladi, kasal holida uni taxtiravonda Isfaxonga olib keldilar. Shunda ham Abu Ali hamon o'zini davolashga intilardi, lekin dardi borgan sari og'irlashaverdi. Nihoyat, shunday darajaga yetdiki, o'rnidan turishga ham majoli kelmay qoldi. Lekin Ibn Sino shunday holga tushishiga qaramay, u o'zini o'zi davolashdan to'xtamadi, hatto Alouddavla yig'ilishlariga ham qatnasha oladigan, yura oladigan bo'lib qoldi... Ammo uning kasali yana qaytalanaverdi».

Abu Ubayd al-Juzjoniy Abu Alining so'nggi damlari haqidagi ma'lumotlarida shularni bitadi: «So'ngra Alouddavla Hamadon tomonga yurish boshladi, Shayx u bilan birga safarga chiqdi. Yo'lda, hali Hamadonga yetib kelmasidanoq Shayxning yana o'sha dardi qo'zib qoldi. Endi u butunlay kuchdan qolganiga, kasaldan xalos bo'lolmasligiga ishondi. Nihoyat, u o'zini o'zi davolashdan to'xtadi. O'shanda Shayx «Vujudimni idora qilayotgan mudir uni tuzatishdan oqizdir, endi bundan buyon muolaja foyda bermaydi», dedi.

Shunday holatda Shayx bir necha kun davo olmasdan qoldi. Keyin u tangri dargohiga ko'chdi». <sup>220</sup>

Bu voqyea 428 hijriy, 1037 milodiy yilida yuz beradi <sup>221</sup>, Ibn al-Asir o'z kitobida 428/1037 yil voqyealari ichida Ibn Sino haqida yana shularni yozadi: «428/1037 yili sha'bon <sup>222</sup> oyida mashhur hakim va faylasuf bo'lmish faylasuflar oqimlariga doir turli-tuman tasniflar egasi Abu Ali ibn Sino vafot etdi. Uning vafoti Isfaxonda bo'lgan, u Alouddavla Abu Ja'far Kokuya dargohida xizmat qilar edi. Hyech shak-shubhasiz, Abu Ja'far buzuq e'tiqodli odam edi. Shuning uchun Ibn Sino uning yurtida o'z tasniflarida shariat yo'llaridan chetga chiqqan va uni rad ham qilgan». <sup>223</sup>

---

<sup>220</sup> Ibn Abi Usaybia, O'sha asar, 9-bet; al-Juzjoniy, O'sha asar, 12-bet

<sup>221</sup> Ibn Abi Usaybnaking 1882 yili Koxirada bosilgan asarida (P juz, 9-bet), 1957 yili Bayrutda bosilganida (IP juz, 13-bet) ham al-Juzjoniy nakllari keltirilib, unda Ibi Sinoning umrini yanglish ravishda ellik uch Nil deb kursatilgan.

<sup>222</sup> Bu oy fakat Ibn al-Asirda uchraydi, xolos. Boshka barcha mualliflarda ramazon oyi uchraydi

<sup>223</sup> Ibn al-Asir, O'sha asar, 170-bet.

Ibn Sino yoshini hijriy qamariy yil bilan hisoblansa 58 yilu 7 oy, milodiy yil bilan hisoblansa 57 ga ham yetmaydi. Shunga ko'ra hali Ibn Sinoning tug'ilgan kuni noanik bo'lib, faqat uning oyi ma'lum bo'lgani va u oying birinchi kunini hozircha taxminan Ibn Sino tug'ilgan kun deb olib tursak, u holda alloma Abu Ali 56 yil 10 oyu 9 kun yashagan bo'lib chiqadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Abu Raxon Beruniy, Kadimgi xalklardan kolgan yodgorliklar. Saylanma asarlar, tom, arabchadan A. Rasulov tarjimasi. Mas'ul muxarrir I. Abdullaev, 1968
2. Islom Ansiklopedisi, 3 jild (turk tilida), Istanbul, 1963.
3. Ibn Abi Usaybina, Uyun al-anbo fi tabakot al-atibbo, Ibn Sino kismi, Misr, 1882, 2 jild.
4. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. - Toshkent, 1960.
5. Islomov Sh, Ibn Sinoning tib haqidagi she'riy asari, Toshkent, «Fan», 1977.
6. O'zbek Sovet Ensiklopediyasi, 4-t. Toshkent, 1973.
7. Zaxiruddin al-Bayhaqiy «Tarix hukamo al-islom; noshir Muhammad Kurd Ali, Damashq, 1946.
8. Булгаков П. Г., Жизнь и труды Беруни, Ташкент, 1972.
9. Бартольд В. В. История Бухары, Ташкент, 1976.
10. «Kitob al-majmu' av al-xikmat al-arudiya fi kitob maoni ash-she'r» taxkik va shorix Muhammad Salim Solim, Koxira, 1969.

### **3-MAVZU: OLIMNING ILMIIY MEROSI**

#### **Reja:**

1. Ibn Sino qomusiy olim.
2. Ibn Sinoni Riyoziyotning rivojlanishiga qo'shgan hissasi.
3. Olimning kimyo sohasi bo'yicha asarlari turkumi.



4. Ibn Sinoning tib (tibbiyot)ga oid asarlari. Ibn Sinoning dorishunoslik sohasida chuqur tadqiqotlari.

5. Ibn Sino va musiqa, poeziya. Ibn Sining ilmiy yutuqlari. Ibn Sino insonparvar, ma'rifatparvar olim.

6. Ibn Sino va hozirgi zamon.

Zamondoshlari Abu Ali ibn Sinoni «Shayx ar-ra'is» («donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i»); «Sharaf al-mulk» («o'lka, mamlakatning obro'si, sharafi»), «Hujjat al-haqq» («rostlikka dalil»); «Hakim al-vazir» («donishmand, tadbirkor vazir») deb ataganlar. G'arbda qomusiy olimga «Olimlar podshosi» degan hurmatli unvon berib, «Avisenna» nomi bilan mashhurdir. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan.

Hindistonning buyuk davlat arbobi Javoharlal Neru o'zining «Hindistonning ochilishi» degan asarida O'rta Osiyo olimlari, mutafakkirlarini tilga olar ekan, fan taraqqiyotiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab: «Ulardan eng mashhuri, «vrachlar podshohi» degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino (Avisenna)dir»<sup>224</sup> degan edi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ensiklopedist olim hayotining ko'p qismi darbadarlikda va quvg'inlikda o'tdi. Ammo bu quvg'inlar, muhtojlik, qamoq jazolari buyuk olimning irodasinn buka olmadi. U qanday sharoitda bo'lmasin ilmiy mashg'ulotlarini davom etdirdi. Umrining ko'p qismi darbadarlikda o'tishiga qaramay, Ibn Sino kishini hayratda qoldiradigan darajada ko'p va ajoyib ilmiy meros qoldirgan. Olimning ilmiy merosiga to'xtaladigan bo'lsak, u asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilari

---

<sup>224</sup> Дж. Неру. Открытие Индии. –М.: 1956. –С.243.

(she'riy va ayrim falsafiy asarlari)ni fors tilida yozgan. Hozirgi zamon ilm fanida olim ko'proq buyuk tabib, tibbiyot ilmining sultoni sifatida tanishtiriladi. Lekin tarixiy manbalar va o'rta asr musulmon sharqi ilm faniga doir asarlar bilan tanishsak, Ibn Sinoning faoliyati va ilmiy ijodi qamrovi ancha keng ekanini ko'ramiz.

Ibn Sino o'z davri olimlarining aksariyatiga tegishli bo'lgan sifat – qomusiy alloma bo'lgan. Ya'ni, o'z davrida ma'lum va ommalashgan bo'lgan barcha fanlarni o'zlashtirgan va ularning barchasi bilan bir vaqtda shug'ullana olgan. Buni Ibn Sinoning ilmiy ijodiga mansub 450 dan ortiq asarlarning ilm fanning 29 ta sohasini qamrab olishi misolida ham ko'rish mumkin<sup>225</sup>. Afsuski, ulardan bizning davrimizgacha faqat 242 (160) tasi yetib kelgan holos. Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalarga tegishlidir<sup>226</sup>. Lekin bu asarlarning hammasi ham olimlar tomonidan bir xilda o'rganilgan emas. Olimning fors tilida yozgan bir necha gazal va qit'alari, 40 dan ortiq ruboiylari ham mavjud. Ensiklopedist olimning ilmiy merosi Sharq va G'arb madaniyati rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Uning asarlari XII asrdan lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa universitetlarida o'qitildi.

#### *Olimning falsafaga oid asarlari:*

1. Eng yirik va muhim asari «Kitob ash-shifo»dir. Bu asarni o'z davrining qomusiy asarlaridan desak mubolag'a bo'lmaydi. U 22 jildan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limni o'z ichiga oladi: 1) mantiq — 9 bo'lakka bo'lingan: al-madhal – mantiqqa kirish; al-maqulot – kategoriyalar; aliborat – interpretasiya; al-qiyos – sillogizm; al-burhon – isbot, dalil; al-jadal – tortishuv, dialektika; as-safsata – sofistika; al-xitoba –

---

<sup>225</sup> <http://orbita.uz/ibn-sino>

<sup>226</sup> Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1 jild. –T.: 1992. –B.5.

ritorika; ash-she'r – poetika (she'r san'ati); 2) tabiiyot (bu yerda minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohidaalohida bo'limlarda gapiriladi; 3) riyoziyot – 4 fanga bo'lingan; hisob (arifmetika), handasa (geometriya), astronomiya va musiqa; 4) metafizika yoki ilohiyot. Bu asarning ayrim qismlari lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o'zbek tillarida nashr etilgan.

2. «Kitob an-najot» («Najot kitobi») asari «Kitob ash-shifo»ning qisqartirilgan shakli. U ham qisman jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan.

3. «Al-ishorat va tanbihot» («Ishoralari va tanbihlar») asari. Unda falsafaning asosiy masalalari qisqacha bir tarzda bayon etilgan.

4. «Hikmat al-mashriqiyn» («Sharqchilar falsafasi») asari.

5. «Kitob al-ishorat fi-l-mantiq val-hikmat» («Mantiq va falsafaning ishoralari») asari.

6. «Donishnoma» («Bilim kitobi») asari fors tilida yozilgan. Ibn Sino bu asarida o'zidan oldingi va o'z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda shunday bir falsafi asar yaratdiki, bu asar o'rta asr Sharqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. «Donishnoma» 4 bo'lim: mantiq, metafizika (ilm ulilohiy), fizika va matematika (riyoziyot) dan iborat<sup>227</sup>.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining o'ziga xos tomonlari mavjud. Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta'limoti va Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, bir-biriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqyelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat. Olamda mavjud barcha narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud eng irodali,

---

<sup>227</sup> O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / Shamsutdinov R., Mo'minov X.; mas'ul muharrir S. Inoyatov. – T.: Sharq, 2013. –B.139-140.

qudratli, dono Tangridir. Qolgan narsalar imkoniyat tarzida mavjud boʻlib, Tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdagi hamma narsalar emanasiya tarzida, yaʼni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklida mavjud boʻlgan aql, jon, jism, ular bilan bogʻliq osmon sferalari kelib chiqadi. Bular hammasi substansiya (javhar) boʻlib, yana borliqda aksidensiya — narsalarning belgilari, rangi, hajmi, xillari mavjud. Jism shakl va moddadan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati boʻlmish materiya ham abadiydir. Uning oʻzi boshqa tayin jismlarning asosidir. Narsalarning moddiy asosi hech qachon yoʻqolmaydi<sup>228</sup>.

Ibn Sino materiyani eng sodda boʻlinmas toʻrt unsur: havo, olov, suv va tuproqdan iborat, deb hisoblagan. Uning fikricha, shu toʻrt unsur abadiy yoʻqolmaydi. Uning bu qarashlari zardushtiylikning toʻrt muqaddas maʼvo haqidagi qarashlariga - mos edi. Ibn Sino «Kitob ashshifo»ning tabiiy fanlarga oid qismida baʼzi geologik jarayonlar xususida ilmiy, nazariy xulosalarini berdi<sup>229</sup>.

Ibn Sino falsafiy ilmlarni avvalo ikkiga boʻladi: nazariy va amaliy ilmlar. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Falsafaning nazariy qismi uchga boʻlinadi: 1) quyi darajadagi ilm, yaʼni tabiatshunoslik; 2) oʻrta darajadagi ilm - matematika; 3) oliy darajadagi ilm - metafizika. Falsafaning amaliy qismi ham uchga boʻlinadi: a) shaxs haqidagi ilm; b) insonning oʻzaro munosabatlari haqidagi ilm; v) davlatni, mamlakatni boshqarish haqidagi ilm. Nazariy-falsafiy ilmlarga kiruvchi har uch turdagi ilmlar asosiy va yordamchi boʻlaklarga ajraladi; tabiatshunoslik ilmlari astrologiya, medisina, alkimyo kabi yetti xil tarmoqni oʻz ichiga

---

<sup>228</sup> Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. –T.: OʻzME, 2002. –B.55.

<sup>229</sup> Abu Ali ibn Sino (risola). -T.: 2011. –B.21-22.

oladi. Matematika esa arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa nomi bilan 4 tarmoqqa bo‘linadi. Asarda 29 ilm tarmog‘i tilga olinadi<sup>230</sup>.

*Falsafiy mazmundagi badiiy qissalari:* Ibn Sino falsafiy she‘rlar ham yozgan, bu borada uning yigirma bayt, ya‘ni qirq yo‘llik nafs-jon haqidagi mashhur she‘ri ham bor. Ibn Sinoning bu she‘ri kichik hajmli bo‘lishiga qaramay, ko‘p faylasuflar unga sharhlar yozishgan, u bir necha bor nashr ham etilgan. Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan mashhur asarlaridan «Hayy nbn Yaqzon», «Risolat-tayr» («Tayr qissasi»), «Salomon va Ibsol», «Yusuf qissa» (bu qissa - Qur‘on syujeti asosida yozilgan birinchi asar bo‘lib, ramziy-majoziy usuldadir) kabi qissalarini aytish mumkin. Qissa deganda hozirgi arab adabiyotida hikoya janrini tushunamiz. Lekin o‘rta asrda qissa so‘zi doston, povest ma‘nosida ham ishlatilgan. Odatda qadim Sharq adabiyotida kichik hajmdagi prozaik asar bo‘lsa qissa janriga kiravergan. Shuning uchun ham Ibn Sino «Hayy ibn Yaqzon», «Salomon va Ibsol» va «Yusuf» asarlarini qissa deb atagan. Bu asarlarda olim ijtimoiy hayot, insonni ulug‘lash, jamiyatdagi adolatsizlik, ilm ma‘rifatni targ‘ib qilish qator ramz-ishoralar bilan berilgan.

Shu o‘rinda «Hayy ibn Yaqzon» qissasi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Abu Ubayd Juzjoniyning yozishiga qaraganda, Ibn Sino bu asarini hijriyning 414 yili (milodiy 1023) Hamadonga yaqin bo‘lgan Farajdan qal‘asida to‘rt oy qamalib yotgan paytida yozgan. Shayx bu vaqtlarda 44 yoshlarda bo‘lgan<sup>231</sup>. «Hayy ibn Yaqzon» — ramziy-majoziy uslubda yozilgan qissasining bosh qahramon — birinchi shaxs Ibn Sinoning o‘zi bo‘lsa, uning suhbatdoshi, hikoya qiluvchi - Hayy ibn Yaqzon – Uyg‘oq o‘g‘li Tirik – Aqlidir.

Qissadagi beshta aloqa bo‘limi insondagi bor bo‘lgan beshta tashqi sezuv organi — ko‘rish, ta‘m bilish, hidlash, eshitish, sezishdir.

---

<sup>230</sup> Ma‘naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001. –B.101-102.

<sup>231</sup> <http://www.gglit.uz/blog/2013/08/aby-ali-ibn-sinoning-adaabiy-merosidan/>

Bular kishi organizmida tabiatni tushunishda, munosabatda bo'lishda misoli bir xabarchidir. Ibn Sinoning bu qissasi ko'p jihatdan majoziy, ramziy bitilgan, kishilar fe'li atvorini o'z ichiga qamrab ololgan va hayotiy gaplardan mulohaza yuritadigan adabiy asar hamdir. Mana shu nuqtai nazardan qaraganimizda qissaning ikki sohada - ham falsafiy, ham adabiy sohada yozilganligini ko'ramiz. Ibn Sino mantiqni ilmiy bilishning, mavjudotni o'rganishning ilmiy usuli deb biladi. *«Mantiq, - deb yozadi Ibn Sino - insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi»*. U mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini chuqur o'rgandi, mantiq fanini

Forobiydan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantirdi<sup>232</sup>. Ibn Sinoning matematika sohasiga oid ilmiy ishlari ham sermahsul edi, u Yevklidning «Negizlar» kitobiga sharhlar va izohlar kiritdi, uni to'ldirdi, bunda geometrik o'lchamlarga arifmetik atamalarni qo'lladi. Son tushunchasini natural sondan ancha kengaytirdi<sup>233</sup>.

*Ibn Sinoning tib (tibbiyot)ga oid asarlari:* Mazkur sohaga doir yozgan asarlarining 30 dan ortig'i bizgacha yetib kelgan. Arab tilida yaratilgan 5 kitobdan iborat bo'lgan (jildli) «*Tib qonunlari*» (*asl nomi «Kitob al – Qonun fi-t-tib», qisqacha nomi “Qonun”*) – Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asosiy asaridir. «*Tib qonunlari*» haqida gap borar ekan, ko'pchilikni uning qachon yozilgani qiziqtirishi tabiiy.

Muallifning o'zi bu haqda biror ma'lumot qoldirmagan. Ammo olim bilan 25 yil hamkorlikda ishlagan shogirdi va do'sti Abu Ubayd Juzjoniyning guvohlik berishicha, Ibn Sino «*Tib qonunlari*»ning birinchi kitobini 1012 yilda yozishga kirishgan. Albatta, bunday katta qomusiy asarni yozishga olim oldindan tayyorgarlik ko'rgan, yillar mobaynida material yig'ib yurgan. Shu taxlitda olim o'z «*Tib qonunlari*»ning qolgan kitoblarini Ray va Hamadonda ekanligida (1015-

---

<sup>232</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. –T.: O'zME, 2002. –B.55

<sup>233</sup> Abu Ali ibn Sino (risola). -T.: 2011. –B.19-20.

1024 yillar mobaynida) yozilganligi haqida ma'lumotlar bor<sup>234</sup>. «Tib qonunlari» o'zining asosiy darslik va qo'llanma sifatida qimmatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi. U XX asrning o'zida turli tillarda 36 marta nashr qilingan. Birinchi bor bu asar Strasburg shahrida 1473 yilda bosilib chiqdi. Kitobning asl arabcha matni birinchi marta 1593 yili Rimda, keyinchalik u hozirgi Koxira (1873, 1877, 1879), Texron (1889), Laknav (1906) va Loxur (1906) shaxarlarida chop etildi. Ispaniyaning Toleda shaxrida 1130 yili tarjimonlar kollegiyasi tashkil kilinadi va Kremonalik Gevard (1114–1187) «Tib konunlari»ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi.

Shundan boshlab «Tib konunlari» kitobi Yevropa vrachlari qo'lidagi asosiy qo'llanmaga aylanadi va universitetlarda tibbiyot fani shu asar buyicha o'qitilgan. Umuman, Yevropada 40 martaga yaqin nashr qilingan. O'zbekiston sharqshunoslarining samarali izlanishlari bilan Ibn Sinoning bu shoh asarining 5 ta kitobi 1956-1962 yillari va 1980-1983 Toshkentda rus va o'zbek tillarida nashr etilgan. Hozir yangi nashri chop etilmoqda<sup>235</sup>. Ibn Sino «Qonun»ning 1-kitobini Jurjonda, qolganlarini esa Ray va Hamadonda yashagan vaqtida yozgan. Qomusiy olim Ibn Sino «Qonun»da tabobat sohasidagi mavjud ma'lumotlarni to'pladi, ularni o'z tajribalari va ko'zatishlari bilan boyitdi hamda juda sistemali ravishda bayon etdi. Bu kitob tabobat (medisina) fani sohasida yangi davr ochdi. «Qonun» Gippokrat va Jolinus (Galen) asarlaridan so'ng tibbiy fan durdonalari qatoriga qo'shilgan eng yirik gavhardir.

«Tib qonunlari» besh kitobdan iborat bo'lib, uning har biri tabobatning ayrim masalalariga bag'ishlangan. Birinchi kitobda

---

<sup>234</sup> <http://uz.ferlibrary.uz/abu-ali-ibn-sino>

<sup>235</sup> Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati... –B.123-124.

tabobatning umumiy nazariy masalalari bayon etiladi. Bu kitob 4 fan (qism) dan iborat.

Abu Ali ibn Sino *tibbiyotning* ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan turli hajmdagi risolalari ham bo'lib, bunga quyidagilarni aytish mumkin:

1. «*Urjuza fi-t-tibb*» («Tibbiy urjuza») nomli she'r bilan ifodalovchi risolasi.

2. «*Al-Adviyat al-qalbiya*» («Yurak dorilari»). Bu risolasidagi barcha oddiy dorilarni (65 ta) o'z asariga kiritgan, ba'zi oddiy yurak dorilarini Ibn Sino kashf etganligini yozadi.

3. «*Daf' al-madorr al-kulliya an-al-abdon al-insoniya*» («Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo'qotish»).

4. «*Kitob al-qulanj*» («Qulanj haqidagi kitob», ya'ni «Ichak sanchiqlari»).

5. «*Risola-yi nabziya*» («Tomir urishi haqida risola»). Ibn Sino tomonidan 1021 yildan so'ng fors tilida yozib qoldirilgan tibbiy risolalardan biri bo'lib, u 1370/1951 yili Tehronda kitob holida «Ragshunosiy» nomi bilan nashr qilindi.

6. «*Risola fi-l-uruk al-mafsuda*» («Qon olinadigan tomirlar haqida risola») - arab tilida yozilgan bo'lib, uning bir qancha qo'lyozma nusxasi Turkiya kutubxonalarida saqlanmoqda.

7. «*Risola fi tadbiri al-musofirin*» («Safarda bo'ladiganlarning tadbiri haqida risola»)- bizgacha bir necha nusxada arab tilida yetib kelgan bo'lib, Britaniya muzeyida qo'lyozma nusxasi mavjud. Risolada umuman safarda bo'ladiganlarning tadbiridan tashqari, dengizda safar qiluvchilarning maxsus tadbiri va boshqa masalalar bayon qilingan.

8. «*Risola fi-l-boh*» («Shahvoniy quvvat haqida risola») - bu risola ham arab tilida yozilgan bo'lib, Britaniya muzeyida qo'lyozma nusxasi mavjud.



Risolada jinsiy qobiliyat va yosh o'tishi bilan uning susayib borishi haqida so'z yuritiladi<sup>236</sup>.

9. «*Risola fi xifz as-sihha*» («Sog'liqni saqlash haqida risola»).

10. «*Risola fi-s-ikanjubin*» («Sikanjubin haqida risola»).

11. «*Risola fi-l-hindabo*» («Sachratqi haqida risola»)<sup>237</sup>.

Ibn Sino o'z davridagi *tabiiy fanlarning* rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari «Kitob ashshifo»ning tabiiy fanlarga oid qismida, ya'ni, aniqroq qilib aytganda, «*an-nabot*» («*O'simliklar*») qismida o'simliklarning turlari, paydo bo'lishi, oziqlanishi, o'simlik a'zolari va ularning vazifalari, ko'payishi hamda o'sish sharoitlari haqida yozadi, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ham ish olib boradi.

*Olimning kimyo sohasi bo'yicha asari turkumiga qo'yidagilar kiradi:*

1. «*Risola as-san'a ila-l-Baraqiy*» («Baraqiyga atab san'at (alkimyo)ga doir risola») nomli kichik asari. Bu asarni olim 21 yoshida, ya'ni ilmiy faoliyatining bo'sag'asida metallar transmutasiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va mutaqaddim kimyogarlarning kitoblari ta'siri ostida yozgan;

2. «*Risola al-iksir*» («Iksir haqida risola») asari. Ibn Sino 30 yoshlarga borib, ilmiy tajribasi ortgan yosh olim metallar transmutasiyasi sohadagi urinishlarning zoye ketishiga amalda ishonch hosil qiladi va ushbu asarini yozib, unda kimyoviy yo'l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildiradi<sup>238</sup>.

Qomusiy olim *mineralogiya (ma'dansunoslik) sohasida* ham salmoqli ishlar qilgan. U minerallarning original tasnifini taklif etdi. Unga ko'ra, barcha ma'danlar 4 guruhga: toshlar, eriydigan jismlar

<sup>236</sup> Abu Ali ibn Sino. Salomatlik sirlari. Tibbiy risolalar. –T.: 2000. –B.13-14.

<sup>237</sup> O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / Shamsutdinov R., Mo'minov X.; mas'ul muharrir S. Inoyatov. – T.: Sharq, 2013. –B. 141.

<sup>238</sup> O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / Shamsutdinov R., Mo'minov X.; mas'ul muharrir S. Inoyatov. – T.: Sharq, 2013. –B. 140.

(metallar), oltinugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo‘linadi<sup>239</sup>. Bu tasnif to XIX asrgacha deyarli o‘zgarishsiz saqlanib keldi. Ibn Sinoning geologiya va mineralogiyaga oid fikrlari uning «*al-Af’ol va-l-infiolot*» («Ta’sir va ta’sirlanish») asarida ham uchraydi.

Ibn Sino *astronomiya sohasida* ham ijod qilib, bu sohaga qiziqishini u o‘zining butun ijodiy hayoti davomida saqladi. Nazarny astroiomiya sohasida Ibn Sino Ptolemey konsepsiyasining tarafdori edi va buning ta’limoti asoslarini o‘zining «Qitob ash-shifo» va «Donishnoma» kabi asarlarida batafsil bayon qildi. Ptolemeyning «Almajista»sini qayta ishlab, amaliy astronomiyaga oid qo‘llanma «*Talxis Almajistiy*» asarini Isfahonda yozdi. Bu asardan tashqari uning yana 8 ta astronomik risola, chunonchi: «*Kuzatish asbobini yasashda boshqa usullardan afzal usul haqida kitob*», «*Yerning olam markazidagi holati haqida*» (yagona qo‘dyozma nusxasi Qohirada saqlanadi), «*Samoviy hodisalar haqida*», «*Samoviy jismlarning ko‘rinma masofalari*» (yagona qo‘lyozma nusxasi Oksfordda saqlanmoqda), «*Yoritgichlarning kunduzi emas kechasi ko‘rinishi haqida*», «*Osmon sferasi va odamlarning uy-joylari*», «*Shamsiy va qamariy yil fasllarining hamda kecha va kunduz zamonlarining qonuniyati*», «*Yulduzlar hukmining raddiyasi*» kabilarni yozgan<sup>240</sup>. Ibn Sino astrologiyaning ashaddiy raqib Ibn bo‘lib chiqadi va uni g‘ayri ilmiy deb e’lon qilgan.

Abu Rayhon Beruniy «Geodeziya»sida bu ro‘yxatni Ibn Sinoning yana bir asari bilan to‘ldiradi. Bu asar Beruniy asarlaridan boshqa joyda eslatilmaganligiga qaraganda, yozilganidan so‘ng tez orada yo‘qolgan. Beruniy yozadi: «Men Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sinoning Shams al-Maoliyning qizi. Zarrin Gisuga yozgan «Jurjon (shahri) uzunlamasini tuzatish haqida risola»sini ko‘rgan edim»<sup>241</sup>. Ba’zi

---

<sup>239</sup> <http://e-tarix.uz/shaxslar/140-ibn-sina.html>

<sup>240</sup> Abu Ali Ibn Sino tug‘ilgan kunining 1000 yilligiga. Maqolalar to‘plami. –T.: Fan, 1980. –B.115

<sup>241</sup> O‘sha asar.

manbalarda bu asar «*Zarringizga noma ...*» asari deb ham atalgan. Biroq bu asar hozirgi kunga qadar yetib kelmagan. Bu asarlari bilan olim nafaqat tabib, balki astronom sifatada ham tanila boshladi. U Ray shahrida yashagan paytida Oy tutilishini kuzatish bilan bog'liq holda shaharlarning uzunlamasini topish usulini ixtiro qildi.

Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo'lgan. U Sharq, xususan, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo'lib, ruboiylari o'zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino arabcha qitalar ham yozgan (uning she'riy merosi qisman rus va uzbek tillarida nashr etilgan). U ma'rifatparvar sifatida o'zida shoirlik qobiliyatini sezgan chog'laridayoq xalq o'rtasida tabobatni keng ko'lamda yoyishga intilganini ko'ramiz. Uning tibbiyotga oid dostonlari shundan dalolat beradi. Ibn Sino bu dostonlarini aruzning rajaz vaznida yozgan. Shuning uchun ba'zan bu asarlarni Urjuza deb ham ataganlar. Shu vaznda u tibbiyotga atab bir qancha she'riy asarlar yozdi, hozircha, bular soni to'qqizta. Ular quyidagilar:

*«Sog'liqni saqlash – gigiyenaga oid urjuza».*

*«To'rt fasllar haqida urjuza».*

*«Anatomiyaga oid urjuza».*

*«Gippokrat vasiyatlari haqida urjuza».*

*«Tajribadan o'tgan tibbiy narsalar haqida urjuza».*

*«Tibbiy nasihatlar yozilgan urjuza».*

*«Mantiqqa oid yozilgan urjuza».*

*«Aloqa haqida urjuza».*

*«Tabobat haqida urjuza».*

Ibn Sino yozgan bu dostonlarning 8 tasi tibbiyotga, 1 tasi mantiqqa oid asardir. Bu dostonlarning eng yirigi «Tibbiy doston» nomi bilan mashhur bo'lgan. Ibn Sino dostonlarining eng yirigi bo'lgan «Tibbiy doston» 1956 yili Parijda va mantiq haqidagisi 1910 yili Qohirada nashr etilgan. Tibbiy doston qisqa nasriy muqaddima bilan boshlanib,

keyin nazmiy yoʻlda davom etadi. Nashr etilgan nusxaga koʻra tibbiy dostonda 1326 bayt boʻlib, 2652 yoʻl sheʻrdan iborat. U yerda muallif oʻzgina nazmiy muqaddima (oʻn olti bayt) dan soʻng nazariy medisinaga oʻtadi, bunga 705 bayt bagʻishlangan, soʻng amaliy medisinaga oʻtadi, bunga esa 605 bayt bagʻishlangan<sup>242</sup>.

Ibn Sino *musiqqa sohasida* Forobiyning ilmiy yoʻnalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. U oʻrta asr Oʻrta Osiyo musiqiy ilmning rivojlantirishda ham muhim rol oʻynadi va ajoyib madaniy meros qoldirdi. Abu Ali pbn Sino musiqiy ilmga bagʻishlab, asosan 5 ta asar yozgan. Bu asarlarning hammasida musiqiy ilmning nazariy masalalari haqida fikr yuritiladi. Oʻsha asarlardan 3 tasi bizgacha yetib kelgan. Ibn Sino oʻzining asarlari orqali kishilarga ruhiy oziq berishni, ularni ilmu fan va maʼrifat vositasi bilan jaholatdan, nodonlikdan qutulishida najot boʻlishni nazarda tutib, oʻz asarlarini «ash-Shifo», «an-Najot», «Donishnoma» deb atagan. Maʼlumki, oʻrta asrlarda musiqqa ilmi matematikaning bir tarmogʻi hisoblanar edi. Shuning uchun ham bu davrda yashab oʻtgan barcha yirik olimlar muziqqa haqidagi asarlarini matematik risolalar ichiga kiritganlar. Jumladan, Ibn Sino ham oʻzining muzika nazariyasiga doir fikrlarini matematikaga bagʻishlangan asarlarida bayon qiladi.

Ibn Sino oʻzining «ash-Shifo» asaridagi muziqqaga bagʻishlangan qismini «*Musiqiy bilimlar toʻplami*» deb atagan. Darhaqiqat, buyuk olim musiqiy ilmga oid barcha nazariy qonunqoidalarni shu asarida batafsil bayon etgan. «An-Najot» va «Donishnoma» asarlarida esa, mazkur mavzuda birmuncha qisqaroq fikr yuritiladi, chunki bu asarlarning oʻzi ham kichikroq hajmda yozilgan<sup>243</sup>. Ibn Sinoning «*Javomeʼ ilm al-musiqo*» («Musiqiy bilimlar toʻplami») asari musiqiy ilm nazariyasiga bagʻishlangan olti maqola (almaqolat)dan iborat boʻlib, har bir maqola yana bir necha qism (alfasl)larga boʻlinadi. Ibn Sino mazkur asarining

---

<sup>242</sup> <http://www.gglit.uz/blog/2013/08/abu-ali-ibn-sinoninng-adaabiy-merosidan/>

<sup>243</sup> Abu Ali Ibn Sino tugʻilgan kunining 1000 yilligiga. Maqolalar toʻplami. –T.: Fan, 1980. –B.145.

birinchi maqolasi muqaddima va to‘rt fasldan iborat. Olim o‘z asarining muqaddimasida va qisman birinchi faslida, asosan musiqiy-estetik fikrlarini bayon qiladi. Birinchi maqolaning birinchi faslida umuman tovushlar (savt) va musiqiy tovushlar (al-nag‘ma) haqida fikr yuritiladi. Ibn Sino musiqiy tovushlarga ta‘rif berar ekan, ustoz Forobiyning fikrlariga suyangan holda, uni yangi aniq fikrlar bilan boyitadi. U musiqiy tovushlarning baland yoki past tovushlardan tuzilishining ahamiyatini nazarda tutadi.

Ibn Sino musiqiy ilm haqida arifmetika va geometriya fanlari bilan bog‘langan holda chuqur ilmiy xulosalar chiqaradi<sup>244</sup>. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, komusiy olim Abu Ali ibn Sinoning dunyoqarashi juda murakkab bir sharoitda tarkib topdi va u ilmning turli sohalarda ijod qilib, o‘z dunyoqarashini bayon qilib borgan. Ibn Sino o‘zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini «Shifo» asarining etika bo‘limida, «Risolatul tayr» («Qush risolasi») va boshqa bir qancha asarlarida bayon qildi. U o‘zining butun faoliyatida oddiy xalq ommasini hurmat qildi, ularning manfaatlari uchun kurashdi, xalqning nodonlikda, johillikda saqlanishiga achindi, adolatsiz podsholarga o‘z noroziligini bildirdi. Shuning uchun ham uning ijodining g‘oyaviy mazmuni erkinlik, insonparvarlik va ma‘rifatparvarlik bilan xarakterlanadi deb ishonch bilan aytish mumkin. Uning «Tadbir almanozil» («Turar joyni boshqarish choralari»), «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»), «Risola fi al-ahd» («Burch haqida risola»), «Risola fi tazkiyat an-nafs» («Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola»), «Siyosat al-badan» («Badanni boshqarish»), «Kitob al-ansof» («Adolat haqida kitob»), «Al-urjuza fit-tibb» («Tibbiy urjuza») asarlarida<sup>245</sup> olimning ma‘rifiy-pedagogik qarashlari o‘z ifodasini topgan. «Burch haqida risola»sida kishi o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan muomala qilish madaniyati haqida fikr yuritadi. Ibn Sinoning «Xikmat buloqlari» asarida o‘zidan oldingi va o‘zi davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda shunday bir pedagogik ta‘limot yaratganki, bu ta‘limot O‘rta asr Sharqidagi bilimlarni eng yuqori chuqqisiga ko‘tarilgan. Ibn Sino

---

<sup>244</sup> O‘sha asar. 146-bet.

<sup>245</sup> <http://kh-davron.uz/kutubxona/rivoyatlar/abu-ali-ibn-sino-zafarnomadan-hikmatlar.html>

pedagogika fanining maqsad va vazifalarini quyidagicha ta'riflaydi: «Bu fan shunday odamlarni tayyorlab berishi kerakki, ular faqat o'zi uchun yashamasdan, balki boshqalar va jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga intilish kerak»<sup>246</sup>. Insonda mehnatga mehr muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar va halollik doimo ustun turishi kerak deb ko'rsatadi.

Ibn Sino psixologiyaga ham katta e'tibor bergan olimdir. Uning ilmiy merosini o'rganish esa shuni ko'rsatadiki, buyuk mutafakkir psixologiyaga doir masalalar bilan ko'proq qiziqqan va maxsus asarlar yozib qoldirgan: jumladan, «Jon to'g'risida risola» («Risola fi alnafis»), «Psixologiya to'g'risida risola» («Risola dar revanshenosi»), «Tushni yo'yish kitobi» («Kitob al-ta'bir»), «Jon-ruh haqida kitob» («Kitob al-Muhjat»). Bulardan tashqari, Ibn Sinoning ko'pgina yirik falsafiy, tibbiy asarlarida: «Tib qonunlari» («Kitob al-qonun fittib»), «Shifo beruvchi kitob» («Qitob ash-shikof»), «Najot beruvchi kitob» («Kitob an-najot») va «Donishnoma»da psixologiyaga doir alohida bo'limlar mavjuddir<sup>247</sup>.

Psixologiya masalalariga taalluqli muammolarni sistemaga solib birinchi marta maxsus asar yozgan Qadimgi Yunoniston olimi Aristotel edi. Shuning uchun ham uni Qadimgi Yunonistonda psixologiyaning asoschisi deb ataydilar. Ibn Sino ham Sharqda o'rta asr sharoitida psixologiyaga doir masalalarni sistemalashtirdi va maxsus asarlar yozdi. Shuning uchun ham biz Ibn Sinoni o'rta asr Sharqida psixologiyaga asos solgan olim deb ayta olamiz.

Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalarida jismoniy tarbiya masalasi g'oyat muhim o'rin tutadi. O'rta Osiyoda X asrgacha jismoniy mashg'ulotning kishi organizmiga ta'siri to'g'risida ma'lum bir ta'limot bo'lmagan edi. Kishi organizmini chiniqtirishda jismoniy mashg'ulotning roli katta ekanligini tabiiy-ilmiy tomondan Ibn Sino asoslab berdi. U muntazam suratda jismoniy mashq qilib turish, boshqa rejimlarga (ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish) qat'iy rioya qilish

---

<sup>246</sup> O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi fanidan ma'ruza matnlari / Tuzuvchi: Tangirova X. / – Urganch: 2003. -B.84.

<sup>247</sup> Rahimov S. Abu Ali ibn Sino. Ta'lim va tarbiya haqida... –B.32.

sogʻliqni saqlashda eng muhim va asosiy shartlardan biridir, deb bildi. Ibn Sino oʻzining «Tib qonunlari»ning birinchi kitobida jismoniy mashgʻulotni kishining yoshiga, sogʻ-salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha forma va metodlarda oʻtkazish kerakligini taʼkidlaydi. Har tomonlama bilimga ega boʻlgan Ibn Sino fanlarni klassifikasiya (tasnif) qilish imkoniyatiga ega boʻldi. Bu sohada «Aqsom al-ulum al-aqliya» («Aqliy ilmlar tasnifi») nomli asar yozdi<sup>248</sup>. Olim fanlarni klassifikasiyalab, birinchi oʻringa tabiiyot fanlarini qoʻyadi. Fanni avval nazariy va amaliy qismlarga boʻladi. Ibn Sino fanning nazariy qismini, oʻz navbatida, yana uch qismga: tabiiyot, matematika, teologiyaga boʻladi. Chunki olim bu fanlarning har birini oʻrganish va tekshirish obyektlari turlicha ekanligini izohlaydi. Uning fikricha, tabiiyot moddiy borliq va harakatni oʻrganadi, matematika esa materiya va harakatga bogʻliq obyektlarni oʻrganadi (toʻrt burchak, shar, aylana va hokazo)<sup>249</sup>.

Xullas, Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi bitmas-tuganmas xazinadir. Unga murojaat etgan sari olamni va odamni yanada chuqurroq idrok etamiz. Insonga ato etilgan bemisl aql-shijoat, kuch-qudrat, yaratuvchilik salohiyatining yangi-yangi qirralari namoyon boʻlaveradi. Bunday kashfiyotlar insoniyatni komillik sari yetaklaydi, hayot davomiyligi va kelajak avlodlar kamolotiga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1 jild. –T.: 1992.
2. Abu Ali ibn Sino. Salomatlik sirlari. Tibbiy risolalar. –T.: 2000.

---

<sup>248</sup> Oʻzbekiston tarixi: oʻquv qoʻllanma / Shamsutdinov R., Moʻminov X.; masʼul muharrir S. Inoyatov. – T.: Sharq, 2013. –B. 141.

<sup>249</sup> Rahimov S. Abu Ali ibn Sino. Taʼlim va tarbiya haqida... –B.62.

3. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. –T.: O'zME, 2002.
5. O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / Shamsutdinov R., Mo'minov X.; mas'ul muharrir S. Inoyatov. –T.: Sharq, 2013.
6. Дж. Перу. Открытие Индии. –М.: 1956.

#### **4-MAVZU: ABU ALI IBN SINONING FANLAR RIVOJLANISHIGA QO'SHGAN HISSASI**

##### **Reja:**

1. Ximiyaning rivojiga qo'shgan hissasi.
2. Geologiya va minerologiya.
3. Matematika
4. Fizika
5. Astronomiya.
6. Morfologiya fani

1. Abu Ali ibn Sino - jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur ensiklopedist olim, tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik va O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri. Ibn Sino avvalo tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari orasida eng muhimlaridan biri, xolos. Shu bilan birga u mashhur faylasufdir. Bundan tashqari kimyo, mineralogiya, astranomiya, fizika, matematika, geologik jarayonlarni o'rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni olg'a sura oldi.

Sharqda kimyo fanining taraqqiyotida ham buyuk tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sinoning roli nihoyatda katta. Ibn Sino O'rta asr Sharqining eng buyuk kimyogari hisoblangan mashhur tabib Roziyning yordamida bir metallni ikkinchi



bir metallga aylantirish mumkin, bundan tashqari, metallarni turli nisbatda bir-biriga qo'shish orqali ham oltinga aylantirish mumkin degan fikrlarini inkor etdi. Ibn Sino kimyogarlarning oddiy metallarni oltinga aylantirish to'g'risidagi fikrlariga keskin qarshi chiqdi. Metallarning paydo bo'lishi masalasida u ham o'rta asr kimyogarlarning ustози Jobir ibn Hayyom nazariyasiga o'xshash nazariyani ilgari surdi; ammo ibn Sinoning fikricha, o'sha davrda ma'lum bo'lgan har qaysi metall o'zicha alohida bir moddadir. Bir metallni ikkinchisiga aylantirish uchun uning tarkibiy qismlari (oltingugurt, simob va boshqa aralashmalar) orasidagi nisbatni o'zgartirish kerak. Vaholanki biz bu nisbatning qanday ekanligini bilmaymiz, demak, uni o'zgartirishga qodir emasmiz, deydi ibn Sino.

Shu narsani qayd qilish lozimki, O'rta Osiyoda qadimdan simob, kinovar, novshadil spirti, oltintugurt, achchiqtoshlar, tuzlar va selitra qazib olingan. Eramizgacha I asrda Farg'onada shisha tayyorlash va vino texpoloshiyasi rivojlangan edi. VIII asr oxiri va IX asr boshlarida O'rta Osiyodan savdo karvonlarining o'tishi bu o'lkani va uning ilmiy salohiyatini rivojlanishiga olib keldi. Konlardagi qazish ishlari, shisha, bo'yoqlar, qog'oz ishlab chiqarish, terini oshlash kabi hunarmandchilik, ma'dansunoslik va kimyo fanini keskin yuksalishini taqozo qilar edi. O'sha davr olimlarning qo'llagan usullaridan eritmalar tayyorlash, filtrlash, suyuqlantirish, qatronlash ya'ni distillash, quruq haydash, amalgamalar olish hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ibn Sinoning tabiiyot fani sohasidagi xizmatlari to'g'risida gapirganda, avvalo uning kimyo fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ustida to'xtash lozim. U bu fanga ko'p yangiliklar kiritdi, ayniqsa o'sha paytdagi kimyogarlarning oddiy metallarni (mis, temir) asl metallarga (oltin, kumush) aylantirish mumkin degan nazariyalarini qattiq tanqid ostita oldi. Olim kimyogar bo'lmasa ham, o'z tajribalarida unga katta e'tibor bergan.

"Tib qonunlari" asarining III jildida faqatgina oddiy dori-darmonlar (al-advayat al-mufrada) haqida yozilgan, V jildida murakkab dorilar (al-advayat al-murakkaba) haqida tushuncha berilgan. Oddiy dorivorlardan Ibn Sino 785 tasining nomini alifbo tartibida izohlaydi. Ibn Sino dorivorlar tayyorlashda o'simlik va

hayvonot dunyosi bilan bir qatorda juda ko'p anorganik moddalardan ham foydalangan. Bunga misol qilib quyidagi metall, mineral va kimyoviy birikmalarii ko'rsatish mumkin: oltin, kumush, mis, qalay, qo'rg'oshin, temir, po'lat, isfidoj (qo'rg'oshin bo'yog'i), kibrit (oltingugurt), zarnix (auripigment), buroq (bura va soda), magnisiya (marganets ma'dani), to'tiyo (galmey), za'faron, zanjar, zodi, natrun, novshadillar. Ibn Sino bu moddalarning xossalarini o'rganadi, anorganik kimyoga oid muhim ma'lumotlar keltiradi. Simob xususiyatlarini tushuntirib, uning oltingugurt bilan birikib kinovar (sunjufr) olish va uning teskarisini amalga oshirish mumkinligini yozadi. Simob, ayniqsa uning bug'lari zaharli ekanligini o'sha davridayoq olim aniqlab bergan edi.

Xuddi shuningdek, Organik moddalardan sirka kislota va mis ta'sirida mis atsetati (zanjara) olishni o'rgatadi. Ibn Sino suvning og'irligini o'lchash orqali uning sifatini aniqlash usulini kashf etgan va yengil suv yaxshiroq ekanligini isbotlagan. Ibn Sino suvning sifatini ba'zan ma'lum usullar bilan ba'zan quyidagicha aniqlaydi. Massasi bir xil bo'lgan ikkita paxta yoki matoh bo'lagini ikki xil suv bilan ho'llab, keyin ularni yaxshilab quritadi va tarozida tortadi, qaysi jism yengilroq kelsa, o'sha namuna botirib olingan suv tozaroq hisoblanadi. Shu usul bilan distillangan suv olishni ham birinchi bo'lib Ibn Sino qo'llay boshladi.

Qatronlash yo'li bilan tozalangan suvdan dori-darmonlar tayyorlash uchun erituvchi sifatida foydalanar edi. Ichimlik suvining inson sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan jahon standarti allaqachon ishlab chiqilgan bo'lib, uning tarkibida alyuminiy 0,5 mg/l, berilliy 0,002 mg/l, magniy 0,25 mg/l, margimush 0,05 mg/l, poliakrimilan 2,0 mg/l, qo'rg'oshin 0,03 mg/l, selen 0,011 mg/l, stronsiy 7,0 mg/l, fluor 0,7-1,5 mg/l, temir 0,01 mg/l, mis 1 mg/l, rux 5 mg/l dan ko'r bo'lmasligi kerak, bu suv qaynatilganda paydo bo'ladigan quruq qoldiq 1000 mg/l dan oshib ketmasligi kerak.

Kimyo fanini rivojlantirishda olim yozgan *"Kitob ash-shifo"* falsafiy asarining ahamiyati juda katta bo'lgan. Ibn Sinoning bu asari alkimyogarlarga berilgan eng katta va qaqshatqich zarba edi: *"Alkimyogarlarning yangi jismlar yarata olmaydilar. Ular metallarga turli ishlov berib rangini o'zgartiradilar, ammo*

*tarkibi o'zgarmaydi. Bir xil metallni ikkinchisiga aylantirish menga tushunarli emas, aksincha, men buning imkoniyati yo'q deb hisoblayman. Oddiy jism o'zidan boshqa jismni ajratmasligi kerak",- deb talqin etadi.*

2. Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy qarashlari „Kitob ash-shifo“ ning tabiiy fanlarga oid qismida bayon qilingan. Olimning ba'zi geologik jarayonlarga oid mulohazalari hozirgi ilmiy nazariyalarga juda yaqindir. Uningcha, vulqonlar aslida tog' paydo bo'lishi va zilzilalar bilan bog'liq. Tog' paydo bo'li-shining o'zi esa 2 yo'l bilan bo'ladi: 1) kuchli yer qimirlashi vaqtida yer qobig'ining ko'tarilishi; 2) suv orqali va havoning asta-sekin ta'siri natijasida chuqur jarliklar paydo bo'lib, natijada ularning yonida balandlik hosil bo'lib qolishi. Zilzilaning paydo bo'lishiga ham bir necha sabablar bor. Ularning biri gazzimon yo olovsimon bug' bo'ladi. Mana shu bug' harakatga kelib, yerni qimirlatadi. Suvlarning yer ostiga sizib kirishi, tekis yer chetining o'pirilishi, ba'zida tog' cho'qqilarining kuch bilan qulashi ham zilzilaga sabab bo'ladi. Olim fikricha, yer yuzasining ma'lum qismi bir mahallar dengiz tubi bo'lgan, zamon o'tishi bilan geologik jarayon oqibatida suv xavzalari o'rni o'zgargan. Bir vaqtlar dengiz bo'lib, hozir quruklikka aylangan yerlarda dengiz hayvonlarining tosh-qotgan qoldiqlari saqlanib qolgan. U bunday yerlarga Kufa, Misr va Xorazm yerlarini kiritadi.

Ibn Sino mineralogiya (ma'dansunoslik) sohasida ham salmoqli ishlar qilgan. U minerallarning asl tasnifini taklif etdi. Unga ko'ra, barcha ma'danlar 4 guruhga: toshlar, eriydigan jismlar (metallar), oltin-gugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo'linadi. Bu tasnif to 19-asr gacha deyarli o'zgarishsiz saqlanib keldi. Ibn Sinoning geologiya va mineralogiyaga oid fikrlari uning „al-Af'ol va-linfiolot“ („Ta'sir va ta'sirlanish“) asarida ham uchraydi.

3. Ibn Sino matematika sohasida natural sonlarning asosiy xossalari, Erotosfen g'alvirining tuzilishi haqida qoida, nisbat va proporsiya nazariyasi, natural sonlar ustida amallar va ularning xossalari, ayirmasi birga teng bo'lgan arifmetik progressiyaning istalgan hadini va yig'indisini topish va natural sonlar

darajasi haqida tushuncha kabi masalalarni ko‘radi. Bundan tashqari, amallarning to‘g‘ri bajarilganligini aniqlovchi vosita “to‘qqiz bilan tekshirish usuli” (“Mezon”)ni kvadrat va kubga ko‘tarishga tadbiiq qilishni tavsiya qiladi. Ibn Sino “Ash-shifo”, “Najot” kitobi, “Donishnoma” asarlarida matematikaga oid fikrlarini bayon qilgan. “Ash-shifo” asari 18 qismdan iborat bo‘lib, unda “Kvadrium” ya’ni matematikaga doir bo‘limlar:

- “Qisqartirilgan Yevklid”,
- “Qisqartirilgan Almagest”,
- “Sonlar fani”,
- “Musiqqa fani” deb atalgan.

Ibn Sino asarlarida Yevklid usulidan farq qiladigan, murakkab nisbatlar va sonli proporsiya nazariyasi haqidagi ta’limotni beradi, buni geometriyaga va musiqa nazariyasiga tatbiiq qiladi. Yevklid “Negizlar” kitobida sonli va geometrik miqdorli proporsiyalarni bir-biridan ajratib, alohida nazariyasini ko‘rgan bo‘lsa, Ibn Sino har ikki ko‘rinishdagi proporsiyalarni bir-biri bilan uzviy bog‘lagan holda, ularning nazariyasini bayon etadi. Ibn Sino ikki son nisbatini kasr son nisbati bilan almashtiradi. Olimning nisbat va proporsiyalar haqidagi g‘oyasi kelgusida son tushunchasini kengaytirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ibn Sinodan keyinroq O‘rta Osiyo olimlaridan Umar Xayyom va Nasiriddin Tusiyilar bu g‘oyani taraqqiy ettirish bilan son tushunchasini musbat haqiqiy sonlargacha kengaytiradilar. Faqat birgina “Shifo kitobi” nomli asarining geometriyaga doir boblarida, Ibn Sino planimetriya va stereometriyaga tegishli temalarni 74 ta’rif, 7 postulat, 5 aksioma va 255 jumla (teorema)lar orqali bayon etadi. Demak, Ibn Sino ham o‘z geometriyasini Yevklid sistemasiga ko‘ra bayon qilgan. Ibn Sinoning geometriyani bayon etishida Yevklid usulidan farq qiladigan tomonlaridan yana biri, geometrik tushunchalar – nuqta, chiziq, sirt va geometrik jismlarga ta’rif berishda hamda teoremlarni isbotlashda harakatni keng miqyosda tatbiiq qilishidir. Masalan, vertikal burchaklarni taqqoslashda, uchburchaklarning tengligiga ta’rif berishda, uchburchak ichki burchaklarining yig‘indisi va parallelogrammning xossalari haqidagi teoremlarni isbotlash va boshqalarda

harakatni qoʻllaydi. Ibn Sinoning geometriyasidagi teoremlarni isbot qilish usuli, Yevklidning "Negizlar" asarida teoremlarni isbotlashga yaqin boʻlsa ham, ayrim teoremlarning isboti Yevklid metodidan farq qiladi, ayrimlari esa Yevklidning isbotga nisbatan qisqa va soddadir.

4. Abu Ali ibn Sino jahon ilm tamadduniga katta hissa qoʻshgan mashhur qomusiy olim. U fizika faniga ham alohida hissa qoʻshgan. Uning yorugʻlik va tabiatda uchraydigan koʻplab fizikaviy hodisalarga nisbatan bildirgan fikrlari ilmiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Ibn Sino "Donishnoma" asarida: boʻshliqqa, gaz yoki suyuqliklarning oqib oʻtishi ularning bosimlar farqidan ekanligini misollar asosida tushuntirdi. U "suv nasosi" va "qon-soʻrish" asbobini misol tariqasida keltiradi. Qon olish naychasidan havo soʻrib olina boshlaganda havo teridan ajralmaydi va uni tortadi, oqibatda uning orqasidan qon oqa boshlaydi deb tushuntiradi. Bu, oʻz navbatida, Boyle-Mariott qonunini eslatadi. Allomaning mexanikaga oid "Meʼyor ul-aql" kitobida mexanikaning "oltin qoidasi"ga asoslanib ishlaydigan 30 dan ortiq "oddiy" va "murakkab" qurilmalarning ishlash qoidalari bayon etib berilgan.

Yorugʻlik taʼsirida jismlar isishi, toshni toshga urganda qizib olov chiqishi, konveksiya hodisasi izohi ham olim nazaridan chetda qolmagan. Uning aytishicha, "qizigan havo, suv zarralari yuqoriga koʻtariladi, natijada yuqoridagi sovuq havo zarralari issiq havo oʻrniga tushadi". *"Aylana boʻylab harakat"*, – deb yozadi Ibn Sino oʻzining "ilmihikmat" kitobida, – *jismlar bir joydan boshqa joyga koʻchmasdan, oʻzining oʻqi atrofida aylanishi bilan cheklanadi. Bu hodisa oʻzining aylanishini saqlagan holda avvalgi joyidan siljib borishi bilan ham izohlanadi"*. Jismlar boʻshliqda aylanma harakat qilib, ularning bir qismi ajralib chiqishi ham uqtirib oʻtiladi. Bu fikrlar markazdan qochuvchi kuchni eslatadi.

Olimning "Donishnoma" kitobida *"Har qanday harakatga qarama-qarshi teng holat mavjud"* deb taʼkidlanadi. Bu fikrlar Nyutonning birinchi qonunini yodga tushiradi. "Ilmihikmat" kitobida alloma *"Agar kuch yoʻqolsa, shu kuchni vujudga keltirgan hodisaning quvvati soʻnadi"*, – deb yozadi. Bu ajoyib gʻoya Nyutonning ikkinchi qonunida oʻz ifodasini topgan. *"Bir xil sharoitda nima kichik*

*bo'lsa tezroq harakat qilishi, nima katta bo'lsa sekinroq harakat qilishi kerak. Uning bu iborasi Nyuton ta'biridagi "massa jism inersiyasining o'lchovidir" degan fikrni anglatadi va tezlik yoki tezlanishlarni massaga teskari proporsionalligini bildiradi.*

U tovush hodisalarini, insonning eshitish a'zolari to'liqini qabul qilishini, optikaning bir qator masalalari qatorida yorug'likning sinish qonuni, linzalar, yoritilganlik qonuni kabilarni ham tadqiq etib o'tgan. Ko'rinadiki, Abu Ali ibn Sino ko'p sohadagi fanniy-ilmiy kashfiyotlari bilan bir qatorda jahon ilmiga tabiatshunoslik fanlarining asosi bo'lmish fizika (ilmihikmat) orqali ham o'zining salmikli hissasini qo'sha olgan.

Ibn Sino to'plangan (yoki qayd qilingan) kuch nazariyasiga katta hissa qo'shgan. Bu - o'rta asr harakat nazariyasi bo'lib, tana sarf qilgan harakat (keyinroq impetus nomini olgan) shunday kuchki, u tashqi manbalardan to'plangan. Uning fikricha, "harakatga keltiruvchi kuch" (inson qo'li, tarang tortilgan kamon ipi, palaqmon va boshqalar) harakatlanayotgan tanaga ba'zi "intilish" haqida xabar beradi, go'yo olov suvga issiqlik uzatgani kabi. Harakatga keltiruvchi kuch o'rnida, shuningdek, og'irlik ham bo'lishi mumkin.

"Intilish" uch xil bo'ladi: ruhiy (tirik jonzotlarda), tabiiy va g'ayritabiiy. "Tabiiy intilish" og'irlik va tana tushishi natijasida yuzaga keladi, ya'ni Arastu ta'limotiga ko'ra tananing tabiiy harakat holatida. Bunday holatda "intilish" harakatsiz tana holatida harakatga qarshilik ko'rsatgan holda bo'lishi ham mumkin. "G'ayritabiiy intilish" filoponovsk harakatlanayotgan kuch analogi bo'lib, u tashlangan tananing "harakatga keltiruvchi kuch"iga xabar beradi. Bo'shliqda "g'ayritabiiy intilish" o'zgarmaganda edi, tana betinim harakatni amalga oshira olgan bo'lar edi. Bunda olim inersiya tushunchasini oldindan ko'rganligini payqash mumkin, lekin Avitsenna bo'shliq tushunchasiga ishonmagan. Ibn Sino "G'ayritabiiy intilish"ga miqdoriy baho berishga uringan: uning fikriga ko'ra, u vazn hamda tana harakati tezligiga teng.

Ehtimol, Ibn Sinoning lotin tilidagi sarflangan kuch haqidagi g'oyalari G'arbda mashhur bo'lib, Buridanning impetus nazariyasi rivojiga zamin bo'lgandur.

5. Ibn Sino astronomiya sohasida Arastuning yulduzlarga Quyosh nuridan yorug'lik tushadi degan qarashlariga qarshi chiqarkan, yulduzlar o'z yorug'ligi bilan porlaydi, shuningdek, sayyoralar ham o'zi nur sochadi, deya tahmin qilgan. 1032 yil 24 may kuni Zuhra sayyorasi Quyosh gardishidan o'tayotganini kuzatganini ma'lum qilgan. Biroq, hozirgi zamon olimlari mazkur o'tish aynan shu yerda va shu vaqtda bo'lganligiga gumon qilishadi. Bu kuzatuvdan u ptolomey kosmologiyasiga binoan, Zuhra sayyorasi gohida Yerga Quyoshdan ko'ra yaqinoq kelishini asoslash maqsadida foydalangan.

Ibn Sino, shuningdek, Ptolomey kitobiga izohi bilan Almagest kompediumini yozgan.

Gurgandaligida Ibn Sino shu shaharning jo'g'rofik koordinatlari haqida risola yozgan. Ibn Sino Abu -l -Vafo va al-Beruniylar qo'llagan usuldan foydalana olmagan va yangi usulni taklif qilgan. Unga ko'ra, u Oyning eng baland nuqtasining o'lchami va Bog'dod balandligini taqqoslash orqali sferik trigonometriya qoidalari asosida hisoblashni taklif qilgan.

“Kuzatilinayotgan asbobni loyihalashda boshqa usullardan afzal usul kitobi”da Ibn Sino o'zi ixtiro qilgan kuzatuv asbobiga ta'rif berarkan, uning fikricha, astrolyabiyani o'rni bosishi kerak bo'lgan; bu asbobda o'lchovni aniqlash uchun ilk bora nonius usulidan foydalanilgan.

6. Jahon tibbiyati tarixiga nazar tashlasak, birinchi tibbiy morfologik atamalar —Avesto kitobida uchraydi. Yunon tibbiyati asoschilari Gippokrat, Aristotellar tibbiy morfologiya sohasida mulohaza yuritganlar, hatto o'z kitoblarida ayrim a'zolar, homila tuzilishi haqida o'z fikrlarini baen qilganlar. Vezaliy, Leonardo da Vinchilar ham o'zlarining bir qator morfologik fikrlarini o'rta tashlaganlar.

Lekin tibbiy morfologiyani fan sifatida shakllanishiga va tibbiy maskanlarida asosiy tibbiy fan sifatida o'qitilishiga sabab, bu Ibn Sino yaratgan —Tib qonunlaril kitobi bo'lgan desak mutlaqo adashmaymiz. Buni rus olimi anatom M.G.Prives o'zining anatomiya bo'yicha e'zgan darsligida —Odam anatomiyasi va fiziologiyasi va boshqa ko'plab tibbiy fanlari Yevropa universitetlarida 7 asr davomida Avisenna (Ibn Sino) asarlari asosida o'qitilib kelingan deb e'zishidan (1985) ham bilsak bo'ladi.

To'g'ri, tibbiy fani X asrdan boshlab G'arbga nisbatan Sharqda kuchliroq rivoj topaboshladi. Ar Roziy, Ibn Sino kabi olimlar e'zgan asarlar, ayniqsa Xorazmda tashkil topgan Mamun akademiyasi va unda faoliyat yuritgan olimlarning tibbiy sohasidagi ishlari Sharq tabobatini yuksaklikka ko'tardi va uni jahon darajasiga olib chiqdi.

Morfologiya fani tibbiyning zaminiy qismi hisoblanadi va uning taraqqiyoti o'z navbatida umumiy tibbiyning taraqqiy etishiga olib keladi. Ibn Sino anatomiya fani sohasida ulkan ishlar qilgan olim. U suyaklar, paylar, mushaklar, nervlar, a'zolar anatomiyasini to'liq bilgan va e'zib qoldirgan. U birinchi marta tovon suyaklari, qovurg'alar, kalla suyaklari haqida to'g'ri fikrlar bergan va ayrim olimlar kamchiliklarini to'g'irlab ketgan, u mikroskopsiz mushaklarni tolalardan iboratligini va mushaklarning qisqarishi tolalar hisobiga bo'lishini aytib o'tadi. Bu fikrlarning to'g'riligi o'n asrdan so'ng o'z isbotini topdi. U birinchilardan bo'lib mushaklarning tomir va nervlar bilan bog'liqligini ko'rsatgan.

Kasallikda uchraydigan og'riqlarning 15 xilini e'zib o'tgan. Ibn Sino a'zolar morfologiyasini e'zganda ularning qismlariga, tuzilishiga, vazifalariga alohida e'tibor berib boradi, bir vaqtning o'zida gistologik tuzilishlar haqida fikr beradi, hatto tomirlarning 2-3 pardadan iboratligini, vena tomirlari devorining alohida xususiyatga ega ekanligini o'sha davrda e'zib ketgan. U oshqoznning 4 ta qismdan iboratligini to'liq e'zib qoldirgan, 12 barmoqli ichakni alohida a'zo deb, uning hazm paytida katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan.

Shunday qilib, tarixiy izlanishlar ko'rsatishicha, Ibn Sino dunoda tibbiy morfologiya fani shakllanishi va taraqqiyatida asosiy rol o'ynagan buyuk olimdir.



### **Adabiyotlar:**

1. Abu Ali ibn Sino merosi – bebaho hazina . X xalqaro Ibn Sino o‘qishlari ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Buxoro. 2019.
2. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. - Toshkent. 1993.
3. Болтаев М. Н. Абу Али ибн Сина - великий мыслитель, учёный энциклопедист средневекового Востока. - Москва. 2002.
4. Глянцев. С. П. Учени пулс Авитсенны: взгляд из настоящего. - Москва. 2015.
5. Заблудовский П. Э. и др. История медицины. - Москва. 2011.
6. Кадиров А.А. История медицины Узбекистана. Учебник. - Ташкент. 1994.

### **5-MAVZU: ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI**

#### **Reja:**

1. Ibn Sino falsafasida zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin) ning talqini.
2. Ibn Sino ta’limotidagi to‘rt unsur talqini.
3. Fazo va vaqt konsepsiyasi.
4. Tana va ruh munosabati Ibn Sino talqinida.

1. Ibn Sino tabiiy fanlar, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan birgalikda, falsafa fani sohasida samarali faoliyat ko‘rsatdi, u borliq, ong, mantiq kabi masalalarni o‘rgandi va ular haqida o‘zining qarashlarini baèn etdi. “Ibn Sino talqinicha, moddiy dunè Alloh kabi abadiy va doimiy o‘zgarishdadir. U insonning bilish qobiliyati, aql va zakovatini ulug‘laydi. Ilm-fanning jamiyat rivojidagi buyuk rolini asoslaydi. U insonlarni adolatli, axloqli, ilm-ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Ibn Sinoning, ayniqsa, Sharq tibbiyotining

yutuqlarini, tibbiy qomusini o'rganish va tartibga solib berish sohasidagi ishi  
olamshumul ahamiyat

kasb etadi. Uning asarlari lotin tiliga va u orqali boshqa Ovrupa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sinoning O'rta Osiè madaniyati rivojida o'rni buyuk va beqiyosdir", deb ta'kidlaydi akademik M.M. Xayrullayev.

Yurtimiz qadimdan buyuk allomalar va avliyolarni tarbiyalagan muhim ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Fanning barcha tarmoqlarida ulkan kashfiyotlar, yangiliklar va albatta yangi fanlarni kashf etilishida qomusiy olimlarimizning, jumladan buyuk alloma va faylasuf Abu Ali ibn Sino o'rni va ahamiyati beqiyos sanaladi.

Ibn Sino dunyoqarashi Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi, u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Forobiy qarashlarini davom etgirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib sistemalashtirdi va yangi bosqichga ko'tardi.

Ibn Sino fikricha, falsafaning vazifasiga mavjudotni — barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat, voqyelik, sababiyat prinsiplarini asos qilib oladi. Olam — barcha mavjud narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud hech narsaga bog'liq bo'lmagan bir butunlikni tashkil etib, u eng irodali, qudratli, dono Tangridir. Qolgan hamma narsalar imkoniy tarzda mavjud bo'lib, zaruriy vujud — Tangridan kelib chiqadi. Vujudi vojib va vujudi mumkin — sabab va oqibat munosabatidadir. Bu jarayon emanasiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi.

Shu tartibda imkoniyat shaklidagi mavjud bo'lgan aql, jon (nafs) va jism, ular bilan bog'liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Bular hammasi substansiya (javhar)dir. Bundan tashqari borliqda aksidensiya (obraz) — narsalarning belgilari, rang, hajmi, hidi va boshqa hislari mavjud.

Jism shakl va moddadan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa konkret jismlarning asosidir.

Narsalarning konkret ko‘rinishlari, shakllari o‘zgaradi, lekin ularning moddiy asosi yo‘qolmaydi. Materiya doim vujudga kelishi mumkin bo‘lgan narsalardan avval mavjud bo‘lib, bu narsalar ularni tashkil etuvchi materiyaga muhtojdir. Materiyaning eng sodda, bo‘laklarga bo‘linmaydigan shakli to‘rt unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o‘zaro birikuv natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar o‘zgarib, turli shakllarga ega bo‘lishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo‘lgan to‘rt unsur yo‘qolmaydi, abadiy saqlanadi. Uning fikricha, avval tog‘- Toshlar, so‘ng o‘simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida inson vujudga kelgan. Inson boshqa barcha hayvonot olamidani so‘zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi.

Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o‘z-o‘zidan o‘zgarmaydi va inson ularni anglab yetishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyliqi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan. O‘sha davrda u shug‘ullanmagan fanning o‘zi bo‘lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan.

Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning obyektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in‘ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalariidan biri deb e‘tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog‘laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi. Tasavvurni Ibn Sino O‘rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Ibn Sinoning falsafiy merosini qiyosiy o‘rganish tabiatni hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda u asosan yagona yondashuvga tayanganini ko‘rsatadi. Ibn Sino tasavvurning kuchi shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilarimizgacha yetib boradi, deb qayd etadi.

Shunday qilib, Ibn Sino fikriga ko‘ra, tasavvurning gnoseologik funksiyasi shundan iboratki, u tashqi narsalarning obrazlarini gavdalantiradi, hissiy idrok etiluvchi narsalar yo‘qolganidan keyin ham ularni xotirada saqlab qoladi. Shundan kelib chiqib Ibn Sino oqilona bilishda abstraksiya muhim rol o‘ynashini qayd etadi. *«Bilish narsa obrazini mavhumlashtirishning ayrim o‘zaro bog‘langan*

*bosqichlaridan iborat jarayon bo'lib, uning natijasida biluvchining ongida predmetning mohiyati va xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha vujudga keladi. Bunday mavhumlashtirish bosqichlari to'rtta».*

Ibn Sinoning yuqorida bayon etilgan g'oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va yangi natijalar bilan boyitildi.

2. Ibn Sino tib qonunlari asarida tibbiyotni ikki qismga bo'ladi: amaliy va nazariy qismlar. Nazariy qismi tibbiyotning asosiy qoidalarini o'rganadi. Bunda insonning sog'lig'i va kasallikka oid holatlarning sabablarini bilish va shu sabablarga asoslanib fikr yuritish deb baholanadi. Sabablarni to'rt guruhga bo'ladi:

1. Moddiy sabablar - organlarning tuzilishi, tarkibi va mizoji.
2. Faol sabablari - iqlim, ovkatlanish, turar joy, jismoniy va aqliy mehnat, yosh, jins va hunar.
3. Shakliy sabablar - mizojning o'zgarishi bilan aloqador o'zgarishlar.
4. Tugallovchi sabablar - xar bir faoliyatning ruxiyat bilan bog'liq ekanligi.

Ibn Sino barcha koinotdagi navlarni paydo bo'lishida 4 oddiy jism, ya'ni 4 unsur ishtirok etadi deb ko'rsatadi:

1. Olov.
2. Xavo.
3. Suv.
4. Yer

Inson organizmi xam shu to'rt modddan tashkil topgan, shunday ekan inson organizmi xam shu to'rt moddaning xususiyatlarini o'zida namoyon qila boshlaydi. Xususan issiqlik, sovuqlik, xo'llik va quruqlik. Mana shu xolatni mizoj deb baxolashgan. Mana shu mizoj xolatini tashkil etgan to'rt xil modda bir biriga ta'siri tenglashib turgan xolatda kishi mizoji mo'tadil, yani bir me'yorda bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, kishi sog'lom bo'ladi, ya'ni inson tanasi to'qimasini tashkil qiluvchi xujayralarda moddalar almashinuvi bir me'yorda kechadi. Bir maromda ishlab turishi natijasida inson sog'ligi buzilmasdan turadi. Mana shu

me'yorning buzilishi, yani qaysi bir unurning ustun kelishi inson tanasida kasallikka olib keladi.

Ibn Sino aytadiki, xar bir jonzotda, xususan inson tanasining umumiy mizojidan tashqari, xar bir a'zoning xam o'ziga xos mizoji bor. Shu mizojni tashkil etgan to'rt unsur bir biriga qarama qarshi xususiyatga ega. Bu qarama qarshi xususiyatlar o'sha unurning mayda bo'lakchalari darajasida namoyon bo'ladi.

Bu bo'lakchalarda bo'ladigan o'zaro ta'sir natijasida mizojdagi mo'tadillik aniqlangan. Ibn Sino gavdadagi, ya'ni inson tanasidagi suyuqlikni (qon, limfa, to'qima suyuqligi, sinovial suyuqliklar, ekssudat, transsudat va yiringlarni) to'rt jinsli ho'lliklardan iborat deb baholaydi.

3. Hozirgi zamon ontologik va gnoseologik tadqiqotlarida fazo va vaqtning xususiyatlarini talqin etuvchi bir qancha konsepsiyalar mavjud. Ular quyidagi konsepsiyalardir:

*1.Fazoning substansial konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha fazo o'zgarmas bir jinsli bo'shliq, narsalar joy egallaydigan bo'sh ko'lam sifatida talqin etiladi.

*2.Fazoning relyasion konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha fazo – narsalarning o'zaro joylashish tartibini ifodalovchi xususiyati bo'lib, u har bir obyektning strukturaviy xususiyatini beradi. Fazo narsalarga bog'liq va u narsalardan tashqarida bo'lishi mumkin emas.

*3.Vaqtning substansial konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha vaqt xodisalar ro'y beradigan davomiylik. U o'zgarmas va birxilda oqadi. Vaqt – mutlaqo bo'm bo'sh bo'lishi mumkin. Xodisalar esa shu bo'm-bo'sh vaqtda bo'lib o'tadi.

*4. Vaqtning relyasion konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha jarayonlarning ro'y berishi – vaqtning o'tishidir. Vaqt obyektiv jarayonlardan, xodisalardan tashqarida bo'lmaydi.

*5. Vaqtning dinamik konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha vaqt o'tmishdan hozirgi zamon orqali kelajakka qarab oqib turadi va u orqaga qaytmaydi. Hozir biz

bilan yonma-yon turgan jarayonlar ertaga o'tmishdagi jarayonga aylanadi. Bugun ro'y bergan xodisalar kecha hali ro'y bermagan, kelajakda ro'y berajak xodisa edi.

6. *Vaqtning statik konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha vaqtning barcha lahzalari birday mavjud bo'lib, xodisalar bu vaqt oqimida joy egallaydi. Xodisalar bir-biridan "oldin" yoki "keyin" ro'y berganligi bilan farqlanadi xolos.

7. *Asinkretik fazo va vaqt konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha vaqt va fazo borliqning bir-biridan mustaqil, alohida atributlari bo'lib, ular bir-biriga bog'liq emas.

8. *Vaqt va fazoning sinkretik konsepsiyasi.* Bu konsepsiya bo'yicha vaqt va fazo bir-biri bilan chambarchas, uzviy bog'langan yaxlit yagona sistemadir, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ya'ni fazoning vaqtdan tashqarida, vaqtning esa fazodan tashqarida bo'lishi mumkin emas.

Ibn Sinoning fazo va vaqt haqidagi ta'limotini tahlil etsak, uning ilmiy salohiyati ancha uzoqni ko'ra olganligidan kishini hayratga soladi. Ibn Sino relyativistik fizika yaratilmasdan qariyb 10 asr ilgari fazo vaqt mohiyatini tahlil etishda relyasion konsepsiyasini ilgari surgan. Uning fikricha, fazo va vaqt bir-biri bilan va harakat bilan chambarchas bog'langandir. Fazo vaqtdan, vaqt esa fazodan tashqarida bo'lmaydi. Ibn Sino vaqtning tabiati o'tmishdan kelajakka qarab oqishdan iborat, hozirgi zamon o'tmishni kelajak bilan tutashtirib turuvchi lahzadir. Shu payt, shu lahzadan turib o'tmish va kelajakni taqqoslash mumkin: o'tmish vaqtning bo'lib o'tgan qismi, kelajak esa vaqtning bo'lajak qismi.

Vaqt shu ketma-ketlikda oqishini davom ettiradi, u orqaga qaytmaydi. Shu jihatlarni inobatga olsak, Ibn Sinoning vaqt oqimini izohlashda dinamik konsepsiyada turganligini bilish mumkin. Ibn Sino vaqt va fazoni sinkretik tushungan. Ya'ni uning fikricha vaqt, fazo va harakat bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular bir-birini taqoza qiladi, to'ldiradi va biri boshqalarisiz mavjud emas. Vaqtni Ibn Sino harakatning miqdori deb ta'riflab shunday yozadi: *"Harakat o'zidan tashqarida bo'lgan ikki miqdorga ega: birinchisi – bosib o'tilgan yo'lning uzunligi bo'lsa, ikkinchi miqdor vaqt deyiladi"*.

Bu fikrda fazo va vaqtning harakat bilan chambarchas bog‘liqligi yaqqol ifodalangandir. Ibn Sino fazoning jisimsiz bo‘lishi mumkin emasligini, tabiatda mutlaq bo‘shliqning bo‘lmasligini qat’iy ta’kidlaydi. Bu fikrlar Ibn Sinoning o‘z davridagi zamondoshlaridan ancha ilgari ketganligini va u fazo va vaqt tabiatiga oid original fikrlarni dadil o‘rtaga tashlay olganligini ko‘rsatadi. Ibn Sino bevosita o‘zining amaliy faoliyatida fazo va vaqt munosabatlari bilan bog‘liq jarayonlar bilan tez-tez to‘qnash kelganligi uchun ham borliqning bu xususiyatlariga oid murakkab masalalarni ham aql-idrok vositasida mufassal yecha olgan.

Ibn Sinoning fazo-vaqt konsepsiyasi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanlarida ham yuksak e’tiborga loyiqdir. Mutafakkirning fazo va vaqtning tabiati haqidagi qarashlari uning “Donishnoma” asarida va uning Abu Rayhon Beruniy bilan yozishmalarida batafsil tahlil etilgan. Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy merosini o‘rganish bugungi kun uchun ham o‘ta muhim ahamiyatga egaki, uning serqirra ijodidagi olamning tuzilishi, mohiyati va fazo-vaqtning tabiatiga oid qimmatli fikrlari bugungi fan uchun ham o‘zining qimmatini yo‘qotmagan.

4. Insonning ma’naviy va jismoniy salomatligi nimalarga bog‘liq? Bu borada zamonaviy dunyoviy va diniy ta’limotlar nimaga tayanadi? Ma’lumki Buyuk tabib Ibn Sino inson salomatligida quyidagi omillarni muhim deb belgilaydi:

1. Tananing to‘g‘ri rivojlanishida turli jismoniy mashqlarni bajarishi;
2. Shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilinishi;
3. Me’yorda oziqlanish, ya’ni yashash uchun yeyish holati.

Xuddi mana shu qoidalarning barchasi bevosita ruhiyat kamolotiga ta’sir etadi. Jismoniy mashqlar – “Dast ba kor”lik (mashg‘ullik) holati bo‘lsa, shaxsiy gigiyenaga amal qilinishi – vujud pokizaligi orqali a’zoldardagi rutubatlardan tozalab, fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Tibbiyot nuqtai nazaridan olganda, kirlangan teri hujayralari tanadan chiqarilganda tana nafas olishi, toza havodan bahra olishi holati yaxshilanadi,

demak o'lik hujayralar tana faoliyatiga salbiy ta'sir qilar ekan. O'lik hujayralar vaqtida tozalanmas ekan, jismonan kasallikka chalinish yoki ma'lum bir a'zoning to'g'ri faoliyat yuritishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi.

Ruhning tuproq-la kirlanishi zavq uchun yeyilgan luqmalaridan hosil bo'lgandir. Suv esa tuproq va balchiqni tozalash uchun yaratilgan. Odatiy va to'la tahoratda ishlatiladigan suv mana shu qudsiy ruh yuzidagi tuproq izlarini tozalaydi. Tuproq bilan bog'liq yuklarni aritib, uni yengillashtiradi. Bu tozalik uzluksiz ravishda ado etilsagina rabboniy nurlar barq ura boshlaydi Vujud salomatligining uchinchi talabi yeyish-ichishda o'rta yo'lni tanlash – bu tana a'zolarini toliqtirmaslik. Ya'ni ayrim a'zolar deganda – yurak, oshqozon, jigarda ortiqcha yog', suv, tuz, shakar va h.k.lar tufayli qon aylanishi me'yorini buzadi. Bu esa tana salomatligiga putur yetkazadi.

Tabiiyki tana sog'lom bo'lmasa, unda ruh asta-sekin so'nadi, ya'ni rivojlanmay dogma holatida bo'ladi. Bundan tashqari, tana faoliyatiga salbiy ta'sir etadigan olimlardan yana biri yovuz ruhlar ta'siri orqali bo'lishi mumkin.

Olimlarning tadqiqotlaridan shuni kuzatish mumkinki, turli ruhiy holatlar inson organizmining kasalligiga sabab bo'lishi mumkin. Bular qo'rqish, tushda alahsirash, noo'rin joyda o'tirish va h.k. (Bunday holatlar yovuz ruhlar tomonidan sodir etiladi.) Ruh – qadimgi faylasuflarimiz va mashoyixlarimiz nuqtai nazaricha – bir latif (g'oyat nozik) javhar, balki oliy bir biologik quvvat, amr olamidan nuzul bo'lgan Rahmoniy nafas. Tiriklik, hayot jism va ruh tanosubiyatidan hosil bo'lgan.

Tana mavjudligi muhiti har taraflama uning faoliyatiga ta'sir qiladi. Bu muhit quyidagicha tasvirlanadi: ya'ni insonning tana, ruh, aql, qalb va uni o'rab turgan aura, koinot (muhit) birlamchi vazifani o'tasa, ikkilamchisi – bu oila, jamiyat, qo'ni-qo'shni, mahalla va vatandir. Yuqoridagi sxema asosida ko'z oldimizda insonga sosial muhit tomonidan ko'rsatiladigan ta'sir namoyon bo'ladi. Bizni o'rab turgan muhit makroolam bo'lsa, inson shu muhitda mikroolam vazifasini ado etadi. Ya'ni shu muhit insonga o'z ta'sirini o'tkazadi va teskari holat inson ham o'z navbatida shu muhitga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Uning shaxs



sifatida kamol topishida bevosita jamiyat mavjud bo'lishi asosiy shart bo'lsa, komillik sari intilishida aura, qalb va ruhning xizmati kattadir.

Tasavvuf ta'limoti insonni ruhiy kamolot sari yetaklovchi ta'limotdir. Unda komillik darajasi qalb yuksalishidan tashqari tana va ruh mutanosibligi masalasi ta'limotning umrboqiyiligini belgilovchi mezon bo'ladi. Falsafiy ta'limotlar tarixiga, ularning amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularni tana va ruh munosabatlariga qarab uch turga ajratish mumkin:

- 1) Tanaga asosiy E'tibor,
- 2) Tana va ruhga mo'tadil munosabat,
- 3) Ruh asosiy Ruhga e'tibor berib, tanani inkor etadi.

Tana faoliyatini ruh kamolotidan oldinga qo'yiladigan ta'limot - materialistik ta'limot. Ruhning kamolotini tana yuksalishidan oldinda qo'yadigan ta'limot - idealistik ta'limot. Tana va ruh kamolotini o'zaro aloqadorlikda olib qaraydigan ta'limot - tasavvuf ta'limoti. Lekin, shu tasavvuf ta'limotida ham bir yoqlama qarashlar mavjud. Unga ko'ra tana faoliyati ikkilamchi bo'lib, ruhiyat yuksalsa, unda komillikka erishiladi, shuning uchun uzlatga chekinib, tunu-kun ibodat bilan mashg'ul bo'lishlik - darveshona hayot kechirish kamolot uchun zarur. Bu yassaviylik tariqatiga xosdir.

Unda moddiylikdan voz kechib, ma'naviy poklanish, ruhan chiniqish masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu tariqatda "xilvat" masalasiga katta o'rin berilgan. Kubraviya ta'limotida ham shunday fikr bor. Xilvat quyosh shu'lalari va kunduz yorug'ligi kirmaydigan qorong'u bir yerda turli xil mashg'ulotlardan yiroqlashib ibodat qilmoqdir. Xilvatga kirgan kishi tuyg'u a'zolarini jilovlaydi, faoliyatdan to'xtatadi. Bu esa qalbning ochilishi shartlaridandir. Ularning fikricha inson bedorligi yoki tananing (jism) turli dunyoviy ishlarga mashg'ul bo'lishi qalbni yuksalishdan chalg'itadi. Chunki tushda bizga ko'rinadigan, kelajakni bashorat qiladigan ruhiy holatlar o'ngimizda sodir bo'lmaydi.

Tanholik, xilvat - qalb yuksalishiga sabab bo'lsa, til (tana a'zosi)ning sukuti qalbning so'zlashiga sabab bo'ladi. Inson qalbi Alloh manzil-makoni ekan, uni zikr qilish jarayonida turli daraja va maqomlarga yuksalishiga sabab bo'ladi. Bu,

bizning fikrimizcha bir taraflama yondashish. Ya'ni jism faoliyatidan to'xtatilib, ruh kamolotini ta'minlash insonni bunyodkorlikdan yoki jamiyat uchun naf keltirishdan saqlaydi.

Tana yuksalishi ruh bilan aloqadorlikda bo'ladi. Bunda tana yuksalishining birinchi sharti tana-vujudni pokizaligidir. Kir va iflosliklarni tozalamaguncha qudsiy va rabboniy huzurga yuksalib bo'lmas. Ichki va tashqi pokizalikka esa Najmiddin Kubro o'n asos (usuli ashara) va quyidagi shartlar ado etilmasdan erishib bo'lmaydi deydi.

1. Vujud pokizaligi;
2. Xilvat;
3. Davomli sukut;
4. Davomiy ro'za tutish;
5. Uzluksiz zikr;
6. Taslimiyat;
7. Xotirani poklash;
8. Robitai shayx;
9. Faqat majburiyat holida uxlash;
10. Yeyish-ichishda o'rta yo'lni tanlash.

Demak, tana rivoji ruh rivojiga asos bo'lar ekan, yuqoridagi shartlarga qo'shimcha sifatida jismning dunyo ishiga mashg'ul bo'lishi, shu bilan birga unga bog'lanmasdan forig' bo'lishi ya'ni qodiriya ta'limotidagi "Mashg'ullik ila forig'lik" va naqshbandlarning "Dast ba kuru dil ba yor" holatida bo'lishlikni taqozo etadi. Ushbu holat tasavvuf ta'limotida keng tarqalgan va hozirgi kunda barhayot bo'lgan naqshbandiya va qodiriya tariqatining bunyodkorligidan dalolat beruvchi muhim dalildir.

Demak, Ibn Sino tanani ruhning kamoloti uchun vosita yoki omil sifatida qaragan bo'lsa, qodiriya va naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti ham ruhning kamoloti uchun tanani asosiy vosita deb bilgan.

### **Adabiyotlar:**

1. Ro'zieva F. Abu Ali Ibn Sino qomusiy olim. Metodik-bibliografik qo'llanma. - Toshkent. 2004.
2. Rustamova X.E., N.K. Stojarova va boshqalar. Tibbiyot tarixi. O'quv qo'llanma. - Toshkent. 2014.
3. Shamsutdinov R., Karimov SH., Hoshimov S. Vatan tarix. 1, 2, 3 tomlar. - Toshkent. 2020.

## **6 -MAVZU: TIB QONUNLARI - TIBBIYOTNING MUKAMMAL ENSIKLOPEDIYASI**

### **Reja:**

1. Tib qonunlari haqida.
2. Kasalliklar, ularning umumiy sabablari va yuz berishlari.
3. Sog'liqni saqlash tadbirlari. Tarbiya haqida.
4. Umumiy davolash usullari to'g'risida.

1. Ibn Sino ilmiy merosining asosiy qismini falsafa fanlari tashkil etgan bo'lib uning qator ko'p jildli asarlari falsafa ilmining tahliliga bag'ishlangan. Bu davrda falsafa ilmi metafizika, bilish nazariyasi va mantiq, fizika, matematika ilmining barcha yo'nalishlari, ahloqshunoslik, iqtisod, siyosiy ilmlarni qamrab olar edi<sup>250</sup>.

Ibn Sino Gurgonda o'zining ilmiy ishlarini va tabiblik faoliyatini boshlagan davrda tabobatga oid mashhur asari "Kitob al-qonun fi-tibb" ("Tib qonunlari") ning 1- kitobini va ba'zi bir shu soxaga oid risolalarini yozishga kirishadi. Bu kitob 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan: ularning har biri ma'lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi. U o'z asarlarida eng qadimgi fanlardan biri bo'lgan tibbiyotning o'zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay,

---

<sup>250</sup> Abu Ali ibn Sino "Salomatlik sirlari" (tibbiy risolalar) Toshkent 2000.: - 4 b

uning yangi yuqqori bosqichga ko'taradi, hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan barcha yutuqlarini oldindan ko'ra olgan. Tib qonunlar kitobi o'z davridagi tibbiyot fanining mufassal qomusi hisoblangan. Bu asarda inson sog'ligi va kasalliklariga oid bo'lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to'la bayon etilgan. "Qonun" 1012-1023 yillar mobaynida yozilgan bo'lib, uning qo'lyozma nusxalari tezlik bilan tarqala boshlagan<sup>251</sup>.

Ko'p o'tmay Yevropaga ham yetib keladi. XII asrdayoq Kremonalik Gerard (1114-1187) "Qonun" ni arabchadan lotin tiliga tarjima qiladi va shundan keyin Yevropa dorulfununlarida tabobat fani Ibn Sino asarlari bo'yicha o'qitila boshlaydi. "Qonun" o'zining asosiy qo'llanma darslik sifatidagi qiymatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldiyu Birinchi bor u Uyg'onish davridagi insonparvarlik markazlaridan biri bo'lgan Strasburg shahrida 1473 yili bosmadan chiqarilgan. Umuman bu asar 40 martadan ortiq to'la holda nashr etilgan. Ayrim qismlarning nashri esa son-sanoqsizdir.

Uning arabcha matni 1593 yildayoq rimda nashr etilgan edi. Keyinchalik XIX asrda bir necha bor qaytadan bosilgan. "Qonun" ning ayrim qismlari ingliz, nemis va fransuz tillariga ham tarjima qilingan bo'lsa-da, bu muhim asar keyingi vaqtgacha xozirgi zamon tilida birortasiga to'la holda tarjima qilinmagan edi. Bu qiyin va mas'uliyatli ishni o'zbek sharqshunoslari tabiblar bilan hamkorlikda amalga oshirdilar. "Qonun"ning beshala kitobi o'zbek va rus tillarida 1954-1961 yillarda Toshkentda nashr etldi. 1980 yili Ibn Sino tug'ilganiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan "Qonun" nig ikkinchi tuzatilagan nashri e'lon qilindi<sup>252</sup>.

Ibn Sino «Tib qonunlari»ni yozishda yunon tabilaridan Gippokrat, Dioskorid, Galen, Orbaziy, Pavel, Hindiston tabiblaridan Charka asarlarining arab tiliga tarjimasidan; O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridan yetishib chiqqan Abu Jurayj, Masih Dimashqiy, Ibn Mosavvayh, Sobur ibn Sahn, Sahorbuxt, Abu Bakr Roziy, Abu Sahl Masihiy kabi olimlarning tibbiy asarlaridan manba sifatida foydalangan.

---

<sup>251</sup> Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" (Uch jildlik saylanma). 1-jild Toshkent 1993. - 6 bet.

<sup>252</sup> O'sha asar. - 7 bet.

«Tib qonunlari» ning har bir kitobi, o‘z navbatida, qismlarga (fan), bo‘limlarga (jumla), maqsadlarga (maqola) va paragraflarga (fasl) bo‘lingan<sup>253</sup>.

Birinchi kitobda tabobatning umumiy nazariyasi, inson anatomiyasi va fiziologiyasi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va uning alomatlari, davolashning umumiy asoslari, badantarbiya va sog‘liqni saqlash tadbirlari bayon etilgan<sup>254</sup>. «Qonun»ning bu kitobini hozirgi zamon ichki kasalliklar propedevtikasi darsligiga tenglashtirish mumkin.

“Ibn Sino tib qonunlari” faninig maqsadi va vazifalariga mos ravshda talabalarni “Tib qonunlari” asari, uning mohiyati bilan tanishtirish va o‘z kasbiy faoliyatlarida undan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Ibn Sinoning tibbiyot rivojiga qo‘shgan hissasini yoritish, uning “Tib qonunlari” asarining tibbiyot fanidagi o‘rni va ahamiyatini asoslash, bu asarda berilgan tavsiyalarni to‘g‘ri tahlil qilish, bemorlarni Ibn Sino usuli asosida tashxiz qo‘yish, davolash va parvarish qilishga yo‘naltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda asosiy e‘tibor olimning sog‘liqni saqlashga oid fikr-mulohazalariga, shuningdek hozirda ham keng tarqalgan ayrim kasalliklar, ularni davolash uchun ishlatiladigan sodda va murakkab dorilar haqidagi tavsiyalarini o‘qitishga keng o‘rin berilgan. O‘quvchilarda Sharq tabobatining nazariy masalalari haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish uchun “Tib qonunlari” asarining tib ilmi nazariy masalalariga bag‘shlangan ayrim boblaridan ham parchalar keltirilgan. Tushunish qiyin bo‘lgan ba‘zi so‘zlarni ma‘ruzaning so‘nggi qismida alifbo tartibida joylashtirib izoxlab boriladi. Ma‘ruza matni “Tib qonunlari” kitobining ikkinchi nashri asosida tayyorlangan 1993 yil Abdulla Qodiriy nomidagi halq merosi nashriyot tomonidan tayyorlangan “Tib qonunlari” (Uch jildlik saylanma) kitobi asosida tayyorlandi. Bu kitobning elektron shakli [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasidan foydalanish mumkin.

Ibn Sinodan so‘ng tibbiyot ilmining qanchalik ulkan yutuqlarga erishgani, texnik va texnologik jihozlarga, davolash usullariga beqiyos boyib ketganligi, dori-

---

<sup>253</sup> <https://medlife.uz/encyclopedia/t/tib-qonunlari/>

<sup>254</sup> <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/abu-ali-ibn-sino-980-1037/>

darmonning nihoyatda rang-barang va ko'paygan-ligiga qaramay buyuk olimning tibbiyot sohasidagi merosi hozirda ham o'zing ahamiyatini yo'qotmagan. Qadimgi dunyo va o'rta asrning tibbiyot sohasidagi merosi yutuqlarni o'zida mujassamlashtirgan bu ham o'zing ko'p jihatdan amalliy qiymatini saqlab kelmoqda.

Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan tibbiy risolalari, "Tib qonunlari" dan tashqari, 31 taga yetadi, bu taqriban olimning saqlanib qolgan ijodining chorak qismiga teng deganidir<sup>255</sup>. Risolalarni ("Qonun"dan tashqari) mazmuniga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

Umumiy xususiyatga ega bo'lgan asarlar, tibbiyotnig barcha soxalariga bag'ishlangan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

sog'liqni saqlash, gigiyenaga ta'luqli nazm va nasr uslubida yozilgan bir qator risolalar kiradi. Masalan, "Salomatlikni saqlash xaqida urjuza", "To'rt faslga oid tibbiy urjuza", "Safarda bo'lganlarning tadbiri aqida risola", "Askar manzilgohlarin tuzatish tadbiri haqida", "Salomatlikni saqlash haqida risola", "Tadbirda yo'l qo'yiladigan har xil xatolarga qarshi chora ko'rish orqali insonning badaniga yetkazilgan turli zarani yo'qotish";

pand-nasixat va tabibga umumiy tavsiya shaklida yozilgan bir qancha asarlar. Masalan, "Buqrot tibbiy vasiyatlari haqida urjuza", "Tibbiy dastur";

ayrim nazariy masalalarga bag'ishlangan risolalar. Masalan, "Tug'ma va yot issiqlikning farqi haqida"

isitmani nisbatan shilliqdan oson paydo bo'lish sabablari sharhi. Masalan, "Hunnayn ibn Is'hoq masalalaring sharxi". Bu guruhga yana shunga uxshash mavzuda boshqa tadbirlar bilan olib borilgan bahs kiradadi. Masalan, "Abu-l-Faraj ibn at-Tayyib kitobini rad qilish haqida risola", "Shayx Abu-l-Faraj ibn Abu Sa'id al-Yamaniy maqolasviga raddiya"

anatomiya, tomir urishi va qon olish haqidagi risolalar. Masalan, "Anatomiyaga oid urjuza", "Qon olinadigan tomirlar", "Tomir urishi haqida risola".

---

<sup>255</sup> Abu Ali ibn Sino "Salomatlik sirlari". - Toshkent, 2000. – 7 bet.

Birorta a'zoning kasalligiga yoki muayyan bir kasallikka bag'ishlangan asarlar:

Yurak kasalliklari va uni davolashga bag'ishlangan dorivorlar haqida "Yurak dorilari" risolasi;

Yo'g'on ichak kasalligiga bag'ishlangan "Yo'g'on ichak kasalliklari haqida risola";

Jinsiy a'zolar faoliyati buzilishiga bag'ishlangan "Jinsiy aloqa haqida urjuza", "Maniyning ixtiyorsiz oqishiga qarshi tadibir";

Dorishunoslikka oid asarlar:

umumiy masalalarga bag'ishlangan – dori-darmon bilan oziq bo'ladaigan moddalar o'rtasidagi farqqa "Oziq bo'ladigan moddalar va dorilar";

har bir dorini ichish uchun ma'qul vaqtni tayinlash haqida "Tibbiy nasixatlar yozilgan urjuza";

sodda dorilarning bir ichim miqdorini ko'rsatish haqida "Sodda dorilarning ichiladigan miqdori va uning zararlari";

muayyan dorivorlarni qo'llanaladigan o'rnлари haqida "Sikanjubin haqida risola", "Badanni idora etish, sharobning fazilatları va uning zararlari", "Sachratqi haqida risola"<sup>256</sup>.

Mazkur risolalarda qayd etilgan barcha masalalar asosiy tibbiy asari "Tib qonunlari" da ma'lum darajada yoritilgan. Biroq bu risolalar urganilmagunga qadar ularning "Qonun" bilan o'zaro munosabatlarini aytib bo'lmaydi – ular "Qonun"ning mos keladigan birorta qismini biror shaklda takrorimi yoki ular takrorlanmas mustaqil asarmi? Qanday bo'lmasin, Ibn Sinoning saqlanib qolingani barcha tibbiy asarlarini tadqiq etish va ommalashtirish, xalq tabaobati bilan shug'ullanuvchi tabiblar va zamonaviy tibbiyot mutaxassislari uchun muxim axamiyatga ega<sup>257</sup>.

Tabiblikka bag'ishlangan "Tib qonunlari" kitobda Ibn Sino "Al-qonun shunday kitobki, tabiblikni davo qiluvchi va tabobat san'ati bilan kasb etuvchi

---

<sup>256</sup> O'sha asar. - 8 bet.

<sup>257</sup> Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" (Uch jildlik saylanma) 1-jild/ Toshkent 1993. – 9 b

kishing bu kitobdagi qoidalarini bilmasdan va yod olmasdan iloji yo‘q, chunki bu kitob tabibga lozim va zarur bo‘lgan muxtasar qoidalarini o‘z ichiga olgan”<sup>258</sup>. Demak bu fikrlardan xulosa qilib kitobning tibbiyot soxasi rivoji uchun qanchalik muxim ahamiyatga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

*Tib ta’rifi*- tib shunday bir ilmki, u bilan odam gavdasining ahvoli sog‘liq va kasallik jixatidan o‘rganilab, uning mavjud sog‘lig‘i saqlanadi va yo‘qotilgani qaytariladi. San’at va falsafaning nazariy amalliy qismi bo‘lgandek tibbiyotning ham nazariy va amalliy qismi bor. Bularning xar biri boshqa ma’nolarni anglatadi. Bundan maqsad, shu mavzuda baxs qiluvchilarning ko‘plari o‘ylagani singari, tibbiyotning birinchi qismi – ilmni o‘rganishdan, ikkinchi qismi – amalliy ish bilan shug‘illanishdan iboratdir deb tushunmaslik kerak aksincha, tibning ikkala qismi xam ilmdir. Lekin ulardan biri tib qoidalarining ilmiy bo‘limi, ikkinchisi esa uni amalda qanday qo‘llashni bildiradi. Bularning birinchisi ilm yoki *nazariya*, ikkinchisi *amalliyot* deb ataladi. *Tib nazariyasi* deganda biz tibning asosiy qoidalarini o‘rganishni tushunamiz va bunga biron amalning qanday bo‘lishi kiritilmaydi. Masalan, nazariyada isitmalar uch xil, mijoz to‘qqiz xil bo‘ladi, amalliy tibda biz faqat ishlatiladigan amallarni va gavdani xarakterga solishni tushunamiz. Bu fikr amalning qanday bo‘lishini bayon qilishga ta’lluqli bo‘ladi. Tabiblar bilan yoki ularning fikrlariga qo‘shilmaydigan kishilar bilan munozara qilish tibda biror foyda keltirmaydi. Ammo, bu masala xaqiqatni bilish boshqa fan, ya’ni mantiq fanining qoidalariga tegishlidir. Haqiqat mantiq fanidan talab etilsin<sup>259</sup>.

*Tibning mavzulari* – tib odam gavdasining sog‘lig‘i va kasalligini o‘rganadi. Har bir narsani bilish, u narsaning sabablari bo‘lsa, shu sabablarni o‘rganish orqaliy hosil bo‘ladi va kamolga yetadi. Shuning uchun tibda sog‘liq va kasallikning sabablarini bilish kerak bo‘ladi. Sog‘liq, kasallik va ularning sabablari goho ochiq, goho maxfiy bo‘lib, unga his bilan emas, balki belgilariga asoslanib fikr yuritish bilan yetishiladi. Shuningdek, tibda sog‘liq va kasallikda yuz

---

<sup>258</sup> O‘sha asar. – 11 b

<sup>259</sup> O‘sha asar. – 11 b



beradigan hodisalarni ham bilish kerak bo‘ladi. *Sabablar* – kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar mavjud. Agar sabablar bo‘lmasa o‘ziga xos va xos bo‘lmagan belgilarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi<sup>260</sup>. *Sabablar 4 xil bo‘ladi*; moddiy, faol (tasir qiluvchi), shakliy va to‘g‘irlovchi sabablar:

*Moddiy sabablar* – shunday negizki, sog‘liq va kasallik shu negzda paydo bo‘ladi. Eng yaqin negiz a‘zo va ruxdir. Undan uzoqroq negiz xiltlar va undan xam uzog‘rog‘i unsurlardir.

*Ta’sir qiluvchi sabablar* – odam gavdasining holatlarini o‘zgartiruvchi yoki o‘zgarmagan xolda saqlovchi sabablardir. Ular havoga aloqadr bo‘lgan narsalar-ovqatlar, suvlar, ichimliklar, bo‘shalish (chiqindilar) to‘htalishi, shaharlar, turar-joylar va unga aloqador narsalar, jismoniy va nafsoniy xarakat, osoyishtalik kabilar kiradi. Jumladan uyqu va uyg‘oqlik xam faol sabablardandir. Yosh, jins, yoshdan yoshga o‘tish, xunarlar, odatlar, odam tanasiga tegib ta’sir qiluvchi sabablar.

*Shakliy sabablar* – mijozlar, ulardan keyin paydo bo‘ladigan quvvatlar va tarkiblardir<sup>261</sup>.

*Tugallovchi sabablar* – faoliyatdir. Faoliyatni o‘rganishag quvvatlar va ularni tashuvchi ruhlarni o‘rganish ham kiradi. Tabibning tasavvur qilib, dalil keltirishi zarur bo‘lgan narsalar, kasalliklar, ularning o‘ziga xos sabablari, alomatlari va qanday qilib kasallikning tuzatilishi va sog‘liqni saqlanishidir<sup>262</sup>. Tabib ush maxfiy narsalarning borligi, miqdori, va o‘tish davriga batafsil dalillar keltirishi olzim bo‘ladi.

*Unsurlar* – u oddiy jismlar bo‘lib, odam tanasi va boshqa narsalar uchun daslabki bo‘lak vazifasini bajaradi. Oddiy jismlar – shakli turlicha bo‘lib bo‘laklarga bo‘linmaydi, balki, murakkab jismlarga bo‘linadi. Oddiy jsmlarning aralashuvi koinotda turli shakllarda paydo bo‘ladi<sup>263</sup>.

Unsur 4 xil bo‘ladi. Ularning ikkitasi yengil, ikkitasi esa og‘irdir. Yengili olov va xavo, og‘iri suv va yer. Yer-oddiy jism bo‘lib, uning tabbiy o‘rni hamma

---

<sup>260</sup> O‘sha asar. – 13 b

<sup>261</sup> O‘sha asar. – 13 b

<sup>262</sup> O‘sha asar. – 13 b

<sup>263</sup> O‘sha asar. – 14 b

jismlarda mavjud<sup>264</sup>. Unig tabiati sovuq va quruqdir. Suv-oddiy jism bo‘lib, tabiiy o‘rni bilan, yer va havo o‘z tabiiy o‘rinlarida yer va xavoni bog‘lab turadi. Suv sovuq va xo‘ldir. Xavo – tobbiy o‘rni suvdan yuqqori, olovdan pasldir. Xavo issiq va ho‘ldir. Olov – oddiy jism. U tabiiy o‘rni xamma jismlarning yuqqorisidadir. U issiq va quruqdir. Ikki og‘ir unsur a‘zoning paydo bo‘lishiga va tinch turishiga yordam beradi. Ikki yengil unsur a‘zolari xarakat qildiruvchi, ruxni paydo bo‘lishiga va harakatlanishiga yordam beradi<sup>265</sup>.

*Mizoj* – unsurlarning nihoyat darajada mayda bo‘laklaridagi qarama-qarshilligiva ularning bir biriga ta’siri ma’lum bir chegaraga yetganda paydo bo‘ladigan kayfiyatga mizoj deyiladi. Mizoj ikkiga bo‘linadi: *birinchisi*, uning mo‘tadil bo‘lmog‘i, mizoj egasidagi qarama qarshi kayfiyatlarining miqvdori teng bo‘ladi va bu haqiqiy mo‘tadil mizojdir;

*ikkinchisi*, qarama – qarshi kayfiyatlar orasidagi mizoj mutlaqo o‘rtada bo‘lmay, issiqlik yoki sovuqlik, ho‘llik va quruqliknig biriga yeki har ikkalasiga moyilroq bo‘ladi. Bu xolat tabiatda bo‘lishi mumkin emas. Mo‘tadillik – mizoj egasining butun gavdasida yoki bir a‘zosida unsurlar miqdori va xolati bilan odamning mizojiga kerakli darajada to‘g‘ri taqsimlanadi<sup>266</sup>. Bu holat “Tib qonunlari”da insonlarning yer yuzidagi iqlim mintaqalarida yashashi va ularning tashqi ko‘rinishlari misolida bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda odam tanasi, a‘zolarining ham mizojiga oid ma’lumotlar berilgan. Kasallikni davolash uchun beriladigan dorilarda xam issiq sovuq degan tushuncha qo‘llaniladi. Ammo bu mizoji degani emas aksincha ular odam tanasiga kirganda issiqlik yoki sovuqlik beradi degan ma’noda qo‘llaniladi. Odam gavdasidagi issiqlik va sovuqlik xammada bir xil bo‘lmaganligi hammaga bir xil dorini qo‘llash mumkinligini anglatmaydi.

Mizojning odam a‘zolari, yoshga va jinsga xos mizojlar xaqida ham bayon etilgan. Masalan, gavdaning issiq qismi ruh, go‘sh sovuq, eng sovuq mizoqli narsa: balg‘am, yog‘, suyak, pay, miya, ko‘l kafti terisi; xo‘l mizoqli a‘zolar: qon, jigar,

---

<sup>264</sup> O‘sha asar. – 14 b

<sup>265</sup> O‘sha asar. – 14 b

<sup>266</sup> O‘sha asar. – 15 b

taloq, mushaklar teri va xokozi. Yosh va jins mizoji: bolalar va yoshlar badani mo'tadil darajada issiq; o'rta yosh va qarilar badanlari sovuq. Jins mizoji; erkaklar va ayollarning mizojlari. Bu xarakat va ularning shug'illanadigan kasbi bilan xam bog'lab tushuntiriladi.

*Xiltlar* – hilt ho'l, oquvchi bir jism bo'lib, eng avvalo ovqat o'shanga aylanadi. Xiltning ba'zisi maqtovg'a sazovvor. Bu shunday xiltki, bir o'zi yo boshqa biron narsa bilan birga, ovqtlanuvchining moddalaridan biri bo'ladi, shuningdek, ozuqa moddalarga o'xshab ketadi. Yaxshi va ortiqcha xiltlarning ho'lliklar to'rt xil bo'ladi: qon, balg'am, safro (jigarda xosil bo'lib bir qismi sof xolda o't qopchasiga tushsa, bir qismi qonga aralashib ketadi), savdo (jigarda xosil bo'lib, bir qismi qonga aralashsa, bir qismi taloqqa borib tushadi. Savdo dastlab medaning og'ziga tushab uni baquvvat qiladi, ochlikkdan darak beradi va ishtaxani qo'zg'atadi)<sup>267</sup>.

*A'zolarining mohiyati va qismlari to'g'risida.* A'zolar oddiy va murakkab turlarga bo'linadi<sup>268</sup>. Oddiy a'zolar: go'sht (musukul) va go'sht bo'laklari (ichki a'zolar) suyak va suyak bo'laklari, asab (nerv) va asab bo'laklari. Shuning uchun bular bir biriga o'xshash a'zolar deyiladi. Murakkab a'zolar: qo'l va yuz. Ular "qurol" a'zolar ham deb yuritiladi.

*Suyak* qattiq tuzilishga ega va u taaning tayanch xarakat a'zosidir. *Tog'ay* suyakdan yumshoq bukiladigan va boshqa a'zolardan qattiqroqdir. Asab (nerv) ham bo'laklardan iborat bir biriga o'hshash azodir. *Asab* (nerv) miya va orqa miyadan o'sib chiqadigan oq mayin jismlar bo'lib, ular osonlik bilan egiladi, qiyinlik bilan uziladi va ajraladi. *Paylar* mushak uchlarida o'sadi va asabga o'xshaydi. *Boyloqlar* asabga o'hshash bo'lib umumiy boyloqlar va chandir deb ataladi. *Qizil qon tomirlari* – arteriyalar yurakdan o'sib chiqqan kovak tomir bo'lib, uzinasiga cho'ziladi va ko'rinishida asabga va boyloqqa o'hshaydi. *Vena* (ko'k qon tomirlar) jigardan o'sib chiqadi va harakatsiz bo'ladi, ular qonni gavda a'zolariga tarqatish uchun tuzilgan. *Parda qobiqlar* ular ko'zga ko'rinmaydigan

---

<sup>267</sup> O'sha asar. – 19 b

<sup>268</sup> O'sha asar. – 22 b

asabsimon yupqa va yoyiq, ular boshqa a'zolari o'rab turadi va ustini yopadi. *Go'sht*(muskul) gavda a'zolari orasini to'ldiruvchi va u a'zolarining suyanchi va quvvatidir. *Miya* sezishni qabul qilish o'rnidir. *Jigar* ovqatlantirish manbaidir<sup>269</sup>.

*A'zolar besh xil bo'ladi*; boshqaruvchi a'zolar (yurak, miya, jigar, turni saqlovchi organlar), ularga xizmat qiluvchi a'zolar (o'pka, nerv, vena, jinsiy organlar), buysundirilgan lekin xizmat qilmaydigan a'zolar (a'zolari ulovchi tomirlar masalan qizil o'ngach, halqum, tish, siydik naylari), boshqaruvchi yoki bo'ysudiruvchi bulmagan a'zolar (siydik qopi, buyrak, taloq, meda, ichaklar).

*Quvvatlar* – quvvarlar ma'lum bir a'zoda xosil bo'lad va ulardan paydo bo'lgan ta'sirlar tabiblar aytishicha uch hil bo'ladi; nafsoniy quvvat (miyada xosil bo'ladi), tabiiy quvvat (jigarda va moyak, tuxumdonda hosil bo'ladi), hayvoniy quvvat (miya)<sup>270</sup>. “Tib qonunlari”da quvvatning asosiy xususiyatim paydo bo'lish o'rin haqida Ibn Sino Jolinus fikriga tayanib tafsiflab bergan.

*Kasalliklar, ularning umumiy sabablari va yuz berishi*. Tib haqidagi kitoblarda *sabab* deb oldin paydo bo'ladigan va odam gavdasida qandaydir bir holatni keltirib chiqaradigan yoki bu holatni turg'unligicha saqlab turadigan narsaga aytiladi. *Kasallik* esa kishi gavdasiga g'ayritabiiy bir holat bo'lib, kasal kishi a'zosning ishiga bevosita zarar yetkazadi. Yuz berish shu kasallik holatining natijasidir<sup>271</sup>. Sababning misoli – sasishlik(irish), kasallikning misoli isitma, yuz berishi misoli chanqash va bosh og'rig'i; ko'zga tushuvchi tomirlarning to'lishi; kasallikning misoli-ko'z uzumsimon qatlamining tiqilishi paydo bo'lishi kabi asosli misollar bilan yoritib berilgan.

Ba'zi bir kasalliklar ikkinchi kasallikka sabab bo'ladi. Masalan, qulanj kasalligi hushidan ketishga, falaj va tutqanoqlik kasalligiga sabab bo'ladi. Hatto kasallikning yuz berishi kasallikning sababi ham bo'lishi mumkin. Masalan, kuchli og'riq hush ketishga yoki og'riq joyga moddalar qo'yilganidan shishni keltirib chiqaradi. Ba'zan yuz berish o'z-o'zi dan kasallikka aylanadi ya'ni isitma chiqqanda bosh og'rigani kabi. Bu ko'pincha qattiq o'rnashib kasallikka aylanb

---

<sup>269</sup> O'sha asar. – 23-24 b

<sup>270</sup> O'sha asar. – 25 b

<sup>271</sup> O'sha asar. – 27 b

ketadi. Ba'zi bir kasalliklar o'ziga ko'ra, o'zidan oldingi, o'zidan keyingi narsaga ko'ra kasallik yuz berish va kasallik sababi bo'lishi mumkin. Masalan, sil isitmasi kabi. *Sodda kasalliklar* – mizoj kasalligi navlaridan biri yoki keyingi aytganmizdek tarkib(tuzilish) kasalliklari turlaridan bir xil kasallikdir. Bu kasalliklar 3 turga bo'linadi: 1) bo'laklari o'xshash bo'lgan a'zolarga mansub kasalliklar. Bular avvaldan aslida bo'laklari o'xshash bo'lgan a'zolarida paydo bo'ladi va murakkab a'zolarga o'tadi. 2) qurol a'zolar kasalliklari. Bular ta'siri qurol bo'lib, bo'laklari o'xshash a'zolaridan birikkan a'zolarida paydo bo'luvchi tarkibiy kasallik. 3) hamkor a'zolar kasalliklari. Bular bo'laklari o'xshash a'zolarida ham, qurol a'zolarida ham paydo bo'ladigan kasallikdir. *Murakkab kasalliklar* – shunday kasalliklarki, ularda kasallik turlarida ikki va undan ortig'i to'planib, bitta kasallik hosil qiladi. Bu kasalliklarda jam bo'lib qolgan har qanday kasallikni tushunmaymiz, balki, to'planganlarida uning yig'indisidan bir kasallik paydo bo'lishini tushunamiz. Shishlar murakkab kasallik turiga kiradi. *Tarkib kasalliklari* 4 xil bo'ladi: tuzilish kasalliklari, miqdor kasalliklari, son(adad) kasalliklari, vaziyat kasalliklari. *Uzliksizlikning buzilish kasalliklari* ba'zan terida bo'lib, timalish va yulinish deb ataladi<sup>272</sup>.

*Kasallikning kechishi 4 davrga bo'linadi:* 1) boshlanish davri; 2) zo'rayish davri; 3) nixoyaga yetish davri; 4) pasayish davri. Bu davrlardan tashqaridagi vaqt sog'lik davridir<sup>273</sup>.

*Kasalliklarga nom berish* turli tomondan bo'ladi. U o'zi bo'lgan azodan, masalan o'pka pardasining yallig'lanishi zotiljam, o'pkaning yallig'lanishi esa zottiriya kabi. Ayrim xollarda kasslik birinchi uchraga odam, kassalik ko'p kuzatilgan shaxar (xudud), kassliknin tashqi ko'rinishidan, sabablaridan, ism o'xshatish (fil), kasallikni muvofaqiyatli davolagan kishi, kasallik moxiyatidan olinadi. Kasalliklar ikki turga bo'linib tashqi yoki ichki kasslik deb ataladi. Kasalliklar a'zoga yoki boshqa a'zoning ishtirokida sodir bo'ladi. Kasallik mizoj,

---

<sup>272</sup> O'sha asar. – 29 b

<sup>273</sup> O'sha asar. – 30 b

yosh, yil fasillari bilan aloqador va ularga mos bo'lsa yoki ularga aloqador va mos bo'lmagan sabablar orqali sodir bo'lgan kasalliklarda ko'ra xavfliroqdir<sup>274</sup>.

Kaslliklar oson tuzaladigan va oson tuzalmaydigan, butunlay tuzalib yo'q bo'lib ketadi va o'rnida boshqa kasallik paydo bo'ladigan, yuqumli, nasldan-naslga o'tuvchi, bir o'lkada yashovchilarda uchraydigan turlarga ham bo'linadi. Shu bilan bir qatorda kasalliklar faslga, xavo, tog', dengiz, havo, dunyo tomonlari (sharq, g'arb, shimol, janub) tuproq tuzilishi, turar-joy, yeyiladigan va ichiladigan narsalar, suvga bog'liqligi masalalariga ham "Tib qonunlari"da alohida to'xtalib o'tilgan.

*Mizoj axvoliga dalolat qiluvchi belgilar* o'n turli bo'ladi: 1) ushlab ko'rib sezish orqali; 2) go'sht va yog'dan; 3) mo'yildan (tuk, soch); 4) badan rangidan; 5) a'zoning tuzilishidan; 6) a'zolarnin ta'sirni qabul qilishidan (issiqlik, sovuqlik); 7) uyqu va uyg'oqlik xolatidan; 8) xarakatlardan (a'zoning ishlari); 9) gavda chiqindilarni chiqarishi va ularning sifatidan; 10) nafsoniy quvvatning ta'sirlanishi yoki qabul qilishi qobiliyatidan olinadigan belgilardan iboratdir<sup>275</sup>.

*Tomir urishi* – hayotiy ruh idishining kengayish va qisilishidan iborat harakati bo'lib, uning natijasida yengil havo oqimining yordami bilan ruh sovuydi. Tomir urishi umumiy yoki har bir kasallik bo'yicha aloxida qarab chiqilishi mumkin. Tomir urishi ikki harakat va ikki tinishdan tarkib topadi. Chunki tomir urishi doim siqilib va kengayishdan hosil bo'ladi<sup>276</sup>.

"Qonun"da tomir urishi haqida aloxida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bilakdan tomir ushlab ko'rish orqali tashxis qo'yishning sabablari ushlab kurishning osonligi, tabibga ko'rsatishning qulayligi va yurakka yaqin joylashganligi sifatida tushuntiriladi. Tabiblar tomir urishi orqali tashxis qo'yishdagi 10 ta usuli, urish miqdorining turlari 3 turi, tomir urishing 9 ta sodda va murakkab 3 ta sifatlari aloxida izoxlangan. Shu bilan bir qatorda siydik va axlat orqali tashxislash usullari ham bayon etlgan.

*Sog'liqni saqlash tadbirlari* – tibning amalliy qismi sifatida yoritib berilgan. Tibning amalliy qismi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi sog'lom gavdaning tadbirini

---

<sup>274</sup> O'sha asar. – 31 b

<sup>275</sup> O'sha asar. – 55-58 b

<sup>276</sup> O'sha asar. – 58-59 b

bilish – bu sog‘liqni saqlashga taalluqli bo‘lgani uchun sog‘liqni saqlash ilmi deb ataladi. Ikkinchi qismi kasal gavdani tadbirini bilish bo‘lib, sog‘lom holatga qaytarish yo‘lini ko‘rsatadi, buni davolash ilmi deb ataladi<sup>277</sup>. Sog‘liqni saqlash san’ati o‘limdan omon qoldirish va gavdani sirtqi ofatlardan qutqazishga kafil bo‘la olmaydi, shuningdek, har badanni mutlaqo inson istaydigan juda uzun umrga yetkazishga ham kafil bo‘la olmaydi, balki ikki narsaga: tug‘ma namlikni qaytarishga va ho‘llikni tez tarqalishidan saqlashga kafil bo‘la oladi. Sog‘liqni saqlash san’ati odam gavdasini unga munosib va yoqadigan narsalarini saqlash orqali o‘sha tabiiy ajal deb atalgan yoshga yetkazishdan iboratdir. Sog‘liqni saqlashda asosiy narsa umumiy va zaruriy sabablarni mo‘tadil qilishdir<sup>278</sup>.

*Tarbiya haqida* – “Tib qonunlari”da tarbiya masalasi quyidagicha tafsiflanadi:

bolaning tug‘ilgandan to oyoqqaturgincha qilinadigan tadbirlar (tug‘ishga yaqinlashgan xomilador ona tadbiri, kindikni kesish, yuvintirsh, yo‘rgaklash oldi tadbirlari, yotqizish, emizish, sutdan ajratish tadbirlari);

bolada paydo bo‘ladigan kasalliklar (tish chiqishi oldi kuzatiladigan o‘zgarishlar, ich ketishi yoki qotishi, quloq og‘rishi, toshmalar toshishi, isitmalashi, ko‘z og‘rishi, miya chanqashi, og‘izning chaqa bo‘lishi, yo‘tal, tumov, nafas olishning buzilishi, uyquning buzilishi, yig‘loqilik, hiqinchoq, qusish, xurrak otishi, shaytonlash, gijja kasalliklari) va ularni davolash usullari;

chaqaloqning bolalik yoshiga o‘tgandagi (qattiq qo‘rqish, qattiq g‘azablanish, uyqusizlikdan saqlash, cho‘miltirish, ovqatlantirish, 6 yoshga tulgandan ta’lim berish, badantarbiya qilish, 14 yoshga yetganda qilinadigan tadbirlar, o‘stirish, sog‘liqni saqlash) tadbirlar.

Sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri sifatida badantarbiya va uning turlari, ovqatlanish va uyqu tadbirlari, hammom va sovuq suvda cho‘milish, suv va ichimliklar, uyqu va uyg‘oqlik, keksalarni parvarish qilish tadbirlari to‘liq bayon etlgan va tabiblar qilladigan chora tadbirlari ko‘rsatilgan.

---

<sup>277</sup> O‘sha asar. – 70 b

<sup>278</sup> O‘sha asar. – 71-73 b

Yining turli fasillaridagi tadbirlar va havoni sogʻlomlashtirish xaqida quyidagicha tafsiflanadi:

erta bahorda zaruratga qarab tomirdan qon oldirish, surgi qilish, qusish, qizdiruvchi va koʻp hullantiruvchi goʻshtlar, ichimliklardan saqlanish, oz-oz yeyish, sharbatlar istemol qilish, achchiq shoʻr narsalardan saqlanish;

yozda ovqatlar, ichimliklar va badantarbiyani ozaytirish, dam olish, salqin joyda boʻlish, chanqoqbosdi ichimliklar ichish, salqin joyda uxlashdan saqlanish;

kuzda havosi oʻzgarib turganligi sababli qurituvchi narsalardan, jinsiy aloqadan, sovuq suv ichishdan, sovuq suv bilan boshni yuvishdan, salqin yoki sovuq joyda uxlashdan, kuz vaqtining mevalarini koʻp yeyishdan kabilardan saqlanish, kuzda koʻp yomgʻir yogʻishi kuzning zaralaridan saqlashi;

qishda charchab mehnat qilish, ovqatni koʻp qilish, qish issiq kelsa xarakatni koʻpaytirib ovqatni kamaytirish, goʻsht, qovurma ovqatlarni faslga qarab tanlash, karam, lavlagi, petrushka, gulli karam, semizoʻt, sachratqi kabilarni istemol qilish tadbirlari tavsiya qilinadi va sabablari tushuntirib berilgan.

*Kasallikning boshlanishida xabar beruvchi belgilar paydo boʻlganda qilinadigan tadbirlar* – xafaqonga uchragan kishi tezlik bilan tadbir qilmasa toʻsatdan ulim yuz berishi, bosinqirash va bosh aylanishi koʻpaysa tutqanoq yoki sakta kasalligiga chalinishi, sezgirlik oʻtmaslashsa yoki aʼzolar karaxtlashsa undan balgʻamni chiqarib tashlash toki falajlikni oldini olish uchun kabi bir qator tadbirlarni mohiyati ochib berilgan.

*“Tib qonunlari”da Safar qiluvchi, issiqdan saqlanish, issiqda va sovuqda safar qiluvchi kishi tadbiri haqida* – safarga chiqqan kishi oʻz uyida odat qilgan narsalaridan ajraladi va unga charchash, holsizlik yetishadi. Yaxshi moddali, miqdori koʻp boʻlmagan ovqatlarni istemol qilishi kerak. Ovqat yaxshi xazm boʻlmasa tomirda chiqindilar uyulib qolishini oldini olishi kerak. Yoʻlda uygʻoqlik zarur boʻlsa, unga asta-sekin odat qilish kerak<sup>279</sup>. Yoʻlda ochlik va tashnalik yoki boshqa holatlar boʻlishini xisobga olishi, oʻzi bilan tashnalikni bosuvchi narsalarni olishi kerak. Safarga chiquvchi baliq, kovul, tuzlangan narsalar, shirinlik kabi

---

<sup>279</sup> Oʻsha asar. – 119 b



tashna qiluvchi narsalarni istemol qilmasligi kerak. Suvi kam yerda suvni sirka bilan ichsa, buning ozginasi tashnalikni bosishda kifoya qiladi. Shuningdek, ispag‘ul urug‘ining shirasini ichish ham foyda berishi kabi tavsiyalar yoritilgan. Sovuqda safar qiluvchi aslaha-asboblar, oziq va kiyimlar bilan bo‘lishi havflidir<sup>280</sup>. Safar qiluvchi badan teshiklarini qalin kiyimlar bilan bekitishi, burin va og‘zini sovuq havo kirishidan saqlashi, qo‘l va oyoqlarini qalin kiyim bilan hbekitishi kerak. Qo‘l va oyoqqa galban yelimi va sarimsoq bog‘lash kerak, oyoq kiyimlari tor bo‘lmasligi lozim. Yuzga yopishqoq va o‘zida quvvati bor narsalarni surtish kerak<sup>281</sup>. Suvning zaxridan saqlanishi tadbirlari xam to‘liq bayon etilgan. Chunki safar qiluvchi xar xil joydan turli suvlarni ichishi oqibatida turli kasalliklarga chalinishi mumkin. Dengizda safar qiluvchi kishida bosh aylanishi, qusish, ko‘ngil aynishi paydo bo‘ladi<sup>282</sup>. Bu xolat dastlabki kunlarda bo‘lib qusish va ko‘ngil aynishini to‘xtatishga urinmaslik kerakligi kabi tadbirlar bayon etilgan.

*Umumiy davolash usullari va davolash xaqida umumiy so‘z.* Davolash ishi uch narsa bilan tugal bo‘ladi. Birinchisi, tadbir(rejim) va oziqlantirish. Ikkinchisi, dorilarni istemol qilish, Uchinchisi qo‘l bilan bajariladigan ishlar. Tadbir so‘zidan odatda bor bo‘lgan sanoqlik omillarini tatibga solishni tushunamiz, ovqat ham shular jumlasidandir. Tadbir to‘g‘risidagi umumiy xukumlar xususiyati jixatidan davolash hukumlariga munosibdir. Lekin tadbirning bir qismi bo‘lgan ovqatlanishning miqdor jihatidan o‘ziga xos xukumlari ham bor. Masalan, ovqat goho man qilish (o‘tkir kasalliklarda), kamaytirish (eski kasalliklarda), goho o‘rtacha goxida esa ko‘paytiriladi. Ovqatlar oziqli bo‘lishi jihatidan yana ikki turga bo‘linadi: o‘zlashishning tezligi (sharob) va sekinligiga (qovurilgan ovqatlar) ko‘ra; kam oquvchan quyruq qon paydo bo‘lishi (buzoq va to‘ng‘iz go‘shti) va tez tarqaluvchi suyuq qonning paydo bo‘lishi (sharob va anjir) kabi<sup>283</sup>.

Dorilar bilan davolashning uchta qonuni bor. Birinchisi, dorilarning hususiyatiga qarab (issiq yoki sovuq, quruq yoki ho‘l) tanlash qonuni. Ikkinchisi,

---

<sup>280</sup> O‘sha asar. – 122 b

<sup>281</sup> O‘sha asar.. – 123 b

<sup>281</sup> O‘sha joyda.

<sup>282</sup> O‘sha asar. – 124 b

<sup>283</sup> O‘sha asar. – 127 b

dorilar miqdorini belgilash (dorilar og'irligin o'lchash, issiqlik, sovuqlik yoki boshqalarning darajasini aniqlash) qonuni. Uchinchi, dorilarni istemol qilish vaqtini aniqlash qonuni<sup>284</sup>.

A'zoning quvvatiga yarasha dori berishning uch yo'li bor: birinchi, a'zoning boshqaruvchi va boshlangich ekanligiga rioya qilish; ikkinchi, a'zolarning hamkorligiga rioya qilish; uchinchi, sezgining o'tkir yoki o'tmasligiga rioya qilish. Bu qonuniyatlar va yo'llar "Tib qonunlari"da alohida yoritilgan.

Shu bilan bir qatorda mizoj buzilishi kasalliklariga qilinadigan davolar, qanday va qaysi vaqtda bo'shatish kerakligi to'g'risida, qustirish va surgiga taalluqli umumiy qoidalar, ichni surish va uning qoidalari, qaytging foydalari, huqna qilish, qon olish, qortiq qo'yib qon olish, zuluklar, tiqmalarni davolash, shishlarni davolash, shishlarni yorish, buzilgan a'zoning davosi va uni kesib tashlash, uzlkusizlikning buzilishi, yaralar, et uzilishi, zarba va yiqilish oqibatlarini davolash, og'riqlarni to'xtatish kabi chora tadbirlar haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan.

Kasallikning qaysi biridan (davolash) boshlashimiz kerakligi haqida quydagilar bayon qilingan: bir qancha kasalliklar qo'shilganda uch xususiyatning biriga ega bo'ladi. Birinchi, u kasallik tuzalmasdan turib ikkinchisi tuzalmaydi. Masalan, shish bilan yara bo'lganda. Ikkinchi, ikki kasallikdan birining boshqasiga sababchi bo'lishidir. Masalan, tiqma va isitma. Uchinchi, ikki kasallikdan birining ahamiyatliroq bo'lishi. Masalan, sinoxus isitmasi bilan falaj kasalligi birlashganda<sup>285</sup>.

Ko'rinib turibdiki bu tartibda mavzularning yoritilishi keng qamrovli bo'lib tabiblar uchun tayyor qo'llanma sifatida foydalanish uchun qulayligidan dalolat beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Abu Ali ibn Sino "Salomatlik sirlari" (tibbiy risolalar). -Toshkent 2000.
2. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" (Uch jildlik saylanma).-Toshkent 1993.

---

<sup>284</sup> O'sha asar. – 128 b

<sup>285</sup> O'sha asar. – 131 b

## 7-MAVZU: TIB QONUNLARIDA AXLOQ VA TIBBIYOT ETIKASI

Reja:

1. Ibn Sinoning tarbiya va axloqqa oid asarlari tasnifi.
2. Ibn Sino asarlarida axloqqa oid masalalar.
3. Ibn Sino asarlarida shifokor axloqi.

1. Ibn Sino ta'lim-tarbiya va axloqqa oid bir necha asarlar yaratgan:

- "Tadbir al-manozil" ("Turar joyni boshqarish choralari"),
- "Risola fi ilm al-axloq" ("Axloqqa oid risola"),
- "Risola fi al-ahd" ("Burch haqida risola"),
- "Risola fi tazkiyat an-nafs" ("Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola"),
- (Siyosat albadan") ("Badanni boshqarish"),
- ("Kitob al-ansof) ("Adolat haqida kitob"),
- "Al-urjuza fit-tibb" ("Tibbiy urjuza").

Mazkur asarlarning bugunga qadar barkamol avlodlarimizni ta'lim va tarbiyasida, ularni zamon talablariga javob bera oladigan dono, bilimli va kuchli bo'lishlarida ahamiyati beqiyos.

Chunonchi olim "Tadbir al-manozil" ("Turar joyni boshqarish choralari") degan asarida odamlarning oila qurishi to'g'risidagi masalaga oid o'z mulohazalarini bayon etadi.

Bundan tashqari, Ibn Sino axloqqa tegishli "Yaxshilik va yomonlik" degan asar ham yozgan. Bu asarda haqida olim o'z tarjimai holida eslab o'tadi. Lekin bu kitob bizgacha yetib kelmagan bo'lsa kerak, chunki bu kitob olim tomonidan taqdim qilingan kishining o'zidagina bo'lishi ta'kidlangan edi. Ibn Sinoning o'zi ham o'sha paytda uning asrlar osha olmasligini payqagan shekilli, bu haqda tarjimai holida shunday deb yozadi: *"Abu Bakr al-Barqiy degan Xorazmda tug'ilgan bir qo'shnim bor edi, o'z tabiati bilan u kishi faqih – qonunshunos bo'lib, tafsir va porsolikda yagona edi. Shu kishi mendan kitoblarga sharh yozib*

*berishimni so'radi. Men unga yigirma jildcha keladigan "Hosil va mahsul" degan kitob yozib berdim. Bundan tashqari, unga axloqqa tegishli bir kitob ham yozib taqdim etdim. Kitobning nomini "Kitob al-birr va – l-ism" ("Yaxshilik va yomonlik kitobi") deb qo'ydim. Bu ikki kitob undan boshqada yo'q. U ikkovidan nusxa olish uchun hyech kimga bermagan ham.*

Ibn Sino o'zining "Axloq haqidagi risola"sida axloqiy xislatlardan or nomus, sha'n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyati kategoriyalariga ta'rif beradi:

- "G'ayratlilik" olimning fikricha, g'azabiy quvvatga mansub bo'lib, bunda inson har qanday og'riq va alamlarga befarq qaraydi.

- "Hikmat" tamyiziy quvvatga mansub bo'lib, insonni xato va yanglishishlardan asraydi.

- "Qanoat", ya'ni mo'tadillikka ta'rif berib, Ibn Sino uni tana uchun normadan ortiq ozuqani iste'mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik deb tushuntiradi.

- "Sabr" insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan yomonlikdan xoli bo'ladi.

- "Yumshoqlik" g'azabning yuz berishidan o'zini tutishdir. Kimki o'zini g'azabdan tuta olmasa, u oqibatda jinoyat sodir bo'ladigan fe'l-atvorga giriftor bo'ladi. G'azabdan o'zini tutishni Ibn Sino insonning olijanobligidir, deb juda to'g'ri ta'kidlaydi.

- "Vijdonlilik" tez fahmlash, his orqali berilgan biror narsaning haqiqiy ma'nosiga tez yetishdir va turli xil yomon ishlardan o'zini tiyib turishdir.

- "Rahmdillilik" omadsizlikka uchragan yoki boshqa og'ir kulfat tushgan insonlarga hamdard bo'lish.

Donishmandning axloq mavzusiga bag'ishlangan asarlaridan yana biri "Siyosat al-badan" ("Badanni boshqarish")dir. Bunda Ibn Sino ichkilikning zarari

haqida, uning qonun-qoidalariga ham to'xtalib, sharobni keragidan ortiqcha ichilsa, inson badanida zaharga aylanishini ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning axloq va odob borasidagi qarashlari uning shoh asarlari "Tib qonunlari", "Ash-Shifo"larning deyarli barcha qismlarida, shuningdek, uning badiiy asarlarida, ayniqsa, tibbiy poemasi "Hayy ibn Yaqzon", "Qush risolasi"da ham o'z aksini topgan. Ibn Sino tibbiyotning turli-tuman sohalariga to'xtaladi va insonga eng zarur bo'lgan tibbiy maslahat va yo'riqnomalarni bayon etadi. Asarda muallif ovqatlanish va uxlash gigiyenasi, nafsoniy kayfiyatlar, sog'liqni saqlash haqida inson organizmi uchun iste'mol qilinishi lozim bo'lgan narsalar haqida, ichimlik suvlar, ichkiliklar, badan tarbiya haqida, issiq va sovuq paytda safarda qilinadigan ishlar haqida, bolalar tarbiyasi, bolaning tug'ilishi va go'dakligi haqida, dori-darmonlarni ishlatish haqida bahs yuritadi.

Ibn Sino o'zining "Uyun al-hikma" ("Hikmat buloqlari") asarida ham ta'lim va axloqqa oid o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Unda aytilishicha, axloq fani odamning chinakam baxtli bo'lishi uchun unga doimo yo'l-yo'riq ko'rsatib beradigan fandır. Bu fan kishining xulqi, fe'l-atvori ustidan rahbarlik qiladi. Bu fan shunday odamlarni tayyorlab berishi kerakki, ular faqatgina o'zi uchun yashamasdan, balki boshqalar va jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga intilishi kerak.

Buyuk mutafakkirlarimiz aql-tafakkur, bilish haqida ham gapirib o'ttanlar. Bilish sezgidan boshlanadi, degan tamoyil ma'lum. Sezgiga kuzatish, eksperiment kiradi. Ibn Sino kuzatish, faxmlash (intuisiya) va instinktini birgalik holda qaraganida, ularni bilishning asosi va bu asos quyidagicha namoyon bo'ladi:

- A) bevosita payqalanish - oddiy o'xshashlik;
- B) sezgi, masalan, quyosh nurini sezish;
- B) hurmatli odamlarning gaplaridan;
- G) urf-odatlardan, udumlardan, an'analardan.

Ibn Sino umumiylik, alohida va maxsuslik birligini ko'p ishlatgan. Ibn Sino bilishda tushunchalarni ta'riflashning ham ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, olamda narsalar bor, ularning son-sanog'i yo'q, lekin ularning nomlari, tushunchalari bo'lmasa, avvalo, so'z, jumla, mantiq bo'lmaydi, binobarin tafakkur va fikr bo'lmaydi. Shuni ham aytib o'taylikki, har bir tushuncha boshqa tushunchalar orqali ta'riflanadi.

Ibn Sino bilishning usullaridan aksiomalashtirish va teoremalashtirishga ham alohida e'tibor bergan. Masalan, ikki son bir-biriga teng bo'lsa, yarimlari ham teng, bu aksiomadir, deb aytgan. Shu bilan birga teorema tarzida ifodalangan fikrlar borki, ular teoremlar bo'lib isbotlashga muhtoj. Ibn Sino ayniqsa "teskari teorema"ga e'tibor bergan. Teskari teorema to'g'ri teorema isbotlanguncha vaqtincha ishlatiladi, degan fikrni olg'a surgan. Ibn Sino aytishicha sezgi narsani to'la bilolmaydi, faqat tafakkur to'la bo'lishi mumkin. Tafakkur narsaning o'zi qanday bo'lsa, o'shanday bilib olishi kerak, undan ortig'i kerak emas. Ko'z ko'rganda narsaning rangidan tashqari uzunligi, bo'yi, eni, shakli, shuningdek, harakatdami yoki jim turibdimi, buni ham bilib oladi. Ba'zi sezgi organlari qattiq, yumshoq, hid, tovushlarni payqaydi. Sezish o'zgaruvchanlikni, tafakkur o'zgarmas bog'lanishlarni belgilab beradi. Sezish aknidensiyalarni, tafakkur substansiyani bilishda xizmat qiladi. Nimaniki bilmoqchi bo'lsak, bilingani yordamida amalga oshadi, deydi Ibn Sino. Ibn Sino ta'kidlaydiki, odam sezgi organlari o'zlarini kuzata olmaydilar. Masalan, ko'z o'zini kuzatmaydi (bu, albatta, oyna ixtiro etilguncha). U boshka narsalarni ko'rish vositasidir. Kasalni davolash kuzatishdan boshlanadi, deydi Ibn Sino. Diagnostika shunga bog'liq.

Kasallarning mijozlarini surishtirib, shu asosda davolashga o'tish Shark tibbiyotining asosiy tamoyillaridan bo'lgan. Shu asosda Ibn Sino xirurgiya, terapiya, nerv tizimi, ichki kasalliklar, tibbiyotning boshqa sohalaridagi kashfiyotlarni ruyobga chiqarishga muyassar bo'ldi.

Ibn Sino aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va ruhiy asoslarini aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sinoning aql-tafakkur, aqliy tarbiya sohasidagi ta'limoti uning «Kitob ash-shifo» «Kitob Najot», «Kitob ishorat va tanbihot», «Donishnoma» kitobida keng bayon etilgan.

Eng muhim axloqiy boylik, Ibn Sinoning ta'kidlashicha, adolatdir. Axloqiy tushunchalar aqlga, aqliy bilimga asoslanishi lozim. Lekin inson qanchalik bilimdon, olim bo'lmasin, axloqiy prinsiplarga tayanmasa, u odobsizlik va yomonlikka yo'l qo'yadi. Ibn Sino o'zining «Qush tili» asarida ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, xoinlik kabi xislatlarni qoralaydi, inson ustidan har qanday zo'ravonlikni inkor etadi.

Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri o'zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo'qotishga intilishidir. Uning yaxshi xislatlari ichida boshqalarga e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishi maxsus o'rin tutadi. Kimki o'zining axloqini tarbiyalash uchun o'z oldiga qo'ygan vazifasini bajarib, o'z xulqini tuzatishga intilsa, unga hech narsa qo'rqinchli emas. Kimki o'z xatosini tuzatolsa, u boshqalarning tarbiyasi haqida g'amxurlik qila olishi mumkin. Boshqa odamni tarbiyalamoqchi va uning axloqini tuzatmoqchi bo'lgan tarbiyachi, avvalo uni yaxshi o'rganishi va barcha kamchiliklarini yaxshi bilib olishi kerak. Aks holda tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan vazifasini bajara olmaydi, zero bemorning kasalini bilmay turib, uni tuzatishga kirishgan odamday bo'lib qoladi. Tarbiya tarbiyalanuvchini yomon axloqiy xislatlardan ozod qilish, unga yaxshi axloqiy fazilatlarini singdira borish jarayonida amalga oshiriladi.

Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila, ota-onaning asosiy vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota-ona tarbiyachi bo'lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bola bilan izzat-nafsigaga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo'lish, unga nasihat qilishdir.

Nasihat qilishda suhbatdoshga nihoyatda hurmat bilan yondashish, uni kamsitmaslik kerak. Ortiqcha so'z aytib, uni zeriktirmaslik ham zarur. Bir xil nasihatlarini qaytara berishlik ta'sir qilmaydi. Ibn Sino shunday yozadi: «*Sening*

*fikrlaring (bolaning) yuragita yetib borib, unga o‘ylab, fikr yuritib ko‘rishga imkon bersin. Agarda sening suhbatdoshing yoki do‘sting sening so‘zlaringga va nasihatingga e’tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko‘chir».*

Ibn Sino bolada axloqiy xislatlarni mehnat, jismoniy va aqliy tarbiya bilan uzviy holda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Olim axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta’riflaydi. *“Dunyoda mavjud bo‘lgan jami narsalar tabiatiga ko‘ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o‘zi esa mohiyat e’tibori bilan yaxshilikdir...”*.

Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do‘stona yashashga intiladi. Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo‘shnichilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o‘zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o‘zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilimli, do‘st muhim rol o‘ynaydi, deydi. Olim do‘stlikni shunday ta’riflaydi:

*Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o‘z do‘stini xavf-xatarda yolg‘iz qoldirmaydigan do‘stlik;*

*Manfaatlari o‘xshash va g‘oyaviy yaqin do‘stlik;*

*O‘z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do‘stlik.* Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do‘stlikni haqiqiy do‘stlik deb e’tirof etadi. Olim haqiqiy do‘stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo‘lishi mumkinligini aytadi. U *“Risolai ishq”* asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi.

Insonlarga ularning tashqi ko‘rinishiga qarab emas, balki ularning ichki, ma’naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini o‘qtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuyg‘usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi, lekin inson o‘z



tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata bilishi zarur deydi. Shundagina inson haqiqiy kamolotga erisha oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, haquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim berdi. Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi.

Olim insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insoning atrof dunyoni bilishinigina emas, balki uning xulqini yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odamlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishishning asosiy mezoni sifatida talqin etadi. Olimni buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug'laydi, undagi qudratga ishondi.

2. Insonda ma'naviy barkamollik axloqiy fazilatlarni shakllantirish asosida yuzaga keladi. Ibn Sino fikricha insonda axloqiy fazilatlar va ilm o'z-o'zidan

yuzaga kelmaydi. Haqiqatdan insonda boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, o'z hatti-harakatlarini ongli ravishda nazorat etishdek ijtimoiy xususiyatlar shakllangan. Ibn Sinoning fikricha, *“Tangri insonga shunday kuchni in'om etadiki, u orqali ezgulik (xayr) ni yomonlik (sharr) dan, aqliy kamolot, yetuklik (rashad)ni yolg'on-yashiq, adashuv (gumrohiy) dan farq eta olish imkoniyati paydo bo'ldi”*.

Demak, inson o'z hayoti va faoliyatini mazmunli o'tkazishi uchun yuksak aql-zakovat sohibi bo'lishi lozim. Chunki, aql-zakovot tufayligina inson donolik, teran fikrlilik, rostgo'ylik, uzoqni ko'ra bilish kabi xususiyatlarni amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ham xalqimiz *“Aql insonning ko'rki”* deb bejizga aytmagan. Aql bilan ilm o'rganiladi va ikkalasi birlashib insonni ezgulik sari yetaklaydi. Shu barobarida inson komillik sari yuz tutadi. Mana shu komil insonlar, ma'naviyatimizning yuksak axloqiy qadriyatlarini bevosita ijodkorlaridir.

Axloq dunyodagi jamiki mavjudotlar ichida faqat insongagina xos xususiyatdir. Axloqni ravnaq ettirish ham kishilar zimmasiga yuksatilgan vazifadir. Chunki *“Go'zallikka va axloqiy kamolotga intilish – bu inson zotiga xos xususiyatdir”*. Inson doimo go'zallikka intilib yashaydi va undan ma'naviy ozuqa oladi. Go'zallik axloqqa tegishli, chunki inson ruhiy olami qanchalik go'zal bo'lsa uning jamiyatdagi qadri ham shuncha baland bo'ladi. Aksincha bo'lsachi? Ya'ni, jamiyatda inson e'tiqodi, dunyoqarashi umumjamiyat axloqiy qadriyatlariga zid keluvchi salbiy xususiyatlar asosida shakllansa, bunday jamiyat tanazzuliga yuz tutish muqarrardir. Xo'sh, inson ruhiyatida axloqiy fazilatlar o'rnini qay tarzda salbiy illatlar (ta'magarlik, o'g'irlik, bezorilik, andishasizlik) qamrab oladi.

Inson axloqiy tug'mami yoki ma'lum bir ijtimoiy muhitda shakllanadimi? “Mutafakkirning asarlarida jumladan “Tadbiri manzil” risolasida ham inson tabiati azaldan axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan g'oya muhim ahamiyatga kasb etadi. Aslida odamlar tayyor fazilat, odat va hayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiyaning faol ta'siri ostida sekin- asta shakllana boradi. Ta'lim- tarbiya o'zgalarning ma'naviy ta'siri ostida inson o'zida ijobiy axloqiy fazilatlarini shakllantiradi yoki “yomon do'stlar” yani salbiy odatlar,

mijoz va kayfiyatlar sohibiga aylana boradi.” Bu borada allomaning “Hayy ibn Yaqshon” haqidagi risolasi, ijobiy va salbiy xususiyatlar o’rtasida insonda ro’y beruvchi ichki kurash haqidagi oqilona yozilgan hikoyadir. Bu o’rinda Ibn Sino har bir odamda yaxshi xususiyatlar bilan bir qatorda salbiylar ham bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi. Faqat sog’lom aqlgina odamni adashuvlardan saqlaydi.

Hozirgi kun yoshlarni oladigan bo’lsak ko’pchiligida salbiy odatlarning rivojlanganini ko’rish mumkin. Bunga sabab oiladagi muhit yaxshi emas ekanligi va tarbiyaning izchil olib borilmayotganida. Jamiyatimizda yaxshi hulqli shaxslarni yetishtirib berish uchun ota-onalar farzandlariga yoshligidanoq to’g’rilik, samimiylilik, bardoshlilik kabi fazilatlarni o’rgatishlari shart.

Shuni takidlash joizki, Ibn Sino risolalarida adolatlilik, sahiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, iffat, qanoat, ilm-ma’rifatli bo’lish, do’stlik, kamtarlik kabi fazilatlarga ta’rif berganini, kishi doimo o’zini pokiza tutishi, odamlar bilan muomala qilishi kabi masalalarga e’tabor qaratgan. Ayniqsa “Nafsni pokiza tutish to’g’risida”, “Qonun”, “Siyosat al-badad” kabi bir qator asarlarida to’htalib o’tgan.

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, minglab nasihatnomalar millat ma’naviyatining sarchashmasi bo’lgan axloqiy qadriyatlar sifatida yangicha mazmundagi ma’naviy-axloqiy hayotni qaror toptirishga xizmat qiladi. Axloqiy madaniyat inson ma’naviyatini yuksaltirishda, unda ijodiy va ijobiy fazilatlarni shakllantirishda juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Zero, qadriyatlar birinchi navbatda o’zlikni anglashning izchil vositasi bo’lib, ular tufayli har bir elat va millat, xalq o’zining tarixiy o’q ildizidan ozuqa oladi va o’zligini jahon hamjamiyati oldida namoyon qiladi.

3. Ibn Sino insonning axloqiy xattiharakatini kishi irodasi bilan bog’liq bo’lgan ongli faoliyatidir, uni aql boshqaradi, deb hisoblagan. Shunga ko’ra, axloq ilmining ham, har qanday boshqa fanning ham vazifasi narsalararo sababiy bog’lanishlarni bilish va buni narsalarning o’zidan topishdan iboratdir, deb qaraydi. Chunki, haqiqiy ilm-fan shundan dalolat beradiki, biror narsani bilish uning mavjudligi sababi va oqibatlarini bilishga asoslanadi.

Ilm aqlga asoslanadi, aql esa yaxshilik va èmonlikni ajratish mezonidir. Aql insonda axloqiy hissiyotlarning shakllanishida èrdam beradi. Ibn Sino insonga xos ichki go‘zallik va mayiblikni taqdiri azaldan, ya’ni tuzatib bo‘lmaydigan xususiyat, deb qaramaydi. Balki bunday sifatlarning sabablarini topishga intiladi: yaxshi va èmon xulqlarning insonda paydo bo‘lishiga tashqaridan qanday narsalarning ta’siri sabab bo‘ladi. Bu ta’sir salbiy yoki ijobiy bo‘lishi mumkin.

Salbiy ta’sir yetkazuvchi narsalarning sabablari bartaraf etilsa, insonda yaxshi xulqlarni shakllantirish mumkin. Nafs tarbiyasining maqsadi ham, mohiyati ham xuddi mana shu narsalarning yechimi bilan bog‘liq. Barcha narsalarning biror maqsadga intilishi, allomaning fikricha, tabiiy holatdir. Bu intilishning obyektlari har xil bo‘lishi mumkin. Ammo, inson uchun faqat dunèviy ne’matlarni tanlash va dunèviy lazzatlarga intilish uning ma’naviy jihatdan yuksalishini cheklagan bo‘ladi. Garchi, har bir odamda huzur-halovatga intilish tabiiy xohish bo‘lsa-da, mutafakkir odamlarga turmushda uzluksiz maishatlar va betartib lazzatlardan o‘zlarini tiyishini tavsiya qiladi. Hayvoniy nafsga xos bunday salbiy xususiyatlar ongsiz hayvonlar uchun nafaqat razolat hisoblanmaydi, balki ularning haètiy faoliyatini belgilovchi tabiiy omillar deyish mumkin. Chunki, bu sifatlarni hayvonlarning jismoniy sog‘lomligi va tabiiy ko‘payish qobiliyatining isbotidir.

Insonda bu sifatlarni salbiy illatning ifodasidir. Chunki ular nafsning aqliy (insoniy) quvvatini susaytirib, insonning kamol topishiga to‘sqinlik qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, mutafakkir o‘z asarlarida yaxshi fazilatlar va yuksak axloqiy g‘oyalarni targ‘ib qilish orqali insonlarni insofga, xayrli va fazilatli ishlarni qilishga da’vat etgan.

Mutafakkir o‘z asarlarida ilm va odob-axloq uyg‘unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodat, adolat va diènat, insonlarning o‘zaro do‘stligi, hamkorligi, rahbarning burchi va mas’uliyati to‘g‘risida ham qiziqarli g‘oyalarni ilgari surgan. Ibn Sinoning “Axloqqa oid risola” asarida axloq-odobga oid teran fikrlar, insoniy fazilatlarining go‘zal ta’riflari keltirilgan. Alloma ushbu asarida axloqiy xislatlardan or-nomus, sha’n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g‘ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma’rifatli bo‘lish, ochiqlik,

vijdonlik, do‘stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma’naviyati kategoriyalariga ta’rif beradi. Xususan, g‘ayratlilik olimning fikricha, g‘azabiy quvvatga mansub bo‘lib, unda inson har qanday og‘riq va alamlarga befarq qaraydi.

*“Sabr insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan èmonlikdan xoli bo‘ladi”*, deb ta’riflaydi. Yumshoqlik xususida esa *“yumshoqlik g‘azabning yuz berishidan o‘zini tutishdir. Kimki o‘zini g‘azabdan tuta olmasa, u oqibatda jinoyat sodir bo‘ladigan fe‘l-atvoriga grifdor bo‘ladi”* degan fikrlarni bildiradi. G‘azabdan o‘zini tutishni Ibn Sino insonning olijanobligidir, deya juda to‘g‘ri ta’kidlaydi.

“Axloqqa oid risola” asarining qo‘lèzmalaridan biri O‘zFA Sharqshunoslik institutining kitob fondida mavjud bo‘lib, bu asar 1908 yili Misrda Ibn Sinoning “Hikmat va tabiatga oid to‘qqiz risolasi” kitobi ichida nashr qilingan. Ikkinchi marta bu risola 1910 yili Misrda arab olimi Muxiyddin sabriy Qudriy tomonidan “Risolalar majmuasi” asari ichida chop etilgan.

Ibn Sinoning axloqqa bag‘ishlangan risolalaridan yana biri “Burch risolasi”dir. Bu asar 1910 yili Misrda chop etilgan. Unda Ibn Sino, asosan, odam o‘zini doimo pokiza tutishi kerakligi, insonlar bilan qanday muomala qilish lozimligi kabi masalalarga to‘xtalib o‘tadi.

Ibn Sino “Uyun al-hikmal (Hikmat buloqlari) asarida ham ta’lim va axloqqa oid o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Unda aytilishicha, axloq fani odamning chinakam baxtli bo‘lishi uchun unga doimo yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib beradigan fandir. Bu fan kishining xulqi, fe‘l-atvori ustidan rahbarlik qiladi. U shunday odamlarni tayèrlab berishi kerakki, ular faqat o‘zi uchun yashamasdan, balki jamoat va uning manfaati uchun yashashga intilishi kerak. Insonlar bir-biri bilan do‘st–inoq bo‘lib yashashi, ularda insonparvarlik ruhi rivojlanishi lozim. Insonlar kamtar, irodasi kuchli, tejamkor bo‘lishi, ularda mehnatga muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar va halollik doimo ustun turishi darkor. Yaxshi xulqli kishilarda eng yaxshi xislatlar mujassamlashgan bo‘ladi. Shuningdek, asrada kishidagi odamshavandalik, biror xayrli ish qilishga ishonch, iroda, bu borada tadbirkorlik, do‘stga nisbatan hurmat-

ehtirom, dushmanga nisbatan nafrat hislatlarining bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

3. Ibn Sino tabib axloqi to'g'risidagi fikrlarida axloqiy fazilatlarni ulug'laydi va axloqiy illatlarni, yomonlikni keskin qoralaydi. U tabiblarning kundalik amaliy ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor bergan. Abu Ali ibn Sino hayotda ham, asarlarida ham insonlarni har bir masalaga ilmiy, aqliy, axloqiy yondoshishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, xullas, insoniylikning eng muhim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishga chaqirdi, *«Haqiqiy tabib, -degan edi u, -o'zining qadr-qimmatini saqlagan holda davolaydi va besharm hattiharakatlardan o'zini tiyadi. U mana shu fikrga moyil bo'lsagina kishilarni davolashga borsin. O'z vijdonini davolay olmagan kishi boshqalarni davolayman desa, bunday odam eng palid (yomon) odamdir»*. Tabobat ilmida tanilmagan odam soxta tabiblik qilsa, u odamlar uchun zomindur.

Axloq kategoriyasiga Abu Ali ibn Sino yaxshilik va yomonlikni, lazzat, donolik saxiylik sevgimuhabbat, kamtarlik azob-uqubat va shu kabilarni kiritgan. Ibn Sino fikricha, *«Tabiatda nimaiki mavjud bo'lsa, o'z tabiatiga ko'ra, kamolotga intiladi. Mana shu (kamolotga) intilish, o'z mohiyatiga ko'ra yaxshilikdir. Narsa kamolotga intilib, nuqsonlardan qochadi»*, -predmetlarga xos bo'lgan nuqsonlar uning uchun yomonlikdir. «Har qanday predmetning ikki jihati bor,- deydi u, - bu faollik va passivlik jihatlaridir». Yaxshilik faollikka, yomonlik esa, turg'unlik kategoriyasiga kiradi.

Abu Ali ibn Sino nuqtai nazariga ko'ra, axloqda yaxshilik va yomonlik, lazzat va azob - uqubat bosh rolni o'ynaydi, u insonning barcha yomon fazilatlarini yomonlik kategoriyasiga kiritadi. Buyuk mutafakkir adolat mezoniga ham alohida e'tibor bergan: «Adolat, muhim axloqiy xislat bo'lib, u odamning uch istagi – toqat, jasurlik va donolik bilan paydo bo'ladi, ushbu fazilatlarga ega bo'lgan odam, o'zini yara-mas ishlardan saqlay oladi» – deydi Ibn Sino.

Alloma tabibning axloqiy kategoriyalariga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo‘tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik qat’iyatlik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. U toqat, saxovat va mo‘tadillikni insonning hissiy bilimiga kiritadi; chidamlilik aqllilikni g‘azab quvvatiga, donolik ehtiyotkorlik, ziyraklik, sadoqat, uyatchanlik, ijrochilik, achinishlik, sofdillik va boshqalarni tafovut quvvatiga kiritadi.

Buyuk qomusiy olim insonning yaxshi axloqiy fazilatlariga kishilarning yomon xulq va xatti-harakatlarini qarama-qarshi qo‘yadi. U inson qochishi kerak bo‘lgan nuqsonlarga aldash, nafrat, zaiflik, rashk, adovat, o‘ch olish, sergaklik, so‘kinish, bo‘hton, bema’nilik, irodasizlik va boshqa yomon xislatlarni kiritadi. Ibn Sino fikriga ko‘ra, odamdagi eng katta nuqson – kishining yuksak fazilati hisoblangan ilmga qarama-qarshi turgan johillikdir. Uningcha, yanglishish – fikr ravshanligiga, axmoqlik – ziyraklikka, nafrat – sevgiga, takabburlik va shafqatsizlik – adolatga qarshi turadi. Alloma bayon etganidek axloq normalarini kasb etishda odat katta rol o‘ynaydi. «Yomon xulq kabi, yaxshi xulqga ham odat tufayli erishiladi. Shuni aytish kerakki, biz nimaga odatlangan bo‘lsak shu odat tufayli bizda yomon xulq paydo bo‘ladi», -deb ta’kidlaydi u. Abu Ali ibn Sino insonda yaxshi fazilatlarini shakllantirish uchun uni tarbiyalash kerakligini va boshqalarga bu ishda yordam berish lozimligini maslahat beradi.

Olim bu borada jamiyatda inson do‘stligi va kishilarning birgalikda hamjihatlikda yashashi qanday rol o‘ynashini ko‘rsatib berdi. U inson munofiqligiga qarshi chiqadi, yuzaki do‘stlikning zararligini fosh qilib tashladi, haqiqiy do‘stlarni soxta do‘stlardan farq qilishni maslahat berdi. «Yaxshi do‘st, - deydi Ibn Sino, – kishining hamma yaxshi va yomon sifatlarini aks etuvchi oynadir. Yaxshi do‘st o‘z vaqtida butun nuqsonlarni ko‘rsatadi, maslahati va hatti-harakati bilan kamchiliklarni yo‘qotishga yordam beradi».

Ibn Sinoning fikri bo‘yicha hamma mavjud bo‘lgan narsalar o‘zining tabiiy mohiyati bilan komillikka erishish uchun harakat qiladilar, chunki bu harakatda yaxshilik mohiyati qamrab olingan. Yaxshilik predmet shaklida namoyish etilgan va u komillikka hamisha intiladi. Yomonlik va yaxshilik nisbiy, ular bir-biriga

aylanishi mumkin. Yomonlik bu yemirilish va kasallikni bildiradi, yaxshilik bu taraqqiyotni va komillikka erishishni namoyon etadi. Inson uchun lazzatlanish, Ibn Sino fikri bo'yicha, bu yaxshilikni anglash, ammo azob-uqubat bu yomonlikni payqashdir. Ikkalasini inson anglashi lozim.

Sharqda tabiblar va ularning mehnatini juda qadrlashgan. Xalq orasida tabiblarning obro'si baland bo'lgan. Shuning uchun ham xalq qadimdan tabiblarga o'z bahosini bergan. Mana ulardan ayrimlari: Tabibga o'z ishida mahorat, kasallar holiga shafqat kerak. Ahli tib tabiati uyg'un va donishmand, so'ziga payrov va mulozim bo'lsin. So'zida yumshoqlik va diljo'ylik, o'zida hayo va xushfe'llik bo'lsin.

Bunday tabibning yuzi bemor ko'ngliga sevinchlidir va so'zi kasalga yoqimlidir, dami bemorlarga davo va qadami xastalarga shifodir. Agar kasbida mohir bo'lsa-yu, ammo o'zi badfe'l, beparvo va qo'pol bo'lsa, garchi bemorga bir tarafdanda voqilur. Lekin savodsiz tabib jallod shogirdidir. U tig' va zahar bilan azoblaydi. Bilimli shifokorlar o'z xalqining faxri va baxti. Ibn Sino shunday deydi: «Tabib qirg'iyga xos ko'zga, qizlarga xos qo'lga, ilonga xos donolikka va shoirga xos yurakka ega bo'lishi kerak». Bu isbot talab qilmaydi.

Jamiyatdan tashqarida yashay olmasligi ayniqsa uning xastalik davrida seziladi. Shunday ekan, oq xalat kiygan har bir shifokor tibbiy axloqdan xabardor bo'lishi va unga amal qilishi lozim. Kishilik jamiyati taraqqiyotida qonun bilan birga axloq ham katta rol o'ynaydi. Jamiyatdagi axloq normalariga har bir shaxsning bo'ysunishi, avvalo, kishilik jamiyati ta'sirida amalga oshadi.

Ibn Sino aytishicha, *“baxtli bo'lishga intilish kishining tug'ma xislatidir. shu sababli bu intilish har qanday axloqning asosi bo'lishi lozim. Agar biz baxtli bo'lish o'z qilg'uliklarimizning oqibatlariga to'g'ri baho bera-bilishimiz va bundan tashqari, boshqalarning ham shunday intilishga babbaravar xaqqi bor ekanini hurmat qilishimiz lozim”* deydi.

Tibbiy axloq bemorlar davolanishlari uchun zarur bo'lgan barcha shar-sharoitlarning yaratilgan bo'lishni, ma'lum kasalliklarga ko'riladigan muayyan chora-tadbirlarning joriy etilishini va tib xodimlarining jon-dili bilan ishga



kirishishlarini taqozo etadi. Davolash-profilaktika ishlarda ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lmashligi va tashkiliy-amaliy ishlarda kamchiliklar yo'qotilishi ham tibbiy axloqqa oiddir.

Tibbiy axloq vrach bilan bemor, bemorning yaqin qarindoshlari bilan vrach o'rtasidagi munosabatlarning va tibbiyot xodimlarining o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishi hamda ayrim tibbiy masalalarni sir saqlash kerakligini o'rgatadi.

Ma'lumki, har bir kasallikning o'ziga xos alomatlari bo'ladi. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, muayyan kasallikda ko'riladigan alomatlar turli kishilarda turlicha namoyon bo'ladi, bu bemor organizmining biologik xususiyatidan kelib chiqadigan hodisadir. Ayrim bemorlar xushtabiatli, shirin so'z, sermulozamat bo'ladilar. Atrofdagi bemorlar bilan dilkashlik qiladilar, o'zlarini xushchaqchaq tutadilar. Albatta, bunday holat bemor irodasini mustahkamlaydi, og'irliqni yengishga yordam beradi. Bunday bemorlar bilan yaqin munosabatda bo'lish vrachlar uchun ham, o'rta va kichik tibbiy xodimlar uchun ham oson hamda yengil bo'ladi. Ularni qiladigan ishlaridan yanglishtirib yubormaydi.

Ayrim kishilar esa kasallikka chalingach, injiq bo'lib, har narsadan hadik siraydigan bo'lib qoladilar. Duch kelgan bemorlardan ulardagi kasallik alomatlarini so'rab bilib oladilar va bunday alomatlarni o'zlaridan axtarib yuradilar. Ularning kecha-kunduz fikri-yodi shunday xayollar bilan band bo'ladi. Shunday ham bo'ladiki, bemorlarning ruhi tushib, organizmi toliqib, yengil kasallik og'ir dardga aylanib ketadi.

Ayrim bemorlar tortayotgan dardlari yengil, davolash ham oson bo'lishiga qaramay davolovchi vrachlarga ishonmaydilar, nomi chiqqan kishilarni axtaradilar. Aksari bunday bemorlar ushbu shifoxonadagi tibbiy xodimlarning kamchiliklarini topib yuradilar, o'zlari tushunar-tushunmas norozi bo'ladilar, har xil noo'rin gaplar tarqatib yuradilar.

Shunga qaramay, shifokor har bir tibbiy xodim ish mobaynida qanday voqeya yuz bermasin, uning sha'niga nimalar aytilmasin, u o'zini tuta bilishi, xotirjam ishini davom ettirishi lozim. Inson ko'ngli guldan nozik bo'lsa, bemor ko'ngli undan ham nozik bo'ladi. Vrachning bir og'iz shirin so'zi uning ko'nglini

togʻday koʻtarishi va aksincha bir ogʻiz nojoʻya soʻzi uning dilini vayron qilib yuqorishi mumkin.

Vrachlarda ming marta yaxshi kayfiyat boʻlmogʻi lozim chunki u kasallik orqasida injiq boʻlib qolgan, tez-tez asossiz talablar qoʻyadigan odam bilan ish olib boradi. Bunday voqyealarda vrach, avvalo, oʻzini tuta bilishi kerak. Oʻrtada koʻngli nozik bemor turganligini nazarga olishi lozim.

Shunga eʼtiboran, vrach bemor qarindoshlari bilan suhbatda boʻlar ekan gʻoyat ehtiyotlik bilan toʻgʻri minosabatda boʻlishga xarakat qilmogʻi kerak. Baʼzan shunday voqyealar uchraydi: bemorning kasali uning shaxsiyati bilan bogʻliq boʻladi: vrach bemorni qabul qilar ekan, u bilan birga ota-onasi, eri, xotini yoki boshqa biror qarindoshi kirib keladi, bemor ularga “sizlar chiqib turinglar” deya olmaydi. Natijada kasallikni aniqlash va davolash birmuncha qiyinlashadi.

Shuning uchun vrach bunday kishilarning qabulxonadan chiqib turishlarini talab-qilishi kerak. Vrach kasal bolaning ota-onasi qarindoshi bilan suhbatda boʻlsa, ularga bolaning ahvoli, kasallikning kechishi, qoldirishi mumkin boʻlgan asorati toʻgʻrisida batafsil soʻzlab va kelgusida nimalar qilish kerakligini tushuntirishi lozim.

*Vrachlarning oʻzaro munosabatlari.* Vrachlar oʻzaro suhbatlashib qolganlarida, albatta, gap bemorlar haqida boradi. Shunday qilib, tibbiy xizmat koʻrsatish ularning oʻzaro fikr almashishlari asosida yaxshilanib boradi va rivojlanadi. Vrachlarning oʻzaro munosabatga kirishishlari ularning amaliy mashgʻulotlar boshlanadi: shifoxonalarda amaliy mashgʻulotlar oʻtkazishda ularda bir-birlari bilan fikr almashish zaruriyati tugʻiladi. Bu bora-bora vrachlar faoliyatida kundalik zaruriyatga aylanib ketadi.

Bosh vrach har tomonlama bilimdon, masʼuliyatni toʻla his qiladigan, barcha tibbiyot xodimlari orasida obroʻ-eʼtibor qozongan boʻlishi zarur. Bosh vrach davolash-profilaktik ishlarni qanchalik yaxshi yoʻlga qoʻya bilsa, tashkiliy ishlarni yaxshi uyushtira olsa, kadrlarni oʻz oʻrniga tanlab qoʻyishda yanglishmasa va nihoyat, vrachlarining oʻzaro munosabatlariga oʻzi boshchilik qilsa, albatta, aholiga tibbiy xizmatini koʻrsatish oʻsha yerda shunchalik yaxshi boʻladi.

Xizmatchilar orasida manmanlik, riyokorlik, xushomadgo‘ylik va nizolar ham bo‘lmaydi, bunday ishxonalarda mehnat faoliyatini endigina boshlagan yosh vrachlarga amaliy ishni uddalab ketish oson bo‘ladi. Ularga tajriba orttirishga, institutda olgan bilimlarni mustahkamlab olishga va mohir-vrachlarning tajribalaridan ijobiy foydalanishga imkon tug‘iladi, qolaversa, ularning o‘z kasbiga bo‘lgan muhabbati oshadi. Darhaqiqat, buyuk siymolarimiz tomonidan yaratilgan noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o‘rganib, uning ma’no-mohiyatini yoshlarimizga yetkazish masalasi barchamizning, ayniqsa, ziyolilarimizning asosiy va muqaddas vazifalaridan biridir.

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. 19.01.2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.
3. Ibn Sino “Hikmatlar guldastasia”.
4. Ibn Sino “Tadbiri manzil”.
5. X. Aliqulov, R. Nosirov, T. Ortiqov, A. Ashurov. “Ma’naviy-axloqiy mutafakkirlar talqinida”.
6. Fozila Sulaymonova. “Sharq va G‘arb”.
7. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1,2,3,4 jildlik saylanma. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T., 1961.
8. Abdusodiq Irisov. “Abu Ali Ibn Sino xayoti va ijodiy merosi”. T., 1980.
9. “Abu Ali Ibn Sino tug‘ilgan kuning 1000 yilligiga to‘plam”. T., 1980.
10. Irisov A. “Abu Ali Ibn Sino”. T., 1980.

## 8-MAVZU: IBN SINONING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

### Reja:

1. Aqliy tarbiya
2. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlar ta'rifi.
3. Ibn Sino asarlarida tarbiya masalalari.

1. Ibn Sinoning aql-tafakkur, aqliy tarbiya sohasidagi ta'limoti uning «Kitob ash-shifo» «Kitob Najot», «Kitob ishorat va tanbihot», «Donishnoma» kitobida keng bayon etilgan.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida unga bilim, hunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi. Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir. Chunki ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi va u jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Tar qil bor narsani, jon barcha din a'lo durur,  
Jon kamoli ilmdandir, ilm dandir sulu chog' .  
Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm shamchirog' .  
Xikmat iinsonni bilg'ilulchiroq damisliyog' ,  
Ulagar ravshan yonar, sen ham salomat ham tirik,  
Ulchiroq, so'nsa, sening ham o'lganingmasmu shu chog' .

Uning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani (bunga tibbiyot ilmi xizmat qiladi), axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum hunarga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bolaning axloqiy tarbiyasi yoshlikdan, bolalikdan boshlanishi kerak.

Bolaga do'q qilma, yomon bo'lma qo'pol,  
Uyqu qochar, qo'rqar, axir bo'lur battol,  
Yumshoq beshik bo'lsin o'rni uxlaganda,  
Korong'uliktushibtursinmislitunday...

Uyg‘oq chog‘i yorug‘likdan ayirmagil,  
Yulduz – samo ko‘rsun bola shodlanurdil.  
Rang-tuslarniko‘rsatungaturli-tuman,  
Kunduz kuni, etmoq ersang ko‘zni ravshan,  
Gar istasang, o‘rgatmoqqa so‘zu kamol,  
Erkalatibovoz chiqar har xil muqom.

Eng muhim axloqiy boylik, Ibn Sinoning ta‘kidlashicha, adolatdir. Axloqiy tushunchalar aqlga, aqliy bilimga asoslanishi lozim. Lekin inson qanchalik bilimdon, olim bo‘lmasin, axloqiy prinsiplarga tayanmasa, u odobsizlik va yomonlikka yo‘l qo‘yadi. Ibn Sino o‘zining «Qush tili» asarida ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, xoinlik kabi xislatlarni qoralaydi, inson ustidan har qanday zo‘ravonlikni inkor etadi.

Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri o‘zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo‘qotishga intilishidir. Uning yaxshi xislatlari ichida boshqalarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lishi maxsus o‘rin tutadi. Kimki o‘zining axloqini tarbiyalash uchun o‘z oldiga qo‘ygan vazifasini bajarib, o‘z xulqini tuzatishga intilsa, unga hech narsa qo‘rqinchli emas. Kimki o‘z xatosini tuzatolsa, u boshqalarning tarbiyasi haqida g‘amxo‘rlik qila olishi mumkin.

Boshqa odamni tarbiyalamoqchi va uning axloqini tuzatmoqchi bo‘lgan tarbiyachi, avvalo uni yaxshi o‘rganishi va barcha kamchiliklarini yaxshi bilib olishi kerak. Aks holda tarbiyachi o‘z oldiga qo‘ygan vazifasini bajara olmaydi, zero bemorning kasalini bilmay turib, uni tuzatishga kirishgan odamday bo‘lib qoladi. Tarbiya tarbiyalanuvchini yomon axloqiy xislatlardan ozod qilish, unga yaxshi axloqiy fazilatlarni singdira borish jarayonida amalga oshiriladi.

Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro‘zg‘or tutish masalalari xususida ham so‘z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila, ota-onaning asosiy vazifasidir. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-ona tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bola bilan izzat-nafsigaga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suxbatda bo‘lish, unga nasihat qilishdir.

Nasihat qilishda suhbatdoshga nihoyatda hurmat bilan yondashish, uni kamsitmaslik kerak. Ortiqcha soʻz aytib, uni zeriktirmaslik ham zarur. Bir xil nasihatlarni qaytara berishlik taʼsir qilmaydi. Ibn Sino shunday yozadi: «*Sening fikrlaring (bolaning) yuragita yetib borib, unga oʻylab, fikr yuritib koʻrishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki doʻsting sening soʻzlaringga va nasihatingga eʼtibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga koʻchir*».

Ibn Sino bolada axloqiy xislatlarni mehnat, jismoniy va aqliy tarbiya bilan uzviy holda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi. Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlaydi.

2. Olim axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan taʼriflaydi. «*Dunyoda mavjud boʻlgan jami narsalar tabiatiga koʻra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning oʻzi esa mohiyat eʼtibori bilan yaxshilikdir...*». Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga taʼrif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega boʻladi, yomon illatlardan oʻzini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim.

Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, muʼtadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qatʼiyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. Ibn Sino har bir axloqiy xislatning taʼrifini beradi:

*Moʼtadillik* – tan uchun zaruriy oziq va xulq meʼyorlariga toʻgʻri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

*Saxiylik* – yordamga muhtoj kishilarga koʻmaklashuvchi insoniy quvvat

*Gʻazab* – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi.

*Ziyraklikni* narsalar va xattu-harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob-uqubatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat.

*Kamtarlikka* xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolotga yetishida to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi.

*Johillikni* – ilmga, *nodonlikni* – zehni o'tkirlikka, *shafqatsizlik*, *takabburlikni* adolatga, *nafratni* – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino o'zining "Axloq haqidagi risola"sida axloqiy xislatlardan or-nomus, sha'n, qadrqimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-qanoat, halimlik, sirni saqlay bilish, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyati kategoriyalariga ta'rif beradi:

"*G'ayratlilik*", olimning fikricha, g'azabiy quvvatga mansub bo'lib, bunda inson har qanday og'riq va alamlarga befarq qaraydi. "*Hikmat*" tamyiziy quvvatga mansub bo'lib, insonni xato va yanglishishlardan asraydi. "*Qanoat*", ya'ni mo'tadillikka ta'rif berib, Ibn Sino uni tana uchun normadan ortiq ozuqani iste'mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik deb tushuntiradi. "*Sabr*" insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan yomonlikdan xoli bo'ladi. "*Yumshoqlik*" g'azabning yuz berishidan o'zini tutishdir.

Kimki o'zini g'azabdan tuta olmasa u oqibatda jinoyat sodir bo'ladigan fe'l-atvorga giriftor bo'ladi. G'azabdan o'zini tutishni Ibn Sino insonning olijanobligidir, deb juda to'g'ri ta'kidlaydi. "*Vijdonlilik*" tez fahmlash, his orqali berilgan biror narsaning haqiqiy ma'nosiga tez yetishdir va turli xil yomon ishlardan o'zini tiyib turishdir. "*Rahmdillilik*" – omadsizlikka uchragan yoki boshqa og'ir kulfat tushgan insonlarga hamdard bo'lish. Ibn Sinoning uqtirishicha, insonlarda ezgu niyat, himmat, xayr-saxovat, shijoat, adolat, pokizalik, bilimdonlik, irodalilik xislatlari bilan birga xasislik, o'g'rilik, tovlamachilik,

qoʻrqoqlik, takabburlik, igʻvogorlik, dangasalik, munofiqlik, kibrilik kabi salbiy axloqiy xislatlar ham mavjud boʻlishi mumkin.

Ibn Sino fikricha, insonlar feʼl-atvorida ayrim nuqsonlar boʻladi, qaysiki odamlar doimo bulardan oʻzini asrab-avaylab yurishi, iloji boricha ulardan qochishi lozim. Ana shu nuqsonlarni u sanab koʻrsatadi. Bularga yolgʻonchilik, rashk, xusumat, qasd olish, tuhmat, irodasizlik kabi salbiy xislatlarni kiritadi. Bular ichida eng katta nuqson, deydi Ibn Sino, kishining noyob fazilati boʻlgan ilmga zid keladigan nodonligidir.

Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga doʻst boʻlib yashashi, hamkorlik qilishni ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan doʻstona yashashga intiladi. Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qoʻshnichilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, oʻzining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun oʻzgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi.

U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmi, doʻst muhim rol oʻynaydi, deydi. Olim doʻstlikni shunday taʼriflaydi:

Har qanday qiyinchiliklarga qaramay oʻz doʻstini xavf-xatarda yolgʻiz qoldirmaydigan doʻstlik;

Manfaatlari oʻxshash va gʻoyaviy yaqin doʻstlik;

Oʻz shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan doʻstlik.

Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil doʻstlikni haqiqiy doʻstlik deb eʼtirof etadi. Olim haqiqiy doʻstlik natijasida sevgi-muhabbat paydo boʻlishi mumkinligini aytadi. U “Risolai ishq” asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi.

Insonlarga ularning tashqi koʻrinishiga qarab emas, balki ularning ichki, maʼnaviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini oʻqtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuygʻusiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon boʻladi, lekin inson oʻz tuygʻularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuygʻusidan,



ehtiros kuchidan ajrata bilishi zarur deydi. Shundagina inson haqiqiy kamolotga erisha oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, haquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim berdi. Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi.

Olim insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insoning atrof dunyoni bilishinigina emas, balki uning xulqini yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odamlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudxo'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy, ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi.

Olim aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi. Ibn Sinogacha insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida bir butun, yaxlit ta'limot yaratilmagan edi. U birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi.

Bolaning yetuk inson bo'lib shakllanishida unga g'amxo'rlik, poklik, mas'uliyatni his etish, do'stona munosabatlar tuyg'usini singdirib borish zarur, deydi olim "Tib qonunlari" asarida.

Ibn Sino ta'lim-tarbiya jarayonlarga ham asos soladi u *"Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor. Biri-bolaning ruhi uchun bo'lib, u e'shlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi. Ikkinchisi -uning uchundir, chunki e'mon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar e'mon xulq odatda kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi..."*.

Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishishning asosiy mezoni sifatida talqin etadi. Olimni buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug'laydi, undagi qudratga ishondi.

3. Ibn Sinoning o'ttizdan ortiq asarlarida madaniyatga doir fikrlar o'z ifodsasini topgan. Uning madaniyatga va uning tarkibiy qismlari bo'lgan odob-axloqqa, ta'lim-tarbiyaga, ruhiy va jismoniy salomatlikka oid qarashlari boshqa mutafakkirlarning fikrlaridan shunisi bilan farq qiladiki, ularda insonni juda yaxshi, mukammal darajada o'rgangan, dardu alamlar hamda ranju sitamlarning shifosi ilmi hikmat – falsafada deb bilgan tabibning o'tkir mulohazalari bor. Tabobat va falsafa Ibn Sinoda yonmayon, uyg'un keladi. Binobarin, ulug' hakim asarlarining umrboqiyliigi sirlaridan biri ham shunda. Masalan, Ibn Sino farzandga ilm va odob o'rgatish haqida shunday mulohaza bildiradi: *"Bola badanining bo'g'inlari qotib, tili ravon chiqib, qulog'i eshitish va gapni ma'qullash uchun tayyor bo'lib, vujudi ilm va odob o'rganishga hozir bo'lganda unga ilm va odob o'rgatish kerak"*.

Bolaga o'z vaqtida va lozim darajada ta'lim berish – madaniyat. Anu shu ta'lim berish vaqtini aniq-ravshan bayon qilish – tabobat. Demak, bunda insonni o'rganish va barkamollik sari yetaklash bilan shug'ullanadigan ikki soha – falsafa

va tabobat uyg'un kelmoqda. Yana bir hayratlanarli tomoni shundaki, Ibn Sino tib ilmining sultoni, benazir faylasuf olim bo'lishi barobarida dilbar ash'orlar, ajabki, bugungi zamon kishisi – minglab, millionlab axborotlar girdobida qolib ketgan tezkor asrimiz vakilining ham fe'lu atvorini, fazilatu illatlarini, o'yxayollarini o'zida teran ifoda etadi.

Olim fan va ma'rifat bayrog'ini yuqori ko'tarib chiqqan peshqadam mutafakkir edi. U haqiqiy musulmon mavjud bilimlarni egallasa, o'shandagina u haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Shu sababdan ham ko'p din peshvolari Ibn Sinoni kofirga chiqarib qo'yadilar, hatto uni qur'onga nazira yozgan, deb ham ayblaydilar. Lekin Ibn Sino ularga qarshi g'azab bilan otashin satrlar yozadi:

*Mening kufrim ayblarg'a dilimdan o'zga sulton yo'q,*

*Bu olamda mening pokiza imonimdek imon yo'q.*

*Musulmonlikda men ahli zamon ichra edim tanho,*

*Agar kofir esam men ham, bu dunyoda musulmon yo'q.*

Ibn Sino yaxshilikka olib boruvchi axloq qoidalarini egallash, insonning axloqiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini alohida qayd qiladi.

Ibn Sino yosh bolalarni tug'ilgandan boshlab tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor beradi. Bola tug'ilgandan boshlab oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bola o'spirinlikka o'tish davri tarbiyasi haqida alohida to'xtalib, bu davrda ularda xulq-atvor shakllanadi. Bola xulq-atvorning bir xil muvozanatda bo'lishi uchun uni keskin g'azablanish, qattiq qo'rquv va uyqusizlikdan saqlash zarur. Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri – o'zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo'qotishga intilishdir.

Shuningdek, uning axloqiy qarashlari go'zallik, nafosat haqidagi fikrlari bilan hamohangdir. Qomusiy olimning ijodida yaratilgan qissalarida kichik hajmli, lekin keng ma'noli, axloqiy, tarbiyaviy, estetik insoniy xislatlarga ega bo'lish uchun zarur adabiy ko'rsatmalarni ko'rishimiz mumkin.

«Salomon va Ibsol» qissasi. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot ilmiga oid asarlari Sharq va G'arb olimlariga ma'lum bo'lsa ham, lekin «Salomon va Ibsol» bilan «Yusuf» qissasi keyingi vaqtlargacha ko'pchilik olimlarga deyarli ma'lum bo'lmay keldi. «Yusuf» qissasi bilan «Salomon va Ibsol» qissalarining bir-birlariga mazmunan bog'liqligi Ibn Sinoning «Hutbayi tasliya»sini tashkil qilishga olib kelgan edi va natijada ikkalasi bir asar sifatida bir xil sarguzashtga duchor bo'lgan edi.

«Salomon va Ibsol» qissasida keltirilgan obrazlar, masalan, Salomon bir inson bo'lsa, Ibsol shu insonning ma'rifiy, ruhiy darajasi. Ibn Sino Ibsol obrazida berilgan xislatlarni insonlarda ko'rmoqchi bo'ladi, shunga odamlarni da'vat qilib, uni ulug'laydi. Insonning tabiatida bo'ladigan shahvoniy hislari Salomonning xotini obrazi orqali beriladi. Bunda guyo istak, ya'ni xotin aqlini (ya'ni Ibsolni) egallamoqchi bo'ladi. Lekin aql unga bo'ysunmaydi. Shu jihatdan ham alloma Nasiruddin Tusiy Ibsolning xotindan o'zini olib qochishi, aqlning o'z olamiga tortishidir, deydi.

«Salomonning xotini, - deydi Tusiy yana, - nafs bilan birlashib ketib, bir shaxsga aylangan, istak va g'azabga tortadigan badan quvvatlariga o'xshatmadir. Xotinning Ibsolga bo'lgan ishni esa uning boshqa quvvatlarini egallagandek, aqlini ham egallashga bo'lgan intilishiga o'xshatmadir».

«Yusuf» qissasi. Abu Ali ibn Sinoning bu asari hajm jihatidan kichik bo'lishiga qaramay, bu to'g'rida dastlab asar yozganligi bilan diqqatga sazovordir. To'g'ri, bu qissaning asl syujeti Qur'ondan olinganligiga hych shak-shubha yo'q. Lekin Ibn Sino bu qissani yozishida Qur'onda keltirilgan naql bilan kanoat hosil qilmagan ko'rinadi. Chunki asarning uslubi, iboralarning og'ir-yengilligiga qaraganda, u ham qur'onnamo jummlalar tuzishga urinib, unga taqlid qilganligi sezilib turadi.

Ma'lumki, arab adabiyotida Qur'on eng fasohatli, eng go'zal uslubda yozilgan asar deb bilinadi. Tilining obrazlilik jihatidan bu tilda yozilgan hych qaysi asar unga teng kelolmaydi, degan naql musulmon olamida mashhur. Shunga qaramay, Ibn Sino bu to'g'rida ikkilanmasdan dadillik qiladi.

Yusuf haqida asar yozish uchun faqat Ibn Sino davridagina emas, balki undan keyingi davrlarda ham ko'p adib va shoirlar qalam urganlar. Bu to'g'rida ertaklar to'qildi, afsonalar yaratildi, dostonlar yozildi. Ibn Sino esa bu adabiy asarlarni guyo boshlab bergan, bu to'g'rida asar yozish mumkin, degan fikrni o'rtaga tashlaganday, keyingi davrdagi adibshoilarning asar yozishlariga undaganday bo'ldi.

Ibn Sinoning «Yusuf» qissasi syujetiga kelsak, u Sharqda ko'pdan beri xalq o'rtasida tarqalgan go'zal Yusuf haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Bunda Yusufning go'zalligi va otasi Ya'qub uni yaxshi ko'rishi hamda ko'p vaqtini shu sevimli o'g'li bilan o'tkazib, o'zgariga kam e'tibor berganligi, bu o'rtada birodarlarning kelishmovchiligi va nihoyat Yusuf sabab bo'lib, otasidan ranjishlari bayon qilinadi. Ibn Sino qissasida Ya'qubning o'g'li Yusuf tush ko'rganini va unda ikki yoritqich (quyosh va oy) hamda o'n bir yorug' yulduzlar Yusufga sajda qilayotganini aytadi.

Otasi Yusufga «ko'rgan tushingni hyech kimga aytma, akalaring senga yomonliq qilishadi, «tangri seni payg'ambarlik mulkiga yetishingni bashorat qilibdi», deydi. Yusufning birodarlari uni sayohatga olib ketishib, uni chohga tashlashadi va uning ko'ylagini qonga bulg'ab, otalari oldiga, Yusufni bo'ri yeb qo'ydi, deb qonli ko'ylakni olib kelishadi. Yo'lovchilar – karvon odamlari suv umidida quduqqa chelak tashlasa, chelakdan chiroyli bola chiqadi.

Shu bilan Yusuf xizmatkor sifatida karvon bilan boshqa shaharga olib ketiladi, xo'jayinning xotini unga ishqivoz bo'lib qoladi. Yusuf orqali yomon niyatiga yetmoqchi bo'ladi, ammo Yusuf qochadi, xotin uni ushlab qolganda eri kelib qoladi, xotin darhol unga tuhmat qiladi, Yusuf zindonga tushadi, u yerda bir necha yil yotib, mahbuslarning ko'rgan tushini ta'bir qila boshlaydi. Uning ta'birlari to'g'ri chiqib, ko'pchilik o'rtasida mashhur bo'ladi. Bir kun podshoning tushini hyech kim ta'birlay olmay turganda, qamoqdagi ta'birchi Yusuf haqida gap aylanib qoladi.

Buni podsho eshitadi, so'ng uni chaqirtiradi. Yusuf shohning sigir haqidagi tushi va bo'lajak qurg'oqchilik haqidagi ta'birini aytadi. Ta'bir ma'qul tushadi, shu

bilan Yusuf kattaamaldor bo‘ladi, ocharchilik boshlanganda don qidirib, akalari Yusuf yashayotgan joyga - Misrga kelib qolishadi. Keyinchalik Yusuf bilan otasi diydor ko‘rishadi, birodarlari qilmishlariga pushaymon qilishib, undan kechirim so‘rashadi.

«Yusuf» qissasi asarida ham Ibn Sino o‘zining «nafs» haqidagi qarashlarini adabiy shaklda ifodalagan ko‘rinadi. O‘rta asr falsafasidagi mavjud shaklda talqin qilinsa, bu yerda Ya‘qub – nafsi notiq - nutqli jon, ya’ni inson. Yusuf esa uning ma’naviy tomoni. Yusufning birodarlari kishidagi tan quvvatlari ichki sezgilardir. Xotin esa kishini istak va g‘azabga tortadigan hislarga o‘xshatmadir. Xotinning Yusufga intilishi va unga ishq-muhabbat izhori esa istak quvvatining kishidagi ma’naviy tomonni, falsafiy ibora bilan aytsak, nazariy aqlni egallashga bo‘lgan intilishidir. Yusufning zindonda yotishi g‘azab quvvatining ishga tushib o‘zini ko‘rsatganidir. Yusufning xotindan o‘zini tiyishi va uning mayliga ko‘nmasligi esa aqlning o‘z olamiga tortishi va istak, g‘azab hislariga berilmaslikka bo‘lgan intilishidir. Ya‘qubning Yusufdan ajrab azob chekishida nafsi notiqaning aqlan uzoqlashib, iztirobga tushishi nazarda tutiladi. Yusufning vazirlik va taxtga o‘tirishi oliy kamolotga erishishi va o‘sha kamolotga aqlning yaqin bo‘lishidir.

Yusuf birodarlarining qilmishlari ichki hislarning xatti-harakatlari va o‘sha birodarlarning o‘z ishlaridan hijolatlari bilan muallif aql kuvvatlari – ichki sezgining noo‘rin ishlarini aytmoqchi bo‘ladi. Yusuf birodarlarining qilmishlari ichki hislarning xatti-harakatlari va o‘sha birodarlarning o‘z ishlaridan hijolatlari bilan muallif aql kuvvatlari - ichki sezgining noo‘rin ishlarini aytmoqchi bo‘ladi.

Yusufning tushida ikki yoritqich - quyosh va oyni ko‘rishi uning ota-onasi, o‘n bir yulduz ko‘rishi - birodarlari, yoritqich va yulduzlarning sajda qilishida esa kelajakda ularning Yusufga muhtoj bo‘lishi tasvirlangan. Bu xil ta’rif Ibn Sinoning «Yusuf» qissasi mazmuniga to‘g‘ri keladi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganimizda qissa sharhi shunday.

Ammo bu qissa adabiy asardir. Shu jihatdan ham muallif uni qissa deb atagan. Ibn Sino bunda Yusufni oriyatli, nomusli, sof yigit sifatida keltirgan. U hech qanday tuyg‘ularga berilmaydi, go‘zalliklarga parvo qilmaydi, o‘zini tutib

olgan, har bir narsada o'ziga tasalli bera oladi, noma'qulchilik yo'llariga kirmaydi, o'ziga yomonlik qilgan birodarlaridan qasd olmaydi, ularning barcha kirdikorlariga dunyodagi oddiy voqeya, kishilarning yomon xulqlari natijasi, deb qaraydi, yomonlik qilganlarning o'zi oxiroqibatda hijolat chekishlariga ishonadi.

To'g'ri, bu qissa va risolalar falsafiy yo'sinda, o'z davri - o'rta asrga xos uslub bilan yozilgan. Bularni tushunish har kimga darrovgina muyassar bo'lavermaydi. Bulardan ba'zisi diniy shaklda (masalan, «Risolat al-qadr») yoki Qur'onda bor mavzu asosida yozilgan (bunga «Yusuf» qissasini misol keltirish mumkin). Ammo bu asarlar qaysi shakl, qobiqda yozilishidan qat'iy nazar, adibning asl maqsadi, uning g'oyaviy nuqtai nazaridan olib qaralsa, o'z davrida uning adabiy yo'sinda ish yuritganini ko'ramiz, bu esa muallifning oldinga qarab tashlagan yana bir ulkan bir qadami edi.

4. Barkamol avlod tarbiyasi qadimdan ajdodlarimizning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Buyuk donishmand sifatida butun dunyoda tan olingan Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida risolalar yaratgan. Bola tarbiyasi homiladorlik davridan boshlanishi lozim deb uqtiradi, buyuk mutafakkir, chunki sog'lom hayot tarziga rioya qilgan onadan faqat sog'lom bola dunyoga keladi.

Ibn Sino bola tarbiyasini nafaqat jismoniy tomondan, balki ruhiy, intellektual va ma'naviy jihatdan ham uyg'un olib borilishi haqida o'zining muhim tavsiyalarini berib o'tgan. Bolani 5 yoshgacha har tomonlama erkin rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim, shunda u bolalikdan mustaqil fikrlashga o'rganadi.

Keyingi 5 yoshdan 10 yoshgacha davrda axloq-odob, so'zlashuv madaniyati kabi tarbiyaviy jihatlarga tizimli yondoshuv talab etiladi. "Farzandingiz 10 ga kirganda songa kiradi", - deydi dono xalqimiz, shuning uchun 10-15 yoshlik davrida o'smirda mehnatga layoqat, mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish zarur bo'ladi. Aynan ushbu davrda o'qish va jismoniy mehnatni uyg'unlikda shunday tashkillashtirish lozimki, bekorchilikka o'rin qolmasin. 15 yosh balog'at yoshining boshlanish davri, o'smirda 20 yoshgacha har tomonlama jismoniy, ruhiy, jinsiy o'zgarishlar shiddat bilan kechadi. Uning ichki dunyosini bilish va muammolarini

birgalikda hal etish, mustaqil fikrlarini hurmat qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish lozim. Mazkur 17-20 yoshni ilk muhabbat davri desak mubolag'a bo'lmaydi, shuning uchun farzandingizga tengdosh kabi munosabatda bo'lib u bilan samimiy suhbatlashing va uning ichki dunyosi bilan o'rtoqlashing, shunda (giyohvandlik, chekish, ichish, erta jinsiy hayot) kabi xavfli omillardan saqlab qolasiz. Farzandingizning 20-25 yoshigacha unga uka singari yondoshing, uning shaxsiyatini, o'ziga xos qadriyatlarini hurmat qilib, odob-axloq doirasida muomalada bo'ling. To'g'ri tarbiyaviy yondoshuvlar yordamida farzandlarimiz har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi, kasb-hunarga ega bo'lgan va ijtimoiy farovonlikka erishgan baxtli shaxs sifatida o'z imkoniyatlarini targ'ib qila oladi. Shunday qilib, 25 yoshga yetgan farzandingiz jamiyatda o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lgan shaxsga, ya'ni sizning haqiqiy do'stingizga aylanadi.

Ibn Sino komil insonning asosiy belgisini yetuk axloqiylikda ko'radi. Axloq tushunchasini esa bevosita aqliy tafakkur bilan bog'lab, aql-ilmning makoni, muqaddas joy, unda yolg'onchilik, tubanlik, yomonlik kabi nuqsonlar bo'lmasligi kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha "Alloh insonga shunday kuch-quvvat ato etganki, shu tufayli u ezgulikni yomonlikdan, yetuklikni, kamolotni yolg'on-yashiqdan fark qiladi". Bu fikr orqali Alloma komil insongina dunyoi ma'naviy o'zgartirishga qodir deb biladi. Ibn Sino aql darajalari haqida neoplatonik ta'limotni saqlab qoladi. Unga ko'ra eng oliy aqlni Xudo vujudga keltirgan, undan keyingi darajalarni inson hayoti davomida bilim, mehnati orqali shakllantiradi. Ma'lumki Turon zaminida islom dini negizi orqali ta'lim-tarbiya berib kelinganligi uchun ham, inson "Oliy kamoloti" markazida "Haqqa yo'l topish" turgan. Ibn Sino fikricha har bir inson chuqur bilim olish orqaligina chinakam xudo yo'lini topishi mumkin bo'lgan. Ibn Sino axloq haqida o'zining nasihatlar jamlanmasini tuzib, uni quyidagicha xulosalaydi: "Nasihat bobida uch mingta so'z yozdim, uch mingtadan uch kalimani tanlab oldim. Bu uchtadan ikkisin esda saqla va birini unutib yubor: Xudoni va o'lim haqligini yodingda tut, qilgan yaxshiliklaringni unutib yubor."

Ibn Sino insonning barkamol shakllanishida kasb-hunar o'rganishni har bir yosh uchun zarur deb biladi, chunki inson o'zining mavqeyini jamiyatda kasb-hunar



orqali topadi. Alloma kasb-hunarni uch guruhga tasniflaydi. Birinchi guruhga “aqlning mahsuli” bo‘lgan kasblar, ikkinchi guruhga adabning mahsuli bo‘lgan, uchinchi guruhga jismoniy quvvatning mahsuli bo‘lgan kasblarga ajratadi. Komil insonni tarbiyalashda avvalo oila muhiti, ota-onaning farzandiga berayotgan tarbiyasini to‘g‘ri yo‘naltirilganligida ko‘radi. Oilaviy tarbiyaning asosiy maqsadi axloqiy va jismoniy tarbiya berishdir. Ibn Sino pedagogika tarixida ilk bor jismoniy va axloqiy tarbiyani birgalikda olib borish kerakligini ta’kidlab o‘tgan. Jamiyatda insonlar egallab turgan mavqeyi, mansab, amali, yoxud davlati bilan emas, balki bilim, aqliy tafakkurining darajasi, kasbi bilangina ajratilishi, ya’ni tabaqalanishi kerak deb hisoblaydi. “Komil inson – dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallagan, surati va siyrati saranjom, odob va adabda benuqson, fayzu karomatda serob, ruhi

Mutloq ruhga tutash, qalbi ezgu tuyg‘ularga tutash zotdir” –deya ta’rif beradi alloma. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, buyuk allomaning komil insonni tarbiyalash haqida keltirilgan tavsiyalari, pand-nasihat, o‘gitlarini chuqur o‘rganib, yosh avlodni tarbiyalash jarayonida qo‘llash, bizga samarali dastur bo‘lib yana ko‘p asrlar xizmat qiladi. XXI asrda ilm-fan taraqqiyoti jadal innovasion rivojlanib, globallashtirish jarayoni bo‘lsada, komil insonni shakllantirishda Ibn Sino qoldirgan noyob g‘oyalari o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1,2,3,4 jildlik saylanma. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T., 1961.
2. Abdusodiq Irisov. “Abu Ali Ibn Sino xayoti va ijodiy merosi”. T., 1980.
3. “Abu Ali Ibn Sino tug‘ilgan kuning 1000 yilligiga to‘plam”. T., 1980.
4. Irisov A. “Abu Ali Ibn Sino”. T., 1980.

## 9-MAVZU: IBN SINO VA HOZIRGI ZAMON

### Reja:

1. Ibn Sino - buyuk tabib.
2. Ibn Sino ilmiy merosining o'rganilishi.
3. Ibn Sino merosining butun dunyoda e'tirof etilishi.
4. Ibn Sino merosining hozirgi zamonda aks etishi.

1. Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari o'sha davr tabobatini bir necha davrga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirdi ham. Olim yashagan davrda bu sohada antik olimlarning, xususan Gippokrat, Galen, Dioskorid va boshqalarning ta'limoti ustuvor edi. Ibn Sino ham o'z tibbiy faoliyatida ularning nazariy qarashlari va amaliy ko'rsatmalariga tayandi, lekin ularni Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo, Sharq olimlarining hamda uz tajribalari va bilimlari asosida rivojlantirdi va boyitdi.

Ibn Sinoning daho tabib sifatida shuhrat qozonishining asosiy omillaridan biri — uning tib nazariyasini, xususan, anatomiya — inson gavdasi tuzilishini mukammal bilishligidir. Bosh suyagining tuzulishi, tishlarning tuzilishi to'g'risida u Galenga ergashgan holda to'g'ri fikrlagan. Uning ko'zning anatomiyasi, ko'rish jarayonining qanday sodir bo'lishi va unda ko'z qorachig'ining roli, ko'z muskullarining joylashishi xususida yozganlari zamonaviy oftalmologiyaga yaqindir. Asablar, qon tomirlar, mushaklarning tuzilishi va funksiyalari to'g'risida yozganlari anatomiyaning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa amaliy anatomiyaning asoschisi deb tan olingan rus olimi N. I. Pirogov Ibn Sinoning izdoshi deyishga asos beradi.

Ibn Sino dorishunoslik sohasida chuqur tadqiqotlar olib borgan. U antik olimlarning farmasiyasi asosida musulmon Sharqida paydo bo'lgan yangi farmasiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Tabobatda sano, kofur (kamfara), rovoch, tamrhindiy (hind hurmosi) kabi dorilarning ishlatilishi, asal o'rnida ko'p dorilarning qand (shakar) asosida tayyorlanishi ham Ibn Sinoning xizmatidir.

Uning dorivor o‘simliklarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirgi dorishunoslikdagi usullarga juda yaqindir.

Tabiiy dorilar bilan bir katorida Ibn Sino birinchilardan bo‘lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so‘ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Eng muhimi, u oziq-ovqatlarning shifo-baxsh ta‘siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlardan (meva, sabzavot, sut, go‘sht va hokazo) boshlagan. Dori tayinlashda bemorning mijozi (issiq, sovuq, ho‘l, quruq), yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Ibn Sino farmasiyasi juda puxta o‘yangan farmakologik tadqiqot usuliga asoslanganligi bois o‘rta asr Yevropa farmasiyasidan ancha o‘zib ketdi va zamonaviy dorishunoslikka yaqinlashdi. Olim ishlatgan dorilarning bir qanchasi hozirgi farmakopeyalardan mustahkam o‘rin olgan.

Ibn Sinoning tibga oid yozgan asarlarining 30 dan ortig‘i bizgacha yetib kelgan, ularning orasida “Qonun” kabi tibbiy ensiklopediya bilan bir qatorida tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan turli hajmdagi “Urjuza fi-ttibb” (“Tibbiy ur-juza”), “alAdvijat alqalbiya” (“Yurak dorilari”), “Daf‘ almadorr al-kulliya an-al-abdon al-insoniya” (“Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo‘qotish”), “Kitob al-qulanj” (“Qulanj haqidagi kitob”), “Maqola fi-nnabz” (“Tomir urishi haqida makr-la”), “Risola fi-l-boh” (“Shahvoniy quvvat haqida risola”), “Risola fi tadbiri al-musofirin” (“Safardagilarning tadbiri haqida risola”), “Risola fi xifz as-sihha” (“Sog‘liqni saqlash haqida risola”), “Risola fi-s-sikanjubin” (“Sikanjubin haqida risola”), “Risola fi-lfasd” (“Qon olish haqida risola”), “Risola fi-lhindabo” (“Sachratqi haqida risola”) kabi risolalar ham bor.

2. Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G‘arb madaniyatining rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, atTaftazoniy, Nosir Hisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug‘bek, Bedil, Bahma-nyor ibn Marzbon kabi

mutafakkir va olimlari o‘z asarlarida Ibn Sino ta’limoti va ilmiy g‘oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari 12-asr dan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, un-tlarda o‘qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiashunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar I.S.ning ilg‘or fikrlaridan o‘z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo‘r hurmat bilan tilga oldilar.

Ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O‘zbekistonda maxsus ilmiy yo‘nalish — sinoshunoslik vujudga keldi. „Tib qonunlari“ning lotincha tarjimasi to‘liq hodda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo‘lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik intida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo‘lyozmasi mavjud. Yevropa olimlari Ye. Bishmann, Yu. Rus-ka Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez, L. Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari M. U. Najotiy, A. N. Nodir, J. Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsono‘g‘lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G‘araba, M. Shohvardiy va boshqa Ibn Sino ijodini o‘rganishga ma‘lum hissa qo‘shdilar. Rossiyalik olimlardan Ye. E. Bertels, A. Ya. Borisov, I. S. Braginskiy, S. I. Grigoryan, B. A. Petrov, B. A. Rozenfeld, V. N. Ternovskiy, A. V. Sagadeyev, M. M. Rojanskaya, Tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev, A. Bahovuddinov, Yu. Nuraliyev bu yo‘nalishning rivojlanishiga xizmat qildilar. O‘zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Sale, P. G. Bo‘lgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T. N. Qori-Niyoziy,

I. M. Mo‘minov, M. M. Xayrullayev, M. N. Boltayev, A. Axmedov, G. P. Matviyevskaya, V.

O‘simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney (1707—78) doimo yashil bo‘lib turuvchi bir tropik daraxtni Ibn Sino sharafiga Avisena deb atadi. O‘zbekiston yerida topilgan (1956) yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avisennit deb ataladi.

Istiqlol sharofati bilan milliy ma’naviy merosimizni o‘rganish yangi bosqichga chiqdi. Xususan, Ibn Sino hayoti va faoliyatini har tomonlama tadqiq etish, ulkan ilmiy-ma’naviy merosini asl holicha o‘rganish va jahonga keng targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Olimlarimizning ana shu yo‘nalishdagi izchil izlanishlari natijasida «Tib qonunlari» o‘zbek tilida uchinchi marta mukammal holda qayta nashr etishga tayyorlandi.

«Tib qonunlari» besh kitobdan iborat bo‘lib, 2013-2014 yillarda asarning birinchi va ikkinchi jildi bosmadan chiqdi. Yangi nashrlarni tayyorlashda izoh va ko‘rsatkichlar qayta to‘ldirildi. Avvalgi nashrlarda o‘zbekcha berilmagan ba’zi dori nomlari aniqlandi. Bu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

**3.** Ibn Sino o‘zi shug‘ullangan fan sohalarining qariyb har birida sezilarli iz qoldirdi, o‘z davri fani uchun ilg‘or bo‘lgan g‘oyalarni ilgari surdi. Jumladan, astronomik asboblarni yasash sohasida XVI asrdan «nonius» deb atalgan asbobni ixtiro qildi; tabiiy fan sohalarida zilzila, vulqonlar, torlarning paydo bo‘lishi xaqida hozirgi geologiyada o‘z tasdig‘ini topgan nazariyalarni taklif qildi; moddalarning tasnifi, ilmlar tasnifini ishlab chiqdi; tabobat sohasida diagnostika, terapiya va jarroxlikda yangi va effektiv tashxis va davolash usullarini ishlab chiqdiki, ularning ba’zilari keyinchalik Yevropada qayta kashf qilindi. Ulug‘ hakim tib nazariyasi, xususan, anatomiyaning mukammal bilimdonidir. Uning ba’zi kasalliklarga tashxis qo‘yish usullari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Masalan, a’zoga urish orqali tashxis qo‘yish usuli bugungi kunda fanda perkussiya deyiladi. Tabobat tarixida birinchi bo‘lib Ibn Sino vabo bilan o‘latni farqlagan,

yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlarni boshqalardan ajratish g'oyasini ilgari surgan.

Jarrohlik sohasini rivojlantirishda ham Ibn Sinoning ulkan xizmatlari bor. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha «Avisenna usuli» deb ataladi. Alloma umurtqaning qiyshayishini o'zi ixtiro etgan yog'och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni XV asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan. Suyakni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo'llangan, lekin u keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852 yilda amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarilgan.

Hozirgi ko'z jarrohligida qo'llanayotgan usullarning qariyb barchasi Ibn Sinoga ma'lum bo'lgan. Uning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo'li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. Masalan, u tutqanoqni davolashda to'rt kunlik isitma bilan og'rishni foydali deb biladi. Avstriyalik psixiatr Yu. Vagner-Yaureg (1857-1940) shunday usulni qo'llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, Ibn Sino insonning eng bebaho boyligi bo'lgan salomatlikni asrash uchun qat'iy kurashgan qomusiy olim, haqiqiy fidoyilardan biri edi.

Bugungi kunda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud. Uning asarlarini Ye. Bishmann, Yu. Ruska Karra de Vo, X. Korbin, L. Garde kabi yevropa; M.U. Najotiy, A.N. Nodir, J.Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Mahdaviy, E. Ihsono'g'lu, F. Rahmon kabi arab, turk, fors olimlari, Ye.E. Bertels, A.Ya. Borisov, I.S. Braginskiy kabi rus olimlari; S. Ayniy, S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U.I. Karimov, A. Irisov kabi o'zbek olimlari o'rgandilar. O'zbekiston Respublikasi va jahon miqyosida Abu Ali ibn Sino nomini abadiylashtirish va uning boy ilmiy merosini o'rganish borasida ko'plab amaliy ishlar qilindi. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin:

1. Yevropa tillari orqali hozirgi kunda jahonning barcha tillarida qo'llaniladigan ko'plab ilmiy terminlarning nomi Ibn Sino bilan bog'liq, masalan: «Avisenna» termini Ibn Sinoning Yevropa tillarida talaffuzining o'zgargan

shakllaridan kelib chiqqan. «Medisina» soʻzini ham olimlar «Madadi Sino» yaʼni, «Ibn Sinoning madadlari» soʻzining talaffuzda oʻzgargan shakli deb qaraydilar1.

2. Oʻsimliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan buyuk shved botanik olim Karl Liney (1707-1778), oʻz ilmiy ishlarida Aktanlar oilasiga mansub tropik mamlakatlarda dengiz suvida ham oʻsuvchi va doimo yashil holda qoladigan daraxt nomini Ibn Sinoning nomi bilan «*Avisennia*» deb atagan2.

3. 1956 yil Oʻzbekistan yerida topilgan yangi mineral ham ulugʻ ajdodimiz sharafiga «*Avisennit*» deb nomlangan.

4. Oyda Ibn Sino nomi bilan ataluvchi *krater* mavjud.

5. Hozirda Fransiyada «Abu Ali ibn Sino – Fransiya» uyushmasi faoliyat koʻrsatmoqda. Doktor Mark Bonnel rahbarlik qilayotgan bu uyushma Fransiya va Yevropada Ibn Sinoning madaniyat, falsafa va tibbiyot sohasidagi ilmiy asarlarini ommalashtirishga beqiyos hissa qoʻshmoqda. 6. 2011 yili ispan yozuvchisi Ezekel Teodoro «Ibn Sino qoʻlyozmasi» («Yel Manuscrito dye Avicyena») romanida Ibn Sinoning hayoti va ijodi haqida maʼlumotlarni badiiy ifodalash orqali keltiradi.

7. Tojikistonda togʻ choʻqqisiga (oldin «Lenin choʻqqisi» deb nomlangan) olimning nomi berilgan.

8. Tojikistonda fan sohasidagi katta yutuqlarni taqdirlash uchun Abu Ali ibn Sino nomidagi Davlat mukofoti tasis etilgan.

9. Tojikiston pul birligi «Somon»ning 20 somonida Ibn Sino tasviri tushirilgan.

10. Ibn Sino haykali Oʻzbekiston Respublikasining turli joylarida, xususan, Buxoro shahri, Afshona qishlogʻi, Toshkentda oʻrnatilgan. Xorijda ham mavjud boʻlib, Dushanba (Tojikiston, Ibn Sino sharafiga haykal qoʻyilgan maydonga ham uning nomi berilgan), Anqara (Turkiya), Kortreyk shahri (Belgiya, 2000 yilda) va Riga (Latviya, 2006 yil Gaylezers shifoxona kompleksining bogʻida) haykallar qad rostlagan. Jahondagi koʻplab yetakchi tibbiy muassasalarda ham uning haykali oʻrnatilgan.

11. Oʻzbekiston va Tojikistondagi koʻplab tibbiy oliy va oʻrta bilim yurtlariga (jumladan, 1990 yilda ochilgan Buxoro tibbiyot instituti va Tojikiston

davlat tibbiyot institutiga), sanatoriy, shifoxona, Buxoro viloyati kutubxonasi va madaniyat saroyiga, turli maktab, qo‘chalar va shirkat xo‘jaliklariga, Toshkentdagi turarjoy mavzesiga Ibn Sino nomi berilgan.

12. Ibn Sino nomi bilan ataluvchi ko‘chalar xorijiy davlatlarning ko‘plab shaharlarida, jumladan, Donetskda, Rigada, Istambulda, Hamadon shaharlarida mavjud. Bundan tashqari Isroil Davlatining qo‘yidagi *ko‘rsatilgan shaharlarida olimning sharafiga nomlangan ko‘chalar ham* mavjud:

- 1) Xayfo: Ibn Sina street, Haifa, Israel
- 2) Tel-Aviv: Ibn Sina street, Tel-Aviv, Israel
- 3) Tira: Ibn Sina street, Tira, Israel

13. O‘zbekiston va jahon kinematografiyasida ham Ibn Sino siymosini ulug‘lash va kinomanlarga namoyish etish maqsadida filmlar yaratilgan. Dastlab 1984 yilda «O‘zbekfilm» studiyasida (rej. E. Eshmuxamedov; O. Agishev, E. Eshmuhamedov ssenariysi) «Dahoning yoshligi» tarixiy-biografik badiiy filmi yaratilgan. 2013 yilda esa N. Gordon kitobi asosida (rej. Filippa Shtyolslya) «Tabib: Avisenna shogirdi» («The Physician») nomli film yaratildi.

14. 1999 yili O‘zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg‘armasi tuzildi. 2000 yildan «Ibn Sino» va «Sino» nomli xalqaro jurnallar nashr etilmoqda.

15. Hozirda Buxoro shahri Peshku tumanining Afshona qishlog‘ida Ibn Sino muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda. Muzey 1980 yilda ochilgan.

16. O‘zbekistonda Ibn Sino nomidagi nashriyot faoliyat ko‘rsatadi. U O‘zbekistan matbuot va axborot agentligiga qarashli tibbiy nashriyoti hisoblanadi. O‘zbekistan davlat tibbiyot nashriyoti sifatida 1959 yilda tashkil etilgan. 1964 yildan «Medisina» deb nomlangan. 1990 yildan hozirgi nomda.

17. 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan «O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidadagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi ma‘ruzasida Sharq olamida yashab ijod etgan alloma va mutafakkirlar, jumladan, Ibn Sinoning ilmiy merosi chuqur tahlil qilinib, zamonaviy sivilizasiya rivojidadagi o‘rniga munosib baho berildi. Ushbu konferensiyada *Barbara Potrata\** «Ibn



Sinoning va Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy bilimlarining tibbiyot rivojiga qo'shgan hissasi» – mavzusida ilmiy ma'ruza qildi.

Buyuk qomusshunos Abu Aln ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Uning ijodiy faoliyatn juda xilma-xil va rang-barangdir. Alloma o'z davridagi mavjud bo'lgan hamma fanlarda ham salmoqli iz qoldirgan. Ibn Sino dunyoda, birinchi navbatda, buyuk tabib sifatida mashhur bo'lgani bilan birga olimlar nazdida buyuk faylasuf sifatida ham hurmatlidir. Uning insonga, birinchi navbatda, amaliy jihatdan zarur bo'lgan tibbiy asarlari olim nomini dastlab butun dunyoga taratdi va uni o'chmaslikka olib keldi. Ibn Sino tabibgina bo'lib qolmasdan, u o'z davrining buyuk mutafakkiri, keyingi asrlar fani, adabiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsata olgan buyuk siymo edi. Uning aniq fan sohalaridagi asarlari hamda falsafa va adabiyot bobidagi katta xizmatlari haqli ravishda uni jahon fani va madaniyatnning ajoyib bir namoyandasi deyishga asos beradi. Uning falsafiy-estetik g'oya va qarashlari jahon madaniyati erishgan yutuqlar qatoriga kirdi. Ibn Sino ijodidagi ajoyib xususiyatlardan biri shuki, u asarlarida o'z davrining juda ko'p ilg'or g'oyalarini ko'rinarli aks ettira oldi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan beqiyos islohotlar jarayonida insoniyat sivilizasiyasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati, boy merosini chuqur o'rganish, ulardan xalqimizni bahramand etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'rta asrlarda yashab o'tgan, ilm-fanning barcha yo'nalishlari, xususan, tabobat nazariyasi va amaliyoti rivojiga yuksak xissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino ana shunday ajdodlarimizdan biridir. Abu Ali Ibn Sinoning bizga qoldirdan ulkan asarlari orqali hali ham izlanishlar davom etmoqda.

4. Qomusiy olim Ibn Sinoning o'z davridagi innovasion g'oyalari, tibbiyotdagi kashfiyotlari, xalq tabobatiga qo'shgan ulkan hissasi, yoshlarni tarbiyalashdagi axloqiy va tarbiyaviy qarashlari mana o'n asrdan ortiq vaqt o'tayotgan bo'lsa ham o'z qadru-qimmatini, ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Jumladan:

1. Uning “Tib qonunlari” asari Yevropada XII asrdan boshlab lotin tiliga 30 martadan ortiq nashr qilinib, amaliyotda keng qo‘llanildi.

2. 5 ta kitobdan iborat “Al-qonun fit-tibb” (qisqacha nomi “Qonun”) ning 1-kitobida bayon etilgan inson organizmini o‘rganish bo‘yicha bayon qarashlar majmuasini umumlashtirgan holda 1-kitobni hozirga zamon ichki kasalliklar propedevtikasi darsligiga tenglashtirish mumkin, deb hisoblanadi.

3. Olimning kasalliklarning kelib chiqishida rol o‘ynaydigan tashqi omillarning, “mayda hayvonot”larning organizmga ta’siri, kasalliklarni davolash va oldini olish uchun tavsiya etgan fikr-mulohazalari bilan Ibn Sino tibbiyotning mikrobiologiya, gigiyena, xalq tabobati, epidemiologiya kabi fanlariga haqli ravishda asos solib, ularni boyitdi.

4. Ayniqsa hozirda butun dunyoni qamrab olgan pandemiya sharoitida buyuk ajdodimizning o‘g‘itlari o‘z isbotini topdi. Chunonchi, uning pandemiya davrida insonlar o‘zini qanday tutish kerakligiga oid ma’lumotlari, ya’ni, tabibning odamlarni eng avvalo vahimadan qutqarish kerakligi, ko‘chadan kelib, ust-boshni sirka bilan artish lozimligi, ko‘pchilikning kasallik tarqalgan paytda bir yerda to‘planmasligini, kasallarni alohidalash kerakligi va xonalarni doimo shamollatib turish lozimligini uqtirganligi haqidagi ilmiy merosi naqadar to‘g‘ri ekanligini karantin davriga oid qoidalarda o‘z e’tirofi va tasdig‘ini topdi.

5. Hozirgi paytda aholi salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadigan sog‘lomlashtirish mashqlariga ham olim katta e’tibor bergan va u jismoniy mashqlarning inson organizmini davolashda va chiniqtirishda o‘rni va roliga to‘xtalib, jismoniy mashqlarga to‘xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta’rif bergan, ular mushaklarni, bo‘g‘imlarni, asabni mustahkamlashini va mashqlarni bajarishda yoshni ham hisobga olishni uqtirib, uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarni bajarish orqali ham insonlar davo va dorilarga muhtoj bo‘lmasligini tasdiqlagan.

Ulug‘ alloma, tabobat ilmining sulтони, qomusiy olim, ilm-fanning 29 ta sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan bobomiz Abu Ali ibn Sinoning o‘n asr o‘tishiga qaramay butun insoniyatga xizmat qilayotgan ulkan, har tomonlama boy

merosining ahamiyati 2020 yilning 16 avgustida tavalludining 1040 yilligiga bag'ishlab "Abu Ali ibn Sino-O'zbekiston faxri va jahon mulki" mavzusidagi ilmiy-ma'rifiy onlayn anjumanida ham e'tirof etib, ulug'landi. Zotan, mutafakkir olim, donishmand alloma Abu Ali ibn Sinoning tibbiy o'g'itlari insoniyat tarixi oldida o'zining olijanob burchini bajarib keldi va kelajakda ham bajaradi. Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sinoning o'zi ham u istagan "fozil va komil inson" kabi asrlar osha ardoqlanib, e'zozlanib boraveradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. X.Rasulov, J.Qodirov. Abu Ali ibn Sino. – T., 2007.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 3-jild. – T., 1992.
3. Karimov U.T. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'g'itlar. – T., 1991.
4. Irisov A.T. Abu Ali ibn Sino. She'rlar va Tibbiy doston. – T., 1981.
5. A'zamxo'jayev S. 100 Markaziy Osiyo mutafakkirlari. – T., 2011.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Markaziy Osiyo davlatchilikning IX – XII asrlardagi taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.
2. Mahalliy sulolala somoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi.
3. Ismoil Somoniy - o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi.
4. Ismoilidan keyin taxtni egallagan somoniy xukumdorlar va ularning ilmiy rivojiga qo'shgan xissasi.
5. Dargoh tuzilishi. Devon boshqaruvi nomlarini ayting.
6. Bosh vazir devoning vazifalari.
7. Moliya ishlari va davlat rasmiy xujjatlari kanday faoliyat bilan shug'illangan?
8. Soqchilar devoni nima?
9. Xat-xabarlar mutassadisi devonining vazifalarini aytib bering?
10. Saroy ishi, davlat mulklari, muxtasib devonlari nima faoliyat bilan shug'illangan?
11. Vaqflar va qozilik devoni faoliyati haqida ma'lumot bering.
12. Somoniylar sivilizatsiyasi vujudga kelishidagi muhim omillar nima?
13. Buxoro somoniylar davlati poytaxti.
14. Somoniylarning boshqa davlatlar bilan savdo alovalari va pul muomalasi haqida nimalarni bilasiz?
15. Somoniylar davlatida musulmon dunyosi madaniyatining aks etishi haqida ma'lumot bering.
16. Somoniylar davlatida tabobat ilmi, shifoxonalar, dorixonalarning tashkil etilishi va ularning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
17. Markaziy Osiyo olimlarining tibbiyot rivojiga xissa qo'shgan Ar- Roziy haqida nimalarni bilasiz?

18. Somoniylar davrida Buxoroda yirik kutubxona qanday nomlangan va uning faoliyati haqida ma'lumot bering?
19. Abu Ali ibn Sinoning oilasi va Buxoroga ko'chishi tarixi haqida gapirib bering.
20. Abu Abdulloh Notiliy kim bo'lgan?
21. Ibn Sinoning Xorazmga borishi va u yerda qaysi olimlar bilan tanishgan?
22. Ibn Sino xayotida kechgan sarson-sargardonligi haqida nimalarni bilasiz?
23. Ibn Sinoning vafot etishi va uning maqbarasi haqida ma'lumot bering.
24. Ibn Sinoning Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanilishi.
25. Ibn Sinoga tib ilmidan ta'lim bergan ustoz haqida nimalarni bilasiz?
26. Ibn Sino Somoniylar saroyi kutubxonasidan foydalanishiga sabab bo'lgan voqea haqida gapirib bering.
27. "Bayt ul-Hikma" da faoliyat yuritgan olimlar haqida ma'lumot bering.
28. Xorazm Ma'mun akademiyasi qachon tashkil etilgan va uning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
29. Ibn Sinoning mantiq, falsafa fanlariga oid risolalari haqida nimalarni bilasiz?
30. «Kitob ush-shifo» asari kaysi soxalarga bag'ishlab yozilgan?
31. «Kitob ul-insof» asari haqida bizgacha qanday ma'umotlar yetib kelgan?
32. Ibn Sinoning falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma'lum voqyealar orqali ifoda etuvchi «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol» asrlari haqida nimalarni bilasiz?
33. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlari nomini aytib bering
34. «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») birinchi kitobi tibbiyotning qaysi mavzulariga bag'ishlangan?
35. «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») ikkinchi kitobi g'aqida nimalarni bilasiz?

- 36.«Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») uchinchi kitobi gʻaqida ma'lumot bering?
- 37.«Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») toʻrtinchi kitobida tibbiyotga oid qanday ma'lumotlar yoritilgan?
- 38.«Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») beshinchi kitobi tabobatning qaysi sogʻasiga bagʻishlangan?
- 39.Ibn Sinoning tibbiyot haqidagi fikrlaridan misollar keltirig.
- 40.Ibn Sinoning «Kitob ush-shifo» asari haqida ma'lumot bering?
- 41.Mineralogiya ilmining rivojida Ibn Sinoning xizmati.
42. Ibn Sino astronomiya sohasidagi faoliyati haqida gapirib bering.
43. Ibn Sino fikricha, falsafaning vazifasi nima?
44. Vujudi vojib va vujudi mumkin nima?
45. Ibn Sino materiyaning eng sodda, boʻlaklarga boʻlinmaydigan shaklini qanday izohlagan?
46. Ibn Sino «Risolatun fi taqsim al-mavjudot» asarida borliq va inson bilimlari masalasining yoritilishi.
47. Ibn Sinoning falsafiy sistemasini ifodalovchi asarlarida («Kitob ush-shifo», «Kitob un-najot», «Donishnoma») falsafiy bilimlar strukturasi tuzilishi haqida nimalari bilasiz?
48. Mantiq haqidagi Ibn Sinoning asosiy fikrlari haqida nialarni bilasiz?
49. Ibn Sino falsafiy ilmlarni necha qisimga boʻlgan?
50. Ibn Sino oʻzining koʻp tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan oʻrni.
51. Ibn Sino mashhur murabbiy sifatidagi faoliyati va uning shogidlari haqida nimalarni bilasiz?
52. Ibn Sino ijodini oʻrgangan yevropa va Rossiyali olimlar haqida nimalarni bilasiz?
53. Oʻzbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etgan sharqshunos olimlar haqida ma'lumot bering?

54. Rus olimi M. M. Gerasimov Ibn Sino shaxsiga oib qanday izlanishlar olib borgan?
55. Ibn Sino baddiy portretini kim yaratgan?
56. Ibn Sino xaqida ishlangan tarixiy-biografik film ijodkorlari kimlar?
57. Ibn Sino asarlari yevropada qachondan tarjima qilinib boshlangan?
58. “Tadbir al-manozil” (“Turar joyni boshqarish choralari”) asari haqida nimalarni bilasiz?
59. Ibn Sinoning “Uy-joy tutish tadbiri” nomli asarida ayollarning o‘n yetti xislati haqida qanday fikrlarni bayon etadi?
60. Ibn Sinoning ma'rifat rivojiga qo‘shgan hissasi haqida ma'lumot bering.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Asosiy adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Tarjimonlar: A. Rasulev, K. Mirzaev, U.I. Karimov, A. Murodov. 1, 2, 3, 4, 5-kitoblar. – Toshkent, 2020.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino merosi – bebaho hazina . X xalqaro Ibn Sino o‘qishlari ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2019.

2. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent, 1993.

3. Болтаев М. Н. Абу Али ибн Сина - великий мыслитель, учёный энциклопедист средневекового Востока. – Москва, 2002.

4. Глянцев. С. П. Учени пулс Авитсенны: взгляд из настоящего. -. Москва, 2015.

5. Заблудовский П. Э. и др. История медицины. – Москва, 2011.

6. Кадиров А.А. История медицины Узбекистана. Учебник. – Ташкент, 1994.

7. Комилов А.Ш. О некоторых физических взглядах Абу Али ибн Сины (Авитсенны). Ярославский педагогический вестник. – Ярославл, 2013.

8. Qodirov A.A. Abu Ali Ibn Sino hayoti va uning tibbiy fikrlari. – Toshkent, 1995.

9. Qodirov A.A. O‘rta Osiyoda meditsina paydo bo‘lishi. – Toshkent, 1990.

10. Нуманов Т. Бессмертный Авитсенна, или чем знаменит «Метод Сина». - Москва. 2009.

11. Ro‘zieva F. Abu Ali Ibn Sino qomusiy olim. Metodik-bibliografik qo‘llanma. – Toshkent, 2004.

12. Rustamova X.E., Stojarova N.K. va boshqalar. Tibbiyot tarixi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2014.

13. Сухомлинов К. Медики, изменившие мир. Авитсенна, или Абу Али Хусейн ибнАбдуллах Ибн Сина.-Москва, 2014.



14. Хамраев М. Авитсенна о состояниях человеческого тела, здоровье и болезни, о классификации и номенклатуре болезней. Журнал Медицина и здравоохранение. - Санкт-Петербург, 2015.

15. Xorazm Ma'mun akademiyasining Axborotnomasi. 1/2012.

16. Симмерман Я.С. Авитсенна - Абу Али Хусейн ибн Абдуллах Ибн Сина. Журнал Клиническая фармакология и терапия. 2017. 26 (4).

17. Чернов С. В. Образ личности гения. Искатели совершенства. Часть III: Авитсенна. Журнал Философская школа №9. – Москва, 2019.

18. Shamsutdinov R., Karimov SH., Hoshimov S. Vatan tarixi. 1, 2, 3 tomlar. –Toshkent, 2020.

#### **Internet saytlar**

1. <https://www.gov.uz/uz>
2. <https://lex.uz/>
3. <https://www.minzdrav.uz/>
4. <http://www.ziyonet.uz/>
5. [www.tma.uz](http://www.tma.uz)
6. <http://medlib.ru>
7. <http://meduniver.com>
8. [http://kingmed.info/knigi/Istoriya\\_meditiny/book](http://kingmed.info/knigi/Istoriya_meditiny/book)

## MUNDARIJA

KIRISH	6
1-mavzu: Somoniylar davlatining ijtimoiy-madaniy muhiti	8
2-mavzu: Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati	13
3-mavzu: Olimning ilmiy merosi	72
4-mavzu: Abu Ali Ibn Sinoning fanlar rivojlanishiga qo‘shgan hissasi	88
5-mavzu: Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlari	97
6 -mavzu: Tib qonunlari - tibbiyotning mukammal ensiklopediyasi	107
7-mavzu: Tib qonunlarida axloq va tibbiyot etikasi	123
8-mavzu: Ibn Sinoning tarbiya haqidagi qarashlari	140
9-mavzu: Ibn Sino va hozirgi zamon	154
NAZORAT UCHUN SAVOLLAR	164
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	168

## СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	6
1- тема: Социокультурная жизнь государства Саманидов	8
2- тема: Жизнь и научная деятельность Абу Али ибн Сины	13
3- тема: Научное наследие ученого	72
4- тема: Вклад Абу Али ибн Сины в развитие наук	88
5- тема: Философские взгляды Абу Али ибн Сины	97
6 - тема: Канон врачебной науки как энциклопедия медицины	107
7- тема: Этика и медицинская этика в Каноне врачебной науки	123
8- тема: Взгляды Ибн Сины на воспитание	140
9- тема: Ибн Сина и современность	154
КОНТРОЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ	164
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА	168

## CONTENT

INTRODUCTION	6
1- theme: Sociocultural life of the Samanid state	8
2- theme: Life and scientific activity of Abu Ali ibn Sina	13
3- theme: Scientific legacy of a scientist	72
4- theme: The contribution of Abu Ali ibn Sina to the development of science	88
5- theme: Philosophical views of Abu Ali ibn Sina	97
6 - theme: The Canon of Medicine as an Encyclopedia of Medicine	107
7- theme: Ethics and medical ethics in the Canon of Medicine	123
8- theme: Ibn Sina's views on bringing up future generation	140
9- theme: Ibn Sina and modernity	154
TEST QUESTIONS	164
REFERENCES	168